

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

DARSLIK

TOSHKENT-2015

UDK

BBK

Toshkent davlat yuridik universiteti O'quv-uslubiy Kengashi tomonidan 2015 yil
-----gi --sonli bayonnoma bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Mualliflar jamoasi (B.J.Axrarov - 1-3-boblar; O.M.Mahkamov – 4-bob; T.X.Xasanov – 5-bob; G'.O.Ermatov – 6-7-8-boblar; A.I.Toshpo'latov – 9-10-bob; N.S.Salaev – 11-bob 1-7 paragraflar; O'.Ch.O'taev 11-bob 8-§. D.G.Kamalova – 12-bob; Q.R.Abdurasulova – 13-bob; U.M.Mirzaev – 14-15-boblar; E.O.Turg'unboev – 16-bob 1, 2, 5-paragraflari; M.Q.O'razaliev – 16-bob 3-4 - paragraflari).

Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. B.J.Axrarov. –T.: Adolat nashriyoti, 2015. - --- b.

ANNOTATSIYA

Ushbu darslik yurisprudentsiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga jinoyat-ijroiya huquqi fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar (seminarlar)ga tayyorgarlik ko'rish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda jinoyat-ijroiya huquqi fanining o'quv dasturidagi mavzular qamrab olingan va har bir mavzu bo'yicha savollar, kazuslar, shuningdek, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Darslikda jinoyat-ijroiya huquqi fani tushunchasi, predmeti va tizimi, jinoyat-ijroiya qonunchiligi, mahkumlarning huquqiy holati, jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi muassasalar va organlarning o'ziga xos xususiyatlari, ular faoliyatini tekshirish va nazorat qilish, jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazolarni ijro etish, qamoq tariqasidagi jazoni ijro etish, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish muassasalari, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosini tashkil etish, jazoni ijro etish muassasalaridagi rejim, ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslar moddiy-maishiy ta'minoti, tibbiy xizmat ko'rsatish, mehnati, ta'limi va tarbiyasi, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari, koloniyalar va turmalarda jazoni o'tash, umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish, harbiy xizmatchilarga nisbatan xizmat bo'yicha cheklash, qamoq va intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazolarni ijro etish, qo'shimcha jazolarni ijro etish, jazoni o'tashdan ozod qilish hamda boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etish qoidalar batafsil yoritib berilgan.

Darslik oliy yuridik o'quv yurtlarining professor-o'qituvchilariga dars jarayonlarini tashkil etish, ma'ruza va amaliy mashg'ulot (seminar)lar o'tkazishda, shuningdek bakalavr va magistratura bosqichi talabalariga, amaliyot xodimlariga hamda jazoni ijro etish bilan bog'liq masalalarga qiziquvchi kitobxonlarga tavsiya qilinadi.

© Mualliflar jamoasi, 2015 yil.

© Adolat, 2015 yil.

M U N D A R I J A

1-BOB. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI FANI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI. JINOYAT-IJROIYA QONUNCHILIGI.....

1 §. Jinoyat–ijroiya huquqi fani tushunchasi.....

2 §. Jinoyat–ijroiya huquqi fani predmeti.....

3 §. Jinoyat–ijroiya huquqining boshqa huquq sohasidagi fanlar bilan aloqadorligi.....

4 §. Jinoyat–ijroiya qonun hujjatlari va uning printsiplari.....

2-BOB. MAHKUMLARNING HUQUQIY HOLATI.....

1 §. Mahkumlarning huquqiy holati tushunchasi, ahamiyati va asoslari.....

2 §. Mahkumlarning huquq va majburiyatlari.....

3-BOB. JAZOLARNI VA BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA’SIR CHORALARINI IJRO ETUVCHI MUASSASALAR VA ORGANLAR. ULAR FAOLIYATINI TEKSHIRISH VA NAZORAT QILISH.....

1 §. Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalar tushunchasi.....

2 §. Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalar tizimi.....

3 §. Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralarni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyatini tekshirish hamda nazorat qilish.....

4 §. Prokuror nazorati.....

5 §. Davlat xokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan tekshirish.....

4-BOB. JARIMA, MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH VA AXLOQ TUZATISH ISHLARI TARIQASIDAGI JAZOLARNI IJRO ETISH.....

1 §. Jarima jazosini ijro etish tartibi.....

2 §. Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazosini ijro etish tartibi.....

3 §. Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazosini ijro etish tartibi.....

5-BOB. QAMOQ TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH.....

1 §. Qamoq jazosini ijro etish muassasalari.....

2 §. Qamoq jazosini ijro etish tartibi.....

3 §. Qamoq jazosini ijro etish shartlari.....

4 §. Qamoq uylarida mahkumlarga nisbatan qo’llaniladigan rag’batlantirish yoki intizomiy jazo choralarni qo’llash.....

6-BOB. OZODLIKDAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARI.

- 1 §. Jazoni ijro etish muassasalarining turlari.....
- 2 §. Manzil-koloniya.....
- 3 §. Umumiy tartibli koloniya.....
- 4 §. Qattiq tartibli koloniya.....
- 5 §. Maxsus tartibli koloniya.....
- 6 §. Tarbiya koloniya.....
- 7 §. Turmalar.....
- 8 §. Mahkumlarni tergov hibsonasida yoki turmada qoldirish.....

7-BOB. OZODLIKDAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZO IJROSINI TASHKIL ETISH.....

- 9 §. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish asoslari va tartibi.....
- 10 §. Ozodlikdan mahrum etish joylarida jazo ijrosini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.....
- 11 §. Mahkumlarni jazoni o'tash uchun jo'natish, mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilish tartibi.....
- 12 §. Mahkumlar jazoni o'tash uchun jo'natilganligi va yetib kelganligi to'g'risida xabar.....
- 13 §. Mahkumlarni ajratilgan holda saqlash. Turli toifadagi mahkumlarni birga saqlash.....
- 14 §. Mahkumlarni ko'chirish.....
- 15 §. Mahkumlarni saqlash sharoitini rag'batlantirish tarzida yengillashtirish tartibi.....
- 16 §. Mahkumlarni saqlash sharoitini intizomiy jazo tarzida o'zgartirish tartibi.....

8-BOB. JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAGI REJIM.....

- 1 §. Jazoni ijro etish muassasalarida rejim tushunchasi va ahamiyati.....
- 2 §. Rejimning asosiy talablari.....
- 3 §. Mahkumlarning jazoni ijro etish muassasalaridagi kiyimi.....
- 4 §. Mahkumlarni batamom ajratib qo'yish va qo'riqlash.....
- 5 §. Mahkumlarni nazorat qilish va tekshirishda texnikaviy vositalaridan foydalanish, tintuv o'tkazish va ko'zdan kechirish.....
- 6 §. Mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, tinchlantirish ko'ylagini va maxsus vositalarni ishlatish tartibi va shartlari.....
- 7 §. O'q-otar qurollarni qo'llash, foydalanish asoslari tartibi va shartlari. Jazoni ijro etish muassasalarida alohida holat joriy etish.....

- 8 §. Mahkumlarning oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishi.....
- 9 §. Mahkumlarning qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashish tartibi va shartlari. Mahkumlarning telefon orqali so'zlashuvi va yozishmalari.....
- 10 §. Mahkumlarning posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalari olishi va yuborishi.....
- 11 §. Mahkumlarning adabiyot va yozuv ashyolarini sotib olishlari tartibi. Mahkumlarning kinofilmlar va teleko'rsatuvlar ko'rishi, radio eshitish tartibi.....
- 12 §. Mahkumlarning alohida hollarda muassasa doirasidan chetga chiqishi. Mahkumlarning belgilangan muddatda joyiga qaytishdan bo'yin tovlaganlik oqibatlarini.....
- 9-BOB. OZODLIKDAN MAHRUM QILISHGA HUKM QILINGAN SHAXSLAR MODDIY-MAISHIY TA'MINOTI, TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH, MEHNATI, TA'LIMI VA TARBIYASI.....**
- 1 §. Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning yashash joylari.....
- 2 §. Mahkumlarning ovqati, ularga belgilangan ovqat normasi va ma'lum toifadagilarga oshirilgan normada ovqat berish.....
- 3 §. Mahkumlarning tibbiy-sanitariya ta'minoti.....
- 4 §. Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarni mehnatga jalb etishni tashkillashtirish shartlari va tamoyillari.....
- 5 §. Mahkumlarning ba'zi toifalarini mehnatga jalb etishning ixtiyoriyligi. Ish bilan ta'minlash. Ish vaqti.....
- 6 §. Mahkumlarning mehnat ta'tili, ularga haq to'lash tartibi, ijtimoiy sug'urtasi va pensiya ta'minoti.....
- 7 §. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning ta'limi va kasbiy tayyorgarligini tashkil qilish tushunchasi.....
- 8 §. Mahkumlarning umumiy o'rta ta'limi.....
- 9 §. Mahkumlarning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va kasb tayyorgarligi.....
- 10-BOB. OZODLIKDAN MAHRUM ETISHGA HUKM QILINGAN SHAXSLARGA NISBATAN QO'LLANILADIGAN RAG'BATLANTIRISH VA INTIZOMIY JAZO CHORALARI.....**
- 1 §. Rag'batlantirish choralari, ularning turlari va qo'llash tartibi.....
- 2 §. Intizomiy jazo choralari turlari, ularni qo'llash asoslari va tartibi.....
- 3 §. Mahkumlarni intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi jazoni qo'llash xususiyatlari.....
- 4 §. Jazoni o'tash tartibini qo'pol tarzda buzganlik uchun va saqlash rejimini ashaddiy buzuvchilar uchun javobgarlik choralari.....

5 §. Intizomiy jazo choralari qo'llovchi mansabdor shaxslar, intizomiy jazo ustidan shikoyat berish tartibi.....

6 §. Qo'llanilgan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari hisobini yuritish.....

11-BOB. KOLONIYALAR VA TURMALARDA JAZONI O'TASH.....

1 §. Koloniyalar va turmalarda jazoni o'tash tushunchasi va asoslari.....

2 §. Manzil-koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari.....

3 §. Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari.....

4 §. Qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari.....

5 §. Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari.....

6 §. Turmalarda jazoni ijro etish tartibi.....

7 §. Tarbiya-koloniyaalarda jazoni o'tash xususiyatlari.....

8 §. Ayrim toifadagi mahkumlar tomonidan jazoni o'tashning o'ziga xos xususiyatlari.....

12-BOB. UMRBOD OZODLIKDAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH.....

1 §. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....

2 §. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etishning tartibi va shartlari.....

3 §. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llash tartibi.....

4 §. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan mahkumlarning afv etishni so'rab murojaat qilish muddatlari va tartibi.....

13-BOB. HARBIY XIZMATCHILARGA NISBATAN XIZMAT BO'YICHA CHEKLASH, QAMOQ VA INTIZOMIY QISMGA JO'NATISH TARIQASIDAGI JAZOLARNI IJRO ETISH.....

1 §. Xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish tushunchasi, tartibi va mazkur jazoni ijro etish bo'yicha harbiy qism komandiri (boshliq)ning vazifalari.....

2 §. Qamoq tariqasidagi jazoni ijro etish tushunchasi, tartibi va ushbu jazoga hukm qilingan mahkumlarning huquqiy holati.....

3 §. Intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi va shartlari.....

4 §. Mahkumlarning uchrashuvlari, posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalarini olish hamda yuborish.....

5 §. Intizomiy qismda jazoni o'tayotgan mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti va ularga tibbiy xizmat ko'rsatish.....

6 §. Intizomiy qismda jazo o'tayotgan mahkumlarning mehnati va uni tartibga solish.....

7 §. Intizomiy qismdagi mahkumlarni rag'batlantirish, intizomiy jazo choralari va ularni qo'llash tartibi.....

14-BOB. QO'SHIMCHA JAZOLARNI IJRO ETISH.....

1 §. Qo'shimcha jazolarni ijro etish tushunchasi.....

2 §. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi.....

15-BOB. JAZONI O'TASHDAN OZOD QILISH.....

1 §. Jazoni o'tashdan ozod qilish tushunchasi va turlari.....

2 §. Mahkumni muddatidan ilgari shartli ozod qilishga taqdim etish tartibi.....

3 §. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga taqdim etish tartibi

4 §. Kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilish tushunchasi, asoslari va tartibi.....

5 §. Jazodan amnistiya yoki afv etish asosida ozod qilish tartibi va shartlari.....

6 §. Jazo ijrosini tugatish asoslari va vaqti. Hisob-kitob tartibi, hujjatlarni va shaxsiy buyumlarni berish.....

7 §. Mahkum vafot etganligi munosabati bilan jazo ijrosini tugatish tartibi.....

8 §. Jazoni o'tab bo'lishi munosabati bilan ozod qilish tartibi.....

9 §. Mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga moddiy yordam ko'rsatish.....

16-BOB. BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI IJRO ETISH.....

1 §. Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari tushunchasi, turlari va ijro etish asoslari.....

2 §. Shartli hukm qilishni ijro qilish tushunchasi va ijro etish tartibi.....

3 §. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ijro etish tushunchasi va turlari. Ruhiy kasallarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash.....

4 §. Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash tushunchasi va tartibi.....

5 §. Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburlov choralari qo'llash tartibi va turlari.....

Kirish

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 28 iyundagi "Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" №1990 sonli qarorida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Toshkent davlat yuridik universiteti kafedralari tomonidan Huquqiy fanlar va predmetlar bo'yicha yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini tayyorlash Kompleks dasturi asosida yaratilgan.

Jinoyat-ijroiya huquqi kursi yuridik oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan asosiy fanlardan hisoblanadi. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini o'rganilishi huquqni muhofaza qiluvchi, xususan sud tomonidan tayinlagan jinoiy jazo va boshqa majburlov choralarining ijrosini ta'minlovchi organlarning samarali faoliyat olib borishining asosiy shartidir.

O'zbekiston Respublikasi rivojlangan mamlakatlar ichida o'zining Konstitutsiyasi va amalga oshirayotgan islohotlari bilan o'ziga xos nufuzga ega. Jumladan, mustaqillikning o'tgan qisqa davri mobaynida sud-huquq islohoti sohasida amalga oshirilgan ishlar ko'lami bir necha o'n yilliklarga tengki, uni alohida o'rganib chiqishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

"Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi bu choralar natijasida O'zbekistonda hozirgi kunda qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qiladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQShda 738 kishini tashkil etadi. Mamlakatimizda so'nggi o'n yil ichida ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar soni ikki barobardan ko'proq kamayganining o'zi ham bu sohada olib borilayotgan islohotlarimizning qanday ijobiy natijalar berayotganidan dalolatdir" [Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. 2010 yil 12 noyabr. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.20.].

O'zbekiston Respublikasi xalqaro hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida xalqaro andozalarga mos barcha talablarga javob bera oladigan qonunlarni qabul qilish vazifasi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Har qanday davlat kabi mamlakatimizda jinoyatchilikdan butunlay xalos bo'lish imkoniyati mavjud bo'lmasada, lekin uning oldini olish, unga qarshi kurashni, jinoyatchilik miqdorini kamaytirish va jinoiy qilmish sodir etganlarni jazolash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Davlatning ravnaqiga, uning rivojlanishiga jiddiy to'siq hisoblanuvchi jinoyatchilikka qarshi adolatli qonunlarni qo'llash orqali kurashish kutilgan samarani beradi. Jinoyatchilik ijtimoiy tarixiy hodisa, u har bir davrda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, hozirgi sud-huquq islohotlarining yangi

bosqichida mahkumlarning xulq-atvorini tuzatish, jazoning maqsadlariga erishish va h.k. masalalar o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Mazkur darslik ilgari chop etilgan o'quv adabiyotlaridan farq qiladi. U huquqiy fanlar va adabiyotlar bo'yicha yangi avlod darsliklariga qo'yilgan talabalar asosida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 28 iyundagi "Yuridik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1990 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi "Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi 4-sonli qaroriga muvofiq yaratildi.

Jinoyat-ijroiya huquqi darsligi bakalavriat yo'nalishi bo'yicha o'quv rejasiga muvofiq tarzda yozilgan bo'lib, unda asosiy matndan tashqari mavzuga oid muammoli savollar va kazuslar berilgan. Shuningdek, uning glossariy qismiga asosiy atamalarning tushunchasi ham bayon qilingan.

Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya huquqi fanining Umumiy va Maxsus qismlari mavzulari bo'yicha qisqacha tushuncha va materiallardan tashkil topgan bo'lib, unda mavzular bo'yicha qisqa va aniq izohlar berilgan. Darslik jinoyat-ijroiya huquqi fani doirasida tayyorlanganligi sababli fanning maqsadi, mahkumlarning huquqiy holati, jinoiy jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini ijro etish, ularni ijro etuvchi organlar, jazoni ijro etish tizimidagi mavjud holat haqida atroflicha ma'lumot berish hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi normalarini to'g'ri tushunish va qo'llashga yordam beradi. Shundan kelib chiqib aytish joizki, darslikning asosiy maqsadi talabalarga fanning muhim masalalarini o'rganishda yordam berish, shuningdek qo'shimcha bilim olish uchun zarur adabiyotlar va normativ hujjatlar bilan tanishishga ko'maklashishdan iboratdir.

Jinoyat-ijroiya huquqi bo'yicha yozilgan darslikda hozirgi paytda respublikamizdagi jazoni ijro etish koloniyalardagi mahkumlarning huquq va majburiyatlari, turli xildagi jinoiy jazolarni ijro etish, jinoiy jazolarni ijro etish qoidalari, jazoni ijro etishdan ozod qilish qoidalari batafsil bayon etilgan.

Jinoyat-ijroiya huquqiga oid darslik nafaqat oliy yoki maxsus o'quv yurtlari talablariga, balki jinoiy jazoni ijro etish muassasalari xodimlari, ilmiy tadqiqotchilar uchun ham qiziqarli bo'ladi, ushbu sohaga qiziqqan fuqarolarning bilimlarini oshirishga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Glossariy:

Adolat printsipi - jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, har qanday mahkum garchand jinoyatchi bo'lishiga qaramay, adolat printsipi asosida jazodan ozod qilinish imkoniyatiga ega bo'la oladi.

Amnistiya (yunoncha – “amnestia”) – kechirish, xotirdan chiqarishni bildiruvchi xalqaro atamaga aylangan. Odatda ko'p mamlakatlarda umumiy va xususiy amnistiya iboralari qo'llanadi. Umumiy amnistiya (ba'zan “afvi umumiy” deb nomlanadi) huquqbuzarlik sodir etgan muayyan toifadagi shaxslarga nisbatan qo'llanadi. Xususiy afv bevosita muayyan shaxsni kechirish, uning qismatini yengillashtirishdan iborat. Afv ham, gunohni kechirish ham shaxsni rehabilitatsiya qilishni anglatmaydi. Uni jinoyat protsessining barcha bosqichlarida afv etilishi, hatto unga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilishi afv akti asosida rad qilinmog'i mumkin.

Afv etish akti sudlangan shaxsni to'liq yoki qisman jazodan ozod qilish yoxud tayinlangan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish to'g'risidagi hujjat.

Afv etish tartibi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 17 iyuldagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi Nizom bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 13 mardagi Farmoni bilan “O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi yangi tahrirdagi Nizom tasdiqlangan. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida afv etish, qoida tariqasida, respublika hududida joylashgan sudlar va harbiy sudlar tomonidan hukm qilingan shaxslarga nisbatan ularning afv etishni so'rab yozgan iltimosnomasiga asosan amalga oshiriladi.

Axloq tuzatish ishlari - axloq tuzatish ishlari bu sud xukmi asosida shaxs ish xaqqining o'n foizida o'ttiz foizgacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan xolda uni mexnatga majburan jalb qilishdan iborat bo'lgan faoliyat tushuniladi.

Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazosini ijro yetish tartibi - axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Mahkum doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan taqdirda hukmning ijrosi hukm chiqarilgan joydagi jazolarni ijro etish inspeksiyasi zimmasiga yuklanadi. Axloq tuzatish ishlari korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda o'taladi.

Axloq tuzatish ishlarida muddatni hisoblash - axloq tuzatish ishlari muddati mahkum ishlagan va uning ish haqidan ushlab qolingan davr mobaynidagi yillar, oylar va kunlar bilan hisoblanadi.

Axloq tuzatish ishlarida tayinlanadigan muddat - sudning qonuniy kuchga kirgan xukmida belgilab qo'yilgan davrga aytiladi. Axloq tuzatish ishlari olti oydan uch yilgacha muddatda tayinlanadi.

Axloq tuzatish ishlarini o'tashdan bo'yin tovlash oqibatlari - agar shaxs sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish ishlari muddatining jami bo'lib o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlasa, sud axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.

Bemorlarni yashash joyiga yuborish tartibi - shifoxonadan chiqarilgan bemorlar ahvoliga bog'liq holda mustaqil yoki qarindoshlari, qonuniy vakillari yoki tibbiy xodimlarning kuzatuvida yashash joyiga yuboriladi.

Boshqa jinoyat huquqiy ta'sir choralari – jinoyat qonunida nazarda tutilgan - shartli hukm qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari hamda voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan majburlov choralari.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburlov choralarini qo'llash – uzr so'rash, yetkazilgan zararni qoplash va maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish tarzidagi majburlov choralari ni ijro etishga qaratilgan vakolatli davlat organi faoliyati.

Gaaptvaxta – g'uquqbuzarlik sodir etgan oddiy tarkibdagi harbiy xizmatchilar va qamoq jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar jazoni o'taydigan joy.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan tekshirish – davlat hokimiyati va boshqaruv organlari jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ni ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda tekshiradilar.

Demokratizm printsipi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq ravishda jinoyat-ijroiya tizimida davlat hokimiyati, boshqaruv va o'zini-o'zi boshqarish organlarining ishtiroki demokratizm printsipining yaqqol misolidir. Demokratizm printsipi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Yengillashtirilgan saqlash sharoiti muddatning kamida o'n besh yilini o'tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar o'taydigan maxsus tartibli koloniya tartibi.

Jazo ijrosini tugatish – sud tomonidan tayinlangan jazoning JIK 167-moddasiga ko'ra tamomlanishi.

Jazo ijrosini tugatish asoslari – quyidagilar jazo ijrosini tugatish uchun asos bo'ladi: mahkumning sud tayinlangan jazo muddatini o'tab bo'lishi; JIK 163-moddasida nazarda tutilgan hollarda mahkumning jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilinishi; sud hukmining bekor bo'lishi va ish

yuritishning tugatilishi; hukmning nazorat tartibida o'zgartirilishi va jazoning shartli hukm bilan almashtirilishi; mahkumning vafoti.

Jazodan amnistiya yoki afv akti asosida ozod qilish tartibi va shartlari – jazodan amnistiya yoki afv akti asosida ozod qilish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Jazodan ozod qilish – sud tomonidan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsni: sodir etgan jinoyat uchun tayinlangan jazodan; ushbu jazo turini haqiqatda o'tashdan; jazoni o'tashni davom ettirishdan ozod qilishga aytiladi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish – ozodlikdan mahrum etilgan yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan, ushbu jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan sud jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin.

Jazoni ijro etish koloniyalari – O'zbekiston Respublikasi JIKga muvofiq voyaga yetgan mahkumlarni ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni ijro etish uchun mo'ljallangan jazoni ijro etish uchun mo'ljallangan muassasalardan biri.

Jazoni ijro etish muassasalari – jarima, muayyan huquqdan maxrum qilish, ahloq tuzatish ishlari, qamoq, ozodlikdan maxrum qilish va umrbod ozodlikdan maxrum qilish jazolarini ijro etuvchi organ va muassasalarni o'z ichiga oladi.

Jazoni ijro etish muassasalari – jinoyat-ijroiya tizimining fundamental bazasining tarkibiy qismi hisoblanib, jazoni ijro etishning maqsad va vazifalari, shakli, mahkumlar bilan ishlash usullari, mahkumga bo'lgan talab, boshqaruv apparatining tarkibiy tuzilmasini belgilaydi

Jazoni ijro etish muassasalarida rejim tushunchasi – O'zbekiston Respublikasi JIKning talablariga muvofiq jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlarni axloqan tuzatish maqsadida har bir muassasada maxsus rejim tashkil etiladi. Ushbu rejimni qo'llashdan maqsad mahkumlarni qonunga itoatkor ruhda tarbiyalash, ularda intizom xissini uyg'otish, shuningdek, ularning mas'uliyatini ortirishni ko'zda tutadi.

Jazoni ijro etish muassasalaridagi rejimning asosiy talablari – mahkumlarni batamom ajratib qo'yish, ularni qo'riqlash va nazorat qilib turishni, mahkumlarni batamom ajratib qo'yish, ularni qo'riqlash va nazorat qilib turishni, muayyan toifadagi mahkumlarni alohida-alohida saqlashni, muassasa turiga qarab mahkumlarni har xil sharoitda saqlashni, mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek ularning o'z majburiyatlarini ado etishini ta'minlovchi choralarni ko'zda tutadi.

Jazoni o'tash tartibini qo'pol tarzda buzish – ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ko'rsatilgan huquqbuzarlikni sodir etish, shuningdek ichki tartib qoidalarida taqiqlangan buyumlar va narsalarni saqlash, tarqatish, iste'mol qilish va ulardan foydalanish.

Jarima jazosi - mahkumdan sud hukmi asosida davlat daromadiga JKda belgilangan miqdorda pul summasini undirishdir. Jarima eng kam oylik ish xaqining besh baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorida belgilanadi. Voyaga yetmaganlarga esa eng kam oylik ish haqining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi.

Jarima jazosini ijro etish asosi - jarima jazosini ijro etish asosi bo'lib sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi hisoblanadi.

Jarima jazosini ijro etish tartibi – jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan voyaga yetgan shaxs jarimani hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida, voyaga yetmagan esa olti oy ichida ixtiyoriy ravishda to'lashi shart. Jarima jazosini ijro etish sud hukmi qonuniy kuchga kirgan kunning ertasi kunidan boshlanadi. Bunda sud mahkumni jarimani to'lash tartib-qoidalarini bilan tanishtiradi, to'lash muddatlarini tushuntiradi, to'lov shakli va to'lashdan bosh tortganlik oqibatlarini eslatib o'tadi. Agarda mahkum mana shu muddat mobaynida jarimani ixtiyoriy ravishda to'lamasa unda jarima jazosini ijro etish majburiy ijroga yuboriladi.

Jarima jazosini ijro etuvchi organ - jarima jazosini ijro etish O'zR Adliya vazirligi huzuridagi sud hujjatlari va boshqa organ hujjatlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatdan va moliyaviy taminlash departamentiga yuklangan.

Jarimani to'lashdan bo'yin tovlash - Jarimani to'lashdan bo'yin tovlash deganda mahkumning qonunda belgilangan yoki sud tomonidan belgilangan tartibda uzaytirilgan vaqt mobaynida jarimani sababsiz to'lamasligi va turli xildagi asosiz bahonalar keltirishi tushuniladi.

Jarimani to'lashdan bo'yin tovlash oqibatlari - agar mahkum sud hukmi bilan belgilangan jarimani to'lashdan bo'yin tovlasa mazkur jazo quyidagi jazo turlari bilan almashtiriladi: ahloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, qamoq va ozodlikdan mahrum qilish.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanadi hamda ushbu Kodeksdan, shuningdek unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Ilmiy daraja va unvon deganda – professor, dotsent, fan nomzodi, fan doktori kabilarni tushunish mumkin. Sud mahkumni ilmiy daraja va ilmiy unvondan mahrum qilishi mumkin emas.

Insonparvarlik printsiplari – jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining umumiy printsiplaridan biri sifatida turli xil shakl va yo'nalishlarda namoyon bo'ladi.

Jumladan, amaldagi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida avvalgi qonunchilikdan farqli ravishda, mahkumlarning jazoni o'tash sharoitlariga nisbatan insonparvarlik keng doirada qonuniylashtirilgan. Bu masalalar xalqaro hujjatlarda ham o'z aksini topgan.

Intizomiy jazo choralari – mahkumlarni axloqan tuzalishi, uni halol mehnatga o'rgatish va jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-intizomiga bo'ysunishini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Intizomiy qism – ichki tartibi bir muncha qattiqroq bo'lgan harbiy qism

Intizomiy qismga jo'natish – muddatli harbiy xizmat harbiy xizmatchisini sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo'lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali, muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etish

Kartser – bu bir kishilik kamera hisoblanib, mahkumga nisbatan boshqa ta'sir choralarini qo'llash ijobiy natija bermagan hollarda, uni umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning kartserlaridagi bir kishilik kameraga o'tkazish joyi hisoblanadi.

Kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilish – shaxs hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan surunkali ruhiy kasallikka yoki boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o'tashdan ozod qilinishi lozim.

Koloniya va turmalarda jazoni o'tash – sud tomonidan jazo tayinlangan shaxsni JIKda belgilangan tartib qoidalarga muvofiq, jazoni ijro etishning maqsad va vazifalari, shakli, mahkumlar bilan ishlash usullari, mahkumga bo'lgan talabni belgilaydigan, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tegishli koloniya va turmada o'tash tartibi;

Komandir – qurolli kuchlardagi harbiy qismlarda, bo'linmalarda, rotalarda, shuningdek harbiy dengiz kemalarda rahbarlikni amalga oshiruvchi harbiy mansabdor shaxs

Kontrakt bo'yicha harbiy xizmat – Qurolli Kuchlar safidagi haqiqiy harbiy xizmatga ixtiyoriylik asosida, harbiy xizmat nazarda tutilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar orqali davlat bilan tuziladigan kontraktga binoan kirgan fuqarolar bajaradigan harbiy xizmat turidir.

Qamoq – shaxsni jamiyatdan batamom ajratgan sharoit ostida bir oydan olti oygacha saqlashdan iborat bo'lgan jinoiy jazo turi

Qattiq saqlash sharoiti – umrbod ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar tomonidan tayinlangan jazoning dastlabki 10 yilini o'taydigan maxsus tartibli koloniya tartibi.

Qattiq tartibli koloniyalar – ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar, shuningdek ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek o'ta xavfli retsivist deb topilgan ayollar saqlanadigan koloniyalar.

Qonuniylik printsiplari – jinoyat-ijroiya sohasidagi barcha munosabatlar qonun asosida tartibga solinishini nazarda tutib, huquq sohalarining bevosita asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham xalqaro hujjatlarda va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu printsipl mustahkamlangan.

Manzil-koloniyalar – ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, shuningdek umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan hamda tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan koloniyalar. Respublikamizda manzil-koloniyalar 1963 yildan boshlab tashkil etila boshlangan bo'lib, unda saqlanayotgan mahkumlarning sharoiti ozod shaxslarning hayotiga juda yaqin bo'lib, mahkumlarga ko'plab qulay shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Maxsus tartibli koloniyalar – o'ta xavfli retsivist deb topilgan erkaklarni, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan erkaklarni saqlash uchun mo'ljallangan koloniyalar.

Maxsus unvonlar bunday unvonlarni berish mumkinligi nazarda tutilgan davlat organlarida, xususan adliya organlari va muassasalari, sud va prokuratura xodimlariga beriladigan mansab-martaba darajalaridan iborat unvonlar hisoblanadi.

Mahkumlar huquqiy holati – bu jazoni ijro etishda vujudga keladigan jazoning turi, maqsadi va mahkumning xulqi bilan bog'liq bo'lgan asosiy huquq va majburiyatlar yig'indisidan iboratdir.

Mahkumlarning mehnati – mahkumlarning intizomiy qism hududi va uning tashqarisidagi ishlab chiqarish korxonalari, intizomiy qism ustaxonalari, qurilish va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining boshqa ob'ektlarida mehnatga jalb qilinishi.

Mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti – mahkumlarning askarlar payogi bo'yicha oziq-ovqat bilan, muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun belgilangan norma bo'yicha sovun bilan ta'minlanishi

Mahkumlarning yuridik yordam olish huquqi: yuridik yordam olish uchun advokatlar bilan xoli uchrashuvlar mahkumlarga ularning arizasiga yoki advokatning iltimosnomasiga ko'ra beriladi.

Mahkumni axloqan tuzatish - unda qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, jamiyat turmushi qoidalari va an'analariga hurmat munosabatini shakllantirishdan iborat.

Mahkumni muddatidan ilgari shartli ozod qilish – ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilishi mumkin. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni keyingi qismini o'tashdan ozod qilishda ifodalanadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish - shaxsni muayyan huquqdan mahrum qilish sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishni taqiqlashdan iboratdir. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilganda asosiy jazoni ijro etuvchi organ tomonidan amalga oshiriladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish - muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilishda muddat o'tishi - muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi asosiy jazo tariqasida tayinlanganda uni o'tash muddati yillar, oylar va kunlar bilan hisoblanib sudning xukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab muddatning o'tishi boshlanadi.

Odatdagi saqlash sharoiti muddatning kamida o'n yilini o'tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazolar olmagan shaxs tomonidan jazoni o'taydigan maxsus tartibli koloniya tartibi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar ta'limi va kasb tayyorgarligi - jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkumlarning umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi hamda ularning ishlab chiqarishdagi kasb tayyorgarligi tashkil etiladi. O'quv jarayoni va kasbga o'rgatishni tashkil etish ta'limi organlarining normativ hujjatlari talablariga muvofiq ravishda hamda saqlash rejimi, kun tartibi va turli toifadagi mahkumlarni batamom ajratib qo'yish qoidlariga rioya etilishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Prokuror nazorati – jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar qonunda belgilangan tartibda amalga oshiradigan faoliyati.

Pul ta'minotidan ushlab qolish – sud hukmida ko'rsatilgan muddatga xizmat bo'yicha cheklash jazosi tayinlangan harbiy xizmatchi pul ta'minotining o'n foizidan o'ttiz foizigacha bo'lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolish.

Rag'batlantirish choralari – xulq-atvori tuzalayotgan, mehnatga va harbiy xizmatga munosabatda bo'lgan mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan choralar

Rag'batlantirish choralari – mahkumlarning xulqi, mehnat va ta'limga vijdonan munosabati, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda faol ishtiroki boshqa ishchanlik obro'si inobatga olinib beriladigan yengillik hisoblanadi.

Ruhiy kasallarni ko'chirish - bemorlar ko'chirilishi uchun tegishli qaror yoki ajrim chiqargan organlar xabardor qilinadilar. Mazkur organlar bemorlarni ko'chirish uchun transport va qo'riqchilarni ajratadilar.

Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida majburiy davolash o'tkazilishi ustidan nazorat - ruhiy kasalliklar shifoxonalarida (bo'limlarida) majburiy davolashni o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilishini nazorat qilish sog'liqni saqlash organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi - Jazoni o'tash tartibini kamida ikki marta qo'pol tarzda buzgan va buning uchun intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi jazoga tortilgan mahkum, agar har bir intizomiy jazo belgilangan tartibda olib tashlanmagan yoki bekor bo'lmagan bo'lsa, saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb hisoblanadi.

Tarbiya koloniyalari – voyaga yetmay turib jinoyat sodir etgan mahkumlarni saqlashga mo'ljallangan jazoni ijro etish muassasalari. Umumiy qoida bo'yicha tarbiya koloniyalarida 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan mahkumlar saqlanadi, ammo ularning bu muassasada jazoni o'tash bilan bog'liq holda 21 yoshgacha saqlab turish mumkin.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari - davlat nomidan sud ajrimi bilan, ijtimoiy xavfli qilmish yoki jinoyat sodir etgan ruhiy kasallarga, shuningdek, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlik kasalligiga yo'liqqan shaxslarga qo'llaniladigan choralar.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashni keltirib chiqaradigan sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash asoslari - hibsda ushlab turilgan shaxslarning sud-psixiatriya ekspertizasi surishtiruv, tergov, prokuratura organining qarori yoki sudning ajrimi, qamoq jazosiga yoki

ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan esa - qamoq uyi yoki jazoni ijro etish muassasasi boshlig'ining qarori asosida tayinlanadi.

Turma – turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslarni, shuningdek umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzganligi uchun o'tkazilgan shaxslarni saqlash uchun mo'ljallangan jazoni ijro etish muassasasi.

Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo – sud tomonidan qonunda umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi istisno etilgan, shuningdek, ish holatlariga ko'ra sud aybdorga nisbatan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki o'n besh yildan yigirma yil muddatgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi maqsadga muvofiq emasligi haqidagi xulosaga kelgan hollarda tayinlanadigan jazo turi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazo – favqulodda jazo chorasi bo'lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yishdan iboratdir.

Umumiy tartibli koloniyalar – og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan hamda og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan ayollar saqlanadigan koloniyalar.

Faxriy unvonlar — masalan, “Respublikada xizmat ko'rsatgan artist”, “O'zbekiston xalq artisti”, “Xizmat ko'rsatgan yurist”, “Xizmat ko'rsatgan quruvchi” va hokazolar ham davlat tomonidan berilgan faxriy unvon hisoblanadi.

Xizmat bo'yicha cheklash – harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko'rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta'minotining o'n foizidan o'ttiz foizigacha bo'lgan miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolish.

Harbiy unvon — O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida, ichki qo'shinlar, chegara qorovul qo'shinlar va O'zbekiston Respublikasi FVV bo'linmalarida o'rnatilgan unvonlardir.

Harbiy xizmat – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida umumiy harbiy majburiyatni bajarish borasidagi davlat xizmatining alohida turi.

Harbiy xizmatdan bo'shatilganda jazoni almashtirish – harbiy xizmatchining harbiy xizmatdan shartnomaning muddati tugamay, bekor qilinishi munosabati bilan muddatdan oldin xizmatdan

Harbiy xizmatchilarni intizomiy qismga jo'natish yoki xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risidagi

taqdimnoma tegishli harbiy-tibbiy komissiyaning ularni harbiy xizmatga yaroqsiz deb topish haqidagi xulosasi asosida kiritiladi. Ayol harbiy xizmatchilar xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham ozod qilinadilar. Jazoni o'tash davrida homiladorlik va tug'ish ta'tili berilgan ayollarni jazodan ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma bunday ta'til huquqini beruvchi tibbiy hujjat asosida kiritiladi.

Hibsonalar – jazo o'tovchilar, jazo o'tash rejimini buzgan vaqtda kiritib qo'yiladigan maxsus jihozlangan xona.

Shartli hukmni ijro qilish – mahkumni tarbiyalash bo'yicha tarbiyaviy-profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlarining faoliyati.

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI FANI TUSHUNCHASI, PREDMETI VA TIZIMI. JINOYAT-IJROIYA QONUNCHILIGI

Jinoyat–ijroiya huquqi fani tushunchasi. Jinoyat–ijroiya huquqi fani predmeti va vazifasi. Jinoyat–ijroiya huquqining boshqa huquq sohasidagi fanlar bilan aloqadorligi. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari va uning printsiplari.

Jinoyat–ijroiya huquqi fani tushunchasi

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining rivojlanishi iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy islohotlar hamda mamlakatimizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari bilan uzviy bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati bilan dunyo xamjamiyatiga chiqa olishi natijasida eski tuzum qonunlaridan butunlay voz kechish, milliy qonunchilik tizimini tubdan yangilash va xalqaro tajriba va andozalariga muvofiqlashtirish vazifalarini o'z zimmasiga oldi. Bu o'z navbatida jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari va uni qo'llash amaliyotiga ham taaluqlidir.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari avvalgi totalitar tuzumning faqat davlat manfaatlari ustun qo'yilgan, siyosiy mafkura bilan yo'g'irilgan 1970 yil 24 iyundagi "Axloq tuzatish mehnat kodeksi"dan to'liq farq qilgan holda tubdan isloh qilindi.



Jinoyat huquqiy fanlar sohasidagi islohot, O'zbekistonning 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasiga mos keladigan, jinoyatchilikka

qarshi kurashda jinoyat huquqiy choralar samaradorligini oshirish imkonini beruvchi, bevosita maqsad – har bir jinoyat uchun va jinoyat huquqiy ta’qiq hamda yo’riqlarini buzgan har qanday shaxsga nisbatan qonunni qo’llash muqarrarligini ta’minlaydigan va jinoyat huquqi sohasidagi siyosatning istiqboldagi maqsadi – jinoyatchilikni kamaytirishni hal qilish uchun huquqiy asos bo’lib xizmat qiladigan jinoyatlar va jazolar to’g’risidagi qonunni yaratishni nazarda tutgan edi. Jinoyat huquqiy islohotlar jarayonida o’z yechimini talab qiladigan ustivor vazifalar qatorida: Konstitutsiya va xalqaro huquq normalarda musahkamlangan qadriyatlar tizimini aks ettirish; davlatda va markaziy osiyo hududida vujudga kelgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, etnomadaniy, konfessional va ma’naviy-ma’rifiy vaziyatni muvofiq ravishda ifodalash; davlatchilik va ijtimoiy munosabatlarni rivojlanishining istiqbollari inobatga olish, ularni ijtimoiy va kriminologik jixatdan jinoyat huquqiy muhofazasining zarurati; yuridik shaxslar faoliyati va fuqarolar hayotiga jinoyat huquqiy “aralashuvning” oqilona chegaralari; ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish bo’yicha to’plangan tajribani hisobga olish va avvalgi qonun hamda uni qo’llash amaliyoti yutuqlarining uzviyligini ta’minlash; jinoyatchilik dinamikasi va tuzilishidagi asosiy tendentsiyalarni va demokratik hamda iqtisodiy yangilanishlarning muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy jinoyat huquqiy siyosatning muhim asoslarini ijobiy o’zgarishlarini aks ettirish; jamoatchilik fikri, huquqiy ong darajasi va qonunga itoatkorlikni, huquqiy madaniyat ahvolini hisobga olish; ilmiy–nazariy yutuq va tavsiyalarni, qonun ijodkorligi sohasidagi xalqaro tajriba va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan jinoyat huquqiy normalarini imkon qadar to’liq hisobga olish; jinoyat huquqiy repressiyaning haqiqiy ijtimoiy-regulyativ imkoniyatlarini hisobga olish; jinoyat qonunining haqiqatan amalga oshirish mumkin bo’lgan vazifalarini belgilash; maksimal darajada formallashtirish; jinoyat huquqi printsiplarini aniq ifodalash belgilandi. Bunday dolzarb vazifalar bevosita Jinoyat ijroiya huquqi faniga ham taaluqlidir.

O’zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan Jinoyat-ijroiya kodeksi (JIK) O’zbekiston Respublikasida nafaqat jinoiy jazolarni, balki boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralari ham ijro etishning huquqiy asosini yaratib berdi va aynan shunday qonun-qoidalar bilan avvalgi jazoni ijro etish qonunchiligidan tubdan farq qildi. 1970 yil 24 iyundagi Axloq tuzatish mehnat kodeksida jinoiy jazolarning faqat axloq tuzatish bilan bog’liq bo’lgan jazolarning huquqiy asosi nazarda tutilgan bo’lib, jinoiy jazolarning boshqa turlari turli xildagi normativ huquqiy aktlar bilan tartibga solinar edi. Lekin jinoiy jazolarning boshqa axloq tuzatish ishlari bilan bog’liq bo’lmagan bir necha turlari xam mavjud edi. Yangi JIK jinoiy

jazolarning barcha turlarini, shu bilan birga jazo bilan bog'liq bo'lmagan boshqa huquqiy ta'sir choralari ham ijro etish qoidalarini belgilab berdi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga asoslanadi hamda ushbu Kodeksdan, shuningdek unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun hujjatlaridan iborat

Shu bois **Jinoyat-ijroiya huquqi fani** mustaqil fan sifatida Jinoyat-ijroiya kodeksi qabul qilinishidan avval Axloq tuzatish mehnat huquqi deb yuritilgan. Hozirda bu fan aynan Jinoyat-ijroiya kodeksi tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni o'rganar ekan, mazkur munosabatlarga JK 43-moddasida nazarda tutilgan jazolarni hamda boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari o'tash va ularni ijro etish tartibi kiradi.

Yangi Jinoyat ijroiya kodeksida inson manfaatlari ustun qo'yilgan, milliy qonunchilik tamoyillari bilan yo'g'irilgan va xalqaro anrdozalarni ham inobatga olingan holda ishlandi. Qonun davlat manfaatlari ko'ra maxkumlarning huquq va manfaatlarining himoya qilinishi asosida ishlandi. Avvalgi qonunlar siyosiy mafkurining manfaatlari negizida bo'lganligi uchun ham doimiy ravshda butun jaxon tan olgan xalqaro tashkilotlarning tanqidida bo'lib kelgan edi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini ishlashda jinoyatchilikka qarshi kurash, jinoiy jazolarni qo'lash va maxkumlar bilan muomila qilishning insoniylik tamoyillarini hisobga olgan holdagi huquqiy siyosatga asoslanildi. Bunday yondoshuvga butun jazolarni ijro etish tizimida, jazolarni ijro etish organlari va muassasalarining ishlarini tashkil etishning normativ ba'zasini yaratishda ham asoslanildi. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini ishlashda quyidagi huquqiy faktorlar asos qilib olindi:

- demokratizimning rivojlanganlik darajasini, shaxs va fuqarolarning huquq va erkinliklarining buzilmasligini, huquqbuzarlarga nisbatan insonparvarlik munosabatlarining saqlanishini;

- huquqiy madaniyat, ijtimoiy fikr va aholining huquqiy ongini, milliy qadriyatlar tamoyillarini inobatga olishni;

- jazolarning ijro etish tizimida organ va muassasalarining normal salohiyatga ega bo'lishlarini ta'minlashda davlatning iqtisodiy imkoniyatlarini inobatga olishni;

- jinoyatchilikning axvolini, darajasi va xususiyatlarini;

- jinoyat qonuchiligining rivojlanishi va qo'lanish amaliyotini;

- jinoyat ijroiya tizimini, jazolarni ijro etish organlari va muassasalarining faoliyatlarini tashkil etishda maxkumlar bilan muomila

qilishning xalqaro talablarini implementatsiya qilishga, jinoyat ijroiya qonunlarining rivojlanishini va qo'lanish amaliyotini inobatga olinishini asos qilib olindi. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarini ishlashda ushbu talablar majmuini inobatga olinishi jinoiy jazolarni ijro etishga nisbatan, jinoyat ijroiya huquqiy munosabatlarni shakllantirishda, mahkumlar bilan muomila qilishga nisbatan insonparvarlilik munosabatlarida bo'lish O'zbekiston Respublikasida ushbu sohadagi siyosatini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasida jinoyat qonunlarining liberallashtirish siyosatining joriy etilishi Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazishiga sabab bo'ldi. Jumladan, 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat protsessual va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan Jinoyat kodeksining 65ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan, (JK 15-m) jinoyatlar tasnifi o'zgartirilib, qator qilmishlar O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'tkazildi, 110 turdagi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi. Hozirda JKda nazarda tutilgan 490ta jinoyat tarkibining 45,7% ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, 23,9% uncha og'ir bo'lmagan, 19,4% og'ir va 11% o'ta og'ir jinoyatlar toifasiga mansubdir. Jinoyat qonunchiligidagi bu o'zgarishlar Jinoyat-ijroiya tizimida ham ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ushbu qonunga binoan jinoiy jazolar tizimidan mol-mulkni musodara qilish jazosi chiqarildi. Shunga ko'ra JIKning 162-moddasida nazarda tutilgan mol-mulkni musodara qilish jazosi shundan beri ijro etilmaydi. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "... og'ir jazo, ayniqsa fuqarolarni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lgan jazolarning jinoyatchilikning oldini olishdagi ahamiyatini oshirib ko'rsatish o'rinsiz ekanligini hayotning o'zi isbotlamoqda. Jinoyatchilikning oldini olish unga qarshi kurashish samorodorligi, jazoning og'irligi va shafqatsizligiga emas, balki birinchi navbatda qonunni buzgan shaxs jazoning muqarrarligini nechog'lik anglashiga bog'liq" [Karimov I.A Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T. 10. – T.: O'zbekiston. 2002. – B 35]. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2007 yil 11 iyulda qabul qilingan "O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunida, Jinoyat-ijroiya kodeksiga «Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish» nomli yangi bo'lim kiritildi. Bu o'zgarish tufayli Jinoyat-ijroiya kodeksidan o'lim jazosini ijro etish tartibi bekor qilinib, uning o'rniga umrbod ozodlikdan maxrum qilish jazosini ijro etish tartib-qoidalari kiritildi.

Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilgan bu o'zgarishlar ushbu fanning ham takomillashishiga sabab bo'ldi.

Jinoyat-ijroiya huquqi tizimi ikki qismdan iborat: umumiy va maxsus qism. Umumiy qismda jinoyat-ijroiya huquqi fani tushunchasi, qonunchiligi, mahkumlarning huquqiy holati, ularning huquq va majburiyatlari, jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi organlar va ular faoliyatini tekshirish hamda nazorat qilish o'rganilsa, maxsus qismda har bir jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari o'tash va ijro etish tartibi va shartlari, mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti, mehnati va ularga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan rag'batlantirish va intizomiy choralarni qo'llash tartibi, mahkumlarni jazodan ozod qilish tartibi o'rganiladi.

Jinoyat–ijroiya huquqi fani predmeti va vazifasi.

Jinoyat-ijroiya huquqi fani predmeti – jinoyat-ijroiya kodeki va boshqa normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadigan, barcha jinoiy jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari o'tash va ijro etish tartibi, mahkumlar va mazkur jazolarni ijro etuvchi organlarning huquq va majburiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- jazo o'tayotgan mahkumlarning qonuniy manfaatlarini to'liq ta'minlash;

- mahkumlarni qayta tarbiyalash orqali axloqan tuzatish;

- O'zbekiston Respublikasida mavjud jazo o'tash tartibini xalqaro andozalarga moslashtirish va shakllantirish masalalarining huquqiy jihatlari;

- jazolarni ijro etish muassasalari, organlari va ularning vazifalarini o'rganish, ularga xos bo'lgan xususiyatlarini tadqiq etish.

Jinoyat-ijroiya huquqining maqsadi mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish bo'lib hisoblanadi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari jazolarni ijro etishning umumiy printsplari va qoidalarini belgilab, boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarining qo'llanish holatlarini o'zida ifoda etadi, jazolarni o'tash va tugallanish holatlari shartlarini belgilab beradi, mahkumlarni axloqan tuzatish vositalarini, jazolarning ijro etuvchi organ va muassasalar faoliyatlarining tartib-qoidalarini belgilaydi, jazolarni ijro etishda hokimiyat, o'zini o'zi boshqarish

va jamoat tashkilotlarining ishtirok etish qoidalarini belgilaydi. Bu holatlarni jinoyat-ijroiya huquqi fanida **jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlari** deyiladi.

Jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlari davlat nomidan jazo va boshqa jinoyat huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ, muassasalar va ikkinchi tarafdin sudning hukmi yoki uni o'zgartiruvchi ajrim qarori yoki jazodan ozod qiluvchi umumiy yoki maxsus afv farmoni qo'llangan shaxs o'rtalarida vujudga keladi.

Bu huquqiy munosabatlar asosida har doim hukmlarning axloqan tuzatish munosabatlari namoyon bo'ladi. Maxkumlarni axloqan tuzatish jazo asosida amalga oshirilganligi uchun xam qoralash va majbur qilish printsplaridan kelib chiqadi va shuning uchun ham mahkumlar bilan munosabatga kirishish tartib-qoidalarini belgilanadi. Shuning uchun xam davlat jazolarning ijro etilish tartib-qoidalarini davlat organlari yoki boshqa muassasalarga yoxud mansabdor shaxslarga yuklasa, jazoni o'tashning tartib-qoidalarini maxkumlardan talab qiladi.

Jinoyat-ijroiya huquqining boshqa huquq sohasidagi fanlar bilan aloqadorligi

Jinoyat-ijroiya huquqi huquq sohlarining aloxida mustaqil tarmog'i bo'lib, o'zining qonuni va qonun osti normativ hujjatlar bilan amal qiladi. Ushbu fan alohida mustaqil huquq sohasi bo'lishiga qaramay huquqning boshqa sohalariga nisbatan ikkilamchi xususiyat kasb etib kelgan. Ya'ni huquqning boshqa sohalarida belgilangan normalarning amaliy bajarilishining sohasi bo'lib xizmat qiladi. Jinoyat-ijroiya huquqi fani boshqa huquq sohalarini bilan ham bog'liqdir. Xususan, konstitutsiyaviy huquq, jinoyat huquqi, kriminologiya, jinoyat-protsessual huquqi, prokuror nazorati va boshqalar.

Jinoyat-ijroiya huquqi sud hukmi bilan ayibli deb topilgan maxkumlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan huquq va manfaatlarining himoya qilinishini ham ta'minlaydi. Mahkumlarning huquqiy holatlarini qonunda belgilanishida inson va fuqaroning huquq va manfaatlarini himoya qilinishi nazarda tutilgan.

Mazkur fanning jinoyat huquqi bilan aloqasi va farqi quyidagilarda namoyon bo'ladi: jinoyat huquqi jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir

choralari tushunchasi, maqsadi va turlarini o'rgansa, jinoyat-ijroiya huquqi mazkur jazo va choralarni o'tash hamda ijro etish tartibi va shartlarini o'rganadi. Shu bilan birga jinoyat huquqida jazodan ozod qilish turlari va asoslari o'rganilsa, mazkur institutni ijro etish tartibi aynan jinoyat-ijroiya huquq tomonidan o'rganiladi. Jinoyat-ijroiya huquqi fani ham jinoyat huquqi va boshqa fanlar qatori jinoyatchilikka qarsh kurashish va oldini olish masalalarini ham o'rganib, jinoiy jazolarni ijro etish bilan uning samaradorligi va natijalarini Jinoyat-ijroiya huquqi fani orqali o'rganiladi.

Jinoyat-ijroiya huquqi kriminologiya fani bilan ham bog'liqdir. Jumladan, kriminologiya jinoyatchilik, uning vujudga kelish sabablari va shart-sharoitlarini, ko'rsatkichlarini, jinoyatchi shaxsi va jinoyatlarni oldini olishni o'rgansa, mazkur fan jinoyatni sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarni, ya'ni mahkumlarning huquq va majburiyatlarini, ularga nisbatan rag'batlantiruvchi va intizomiy choralarni qo'llash tartibini o'rganadi. Jazolarni ijro etish jarayonidagi kriminologik holatlarni Jinoyat-ijroiya huquqi fani orqali o'rganiladi.

Ushbu fan jinoyat-protsessual huquqi va prokuror nazorati bilan ham bog'liqligi shu bilan belgilanadiki, ushbu fanlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan prokuratura va sud organlari faoliyatini bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni o'rgansa, jinoyat-ijroiya huquqi fani esa yuqorida aytib o'tilgan jazo va choralarni ijro etuvchi organlarning huquq va majburiyatlari, ularning foaliyatini nazorat qilish va tekshirish kabi ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi.

Huquq bilan tartibga solinadigan barcha ijtimoiy ahamiyatga molik munosabatlarda, jinoyat uchun sud tomonidan tayinlanadigan jazoni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini qo'llash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Jinoyat uchun jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat-ijroiya kodeksi va ularga muvofiq qabul qilingan boshqa qonun hujjatlariga asoslangan bo'lishi lozim.

Mazkur qonun hujjatlarida belgilangan qoidalardan chetga chiqish, unda nazarda tutilmagan biror usul va vositalarni joriy qilish yoki ulardan foydalanish qat'iy qat'iyan taqiqlanadi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari:

- jinoiy jazoni, boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish printsiplari, tartibi va shartlarini;
- mahkumlarning huquqiy maqomini;
- mahkumlarni axloqan tuzatish vositalari hamda ularni qo'llash tartibini;
- mahkumlarni jazoni o'tashdan ozod qilish tartibini;

- jazoni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyati tartibini;
- mahkumlarni axloqan tuzatishda davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlarining, korxona, muassasa, tashkilotlarning, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ishtirokini belgilaydi.

Jinoyat-ijroiya huquqiy munosabatlari davlat nomidan jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etuvchi organ yoki muassasa va ikkinchi tarafdin sudning hukmi yoki uni o'zgartiruvchi ajrim qarori, jazodan ozod kiluvchi maxsus avf farmoni ko'llangan organ o'rtasida vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya qonunchiligini JIK va jazolarni ijro etishning boshqa huquqiy asoslari tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 30 avgustdagi 535-II-son Qonuni bilan kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlarda JIKda jazolarni ijro etish borasidagi bir qancha qoidalar harakatdan to'xtatildi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari mahkumlarning jazolarni o'tash va tugallanish holatlari shartlarini, mahkumlarni axloqan tuzatish vositalarini, organ va muassasalar faoliyati ustidan tekshiruv olib boruvchi nazorat organlarining tartib-qoidalarini belgilaydi. Zero, jazoning mahkumlarni axloqan tuzatish maqsadi har bir jazoning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Axloqan tuzatish maqsadi har bir jazoda belgilanganidek, aniq vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Bu har bir jazoni tartibga soluvchi tartib-qoidalarda ifodalanadi. Ushbu vazifalar har bir jazo ijrosini ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, jarima jazosini ijro etishda davlat va jamiyat manfaatlari himoya qilinadi hamda mahkum uchun ma'lum huquq va manfaatlar beriladi.

Shu bilan birga, mahkumga berilgan huquq va burchlar uning axloqan tuzalishiga qaratiladi. Masalan, mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlarning olib borilishi, turli xildagi badiiy, sport va kasb-hunarga oid bo'lgan to'garaklarning tashkil qilinishi va hokazo.

Amaldagi jinoyat-ijroiya qonunchiliklarida mahkumlarni axloqan tuzatish vazifasi ularni tarbiyalash va qayta tarbiyalashdan iborat. Hatto, yurtboshimiz I.A.Karimov ham o'z nutqlarida jazolarni ijro etuvchi muassasalar jazolarni ijro etish bilan bog'liq harakatlarni amalga oshiribgina qolmasdan, balki tarbiya o'chog'i sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlab o'tgan edilar. Jinoyat sodir etgan shaxslarni har doim ham biz tarbiasiz shaxs deya olmaymiz. Bunday shaxslarning axloqi buzilgan shaxslar deyish to'g'riroq bo'lardi, nazarimizda. Jinoyat-ijroiya huquqi qonun normalarida ham axloqan tuzalganlik tushunchalarini ko'rish mumkin. Masalan, muddatidan ilgari jazodan ozod qilish, turli xildagi qo'shimcha imtiyozlar berish va hokazo.

Jinoyat-ijroiya kodeksi Jinoyat kodeksining 42-moddasida bayon qilingan jazoning maqsadini amalga oshirishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yganligiga qaramay, uning 2-moddasida jinoyat-ijroiya qonuning vazifalarini kengroq talqin qilib bergan.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining vazifalari:

- a) jazo ijrosini ta'minlash;
- b) mahkumlarni axloqan tuzatish;
- s) jinoyatlar sodir etilishining oldini olish;
- d) mahkumlarning haq-huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

Yuqorida qayd etilgan vazifalar orqali mahkumlar huquqiy holatlarining belgilanishi, ularning jamiyatda o'rnatilgan tartib va qoidalarini hurmat qilishga, ularni bajarishga o'rgatadi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining asosiy vazifasi - jinoyatchilik sabablarini aniqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashdir. Jumladan, Prezidentimiz I. A. Karimov o'zining «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarlarida ta'kidlaganlaridek, - «O'zbekistonda, shubhasiz, jinoyatchilikning sabablarini aniqlash choralari ko'rilmoqda, fosh etilgan korruptsiyachilar qattiq jazolanmoqda. Mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo davlat tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi» [Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. Toshkent. «O'zbekiston» 1997 y. 93-bet.]

Jinoyat–ijroiya qonun hujjatlari va uning printsiplari

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari insonparvarlik printsipidan kelib chiqqan holda har bir jinoyatchiga jazo tayinlaydi va shu bilan birga jamiyat huquqlarini poymol bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari Jinoyat-ijroiya kodeksining 3-moddasida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasining butun hududida qo'llaniladi. Jazolarni ijro etish va mahkumlarni axloqan tuzatish vositalari ham amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq ravishda qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi juda ko'plab xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilganligi ma'lum, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari ham xalqaro huquqning muomaladagi printsip va normalarini inobatga olib boradi [Ratifikatsiya (lot. Tasdiq qilmoq)-xalqaro shartnomaning davlat hokimiyati oliy organi

tomonidan tasdiqlanishi. «Huquqshunoslikka oid o'zlashma terminlar» Toshkent «Adolat» 1999 y.].

Jinoyat-ijroiya kodeksining 4-moddasida belgilanganidek, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalarini ko'llaniladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, O'zbekiston 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasini ratifikatsiya qilgan. Masalan, unda xech bir shaxs kiynoqqa solinishi mumkin emasligi (5-modda) bayon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan yana bir xalqaro hujjat 1966 yilda qabul qilingan «Fuqarolarning siyosiy huquqlari to'g'risida»gi Paktdir. Uning 6-moddasida belgilangan, «har bir o'limga hukm qilingan shaxs avf so'rab murojaat qilish huquqiga ega».

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi tomonidan quyidagi jinoyat-ijroiya qonunchiligiga oid xalqaro hujjatlar ratifikatsiya qilingan:

- 1948 yil qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi;
- 1966 yil qabul qilingan «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida» gi xalqaro Pakt;
- 1984 yil qabul qilingan «Inson sha'ni, qadr-qimmatini xo'rlashga qarshi» Konventsia;
- 1984 yil qabul qilingan o'lim jazosiga mahkum qilingan shaxslarning huquqiy kafolatlari to'g'risidagi akt;
- 1990 yil qabul qilingan BMTning voyaga yetmaganlarning ishini himoyalash to'g'risidagi me'yoriy akt va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-moddasida xalqaro hujjatlarga asoslangan holda jazoni ijro etish uchun sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi yoki qarori, shuningdek amnistiya yoki avf akti asos bo'ladi, deb belgilab qo'yilgan.

Mustaqillik yillarida jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator qonunlar qabul qilindi. Bularning hammasi respublikamizda xalqimizning turmush farovonligini yaxshilash, qonunlarga og'ishmay amal qilish va jazolarni ijro etishda o'ziga xosa ahamiyatga ega. Davlatning ravnaqiga, uning rivojlanishiga jinoyatchilik jiddiy to'siq bo'lishiga qaramasdan davlat bunday illatga qarshi faqat adolatli qonun va unda belgilangan jazolari bilan kurashadi.

Hozirgi davrda jazolarni ijro etish borasida O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan mahkumlarning huquq va qonuniy manfaatlarini to'liq ta'minlashga erishilmoqda va mahkumga sobiq ittifoq tuzumi davridagi «xavfli jinoyatchi» nazari bilan qarash fikri


fuqarolarimizda asta-sekinlik bilan yo'qolib bormoqda, sababi yurtimizda inson manfaatlariga hurmat bilan qaralib, uning sha'n va qadr-qimmati ezozlanib kelingan. Mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab jazo va uni ijro etish masalalariga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilib, fuqarolarimizning haq huquqlari, sha'nu qadr qimmati birinchi o'ringa qo'yildi.

Hozirgi davrda jazolarni adolatli ijro etish, jazoni ijro etish muassasalari, organlari va vazifalarining asosiy xususiyatlarini o'rganish eng dolzarb masalalar sirasiga kiradi, uni atroflicha chuqur tadqiq etish har bir huquqshunos uchun ham qarz, ham farzdir.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining printsiplari. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari jazolarni ijro etishning printsiplari va qoidalarini belgilab bergan. Bular boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarining qo'llanish holatlarini o'zida aks ettiradi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari printsiplari 1997 yil 25 aprelda qabul qilinib, shu yilning 1 oktyabridan amalga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 6-moddasida berilgan.

Unda aytilishicha: «Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari qonuniylik, adolat, insonparvarlik, demokratizm, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish, majburlov vositalarini oqilona qo'llash va mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish printsiplariga asoslanadi».



Bu printsplar Jinoyat-ijroiya kodeksida berilgan bo'lishiga qaramay, xozirgacha batafsil yoritilmagan. Jinoyat-ijroiya qonunchiligi printsplari quyidagi xususiyatlarini o'zida ifoda etadi:

- huquqning bu sohasi o'z navbatida maqsadga muvofiq yo'nalishlarini belgilab beradi;

- jazolarni ijro etishdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish yo'nalishlarini belgilaydi;

- jinoyat ijroiya qonunlarining xalqaro qonunlarga muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi;

- mahkumlarning jazolanish va ularning insoniylik munosabatlarini tartibga solish imkoniyatini yaratadi;

Mazkur printsplarni o'rganishni osonlashtirish maqsadida ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

Umumiy printsplar:

- a) qonuniylik;

- b) adolat;

- s) insonparvarlik;

- d) demokratizm.

Maxsus printsplar:

- a) jazoni ijro etishda differentsiatsiyaga rioya etish;

- b) jazoni ijro etishda individuallashtirishga rioya etish;

- s) mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish;

- d) majburlov vositalarini oqilona ko'llash [Abduxaliqov M.A., Payzullaev Q.P., Abduqodirov Sh. Yo. «Jinoyat-ijroiya huquqi» (albom sxemalar) Toshkent 2005 yil].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-ijroiya kodeksida O'zbekiston Respublikasi JIKdan farq qilgan holda qo'shimcha printsplar ham mavjud. Bular: mahkumlarning qonun oldida tengligi, barcha uchun teng bo'lgan ehtiyotkorlik chora-tadbirlarini ko'rish va mahkumlarga nisbatan jazoni amalga oshirish bilan bir qatorda tarbiyaviy ishlarni olib borish printsplari ko'rsatib o'tilgan. [Kollektiv avtorov, (pod. red. I.A.Zubkova) «Ugolovno-ispolnitelnoe pravo Rossii» Moskva, «Norma» 2006 god, 720 s.].

Jinoyat-ijroiya kodeksi printsplari haqida fikr bildirar ekanmiz, ularni birma-bir, alohida-alohida talqin etib chiqish lozim.

Qonuniylik printsipi - huquq sohalarining bevosita asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham xalqaro hujjatlarda va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bu printsp mustahkamlangan.

Qonuniylik printspi jinoyat-ijroiya qonunida quyidagilarda ifodalanadi. Jumladan, jinoyat sodir etib sud hukmiga ko'ra aybli deb topilgan shaxsning

jazoni o'tashining barcha holatlari qonun bilan tartibga solinadi. Hattoki mahkumlarni jazodan ozod qilish va jazoni ijro etish muassasalaridan chiqarilish holatlari ham shu printsp bilan tartibga solinadi. Bu esa mahkumlarni qonunlarni hurmat qilishga va ularga bo'ysunishga o'rgatadi. Qonuniylik printspining bajarilishi kodeks bo'yicha (16-17 moddalari) davlat hokimiyati hamda boshqaruv organlari va prokuror tomonidan nazorat qilinadi.

Odillik printsiipi jinoyat-ijroiya qonunchiligida katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, har qanday mahkum garchand jinoyatchi bo'lishiga qaramay, odillik printspi asosida jazodan ozod kilinish imkoniyatiga ega bo'la oladi. Odillik printspining qonunga tadbiq etilish qoidalari davlatning jinoyat sodir etgan mahkumlarga nisbatan ijtimoiy munosabatini anglatadi. Jinoyat qonunchiligi normalarida jinoyat sodir etgan shaxslarni avf etish normalari saqlanishining o'zi odillik printspidan dalolat beradi.

Shuningdek, Jinoyat-ijroiya kodeksi normalarida mahkumlarning axloqan tuzatish yo'liga o'tganligi, mehnatga halol munosabat bo'lganligini hamda jamiyat qonunlarini hurmat qilish va ularni bajarish ruhida bo'lganligini isbotlay olishi, ularning sharoitlarini yengillashishiga va hatto jazodan butunlay ozod bo'la olishlarining qonunda aks ettirilganligi odillik printspidan dalolat beradi.

Insonparvarlik printsiipi xam Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining umumiy printsplaridan biri sifatida turli xil shakl va yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. Jumladan, amaldagi Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida avvalgi qonunchilikdan farqli ravishda, mahkumlarning jazoni o'tash sharoitlariga nisbatan insonparvarlik keng doirada qonuniylashtirilib, bu masalalar xalqaro hujjatlarda o'z aksini topdi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga mahkum qilingan shaxslarga nisbatan qattiq choralar ko'rish olib tashlangan. Ularga insonparvarlik printspi asosida juda ko'p imtiyozlar berilgan. Masalan, turli xildagi posilka va banderollar yuborish, yo'qlov va xat yozishmalari olib borish hamda qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlar belgilangan. Qonunlarni liberalashtirish va isloh qilish hamda halqaro standartlarga moslashtirish jarayonida ularga beriladigan imtiyozlar yanada ko'paytirildi, uchrashuvlar soni va muddatlari uzaytirildi. Lekin, insonparvarlik printspining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mahkumlarga beriladigan imtiyozlardan foydalanish mahkumning o'ziga bog'liq. Agarda mahkum jamoat ishlarida faol qatnashib, o'zining xulq-atvori, bajaradigan ishi bilan atrofdagilarga o'rnak bulsa, qo'shimcha imtiyozlar beriladi.

Shuningdek, mahkumlarning xohlagan vaqtda tibbiy va yuridik yordam olish huquqlarining qonunlashtirilganligi insonparvarlik printspi natijasidir.

Umumiy printsiplardan so'nggisi bu - **demokratizm printsipidir**. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq ravishda jinoyat-ijroiya tizimida davlat hokimiyati va fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, korxona, muassasa, tashkilotlarning, jamoat birlashmalari va fuqarolarning ishtiroki demokratizm printspining namunasidir. Demokratizm printspi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mahkumlarning o'z fikr-mulohazalarini bildirishi, shikoyatlar orqali murojaat qilishi;
- xat va yozishmalarni o'z milliy tilida bayon etishining erkinligi;
- mahkumga qo'yilayotgan ayblov hujjatlari bilan tanishib chiqishi va hokazo.

Bundan tashqari, Jinoyat-ijroiya kodeksining 99-moddasiga ko'ra jamoatchilik va fuqarolarning mahkumlarni tarbiyalashdagi ishtiroklariga qonuniy tus berilganligi, ayniqsa, turli xildagi ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlikda ish yuritilayotganligi aynan demokratizm printspini namoyon etadi. Yuqorida fikrimiz isboti sifatida, Jinoyat-ijroiya kodeksining 79-moddasida mahkumlarning prokuror nomiga taklif, ariza va shikoyatlari ko'zdan kechirilmaydi hamda bir sutka ichida tegishlilik bo'yicha jo'natiladi, deb belgilab qo'yilgan.

Maxsus printslardan dastlabkisi – **jazoni ijro etishda differentsiatsiyaga rioya etish** - ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishda juda ahamiyatli bo'lib hisoblanadi. Jumladan, mahkumlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy xavfliligi, ularning ilgari ham jinoyat sodir etib, jazoni o'tab chiqqanligi, retsidivligi hamda sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavfliligi bu printsp asosida tartibga solinadi.

Jazoni ijro etishda differentsiatsiyaga rioya etish - mahkumlarning ijtimoiy xavfligiga ko'ra bir-biridan ajratilgan holda saqlash va ularga o'zlarining ijtimoiy xavfligiga ko'ra majburlov choralarining ko'llanilishi. Jinoyat-ijroiya kodeksining 45-moddasida ham xuddi shu printspga asoslanilgan, ya'ni jazoni ijro etish muassalarining turlari yoritilgan, bu esa mahkumlarni ijtimoiy qilmishining xavflilik darajasiga ko'ra ularni ajratgan holda saqlashni ta'minlaydi. Shuningdek, Jinoyat-ijroiya kodeksining 97-moddasida «tarbiyaviy ish differentsiatsiya asosida, muassasa turini jazo muddatini va saqlash sharoitini, shuningdek mahkum shaxsining xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi» deb yozib qo'yilgan. Mahkumlarni differentsiatsiyalash quyidagilar inobatga olingan holda amalga oshiriladi:

- mahkumning yoshi, tibbiy sog'ligi;
- qarindoshlarining borligi;
- jazo muddati va xulq-atvori;

- ma'lumoti va lavozimi;

Jazoni ijro etishda individuallashtirishga rioya etish – mahkumni axloqan tuzatishga qaratilgan printsip. Mahkumning ijtimoiy xavfliligi, sodir etgan jinoyatining xavflilik darajasiga qarab ajratish, uni alohida individual jazolash imkonini beradi.

Jazoni ijro etishda individuallashtirishga rioya etish - brigada yoki otryadga taqsimlanganlarga nisbatan turli xildagi tarbiyaviy choralar ko'llash. Shu usuldagina har qanday mahkumni alohida alohida nazorat qilish va hisobga olib borish imkoni mavjud bo'lib hisoblanadi. Respublikamiz hududidagi manzil-koloniyalarda jazoni individuallashtirish orqali juda ko'plab samarali ishlar qilinmoqda. Masalan, jazoni o'tayotgan mahkumlar turli xil brigada yoki otryadlarga bo'lingan holda o'z qismida xo'jalik ishlarida katnashishi.

Mahkumlarni qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish printsipti – mahkumlarning namunali xulqi, mehnatga halol munosabatda bo'lishligi, ichki tartib- intizomga rioya qilish va uni hurmat kilishi qonun bilan rag'batlantirilishi. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 44-moddasida mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish va intizomiy choralar ko'rsatib o'tilgan. Qonunga itoatkor xulq atvorni rag'batlantirish mahkumlarni qayta tarbiyalashda domenantalik, boshqacha qilib aytganda, asosiy vazifani bajaradi.

Majburlov vositalarini oqilona qo'llash printsipti – mahkumlarni axloqan tuzatishga karatilgan printsip. Axloqan tuzatishga qaratilgan chora-tadbirlar: mehnat, o'qitish, professional tayyorgarlik, har bir mahkumning o'z ishidan qoniqish hissi. Har bir mahkumga nisbatan majborlov choralari alohida qo'llaniladi. Undan asosiy maqsad esa har bir mahkumning kimligi, uning yoshi, jinsi, ijtimoiy dunyoqarashi, bilimi va ma'lumotidan qat'i nazar kasbiy tayyorgarlik olishi. Jinoyat-ijroiya kodeksining 7-moddasida: «Mahkumni axloqan tuzatish – unda qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, jamiyat turmushi qoidalari va an'analariga hurmat munosabatlarini shakllantirishdan iborat», deb yozib qo'yilgan. Mahkumlarni axloqan tuzatishda quyidagilar asosiy rol o'ynaydi:

- jazoni o'tashdagi tartib-qoidalarining qattiqligi;
- tarbiyaviy ishlar;
- ijtimoiy foydali mehnat koefitsenti;
- umumiy ma'lumot olishi;
- kasbiy tayyorgarligi.

Nazorat uchun savollar:

1. Jinoyat-ijroiya huquqi fani Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari va qonun osti normativ hujjatlarini o'rganadi.

Ushbu qonun hujjatlari va qonun osti normativ hujjatlar vazifalariga asoslangan holda taxlil qiling.

2. Mahkumni axloqan tuzatish umumiy va maxsus choralar asosida amalga oshiriladi.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda mahkumlarga qo'llaniladigan umumiy va maxsus choralarning ahamiyatini muhokama eting.

3. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasining butun xududida amal qiladi.

Ushbu holatni o'rganing, vaqt va xudud bo'yicha amal qilishini taxlil qiling.

4. O'zbekiston Respublikasida jazoni ijro etish uchun sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi yoki qarori, shuningdek amnistiya yoki avf akti asos bo'ladi.

Ushbu holatni o'rganing va mazmunan taxlil eting.

MAHKUMLARNING HUQUQIY HOLATI

Mahkumlarning huquqiy holati tushunchasi, ahamiyati va asoslari. Mahkumlarning huquq va majburiyatlari

Mahkumlarning huquqiy holati tushunchasi, ahamiyati va asoslari

Mahkumlarning huquqiy holati – bu jazoni ijro etishda vujudga keladigan jazoning turi, maqsadi va mahkumning xulqi bilan bog'liq bo'lgan, asosiy fuqarolik va maxsus huquq va majburiyatlar yig'indisidan iborat huquqiy asoslardir.

Mahkumlar huquqiy holatining belgilanishida asosiy uchta qonun va xalqaro huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan inson va fuqarolarning huquq va manfaatlari nazarda tutilgan hujjatlar asosida belgilangan. Bular:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari;
2. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari boshqa normativ qonun-hujjatlarida belgilangan jinoiy jazolarni ijro etish bilan bog'liq bo'lgan huquqlar va huquqiy cheklovlar;
3. Xalqaro qonun-hujjatlarida mahkumlar bilan muomila qilishning huquq va majburiyatlardan kelib chiqadigan qoidalari.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida mahkumlarning huquqiy holatlarini qonuniy belgilanishida yuqorida ta'kidlangan hujjatlarni inobatga olingan holdagina inson va fuqarolarning jazolarni ijro etilishida huquq va manfaatlarining buzilmasligining oldini olishga va xalqaro talablarni inobatga olishga erishiladi. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari yaratishda inson va fuqarolarning huquq va manfaatlari belgilangan hujjatlarni inobatga olmay turib tuzib bo'lmaydi. Jinoyat-ijroiya qonun normalari shaxsning konstitutsiyaviy va xalqaro normalarda belgilangan huquq va majburiyatlariga ham mos bo'lishi lozim.

Mahkumlar huquqiy holatining belgilanishi siyosiy va axloqiy ahamiyatga ega. Jumladan, siyosiy jihatdan jamiyat va davlatning mahkumga bo'lgan munosabatini anglatadi. Chunki mahkumning huquqiy holati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga bog'liq jazoning maqsadi bilan belgilanadi.

Erkin shaxslarga nisbatan mahkumlarga beriladigan huquq va imtiyozlar mutloq harakterga ega bo'lib, mahkumlar Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida belgilab berilgan huquqlar bilan ta'minlanishida istesnolar bo'lishi mumkin emas, ma'muriyat qonun normasi bilan belgilangan huquq va imtiyozlarni so'zsiz ta'minlash majburiyatiga ega. Masalan, har bir mahkum belgilangan normalarda turar joy bilan ta'minlanishi, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmatdan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlanishida cheklovlar bo'lishi mumkin emas. Mahkumlarga beriladigan huquqlarning aksariyati shunday qat'iy xususiyat kasb etadi, biron bir cheklovlar yoki shartlar qo'yilishi mumkin emas.

Mahkumlarga berilishi mumkin bo'lgan huquqlarida ayrim shartlar qo'yilishi mumkin bo'lgan turlari ham uchraydi. Masalan, Jinoyat-ijroiya kodeksining 44-moddasida mahkumning yaxshi xulq-atvorda bo'lishi uchun har kungi sayr vaqtini bir soatga ko'paytirish, 114- va 130-moddalarida uchrashuv mahkumning iltimosiga binoan manzil-koloniya hududidan tashqarida o'tkazilishi, mahkuma ayollarga voyaga yetmagan bolalari bilan muddati besh sutkagacha bo'lgan, shu jumladan muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash imkoniyati bilan, uzoq muddatli uchrashuv berilishi mumkinligi belgilangan. Bu kabi huquqlarga erishish uchun mahkumning ijobiy xulq-atvorda bo'lish talab etiladi.

Mahkumning sub'ektiv holatidan kelib chiqilgan holda berilishi mumkin bo'lgan huquqlar ham nazarda tutilgan. Jinoyat-ijroiya kodeksining 75-moddasi beshinchi qismida belgilangan miqdordan ortiqcha pulga mahkumlar tibbiy xulosa asosida qo'shimcha ravishda oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek kiyim va poyabzal sotib olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Shuningdek, shu moddaning oltinchi qismida, muassasa boshlig'i yangi kelgan mahkumga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ellik foizigacha, manzil-koloniyalarda esa - to'liq miqdorigacha bo'lgan summada avans berishga haqli ekanligi ayrim shartlar asosida kelib chiqadigan huquqlarni anglatadi.

Mahkumlarni yengilroq sharoitlarga o'tkazishda, afv etishda, amnistiyani qo'llashda ma'lum shartlar mahkumlarga nisbatan qo'yiladi, bu shartlar bajarilmagan yoki buzilgan hollarda mahkumlar bunday huquqlardan maxrum bo'ladilar. Bunday oqibatlar ko'plab shikoyatlarga, noroziliklarga

olib kelishi uchraydi. Bunday huquqlarning muayyan shartlar bajarilishi evaziga berilishi har bir mahkumni tarbiyalanishiga, qonunga itoatkor bo'lishiga o'rgatadi.

Mahkumlarning, ayrim hollarda xatto ularning yaqin qarindoshlarining ham huquqlarini amalga oshirilishi bajarilmay qolish hollari uchraydi. Masalan, mahkum Jinoya-ijroiya kodeksining 109-moddasi asosida intizomiy qismga kiritib qo'yilganida uchrashuv, telefon orqali so'zlashuv, oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, posilka, yo'qlov va banderollar olish hamda jo'natish, xatlar va boshqa jo'natmalar yuborish taqiqlanishi bayon qilingan. Bunday holda nafaqat mahkum, balki uning yaqin qarindoshlari ham huquqlardan maxrum bo'ladi.

Jazoni o'tayotgan mahkumlar ularning jazosi qanday bo'lmasin, o'z majburiyatlarini bajaradilar, qonunda belgilangan doirada sud hukmida belgilangan tartib bilan bog'liq huquqlardan foydalanishlari mumkin. Buning ma'nosi shuki, jazoni o'tayotgan har bir mahkum qanday jinoyat sodir etganligi va jazo turidan qat'i nazar, u o'zining asosiy huquq va majburiyatlaridan va jamiyat a'zolidan mahrum qilinmaydi. Faqatgina huquq layoqatida ba'zi bir cheklashlar bo'ladi, bu mahkumga jazo qo'llash, ruhiy va moddiy jafo keltirishda namoyon bo'ladi, mahkumning fuqarolarga nisbatan yomonroq sharoitda kun kechirishi – huquq layoqatining cheklanishi bilan ifodalanadi.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 8-moddasiga muvofiq, «Mahkumlar, ushbu Kodeks va boshqa belgilangan istisno hamda cheklashlar inobatga olingan holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar. Mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquq va erkinliklarga ega bo'lishlari va majburiyatlarni bajarishlari mumkin.

Mahkum jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarni bajarishga majbur xisoblanadi, bu har qaysi jazoning turi va maqsadidan kelib chiqilgan holda belgilanadi. Mahkum majburiyatlari muayyan vazifalarni so'zsiz bajarishi yoki muayyan harakatlarni bajarishdan so'zsiz saqlanishi bilan uning majburiyatlari belgilanishi mumkin. Majburiyatlarni bajarmaslik muayyan huquqiy oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Masalan, jinoyat-ijroiya qonuniga asosan jazolarni ijro etish koloniyalarida majburiyatlarni bajarmaslik yoki tartib qoidaga bo'ysinmaslik natijasida mahkumni og'irroq sharoitlarga o'tkazib qo'yish, intizomiy bo'linmalarga kiritib qo'yish, turma qamog'ida qattiq tartibli turiga o'tkazib qo'yish mumkinligi belgilangan. Qonunga binoan jazoni o'tashdan bosh tortish holatlarida sud jazoni og'irroq turi bilan almashtirishi mumkinligi

belgilangan. Bu jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining bajarilishini ta'minlashning majburlash vositasidir.

Xulosa qilib aytilganida jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari asosida mahkumlarning huquqiy holatlari ularga tayinlangan jazoning turi, uning sub'ektiv xususiyatlari va mahkumning xulq-atvoridan kelib chiqadigan huquq va majburiyatlar majmuidir. Bunday huquq va majburiyatlarning umumiy yig'indisi asosida har qanday mahkumning individual huquqiy holatlari belgilanadi. Har bir mahkumning huquqiy holatlari ham umumiy ham individual holatlar yig'indisidan kelib chiqadi. Jazolarni ijro etishning umumiy hholatlari umumiy huquqiy holatni belgilab bersa, mahkumning sub'ektiv holatlaridan kelib chiqilgan holda individual huquq yoki cheklovlarning belgilanishi bilan har bir mahkumning huquqiy hholatlari bir-biridan farq qilishi mumkin.

Mahkumlarning huquq va majburiyatlari

Mahkumlarning huquqlari va majburiyatlari muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi 1991 yilda mustaqilikka erishgach, barcha diqqat e'tibor iqtisodiy barqarorlikni, millatlararo tinchlikni ta'minlash, yosh avlod tarbiyasiga e'tibor qaratish va huquqiy davlat barpo etishga qaratildi. Prezidentimiz I.A. Karimov o'z nutqlarida ta'kidlaganlaridek, «Huquqiy davlatda qurol ham, qalqon ham qonundir». Shu sababli mustaqil Respublikamiz juda ko'plab umumjaxon tan olgan inson huquqlariga oid bo'lgan xalqaro-huquqiy hujjatlarni ratifikatsiya qildi. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari mahkumlarning huquq va majburiyatlarini belgilab berdi va shu bilan bir qatorda ularning ta'minlanishining ham kafolatlariga ham aloxida e'tibor qaratildi. Mahkumlarning huquqiy holati 1997 yil qabul qilingan Jinoyat-ijroiya kodeksida xalqaro andozalar bilan moslashtirildi, unga alohida bob ajratildi. Avvalgi (1970 yil 24 iyundagi) Axloq tuzatish mehnat kodeksida bu narsaga faqat umumiy ta'rif berilgandi, xolos. Mahkumlar huquq va erkinliklarining poymol etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Davlat mahkumni jazolash bilan jazoning mohiyatidan kelib chiqadigan huquq va erkinliklardan mahrum qiladi va boshqa huquq va manfaatlarini qanday bo'lishidan qat'i nazar himoya qilishga majburdir.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 8-moddasida mahkumlar, ushbu Kodeks va boshqa qonunlarda belgilangan istisno hamda cheklashlar inobatga olingan holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar, deb belgilab qo'yilgan. Bu bilan davlat mahkumlarning huquqlarini erkin shaxslar qatori qonunan himoya qilishni o'z zimmasiga olganligidan dalolat beradi. Istisno yoki boshqa cheklashlar deyilganida sudning xukmi bilan shaxsni aybli deb topilishi va unga nisbatan jazo choralarining tayinlanishi natijasida ayrim huquqlarni va majburiyatlarning cheklanishiga sabab bo'lishi nazarda tutiladi. Boshqa huquq va manfaatlari deganda, jamiyat a'zoli, fuqarolik va oilaviy munosabatlari, mulkiy va boshqa huquqlari va hokazolar nazarda tutiladi. Mahkumlar jazo o'tash jarayonida ham fuqarolikdan kelib chiqadigan majburiyatlardan ozod etilishlari mumkin emas. Lekin, ayrim qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Masalan, shaxsni aybli deb topilishi va unga nisbatan ozodlikdan maxrum qilish jazosining tayinlanishi natijasida uning konstitutsiyaviy burchi bo'lgan xarbiy xizmat burchining bajarilishidan ozod qilinishi, farzand tarbiyasining bevosita bajarishdan ozod bo'lishi kabi majburiyatlardan ozod etilishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga saylash va saylanish huquqlaridan ham maxrum qilinadi. Mahkumlar ham boshqa erkin shaxslardek o'zlarining huquq va erkinliklarini shaxsan o'zlari yoki vakillari orqali himoya qilish huquqlaridan ham to'liq foydalanishlari mumkin, bunday huquqlarga cheklov qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat sodir etib, jazoga hukm qilingan ajnabiy fuqarolar yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquq va erkinliklardan foydalanadilar va shu bilan bir qatorda majburiyatlarini bajarishlari talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi jinoiy jazolarni ijro etish bo'yicha o'zaro o'sha davlat bilan imzolangan bitimlar asosida amalga oshiriladi, shunday bitim mavjud bo'lmagan hollarda xalqaro huquq normalariga rioya qilinadi.

Mahkumlar, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar. Mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquqlar, erkinliklarga ega bo'lishlari va majburiyatlarni bajarishlari mumkin.

Mahkumlarning asosiy huquqlari quyidagilar:

a) jazoni o'tash tartibi va shartlari to'g'risida, o'z huquqlari va majburiyatlari haqida axborot olish;

b) jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatiga, boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalariga o'z ona tilida yoki boshqa tilda taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilish;

v) tushuntirish berish xamda yozishmalar olib borish, zarur hollarda tarjimonning xizmatidan foydalanish;

g) o'z taklif, ariza va shikoyatlariga murojaat etilgan tilda javob olish. Murojaat etilgan tilda javob berishning iloji bo'lmagan taqdirda javob O'zbekiston Respublikasining davlat tilida beriladi;

d) o'quv, badiiy va boshqa xil axborot materiallaridan foydalanish;

e) sog'liqni saqlash, shu jumladan tibbiy xulosaga ko'ra ambulatoriya-poliklinika va statsionar sharoitda tibbiy yordam olish;

yo) ijtimoiy ta'minot, shu jumladan qonun hujjatlariga muvofiq pensiya olish;

j) mahkum ajnabiy fuqarolar, shuningdek o'z davlatlarining diplomatiya vakolatxonalari va konsullik muassalari bilan aloqa qilib turish.

Mahkumlarning asosiy huquqlari



Har bir jazoni ijro etuvchi muassasada ambulatoriya-poliklinikalari va statsionarlar mavjud, ya'ni mahkum kunduzgi bo'limda davolanishiga

ruxsat etiladi. Bu mahkumlarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilmayotganligidan dalolat beradi. Mahkumlar jazoni o'tayotgan muassasa kutubxonasidan foydalanishlari, televizor ko'rishlari, radio eshittirishlarni tinglashlari mumkin, majlislarda so'zga chiqishlari, devoriy gazetalarga ma'muriyat ruxsati va nazorati ostida maqolalar berishlari mumkin. Shuningdek, Respublikamizdagi barcha jazoni ijro etuvchi muassalarda mahkumlarning sport bilan shug'ullanishlari uchun ham sharoit yaratilgan.

Yuqorida mahkumlarning asosiy huquqlari berilgan bo'lib, mahkumlarga tayinlanadigan muayyan jazo turi, uni ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqib, boshqa huquqlar ham berilishi mumkin. Mahkumlarning o'z huquqlari va majburiyatlari to'g'risida, shuningdek, jazoni o'tash rejimi shartlari hamda muassasaning ichki tartib qoidalari to'g'risida ma'lumot olish huquqlari mustahkamlangan bo'lib, bu o'z navbatida jazoni ijro etuvchi muassasaga bunday ma'lumotlarni taqdim qilish majburiyatini yuklaydi.

Shu bilan birga mahkumlarning o'z ona tilida yoki boshqa tilda o'z nomidan ma'muriyatga, boshqa organ va jamoat birlashmalariga taklif, ariza va shikoyatlar bilan murojaat etish huquqi qonunda mustahkamlangan. Ma'lumki, ariza fuqarolarning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosi bayon etilgan murojaatidir, taklif fuqarolarning davlat va jamiyat faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarini o'z ichiga olgan murojaati bo'lsa, shikoyat fuqarolarning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi bayon etilgan murojaatidir. Yozma shikoyatlar va arizalarni mahkumlar faqat muassasa ma'muriyati orqali beradilar. Ushbu huquqlarning mantiqiy davomi bo'lib, mahkumlarning o'z taklif, ariza va shikoyatlariga murojaat etilgan tilda javob olish huquqlari hisoblanadi. Agarda mahkumning murojaatiga javob murojaat etilgan tilda berilmasa, uni tarjima qilish muassasa ma'muriyati tomonidan ta'minlanadi. Murojaat etilgan tilda javob berishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda, javob O'zbekiston Respublikasining davlat tilida beriladi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlarning murojaat qilish huquqlari O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2012 yil 29 dekabrda № 174-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari"da batafsil berilgan bo'lib, unga ko'ra yozma takliflar, arizalar va shikoyatlar ko'rsatilgan manzilga jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati orqali yuboriladi. Prokuror nomiga yo'llangan takliflar, ariza va shikoyatlar tsenzura qilinmaydi hamda ko'rsatilgan manzilga kechi bilan bir sutkalik muddat ichida yuboriladi. Taklif, ariza va shikoyatlarni muassasa

ma'muriyatini chetlab o'tib, qonunga xilof yo'llar bilan jo'natish muassasa rejimini buzish hisoblanadi.

Mahkum taklif, ariza va shikoyatni faqat o'z nomidan hamda faqat o'z shaxsiga taalluqli masalalar yuzasidan beradi. Shaxslar guruhi nomidan yoki boshqa mahkumlar uchun, shuningdek boshqa shaxslarga taalluqli holatlar yuzasidan taklif, ariza va shikoyatlar berishga ruxsat etilmaydi. Yo'qlovlar, posilkalar olish, uchrashuvlar, telefon orqali so'zlashuvlarga ruxsat olish, tibbiy yordam ko'rsatilishi, ashyoviy mol-mulk bilan ta'minlash masalalari hamda amalda jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati tomonidan hal etilishi mumkin bo'lgan boshqa masalalar yuzasidan yuqori idoralarga yuborilgan taklif, ariza va shikoyatlar bu idoralar yoki tegishli mansabdor shaxslar tomonidan ko'rib chiqilishi natijalarini kutib o'tirmasdan muassasaning o'zida hal etilishi mumkin.

Uyatli so'zlardan iborat taklif, ariza va shikoyatlar ko'rsatilgan manzilga yuborilmaydi, ularni yozgan shaxslarga intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi.

Yozma shaklda berilgan taklif, ariza va shikoyatlar jazoni ijro etish muassasalarining kantselyariyasida ro'yxatdan o'tkaziladi hamda uzog'i bilan uch kunlik muddat ichida ko'rsatilgan manzilga yuboriladi hamda arizachi bu xususda xabardor etiladi, og'zaki taklif, ariza va shikoyatlar mahkumlarni shaxsiy masalalar bo'yicha qabul qilish daftarida qayd etiladi. Taklif, ariza va shikoyatlarning ko'rib chiqilganligi natijalariga oid javoblar muassasaga kelib tushganidan keyin uzog'i bilan uch kunlik muddat ichida mahkumlarga ma'lum qilinib, bu haqda tilxat olinadi hamda bu narsa mahkumning shaxsiy yig'ma jildiga qo'shib qo'yiladi.

Taklif, ariza va shikoyatlarni yuborish bilan bog'liq harajatlar to'lovi mahkumlarning shaxsiy hisobvarag'idagi mablag'lar hisobidan amalga oshiriladi. Bunday mablag'lar bo'lmagan taqdirda harajatlar jazoni ijro etish muassasalarining ta'minoti harajatlari smetasi hisobidan amalga oshiriladi.

Mahkumlarga jazoni o'tash tartibi va shartlari bilan bog'liq xolda qonunlarni bajarish majburiyati ham yuklatilgan. Jumladan, axloq tuzatish ishlari turiqasidagi jazoga hukm qilingan mahkumlar o'z xohishiga ko'ra mehnat shaklini tanlay olmaydi va shu bilan birga mehnati uchun olgan ish haqining 10% dan 30% gacha (sud hukmi asosida) miqdoridagi pul summasini davlat byudjetiga o'tkaziladi.

Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari mahkumlarning ozodlikdan mahrum qilish huquqiy holatlarini o'zida aks ettiradi.

Ozodlikdan mahrum qilish joylarining tartib turiga qarab mahkumlar huquqiy holati bir-biridan farq qiladi. Jamiyatda uning ba'zi bir ijtimoiy huquqlari cheklanadi, buni alohida qonunlarda berib bo'lmaydi. Masalan, Oila kodeksining 43-moddasi 1-qism 3-bandiga binoan, er-xotindan biri sodir qilgan jinoyati uchun 3 yildan kam bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan uch yil birga yashamagan taqdirda, ulardan birining arizasiga ko'ra nikoh bekor qilinishi mumkin.

Mahkumlar advokatlardan malakali yuridik yordam olish huquqiga ega. Yuridik yordam olish uchun advokatlar bilan uchrashuv mahkumlarga arizasiga ko'ra beriladi. Mahkumlarning advokatlar bilan uchrashuvlar miqdori cheklanmagan. Ularning advokatlar bilan uchrashuvi tartibi Jinoyat-ijroiya kodeksi (10-modda) va qonun xujatlari asosida belgilab qo'yilgan. Mahkumning advokat olish tartibi: jazoni o'tayotgan joy ma'muriyatiga yozma ariza bilan murojat qiladi va bunda ma'muriyat umumiy qoidalarga ko'ra ruxsat beradi. Mahkum jazoni o'tayotgan joyda favqulodda holat joriy etilsa yoki karantin e'lon qilinganda yuridik yordam olishga ruxsat etilmaydi. O'z o'rnida mahkumni himoya qilayotgan advokat uchrashuvga kirayotganida shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishi shart. Mahkumning advokat bilan uchrashuvlar soni va muddati chegaralanmagan, ma'muriyat tomonidan barcha sharoitlar yaratib beriladi. Mahkumning advokat bilan uchrashish tartibi IIV qoidalarida ko'rsatilgan.

1992 yil 8 dekabrda kabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida vijdon erkinligi barcha uchun kafolatlanadi (31-modda) deb yozilgan. Prezidentimiz I.A.Karimov: «Jamiyat xayotining bir qismi bo'lgan din ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan muqarrar ravishda munosabatda bo'lgan. Ularga ta'sir ko'rsatgan va o'zi xam boshqa sohalarning ta'siriga duch kelgan», -deb aytgan edi [Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. – Toshkent: O'zbekiston, 1997 yil. – B. 37]. Jinoyat-ijroiya kodeksining 12-moddasida xam «mahkumlarga vijdon erkinligi kafolatlanadi. Ular har qanday dinga e'tiqod qilishga yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikka haqli.

Qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan shaxslar xuzuriga, ularning iltimosiga kura, belgilangan tartibda ruyxatdan o'tgan diniy birlashmalarning ruxoniylari taklif etiladi. Mahkumlarga diniy odatlarni ado etish imkoniyati beriladi. Diniy rasm-rusumlarni ado etish ixtiyoriy bo'lib, bu narsa jazoni ijro etuvchi muassasaning ichki tartib qoidalarini buzmasligi, shuningdek boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitmasligi lozim», - deb belgilangan. Diniy urf-odatlarini amalga oshirishga ma'muriyat ruxsati bilan boshqa mahkumlarga ta'sir etmagan xolda, ichki tartib-intizomni va ish vaqtini buzmagani holda ruxsat

etiladi. Mahkum ma'muriyatga ariza bilan murojaat qilganda faqatgina belgilangan qonunlarga ko'ra ro'yxatdan o'tgan diniy tashkilotlar bo'lishi kerak. Ularning ish haqi mahkumning har oylik maoshidan beriladi. Mahkumlar turli xildagi diniy gazeta va jurnallarni o'qishi mumkin. Mahkum diniy xodim bilan uchrashadigan kuni jazoni ijro etuvchi muassasasidagi mehnatdan ozod etiladi.

Mahkumlarning huquqiy holati eng avvalo majburiyatlardan iborat. Bu sudning hukmida jazo uchun belgilangan majburiyatlardan kelib chiqadi. Mahkumning huquqiy holatidagi dastlabki cheklanishi mahkumga belgilangan jazo turiga bog'liq bo'ladi. U ozodlikdan mahrum qilinadi, jamiyatdan ajratiladi, o'zining oilasi, yoru-birodarlaridan uzoqda bo'ladi, erkin harakatlanish, ish tanlash, yashash joyini tanlash, xohlagan kiyimda yurish (manzil koloniyalari bundan istisno) huquqidan to'la mahrum bo'ladi. Shuningdek, umumjamoa qoidalarini bajarishga majbur: o'zining yotish va yurish joylarini ozoda saqlash, shaxsiy gigienaga rioya qilish, ichki tartib-qoidalariga buysunishlari shart.

Quyidagilar mahkumning asosiy majburiyatlari sanaladi:

- jazoni o'tash tartibi va shartlariga rioya etish;
 - jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatining qonunga asoslangan talablarni bajarish.
-

Majburiyatni bajarishdan bosh tortish qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka sabab bo'ladi.

Mahkumlar huquqiy holatining qonuniy tus berilganligi inson huquqlari eng oliy qadriyat ekanligidan dalolat berishligi bilan bir qatorda jinoyat-ijroiya huquqining insonparvarlik printspiga asoslanishi bilan izohlanadi. Zero, mahkum qanday jinoyat sodir etishidan qat'i nazar unga xudo tomonidan yaratilgan eng buyuk mo''jiza-inson nazari bilan qarash, uni jamiyat uchun kerakli shaxs qilib qayta tarbiyalashda namoyon bo'ladi. Masalan, axloq tuzatish ishlariga jalb qilingan mahkumni jazolash vositasi sifatida qayta tarbiyalash emas, unga hunar o'rgatish, o'z mehnati bilan xalq orasida obro'-e'tiborga ega bo'lishiga zamin yaratiladi, ko'maklashiladi.

Mahkumlar huquqiy holatining belgilanishidagi eng asosiy jihat-qonunlar ijrosini bir xilligi ustidan nazoratni prokuratura organlari qonuniylikka asoslanib ish olib borishlarida aks etadi.

Mahkumni qayta tarbiyalashda ikki muhim narsa mavjud:

- 1) mahkum o'z xatosini tushunib yetmog'i;
- 2) mahkum o'z mehnati bilan xalq va jamoa orasida obro'-e'tibor qozonishi, mehnat qilishi;

Shuningdek, mahkumlar o'rtasida o'zining tartib buzarligi, yomon xulqi bilan ajralib turuvchi mahkumga turli xildagi jazo choralari ham qo'llanilishi mumkin. Masalan: tinchlantirish ko'ylagi, kartser va boshqalar.

Mahkumning qayta tarbiyalanishida jazoning adolatliliigi, jazoni ijro etuvchi koloniyadagi muhit, huquq va majburiyatlardan to'liq foydalanish ham katta rol o'ynaydi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, mahkumlarning ijtimoiy-huquqiy maqomini to'g'ri belgilanishi, ularni jamiyat uchun kerakli shaxs qilib qayta tarbiyalash huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari uchun birlamchi vazifa sanaladi.

Mahkumlarning huquqiy maqomini belgilab beruvchi bir qator xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar (standartlar) majmui mavjud. Bular turkumiga birinchi navbatda BMTning mahkumlarning huquqiy maqomiga oid Paktni kiritish mumkin. U o'z o'rnida bir nechta xalqaro me'yoriy hujjatlarga bo'linadi. Masalan:

- 1) 1955 yilda qabul qilingan mahkumlar bilan olib boriladigan so'zlashuvga minimal standartli xalqaro hujjat;
- 2) 1979 yil qabul qilingan mansabdor shaxslarning jazoni ijro etish organlarida nazorat olib borishda o'zini tutish qoidalari Kodeksi;
- 3) 1985 yil qabul qilingan voyaga yetmagan mahkumlarning huquqiy maqomini belgilovchi xalqaro hujjat va hokazo;
- 4) 1987 yil qabul qilingan «Evropa turmalari qoidasi»;

Respublikamiz mustaqillika erishgach BMTning bu standart xalqaro hujjatlarini qabul qilingan, yangi Jinoyat-ijroiya kodeksi moddalariga implementatsiya qildi. Jinoyat-ijroiya huquqidagi insonparvarlik va demokratizm printsplarining belgilab qo'yilishi fikrimizga misol bo'la oladi. Mahkumlar xuddi shu printsplarga asosan bir qator huquq va majburiyatlardan foydalanishlari mumkin. Bu ham o'z navbatida mahkumni qayta tarbiyalanishida muhim rol o'ynashi shubhasiz. Masalan: mahkumning posilka, telegramma olish huquqlari, telefon so'zlashuvlari, oziq-ovqat mahsulotlari, mavsumga oid kiyim-kechak olishlari, yaqinlari bilan uchrashuvlar, barcha erkin fuqarolarga o'xshab bepul tibbiy xizmatdan foydalanishlari qonunda o'z aksini topgan.

Nazorat uchun savollar:

1. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga asosan maxkumlar ozod fuqarolar foydalanadigan barcha huquqlardan foydalanadilar.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu tartibni muhokama eting.

2. O'zbekiston Respublikasida mahkumlarga vijdon erkinligi kafolatlanadi. Ular har qanday dinga e'tiqod qilishga yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikka haqlidirlar.

Ushbu holatni tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda muhokama qiling.

3. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga asosan maxkumlarning majburiyatlari tegishli qonun hujjatlari asosida belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya kodeksiga asosan ushbu holatga baho bering va maxkumlarning majburiyatlarini tushuntirib bering.


4. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga asosan maxkumlarga yuridik yordam olish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga asosan ushbu holatga baho bering va maxkumlarning yuridik yordam olish huquqlarini tushuntirib bering.

JAZOLARNI VA BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA'SIR ChORALARNI IJRO ETUVCHI MUASSASALAR VA ORGANLAR ULAR FAOLIYATINI TEKSHIRISH VA NAZORAT QILISH

Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalar tushunchasi. Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalar tizimi. Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyatini tekshirish hamda nazorat qilish. Prokuror nazorati. Davlat xokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan tekshirish. Jazoni o'tash joylariga kirish.

Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalar tushunchasi



O'zbekiston Respublikasida jinoiy jazolarni va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralari ijro etish turli xil organlarga yuklatilgan.

Jarima tariqasidagi jazo O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti tomonidan ijro etiladi.

Jinoiy jazolarning va ayrim jinoiy-huquqiy ta'sir chorasining ijro etilishi O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligiga yuklangan. Jumladan, muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, qamoq, ozodlikdan mahrum qilish (muddatli, uzoq muddatli va umirbod) jazolari va shartli hukm qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi.

Ichki Ishlar organlari va muassasalari (manzil-koloniya, jazolarni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari va turmash jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi davolash muassasalari) ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etadilar.

Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Axloq tuzatish ishlari korxonalarida, muassasalarda va tashkilotlarda ham o'talishi mumkin. Bu holda jazo ijrosini ta'minlash korxona raxbari zimmasiga yuklatiladi. Korxona raxbari ijro organi bo'lmasda, sudning ushbu jazoni o'talishi xaqidagi xukmini bajarilishini ta'minlaydi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar jazoni hukm chiqarilgan joydagi maxsus qamoq uylarida o'taydilar. Qamoq uylari ichki ishlar organlari tomonidan tashkil etilishi, ijrosini ta'minlash va nazorat qilishlari lozim.

Shartli hukm qilinganlar ustidan nazorat qilish ham ichki ishlar organlariga yuklatilgan.

Harbiy xizmatchilarga nisbatan jinoyat sodir etib jazo tayinlanganida: xizmat bo'yicha cheklash va muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo, shuningdek shartli hukm qilingan harbiy xizmatchi xizmatni o'tayotgan joydagi harbiy qismlarning (muassasalarning) qo'mondonligi tomonidan; qamoq tariqasidagi jazo - garnizon gaupvaxtalari tomonidan; intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazo - maxsus tashkil etilgan harbiy qismlar tomonidan ijro etiladi.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo mazkur unvonni bergan organ tomonidan ijro etiladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari: ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan ruhiy kasallarga nisbatan - sog'liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan; alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarga nisbatan - sog'liqni saqlash organlarining tibbiy muassasalari tomonidan, ular ozodlikdan mahrum etish yoki qamoq jazosiga hukm qilingan taqdirda esa - ichki ishlar organlarining tibbiy muassasalari tomonidan ijro etiladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari: jabrlanuvchidan uzr so'rash, yetkazilgan zararni to'lash yoki bartaraf etish majburiyatini yuklash - sud tomonidan; maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish - xalq ta'limi organlari tomonidan ijro etiladi.

Jinoiy jazolarni va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish u yoki boshqa organlarga yuklatilgan bo'lishiga qaramay ijro etishning qonuniyligi yuzasidan albatta prokuror nazorati ham o'rnatiladi. Bu jazolarni va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini ijro etuvchi organlarning ustidan ham nazorat o'rnatilganligini anglatadi.

Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalar tizimi

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida jazolarni o'rganish va ularni talqin qilishni osonlashtirish maqsadida jazolar ma'lum bir tizimga solingan. O'zbekiston Respublikasida jazolarni va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralarni turli xil ijroiya va sud xokimiyatiga kiruvchi organlar va muassasalar ijro etadi. Jinoyat-ijroiya huquqi jazolarni ijro etuvchi organ va muassasalarning har xil ekanligini hisobga olib, alohida institut sifatida o'rganiladi. Masalan, qamoq jazosi IIVning jazolarni ijro etish bosh boshqarmasi, xizmat bo'yicha cheklash jazosi Mudofaa vazirligining maxsus harbiy qismlari qo'mondonligi tomonidan ijro qilinadi. Harbiy xizmatchilarga qamoq jazosi qo'llanganda Mudofaa vazirligining garnizon gauptvaxtalari tomonidan ijro etilishi ham e'tiborga loyiq.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 14-moddasiga 2003 yil 30 avgustda o'zgartirish kiritildi:

«Jarima tariqasidagi jazo O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti tomonidan ijro etiladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, qamoq, ozodlikdan mahrum qilish Ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish to'g'risidagi hukm talabi mahkumning ish joyidagi ma'muriyat tomonidan, shuningdek tegishli faoliyat turlari bilan shug'ullanishga berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organlar tomonidan ijro etiladi.

Harbiy xizmatchilarga nisbatan:

- xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazo – harbiy xizmatchi xizmatini utayotgan joydagi harbiy qismlarning (muassasalarning) qo'mondonligi tomonidan;

- qamoq tariqasidagi jazo – garnizon gaupvaxtalari tomonidan;

- intizomiy qismga jo'natish to'g'risidagi jazo – maxsus tashkil etilgan harbiy qismlar tomonidan ijro etiladi;

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo mazkur unvonni bergan organ tomonidan ijro etiladi».

Jazolarni ijro etuvchi organ va muassasalar turli vazifalarni bajaradilar. Davlatning jazolarni ijro etish funksiyasini amalga oshiruvchi organlar, eng avvalo, ixtisosligiga qarab ajratilgan. Bular:

- a) ichki ishlar organlari;

- b) sud organlari;

- s) harbiy qism qo'mondonliklari.

Bu masala bevosita ularning ichki tartib qoidalariga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Jumladan, Ichki ishlar organlari zimmasiga muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, qamoq, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish yuklatilgan. Bu organ asosiy jazolarni ijro etish organi bo'lib hisoblanadi. Chunki bu organga jazo tizimidagi jazolarning ko'pchilik qismini ijro etish vakolati berilgan. Xorijiy mamlakatlarda bo'lsa Ichki ishlar organlari zimmasiga qo'shimcha vakolatlar ham yuklatilgan. Shartli hukm qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat Ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Sudlarga, Jinoyat-ijroiya kodeksi bo'yicha jarima va mol-mulkni musodara qilish jazosini ijro etish yuklatilgan edi. Shuningdek, harbiy yoki boshqa maxsus unvonlardan mahrum qilish sudlar tomonidan ijro etilishi nazorat qilinardi.

2003 yil 30 avgustda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilgan o'zgartirish natijasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti zimmasiga faqatgina jarima tariqasidagi jazoni ijro etish yuklatilgan.

Harbiy xizmatchilarga nisbatan tayinanadigan jazolardan – xizmat bo'yicha bo'yicha cheklash jazosini harbiy xizmatchi xizmatni o'tayotgan joydagi harbiy qismlarning qo'mondonligi tomonidan, harbiy xizmatchiga

qo'llanilgan qamoq jazosini Mudofaa vazirligi tomonidan tashkil qilinadigan garnizon gaupvtaxtalari tomonidan, intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazo esa maxsus tashkil etilgan harbiy qismlar tomonidan tashkil etiladi. Yangi kiritilgan o'zgartirishga asosan harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo mazkur unvonni bergan organ tomonidan ijro etiladi.

Yuqorida ta'kidlanganlardan tashqari, jazoni ijro etish muassasalari ozodlikdan mahrum etilgan yoki qamoq jazosiga hukm qilingan alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandalikka yo'liqqan mahkumlarning jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ham ijro etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat – ijroiya kodeksining 15-moddasida boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi muassasa va organlar ko'rsatib utilgan. Bunday jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ikki turga bo'linadi:

A) shartli hukm qilish

B) tibbiy yo'sindagi majburlov choralari;

V) voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari:

- ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan ruhiy kasallarga – Sog'liqni saqlash organlari tibbiy muassasalari tomonidan;

- alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandalikka yo'liqqan mahkumlarga nisbatan - Sog'liqni saqlash organlari tibbiy muassasalari tomonidan;

- ular ozodlikdan mahrum etishg yoki qamoqqa hukm qilingan taqdirda – Ichki ishlar organlarining tibbiy muassasalari tomonidan ijro etiladi;

Sudning qaroriga kura tanosil yoki OITS kasalligiga, shuningdek, ochik shakldagi sil kasalligiga chalingan mahkumlarga majburiy da'volvnish shart.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining VII bo'lim, XVII bob, 91-96 moddalari aynan tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga bag'ishlangan.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga quyidagilar kiradi:

A) Majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish;

B) Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish;

S) Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog'liqni tiklash maxsus bo'limida majburiy davolanish;

D) Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'linmasida majburiy davolanish; (JK 93-modda)

Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari:

- jabrlanuvchidan uzr so'rash, yetkazilgan zararni to'lash yoki bartaraf etish majburiyatini yuklash – sud tomonidan;

- maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish – Xalq ta'limi organlari tomonidan ijro etiladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari sud tomonidan ijro etiladi. Voyaga yetmaganlarning jabrlanuvchidan uzr so'rashi og'zaki yoki yozma, omma oldida yoki alohida so'rash tartibi mavjud. Shuningdek, uzr so'ralish vaqti, joyi va tartibi sud tomonidan belgilab beriladi.

Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi muassasa va organlar faoliyatini tekshirish hamda nazorat qilish

Jinoyat – ijroiya kodeksi 16-18 moddalarida jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalarni davlat xokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan jazolarni ijro etishni tekshirish belgilangan.

Jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi organ va muassasalarni tekshirish davlat xokimiyati organlari va boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tekshiruv keng doirada amalga oshiriladi va bir qator masasalalar yuzasidan muhokama qilinadi. Bunday masasalalar sirasiga mahkumlarni bir koloniya turidan boshqa turdagi koloniyaga o'tkazishdan komissiya faoliyatigacha qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra hokimiyatlar bo'linishi printsipli, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati mavjud. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni, ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda tekshiradilar, deyiladi.

Prokuror nazorati

Bunday tekshiruvlar bevosita prokurorni jalb qilgan holda ham bo'lishi mumkin. Mazkur holat Jinoyat-ijroiya kodeksining 17-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

Jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etish chog'ida **qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni** Uzbekiston Respublikasi Bosh Prokurori va unga buysinuvchi prokurorlar qonunda belgilangan tartibda amalga oshradilar.

Asosiy Komusimiz - Kostitutsiya va «Prokuratura to'g'risida»gi qonunga ko'ra Respublikamiz hududida qonunlar ijrosi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokurori va unga buysinuvchi prokurorlar amalga oshiradi. Jazolarni ijro etish chogida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuror quyidagi vazifalarni bajaradi:

- mahkumlarning belgilangan qonuniy huquq va majburiyatlari buzilmayotganligi;

- jazolarning qonuniy tarzda ijro etilayotganligi;

Prokuror tomonidan e'tibor beriladigan eng muxim jihat bu jazolarni ijro etish bo'yicha huquqiy hujjatlar bo'lib hisoblanadi, unda mahkumlarning huquqiy holati, moddiy jihatdan ta'minlanishi va tibbiy xizmat ko'rsatish joy olgan.

Qonunlarni bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida prokuror tizimlashtirilgan tartibda jazoni ijro etuvchi muassasalarni tekshirib turishi shart. Shu sababli prokuror bir qator huquqlarga («Prokuratura to'g'risida» gi qonun 24-modda) ega:

- xohlagan paytda jazoni ijro etuvchi muassasaga, xohlagan xonaga ruxsatsiz kirishi,

- xohlagan mahkum yoki boshqa shaxs bilan suhbatlashishi va ma'lumotlar olishi;

- bu joylarda mahkumlarning mavjudligini qonunga muvofiqligini tekshirish, agar qonunga xilof tarzda saqlanayotgan mahkumni aniqlasa, darhol chiqarib yuborish huquqiga ega.

- g'ayriqonuniy holat bo'yicha, ma'muriyat boshqarmasiga nisbatan chora ko'rish.

Davlat xokimiyati va boshqaruv organlari tomonidan tekshirish. Jazoni o'tash joylariga kirish.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 18-moddasiga ko'ra jazoni o'tash joylariga davlat hokimiyati organlari va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari, ommaviy axborot vositalari vakillari va boshqa shaxslar jazoni ijro etuvchi muassasalar va organlarga kirish huquqiga egaligi va bu qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilganligi yozilgan. Jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida bu turdagi shaxslarga jazoni o'tash joylariga kirishga ruxsat etilgan.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari, ommaviy axborot vositalari vakillari va boshqa shaxslar **jazoni ijro etuvchi muassasalar va organlarga kirish huquqiga ega.**

Davlat xokimiyatining boshqaruv organlari sirasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Maxkamasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputatlarini kiritishimiz mumkin.

Davlat hokimiyatining boshqaruv organlari esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Maxkamasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputatlari hisoblanadi.

Boshqa shaxslar sirasiga ommaviy axborot vositalari, din vakillari, mahkumning qarindoshlari, advokatlari kiradi.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 18-moddasining 3-qismida mahkumlarning kino-, foto-, vidotasvirga tushirish va ulardan intervyu olishga ularning yozma roziligi bo'lgan taqdirda, mahkumlar xavfsizligini va qo'riqlanishini ta'minlovchi ob'ektlarni tasvirga olishga esa, jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ruxsati bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi deb bayon qilingan.

Nazorat uchun savollar:

1. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etuvchi muassasalar va organlar faoliyatini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda tekshiradilar.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu tartibni muhokama eting.

2. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga asosan O'zbekiston Respublikasida jazolarni ijro etish organlarini tegishli vazirliklar tomonidan tashkil etiladi.

Ushbu holatni muxokama qiling va O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga asosan O'zbekiston Respublikasida jazolarni ijro etish organlarini tashkil etish tartibini tushuntirib bering.

3. O'zbekiston Republikasida davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari, ommaviy axborot vositalari vakillari va

boshqa shaxslar jazoni ijro etuvchi muassasalar va organlarga kirish huquqiga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga asosan ushbu holatni taxlil eting.


4. O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga asosan harbiy xizmatchilarga tayinlangan xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazo - harbiy xizmatchi xizmatni o'tayotgan joydagi harbiy qismlarning (muassasalarning) qo'mondonligi tomonidan; qamoq tariqasidagi jazo - garnizon gaupvaxtalari tomonidan; intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazo - maxsus tashkil etilgan harbiy qismlar tomonidan ijro etiladi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlariga asosan xizmat bo'yicha cheklash, qamoq va intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazolarni ijro etish organlari va ularning vazifalaini muxokama qiling.

JARIMA, MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH VA AXLOQ TUZATISH ISHLARI TARIQASIDAGI JAZOLARNI IJRO ETISH

Jarima jazosini ijro etish tartibi. Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazosini ijro etish tartibi. Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazosini ijro etish tartibi.

Jarima jazosini ijro etish tartibi



O'zbekiston Respublikasi JKning 44-moddasiga muvofiq, jarima jazosi aybdordan davlat daromadiga Jinoyat kodeksida belgilangan miqdorda pul undirilishida ifodalanadi.

Jarima alohida hujjat bilan ijro etiladigan jazo turi bo'lib, hukm qonuniy kuchga kirishi bilan jarimaning ijro etilish vaqti boshlanadi va sud

hukmda tayinlangan jarima miqdori davlat daromadi hisobiga to'lanishi lozim.

Mazkur jazo eng avvalo aybdor shaxsning moddiy ahvoriga ta'sir ko'rsatadi. Ayni shu sababli u eng samarali jazo hisoblanadi va muayyan hollarda aybdorni jamiyatdan ajratmaslik imkoniyatini beradi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 44-moddasiga muvofiq, jarima eng kam oylik ish haqining besh baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda va faqat asosiy jazo tariqasida tayinlanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida" 2006 yil 3 fevraldagi 1-son qarorida jarima tariqasidagi jazoni qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan bo'lib, jumladan, jarima tariqasidagi jazo tayinlanganda hukmning qaror qismida jarima miqdori bilan bir qatorda uning jinoyat sodir etilgan vaqtdagi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kelib chiqib hisoblangan, pul birligida ifodalangan jami summasi ham ko'rsatilishi lozim.

E'tiblorli tomoni jarima tariqasidagi jazoni tayinlash va miqdorini belgilashda sud, odatda, uning amalda to'lana olinishi imkoniyatidan kelib chiqishi lozim. Bunda, chunonchi, sudlanuvchining moddiy ahvoli, shuningdek qaramog'ida voyaga yetmaganlar farzandlari, keksa ota-onasi borligi va hokazolar inobatga olinishi lozim [O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari to'plami. 1991-2006. T.2. – T.: Adolat, 2006. – B. 227].

Jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan voyaga yetgan shaxs jarimani hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida, voyaga yetmagan shaxs esa olti oy ichida ixtiyoriy ravishda to'lashi shart. Jarima jazosini ijro etishda sud mahkumni jarimani to'lash tartib-qoidalari bilan tanishtiradi, to'lash muddatlarini tushuntiradi, to'lov shakli va to'lashdan bo'yin tovlaganlik oqibatlarini to'g'risida ogohlantiradi. Agarda mahkum qonunda belgilangan muddat mobaynida jarimani ixtiyoriy ravishda to'lamasa, unda jarima sud ijrochisi tomonidan majburiy tartibda undirib olinadi.

O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustda qabul qilingan va 2002 yil 1 yanvardan kuchga kirgan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunining 30-moddasiga muvofiq "ijro harakatlari va ijro hujjatining talablari ijro hujjatining ixtiyoriy ijro etilishi uchun belgilangan muddat tugagan kundan e'tiboran ko'pi bilan ikki oy muddat ichida sud ijrochisi tomonidan amalga oshirilishi va ijro etilishi

kerak”. Demak, mazkur normaga ko’ra jarima jazosini majburiy ijro etish muddati ikki oydan oshmasligi lozim.

E’tiborli tomoni shundaki, yuqoridagi ikki oylik muddatga ijro hujjati ijrosini kechiktirish yoki bo’lib-bo’lib ijro qilish, ijro harakatlarini keyinga qoldirish, ijro ishi yuritishni to’xtatib turish, mutaxassis tayinlash haqidagi qaror mutaxassisga yuborilgan kundan to uning xulosasi yoki ish natijalari to’g’risidagi boshqa hujjat sud ijrochisiga kelib tushgunigacha bo’lgan va mol-mulk realizatsiya qilishga topshirilgan kundan to bu mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan pul mablag’lari Sud departamenti organining depozit hisobvarag’iga kelib tushgunigacha bo’lgan vaqt kirmaydi.

O’n sakkiz yoshga to’lmasdan jinoyat sodir etgan va jarima tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxslarga nisbatan ushbu jazo majburiy undirilmaydi.

JIKning 19-moddasi 3-qismiga muvofiq, agar belgilangan muddatda jarimani to’liq miqdorda to’lashga mahkumning imkoni bo’lmasa, sud uning iltimosnomasiga ko’ra hukmning ijrosini Jinoyat-protsessual kodeksining 533-moddasida belgilangan tartibda kechiktirishi yoki jarimani bo’lib-bo’lib to’lashga ruxsat berishi mumkin.

JPKning 533-moddasi 2-qismiga muvofiq, “hukmning jarima solish, fuqaroviy da’voni qanoatlantirish yoki keltirilgan ziyonni qoplash qismining ijro etilishini olti oygacha kechiktirish yoki to’lovlarni bo’lib-bo’lib to’lash masalasini sudya ishning muayyan holatlarini va mahkumning moddiy ahvolini e’tiborga olib hal qiladi”.

O’zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to’g’risida”gi qonunining 32¹-moddasiga muvofiq, agar hukm qilingan shaxs jazo tariqasida tayinlangan jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda to’lashdan bo’yin tovlasa yoxud qarzdorda undiruv qaratilishi mumkin bo’lgan mol-mulk mavjud emasligi tufayli majburiy ijro etish uchun belgilangan muddat mobaynida jarimani undirishning imkoni bo’lmasa, xuddi shuningdek kechiktirish muddati tugaganidan keyin jarima to’lanmagan yoki jarimani bo’lib-bo’lib to’lash shartlari buzilgan taqdirda, sud ijrochisi jarima tariqasidagi jazoni jazoning boshqa turi bilan almashtirish to’g’risidagi taqdimnoma bilan sudga o’n kunlik muddat ichida murojaat qiladi.

JIKning 20-moddasiga muvofiq, mahkumning jarimani to’lashdan bo’yin tovlashi bu jazoni Jinoyat kodeksining 44 va 82-moddalarida nazarda tutilgan tartibda va doirada boshqa jazo bilan almashtirishga sabab bo’ladi.

JKning 44-moddasiga ko’ra, agar hukm qilingan shaxs jazo tariqasida tayinlangan jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda to’lashdan bo’yin tovlasa yoxud qarzdorda undiruv qaratilishi mumkin

bo'lgan mol-mulk mavjud emasligi tufayli majburiy ijro etish uchun belgilangan muddat mobaynida jarimani undirishning imkoni bo'lmasa, xuddi shuningdek kechiktirish muddati tugaganidan keyin jarima to'lanmagan yoki jarimani bo'lib-bo'lib to'lash shartlari buzilgan taqdirda, sud jarimaning to'lanmagan miqdorini axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi. Bunday holda axloq tuzatish ishlari yoki xizmat bo'yicha cheklash yoxud ozodlikdan mahrum qilishning har bir oyi eng kam oylik ish haqining o'n olti baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga, qamoqning har bir oyi esa, eng kam oylik ish haqining yuz baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, olti oydan ko'p bo'lmagan muddatga tayinlanadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etish tartibi

MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH

Shaxsni muayyan huquqdan mahrum qilish sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishini taqiqlashdan iboratdir.

asosiy jazo tariqasida tayinlanganda

*bir yildan besh yilgacha muddatga
belgilanadi.*

*qo'shimcha jazo tariqasida
tayinlanganda*

*bir yildan uch yilgacha muddatga
belgilanadi.*

Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tushunchasi va uni ijro etish tartibi JKning 45-moddasi, JIKning VI bobi 21-25 moddalarida hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2001 yil 17 noyabrdagi 298-sonli «Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid yo'riqnoma»sida o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston Respublikasi JK 45-moddasiga muvofiq, "Shaxsni muayyan huquqdan mahrum qilish sud tayinlagan muddat davomida aybdorning korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlarda u yoki bu mansabni egallashini yoxud u yoki bu faoliyat bilan shug'ullanishini taqiqlashdan iboratdir. Ana shunday mansab yoki faoliyatning turi sud tomonidan ayblovluk hukmida ko'rsatiladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorning mansabi yoki ish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan jinoyatni sodir etganligi uchun asosiy jazo tariqasida tayinlanganda — bir yildan besh yilgacha muddatga, qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanganda — bir yildan uch yilgacha muddatga belgilanadi.

Agar muayyan huquqdan mahrum qilish aybdorga asosiy jazo tariqasida tayinlanmagan bo'lsa, bunday jazo sud tomonidan ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan har qanday turdagi jazoga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanishi mumkin. Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish yoki qamoq jazosiga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan bo'lsa, asosiy jazoning butun muddatiga, bundan tashqari sud hukmi bilan tayinlangan muddatga joriy etiladi. Bu jazo boshqa asosiy jazolarga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlanganda va mahkum shartli hukm qilinganda uning muddati hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab hisoblanadi".

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining ijrosi qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga (ajrimiga) muvofiq amalga oshiriladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilinganlar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida va sud hukmida ko'zda tutilgan cheklanishlardan tashqari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun qonunlarda belgilangan barcha huquqlardan foydalanadilar.

JIKning 21-moddasiga ko'ra "Muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoga qo'shimcha ravishda tayinlangan muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning ijrosi asosiy jazoni ijro etuvchi organ tomonidan amalga oshiriladi".

Muayyan huquqdan mahrum qilish to'g'risidagi sud hukmi ijrosini nazorat qilishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi IIV HOOBB Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijrosini nazorat qilish boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIB HOOB ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijrosini nazorat qilish bo'lim va bo'linmalari zimmlariga yuklatilgan. Joylarda (shahar va tumanlarda) sud hukmlarining ijrosini mahkumlarning turar joylari bo'yicha IIB HOOB jazoni ijro etish inspeksiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi axloq tuzatish ishi, intizomiy qismga jo'natish yoki qamoq jazosiga qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan bo'lsa, asosiy jazoning butun muddatiga, bundan tashqari sud hukmi bilan tayinlangan muddatga joriy etiladi va uning muddati hukm qonuniy kuchga kirgan vaqtdan boshlab hisoblanadi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish qo'shimcha jazo tariqasida tayinlangan hollarda asosiy jazoni ijro etayotgan muassasa ma'muriyati

asosiy jazo muddatining tugashiga 20 kun qolganda, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilganda yoki jazo yengilroq jazo bilan almashtirilganda ozod etish kuni u yashagan turar joydagi ichki ishlar bo'limiga hukmning nusxasini yuboradi. Ozod etilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomada ham qo'shimcha jazo mavjudligi ko'rsatilishi shart.

Jazolarni ijro etish inspeksiya sinining majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- muayyan huquqdan mahrum qilingan mahkumlarni ro'yxatga oladi;
- mahkum ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyatiga va (yoki) muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organga hukm talablarini ijro etish to'g'risida xabarnoma yuboradi;
- mahkumning hukmda ko'rsatilgan taqiqlarga rioya etishini tekshiradi;
- mahkum ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati, shuningdek muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli organlar tomonidan hukm talablari qanday bajarilayotganligini tekshiradi.
- mahkum harbiy yoki muqobil xizmatga chaqirilgan yoxud kirgan taqdirda inspeksiya hukmning nusxasini mudofaa ishlari bo'limiga yoki mahkum xizmatni o'tayotgan joyga yuboradi;
- hukm talablarining bajarilmayotganligi aniqlangan hollarda aybdorlarga nisbatan amaldagi qonunchilikka asosan tegishli choralar ko'radi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi IIB HOOB jazoni ijro etish inspeksiya lari tomonidan mahkumni hisobga olinishi uchun asos hisoblanadi.

Suddan ozodlikdan mahrum qilish joylaridan kelib tushgan hukm nusxasi IIBda ro'yxatiga olinib, rahbariyatning yozma ko'rsatmasiga binoan jazoni ijro etish inspeksiya si xodimiga topshiriladi.

Shu kunning o'zida mahkumlarni Ichki ishlar vazirligining 2001 yil 17 noyabrdagi 298-sonli «Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid yo'riqnoma»siga muvofiq hisobga olish jurnalida qayd qilinib, unga nisbatan yig'ma jild ochiladi. Hukm chiqargan sudga mahkumning hisobga olinganligi to'g'risida zudlik bilan xabarnoma yuboriladi.

Ichki ishlar bo'limining pasport bo'limiga mahkumlarning turar joyini o'zgartirish hollarini nazorat qilib turish uchun qo'riqchi varaqasi to'lg'azib yuboriladi. Bunda pasport bo'limi quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

a) mahkum turar joyini o'zgartirmoqchi bo'lganida bu haqda jazoni ijro etish inspeksiyasiga darhol xabar qiladi hamda nazorat varaqasiga tegishli yozuv kiritadi;

b) ozodlikdan mahrum qilish joylaridan kelgan mahkumlarni ro'yxatga olish davrida ularning ma'lumotnomasida muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo to'g'risidagi belgi bo'ladigan bo'lsa, bu haqda ham jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimiga darhol xabar berishi kerak. Inspeksiya xodimi bu xabarni olishi bilan uning hukmini so'rab u jazo o'tagan joyga so'rovnoma yuboradi.


JIKning 23-moddasida mahkum ishlaydigan korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyatining hukmni ijro etish borasidagi majburiyatlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati jazolarni ijro etish inspeksiyasidan xabarnoma olgan kundan boshlab uch kun ichida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- mahkum egallash va shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan lavozimdan yoki mehnat faoliyati turidan uni ozod qilish;
- jazolarni ijro etish inspeksiyasiga hukm talablari ijro etilganligi to'g'risida, tegishli hujjatlarni ilova etgan holda, xabar yo'llash;
- mahkum boshqa ishga o'tkazilgan yoki u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilingan taqdirda, bu haqda jazolarni ijro etish inspeksiyasiga xabar qilish.

Shu bilan bir qatorda muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilishga vakolatli bo'lgan organ ham jazolarni ijro etish inspeksiyasidan xabarnoma olgan kundan boshlab uch kun ichida mahkum shug'ullanishi taqiqlangan faoliyat turi uchun berilgan ruxsatnomani bekor qilib, tegishli hujjatni olib qo'yishga va bu haqda inspeksiyaga xabar yo'llashga majbur.

JIKning 25-moddasiga muvofiq, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs hukm talablarini bajarishga, jazolarni ijro etish inspeksiyasiga mazkur jazoni o'tash bilan bog'liq hujjatlarni taqdim etishga, yashash va ish joyidagi o'zgarishlar yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqida inspeksiyaning xabardor qilishga, chaqiruvga binoan inspeksiyada hozir bo'lishga majbur. Mahkum hozir bo'lmagan taqdirda u belgilangan tartibda majburan keltirilishi mumkin.

Axloq tuzatish ishlarini ijro etish tartibi



O'zbekiston Respublikasi JKning 46-moddasiga asosan axloq tuzatish ishlari shaxs ish haqining o'n foizidan o'ttiz foizigacha miqdorini davlat daromadi hisobiga ushlab qolgan holda uni mehnatga majburan jalb qilishdan iborat bo'lib, jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning o'z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladi.

Mahkum doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan taqdirda hukmning ijrosi hukm chiqarilgan joydagi jazolarni ijro etish inspeksiyasi zimmasiga yuklanadi.

Axloq tuzatish ishlari mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda o'taladi.

Jazoni o'z ish joyida o'tash sharti bilan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar sudlangunga qadar o'zlari ishlagan korxona, muassasa yoki tashkilotda mehnat faoliyatini davom ettiraveradilar.

Jazoni boshqa joylarda o'tash sharti bilan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar jazolarni ijro etish inspeksiyasi belgilab beradigan korxona, muassasa va tashkilotlarga yuboriladi. Voyaga yetmagan mahkumlar yashash joyidagi korxona, muassasa va tashkilotlarga yuboriladi.

Ushbu jazo turiga hukm qilinganlar ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinib, ularni tarbiyalashda mahkum jazoni o'tayotgan korxona ma'muriyati va mehnat jamoalari qatnashadilar.

Bu jazoning g'oyat muhim tomoni shundaki, mahkum jazoni o'tash uchun o'z ish joyida qoldirilgan bo'lsa, kasbini o'zgartirishga va yangi kasbni o'rganishga to'g'ri kelmaydi. Bu bilan u kasbi bilan bog'liq bo'lgan bilim va mahoratini esidan chiqarib qo'ymaydi, balki yanada rivojlantiradi.

JKning 46-moddasida «jazo sudning hukmiga muvofiq mahkumning o'z ish joyi yoki mazkur jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladi», deb beliglangan.

Mazkur moddada axloq tuzatish ishlarining ikkita turi, ya'ni: 1) mahkumning jazoni o'z ish joyida o'tash turi; 2) jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'tash turi nazarda tutilgan.

Jazoni o'z ish joyida o'tash sharti bilan axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar sudlangunga qadar ishlagan joylarida va egallagan lavozimlarida o'taydilar. Bunday shaxslarni boshqa ishga yoki lavozimga o'tkazish mehnat qonunlarida belgilangan umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

Axloq tuzatish ishlarining nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan boshqa joylarda o'taladigan turi respublika hududi doirasida respublika IIV HOOBB Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'lik bo'lmagan jazolarni ijrosini nazorat qilish boshqarmasi tomonidan belgilangan tartibda o'taladi.

Ularni mehnatidan ish joyidan tashqari zarurat tug'ilganda turar joy bilan ham ta'minlash imkoniyati bor bo'lgan korxonalarda shartnoma asosida foydalanilishiga yo'l qo'yiladi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan axloq tuzatish ishlari o'z ish joyida, aybdor hech qaerda ishlamasa, ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan, ammo o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'taladi.

Axloq tuzatish ishlarini ijro etuvchi organlarning faoliyati qonunlarga qat'iy rioya qilishga asoslanadi.

Bu organlarning mansabdor shaxslari ushbu organlar faoliyatida qonunlarga qat'iy rioya qilinishi uchun mas'ul hisoblanadilar.

Ijro etilishi lozim bo'lgan axloq tuzatish ishlariga jalb qilish haqidagi sud hukmlari (ajrimlari) (ijroga kelgan kundan boshlab) 10 kunlik muddatdan kechikmasdan ijro qilinadi.

Sud hukmining nusxasi va hukmni ijro etish haqidagi sudning farmoyishi axloq tuzatish ishlariga hukm qilinib, jazoni o'tash uchun asos mavjudligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Ijroga kelgan hujjatlar shahar yoki tuman IIB ning kiruv-qayd jurnalida kelgan kunining o'zida ro'yxatdan o'tkaziladi va IIB rahbarining ko'rsatmasi bilan jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimiga beriladi. Inspeksiyaning xodimi tomonidan shu kunning o'zida maxsus tikilgan, raqamlangan va muhrlangan hisob jurnalida qayd etiladi.

Sud hukmi (ajrimi)da, uning ijrosi uchun to'sqinlik qiluvchi tushunmovchiliklar bo'lsa, jazoni ijro etish inspeksiyasi uch kunlik muddat ichida hukm (ajrim) chiqargan sudga ularni bartaraf etishlarini so'rab murojaat etadi.

Axloq tuzatish ishini o'tayotgan shaxsga u tomonidan sodir etilgan yangi jinoyat uchun axloq tuzatish ishlariga jalb etilganlik haqidagi hukmning nusxasi kelsa va ushbu hukmda birinchi sodir etilgan jinoyatning oqibatlarini haqida ko'rsatma bo'lmasa, jazoni ijro etish inspeksiyasi uch kunlik muddatda sudga hukmlarni jamlab, avvalgi jazo chorasi haqidagi masalani hal qilish uchun taqdimnoma kiritadi. Bunda sud tomonidan mazkur masala hal etilgunga qadar birinchi hukmning ijrosi to'xtatilmaydi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi tomonidan kechiktirmasdan hukm chiqargan sudga hukmni ijro qilish uchun qabul qilinganligi haqida, shuningdek agar ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlariga o'zgartirilgan bo'lsa, mahkum bo'shatilgan jazoni ijro etish muassasasiga ham xabarnoma yuboriladi.

Hukm (ajrim) nusxasi ro'yxatga olingandan so'ng shu kunning o'zida har bir mahkumga hisobvaraqa to'ldirilib, shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi yurgiziladi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, mahkumlarga yangi yig'ma jild tutilmasdan balki ular jazo o'tagan jazoni ijro etish muassasasidagi shaxsiy yig'ma jildlari davom ettiriladi. Shaxsiy yig'ma jildda mahkumning jazosini o'tashga taalluqli bo'lgan barcha hujjatlar, hamda hukmning (ajrimning) nusxalari saqlanadi.

Shaxsiy yig'ma jilddagi hujjatlar tikilgan, raqamlangan va muqovaning ichki tomonidan ro'yxatga kiritilgan bo'lishi kerak. Shaxsiy yig'ma jildning va hisob varaqasining tartib raqamlari hukm nusxasining hisob jurnalida qayd etilgan raqamiga mos bo'lishi shart.

Shaxsiy yig'ma jildlar temir shkaflarda saqlanadi, hamda ish kuni tugaganidan so'ng shkaflar qulflanib, muhrlanadi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimlari mahkumning hisobga olinganligi haqida uning yashash joyidagi ichki ishlar idora rahbariga kerakli

profilaktika tadbirlarini o'tkazish zarurligi to'g'risida bildirgi orqali xabar qiladi.

Ichki ishlar idora rahbari ushbu bildirgini mahkumning turar joyi bo'yicha mas'ul bo'lgan profilaktika xodimiga kerakli ko'rsatmalar berib topshiradi. Profilaktika xodimi mahkum bilan olib borilayotgan profilaktik ishlar haqida jazoni ijro etish inspeksiyasini vaqti-vaqti bilan (chorak davomida kamida bir marotaba) yozma ravishda xabardor qilib turadi.

Haqiqiy harbiy xizmatga chaqiriluvchi shaxslarning hisobga olinganligi to'g'risida tegishli shahar (tuman) mudofaa ishlari bo'limiga xabarnoma yuboriladi.

Har bir mahkum hisobga olingandan so'ng, suhbat o'tkazish uchun jazoni ijro etish inspeksiyasiga chaqirilib, ularga axloq tuzatish ishini o'tash tartibi, shart-sharoitlari hamda unga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan rag'batlantirish va jazolash choralari haqida tushuntirilishi lozim.

Axloq tuzatish ishiga hukm qilinganlarning shaxsiy hisobi yuritiladi. Shaxsiy hisob axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazolarga hukm qilingan shaxslarga nisbatan hukm ijrosini tashkil etishga, mahkumlarni jazo o'tashga jalb qilishga, ularning ish haqidani ajratmalarni to'g'ri ushlab o'z vaqtida davlat foydasiga o'tkazilishini nazorat qilishga, mahkumlarni o'z vaqtida jazo o'tashdan ozod qilishga xizmat qiladi.

Shaxsiy hisob hujjatlariga quyidagilar kiradi: a) axloq tuzatish ishlariga hukm etilganlarning hisob jurnali; b) shaxsiy yig'ma jildlari; v) hisob varaqalari.

Axloq tuzatish ishlariga jalb etilganlar quyidagi hisoblardan birida turadi: a) tezkor; b) dastlabki; v) nazorat; g) qidiruvdagilar.

Tezkor hisobda hukmlari ijro etilayotgan shaxslar turadi.

Dastlabki hisobda turuvchilar: a) axloq tuzatish ishiga hukm qilinib, hisobga olingan kundan 15 kun o'tgandan so'ng ham ishga joylashmagan shaxslar; b) jazo muddatini o'tayotgan vaqtda oldingi ish joyidan bo'shagan kundan 15 kun o'tgandan so'ng ham ishga joylashmagan shaxslar; v) dastlabki qidiruv harakatlari amalga oshirilayotgan shaxslar; g) sababsiz ishlamay yurgan shaxslar; d) shaxsiy yig'ma jildlari axloq tuzatish ishi jazosini ozodlikdan mahrum etish jazosiga almashtirish uchun sudlarga yuborilgan shaxslar.

Nazorat hisobida turuvchilar: a) axloq tuzatish ishiga hukm qilinib, hisobga olinganidan so'ng 15 kungacha ishga joylashmagan shaxslar; b) jazo o'tash vaqtida ishlab turgan joyidan bo'shab, yangi ish joyiga, bo'shagan kunidan boshlab 15 kungacha joylashmagan shaxslar; v) kasalligi sababli

ishlamayotgan shaxslar, agar amaldagi qonunga binoan kasallik davri axloq tuzatish ishlarini o'tash muddatiga qo'shilmaydi, deb hisoblanmasa; g) ushbu jazoni ijro etish inspeksiyasi xizmat doirasidagi hududdan chiqib ketgan va ularning shaxsiy yig'ma jildining olinganligi haqidagi tasdiqnomasi kelmagan shaxslar; d) boshqa jinoyat sodir etilganligi uchun ehtiyot chorasi sifatida qamoqda saqlanib turganlar; ye) axloq tuzatish ishi jazosini o'tash jarayonida ma'muriy jazo sifatida qamoqda saqlanib turgan shaxslar; j) mehnatga yaroqsiz bo'lib qolganligi uchun yoxud nafaqa yoshiga yetganligi, shuningdek ayollar bu turdagi jazoni o'tayotgan vaqtda homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqqanligi munosabati bilan jazoni o'tashdan ozod qilish haqida sudga taqdimnoma kiritilgan shaxslar; z) mehnatga yaroqsizligini aniqlash uchun tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yuborilgan shaxslar; i) hukm ijrosining boshlanishidan oldin berilgan navbatdagi (har yilgi) mehnat ta'tili hamda oylik ish haqi bermaslik sharti bilan berilgan ta'tillardagi shaxslar; k) ichkilikbozlik va giyohvandlik kasalligi tufayli kasalxonada davolanayotgan shaxslar.

Qidiruvni davom ettirish uchun hujjatlari jinoyat-qidiruv xizmatiga berilgan shaxslar qidiruv hisobida turadilar.

Jazo muddatini o'tab bo'lmasdan, yashash joyining o'zgarishi sababli jazoni ijro etish inspeksiyasi xizmat qilayotgan hududdan chiqib ketgan mahkumlar haqida ularning yangi yashash joyidagi ichki ishlar bo'limiga xabar qilinadi. Mahkumni yangi yashash joyidagi jazoni ijro etish inspeksiyasining so'rov xatiga asosan shaxsiy hujjatlar yig'ma jildi va muhr bilan tasdiqlangan hisobvarag'idan nusxa ichki ishlar bo'limi boshlig'ining imzosi bilan buyurtma pochta orqali jo'natiladi. Yuqorida ko'rsatilgan shaxsiy yig'ma jild va hisobvaraqadan nusxani olganligi haqida jazoni ijro etish inspeksiyalari darhol ularni yuborgan inspeksiyaga xabarnoma yuboradilar.

Ish haqi belgilanadigan yerda jazo o'tamayotgan shaxslar amalda ishlayotgan yerdagi jazoni ijro etish inspeksiyasi hisobida turadi (agar boshqa yerdagi ishlash muddati 4 oydan oshadigan bo'lsa). Bunda mahkumning ish haqidan to'g'ri ushlab qolinayotganligini nazorat qilish ish haqi belgilanadigan yerdagi jazoni ijro etish inspeksiyasiga topshiriladi.

Agarda mahkumning yashash joyi boshqa, ish joyi boshqa hududda bo'lsa, mahkum ish joyi bo'yicha jazoni ijro etish inspeksiyasida hisobga olinadi. Boshqa joylarda axloq tuzatish ishiga hukm qilinganlar esa yashash joyidagi jazoni ijro etish inspeksiyasi tomonidan hisobga olinadi. Bu shaxslar ishga joylashganlaridan so'ng esa ish joyidagi jazoni ijro etish inspeksiyasi hisobiga yuboriladi.

Axloq tuzatish ishi jazosini o'tashga jalb etish. Ish joyida axloq tuzatish jazosini o'tashni rasmiylashtirilib, mahkumning ish joyi keyingi kundan kechiktirilmasdan aniqlanib, ma'muriyatga hukm (ajrim) nusxasi va xabarnoma yuboriladi. Agarda mahkumning ish joyini aniqlash davomida uning bo'shab ketganligi aniqlansa, jazoni ijro etish inspeksiyasi unga 15 kunlik muhlat berib, ishga kirishni taklif qiladi va zarur bo'lsa ishga joylashishida yordam beradi.

Boshqa joylarda axloq tuzatish ishiga hukm etilganlar kerakli hujjatlar rasmiylashtirilganidan so'ng, jazoni ijro etish inspeksiyasiga chaqirtirilib, avvalgi ish joyida ishlayotgan bo'lsa, u yerdan darhol bo'shattirilib, belgilangan tartibda ishga yuboriladi. Bu holatda mahkumga xabarnoma beriladi va uning bir nusxasi mahkum ishga yuborilayotgan joydagi jazoni ijro etish inspeksiyasiga uning yetib kelishini nazorat qilish uchun yuboriladi, ikkinchi nusxasi yozishmalar jildiga tikib qo'yiladi. Agar mahkum ko'rsatmada belgilangan muddatda yuborilgan joyga yetib bormasa, uch kundan kechiktirmay u yerdagi jazoni ijro etish inspeksiyasi uni yuborgan ichki ishlar bo'limiga bu haqda xabar qilishi lozim. Shu bilan birgalikda, korxona ma'muriyatiga hukm (ajrim) nusxasi va xabarnoma yuboriladi.

Mahkum mehnatga yaroqsizligi uchun jazo muddatini o'tay olmasligi to'g'risida ariza bilan murojaat etsa, uni tibbiy tekshiruvga yuboriladi, agar mahkum qonunchilikda belgilangan tartibda mehnatga yaroqsiz deb topilsa, qolgan jazo muddatini o'tashdan ozod qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritiladi.

Axloq tuzatish ishlari jazosini ijro etuvchi organlar, korxona, tashkilot, muassasalar va mahkumlarning majburiyatlari.

Axloq tuzatish ishlarini o'tayotgan mahkumlar jazo o'tashning belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilishlari, shu bilan birga, jazoni ijro etuvchi organ chaqiruviga o'z vaqtida kelishlari shart. Agar mahkum ushbu talablarga uzrsiz sabablarga ko'ra rioya qilmagan taqdirda olib kelishning majburiy choralari qo'llanishi mumkin.

Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo ijrosi mahkumning yashash joyidagi ichki ishlar organlarining HOOB jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Mahkum doimiy yashash joyiga ega bo'lmagan taqdirda hukmning ijrosi hukm chiqarilgan joydagi jazolarni ijro etish inspeksiyasi zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi IIV HOOBB Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijrosini nazorat qilish boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar IIB

HOOB ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijrosini nazorat qilish bo'lim va bo'linmalari mazkur jazo ijrosini nazorat qiladilar.

Axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoni ijro etuvchi organ tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

a) axloq tuzatish ishlariga hukm qilinganlarning hisobi olib boriladi;

b) mahkumga jazoni o'tashning tartibi va shartlari tushuntiriladi;

v) boshqa joylarda o'taladigan axloq tuzatish ishlariga hukm qilinganlar belgilangan tartibda ishga yuboriladi va o'z vaqtida yetib borilishi nazorat qilinadi. Jazoni o'z ish joyida o'tashga hukm qilinganlarga zarur bo'lganda ishga joylashishga yordam beriladi;

g) axloq tuzatish ishlarini o'tayotgan mahkumlarning ish haqidan o'z vaqtida va to'g'ri haq ushlab qolish hamda ushlab qoling pul miqdorini belgilangan tartibda va o'z vaqtida davlat foydasiga o'tkazish, korxona ma'muriyati tomonidan axloq tuzatish ishlarini qonunchilikda belgilangan o'tash shartlariga rioya qilinishi, jazoni o'tab bo'lganlarning mehnat daftarchalariga tegishli yozuvlarni to'g'ri kiritilishi ustidan nazorat olib boriladi. Tekshirish vaqti-vaqti bilan axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash davomida yiliga kamida ikki marotaba bevosita korxonaning o'zida amalga oshiriladi. Tekshiruv yakuni to'g'risida 2 nusxada dalolatnoma tuziladi. Bir nusxasi korxonada, ikkinchi nusxasi esa korxona ma'muriyati vakilining tanishganlik haqidagi imzosi bilan jazoni ijro etish inspeksiyasida saqlanadi;

d) mahkum jazo muddatini qonunda belgilangan qismini o'tab bo'lganidan so'ng bir oylik muddat ichida uni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishga taqdim etish masalasini ko'rib chiqilishi, hamda taqdim qilish yoki rad etish haqida qaror chiqarilishi shart;

e) axloq tuzatish ishlariga hukm qilinganlar jazoni o'tash davomida mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsalar yoxud pensiya yoshiga yetgan hollarda, shuningdek ayollar homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqsalar, ularni jazoni o'tashdan ozod qilish haqida sudga taqdimnoma kiritiladi;

j) jazoning mazkur turlarini ijro etuvchi organlarning chaqiruviga uzrsiz sabablarga ko'ra kelishdan bosh tortgan shaxslarga nisbatan majburiy olib kelish haqida qaror chiqariladi;

z) mahkumni qidirib topish yuzasidan dastlabki tadbirlar o'tkaziladi, zarur materiallar tayyorlanadi va tegishli jinoyat qidiruv xizmatiga oshiriladi;

i) jazo o'tashdan bosh tortgan shaxslarga nisbatan jinoyat kodeksining talablaridan kelib chiqib, axloq tuzatish ishlarining o'talmay qolgan muddatini ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan esa qamoq jazosi bilan almashtirish haqida sudga taqdimnoma kiritiladi;

k) yilning har choragida IIBga ijro uchun yuborilgan hukmlarni (ajrimlarni) sud organlarining shu masalaga oid ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Natijasi dalolatnoma tuzish bilan rasmiylashtirilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish choralari ko'riladi.

IIB HOOB ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijrosini nazorat qilishning Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV, Toshkent shahar IIBB, viloyatlar bo'lim va bo'linmalari:

a) jazolarni ijro etish inspeksiylari ustidan tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshiradi, ularning faoliyatlarini doimiy (yiliga kamida 2 marotaba) tekshiruvdan o'tkazib turadilar, ularga amaliy yordam ko'rsatadilar, ijobiy tajribalarni tadbiq etadilar, ularning ish usullari va shakllarini yanada takomillashtirib, xodimlarning kasb mahoratini oshirib borish choralari ko'radilar;

b) yilning har choragida jazoni ijro etish inspeksiylari bilan sud organlari o'rtasida ijroga yuborilgan hukmlar (ajrimlar) to'g'risidagi ma'lumotlarni solishtirish o'tkazilishini ta'minlaydilar, hamda nazorat olib boradilar.

Shahar va tuman ichki ishlar boshqarmalari va bo'limlarining HOOB jazoni ijro etish inspeksiylari ustidan kundalik rahbarlik shu organlar boshliqlariga yuklanadi.

Korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyatining hukmni ijro etish borasidagi quyidagi majburiyatlarni bajaradilar: mahkumning ish haqidan to'g'ri va o'z vaqtida chegirib qolinishini hamda chegirib qolingan summa davlat foydasiga o'tkazilishini ta'minlash; mahkumga nisbatan qo'llanilgan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari haqida, uning jazoni o'tashdan bo'yin tovlayotgani, boshqa ishga o'tkazilganligi yoki u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqida jazolarni ijro etish inspeksiya-xabardor etish.

Mahkumning majburiyatlari JIK 29-moddasida belgilan bo'lib, unga ko'ra, axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoga hukm qilingan shaxs hukm talablarini bajarishga, jazolarni ijro etish inspeksiya-xabardor etishga, yashash va ish joyidagi o'zgarishlar yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganligi haqida inspeksiya-xabardor qilishga, chaqiruvga binoan inspeksiya-xabardor etishga majbur. Mahkum hozir bo'lmagan taqdirda u belgilangan tartibda majburan keltirilishi mumkin.

Jazolarni ijro etish inspeksiya-xabardor etish joylarda jazoni o'tash muddati mobaynida inspeksiyaning yozma ruxsatisiz mehnat shartnomasini mahkumning tashabbusi bilan bekor qilish taqiqlanadi. Inspeksiya

ruxsatnoma berishni rad etgan taqdirda yuqori mansabdor shaxsga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

Axloq tuzatish ishi jazosining muddatini hisoblash. Ish joyida o'tash uchun axloq tuzatish ishiga hukm qilinganlarning jazo muddati korxona ma'muriyati jazoni ijro etish inspeksiyasidan xabarnoma olgan kundan boshlab, ushbu jazoni boshqa joylarda o'tashga hukm qilinganlar esa, jazo muddatini o'tash uchun jo'natilib, korxonada ish boshlangan kundan boshlab hisoblanadi. Sud hukmi nusxasi (ajrimi) korxonaga yuborilgan vaqtda, mahkum navbatdagi mehnat ta'tilida bo'lsa, axloq tuzatish jazosi muddatini o'tash hisobi ta'tildan qaytib kelib, birinchi ish boshlagan kundan hisoblanadi.

Axloq tuzatish ishining muddatini hisoblash kalendar hisobida olib boriladi, hisoblash amaldagi qonunchilik tomonidan jazo uchun muddatiga qo'shilishi lozim bo'lgan kunlar soni asosida olib boriladi. Ko'rsatilgan kunlar hisobi korxona uchun belgilangan oylik ish jadvali kunlaridan kam bo'lmasligi kerak. Jazo o'tash muddatiga qo'shilishi kerak bo'lgan kunlar soni jadvalda belgilangan oydagi ish kunlaridan oshib ketgan taqdirda ortiqcha ishlagan kunlar hisobga olinmay, bir oy ishlagan deb hisoblanadi.

Agar mahkum sud tomonidan belgilangan jazo muddati davomida ish kunlari sonini kerakligicha ishlab bermagan bo'lsa va ishlamagan ish kunlari sonini axloq tuzatish ishi muddatiga qo'shishi uchun asos bo'lmasa, axloq tuzatish ishlarini o'tash mahkum belgilangan ish kunlari miqdorini to'liq ishlab bergunga qadar davom etadi.

Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tash muddatiga mahkumning ishlagan va uning ish haqidan ushlab qolingani vaqti (oylar, kunlar) qo'shiladi.

Shuningdek, mahkumning axloq tuzatish ishi jazosini o'tash muddatiga quyidagilar ham qo'shiladi:

a) mahkum uzrli sabablarga ko'ra ishlamagan va unga qonunga asosan ish haqi to'lanayotgan hamda qo'shimcha ta'tilda bo'lgan vaqti;

b) kasallik hamda kasalga qarash uchun berilgan vaqtlar;

v) hukm qilingan qishloq xo'jalik a'zolariga ob'ektiv shart-sharoitlar tufayli ish berilmagan bo'lsa va agar ularning ishlagan jami kunlari xo'jalik bo'yicha xo'jalik a'zolari uchun belgilangan yillik minimumdan yoki yilning ayrim davrlariga oid minimumlardan kam bo'lmasa, shu ishlamagan davrdagi vaqt;

g) sud hukmi (ajrimi)ga asosan mahkumning shu jinoyatni sodir etganligi munosabati bilan ehtiyot chorasi sifatida dastlabki qamoqda

bo'lgan vaqtining har bir kuni axloq tuzatish ishi jazosining 3 kuniga teng holda jazo o'talgan hisoblanadi;

d) ozodlikdan mahrum qilish jazosi sudning ajrimi (qarori) yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga asosan axloq tuzatish ishi jazosiga almashtirilgan bo'lsa, farmon yoki ajrim chiqqan kundan boshlab, uning ozod qilingunigacha bo'lgan vaqtining har bir kuni axloq tuzatish ishi jazosining 3 kuniga teng holda jazo o'talgan hisoblanadi.

Jazo muddati hisoblanmaydigan hollar:

a) boshqa jinoyat sodir etganligi sababli qamoqda saqlangan vaqti hamda ma'muriy jazo tariqasida hibsdan bo'lgan vaqti;

b) oylik ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lgan vaqti;

v) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotganligi yuzasidan nafaqa to'lanmaydigan kasallik vaqti;

g) kasalga qarash uchun berilgan vaqtdan tashqari mahkum ishlaganligi sababli unga oylik ish haqi to'lanmagan hamma boshqa vaqlar.

Odatda, axloq tuzatish ishini o'tayotgan shaxslarga mehnat ta'tili berilmaydi. Ammo ular o'z hisobidan qisqa muddatga ish joylaridan (albatta jazoning ijrosini nazorat qiluvchi organ roziligini olib) ruxsat olishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksining 545-moddasiga muvofiq mahkumning jazoni o'tash vaqtida ishlagan vaqtni uning umumiy ish stajiga kiritilishi mumkin. Bu moddada belgilanishiga ko'ra, axloq tuzatish ishlari o'talgan vaqtni mahkumning umumiy mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi masala jamoat birlashmasi yoki jamoa iltimosnomasi bo'yicha, jazoni o'tab chiqqan shaxs mehnatga qobiliyatsiz bo'lgan taqdirda esa, uning iltimosnomasi bo'yicha ham mazkur shaxs turgan joydagi tuman (shahar) sudining sudyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Axloq tuzatish ishlari o'talgan vaqtni mahkumning umumiy mehnat stajiga qo'shish to'g'risidagi iltimosnoma yuzasidan sudya chiqargan ajrim ustidan yuqori sudga shikoyat berish va protest bildirish mumkin.

Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tayotgan shaxslarning oylik ish haqidano ushlab qolish tartibi.

Axloq tuzatish ishiga hukm qilinganlarning oylik ish haqidano ushlab qolish mahkumning jazo muddatini o'tashni boshlagan kundan amalga oshiriladi.

Ushlab qolish, jami ish haqidano soliq va boshqa to'lovlarni istisno qilmagan holda, shuningdek mahkumlarga ijro hujjatlari bo'yicha da'volar mavjudligidan qat'i nazar, amalga oshiriladi va har oyning ikkinchi yarmi

uchun to'langan ish haqidan, ishdan bo'shaganda esa oyning ishlagan qismi uchun olinadi.

Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta tartibida olinayotgan nafaqa va yordam pullaridan, ish haqi tizimida nazarda tutilmagan to'lovlardan va bir marta to'lanadigan pul mukofotlaridan (foydalanilmagan ta'til uchun beriladigan), ish jadvalidan ortiq ishlagan oylik ish haqidan, ishdan bo'shaganda qonunga muvofiq beriladigan puldan, yangidan ishga tushganda, boshqa ishga o'tganda, safarga borganda beriladigan pullardan, ishchining shaxsiy asboblariidan foydalanganligiga va berilmagan maxsus kiyimlar va poyabzallar uchun to'lanadigan pullardan va boshqa badal to'lovlaridan ushlanmaydi.

Qishloq xo'jalik a'zosi bo'lgan mahkumning ish haqidan ushlab qolishda ish haqi daromadining pul va mahsulot tarzida olingan qismi ham qo'shiladi. Bunda mahkumlardan ushlab qolingani mahsulot tarzidagi daromad qismi xo'jalik ixtiyorida qoladi va davlat harid qilish narxlaridagi qiymati davlat foydasiga o'tkaziladi.

Harbiy o'quv yig'inlariga chaqirilgan mahkumlarning ish haqidan ushlab qolish ish joyida amalga oshiriladi.

Korxonalar ishining yil yakuni bo'yicha to'lanadigan mukofot pullari berilayotganida, qishloq xo'jalik yilining yakuni bo'yicha oxirgi hisob-kitob davrida berilayotgan hamma pul miqdoridan emas, faqat jazo o'talgan davr uchungina ushlab qolinadi.

Mahkumlarning ish haqidan davlat foydasiga ushlab qolinayotgan pullarni korxona ma'muriyati har oyda oylik ish haqini bergan kuni tegishli davlat banklarining hisob-kitob raqamiga o'tkazib boradi. To'lov qog'ozlari bilan birgalikda bank muassasalariga ushlab qolingani ajratmalar haqida hisob ma'lumoti yuboriladi. Hisob ma'lumotlari odatda to'lov qog'ozlarining orqasida ko'rsatiladi.

Ish haqidan ushlab qolingani pul miqdorini naqd pul bilan yoki pochta orqali o'tkazish yo'li bilan olish qat'iyan man qilinadi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimlari hisobvaraqaalari bo'yicha oyma-oy ushlangan pullarning tushganligini tekshiradi va o'tkazib berishning to'xtab qolganligi aniqlangan holda darhol undirish choralarini ko'radi.

Mahkumlarni ish haqidan to'g'ri va o'z vaqtida chegirib qolinishini hamda chegirib qolingani ajratmalarni davlat foydasiga o'tkazilishini ta'minlamagan, shu bilan birga ularning ishlagan davri, oyligi va chegirib qolingani ajratmalar to'g'risidagi hisob ma'lumotini doimiy ravishda noto'g'ri yoki o'z vaqtida bermagan hollarda jazoni ijro etish inspeksiyasi

tegishli aybdor mansabdor shaxslarga qonunda belgilangan javobgarlikka tortish choralari ko'radi.

Mahkumlarning ishlagan kunlari va oyligidan ushlanib o'tkazilgan pullar to'g'risidagi ma'lumotlar bank muassasalarining joriy schyotlari ko'chirmalariga asosan ularni hisobvaraqlariga uch kun mobaynida kiritilishi kerak. Hisob ma'lumotlari va to'lov qog'ozlari maxsus jildlarga tikiladi.

Sud hukmi bekor qilingan hamma holatlarda oylik ish haqidan ushlab qolingani hamma pullar mahkumga qaytarib beriladi. Hukmning o'zgartirilishi yoki bekor qilish haqidagi sudning ajrimi (qarori) pullarning qaytarib berilishiga asos bo'lib hisoblanadi.

Axloq tuzatish ishlarini o'tashdan bo'yin tovlash oqibatlari. Mahkum axloq tuzatish ishlarini o'tashdan bo'yin tovlagan taqdirda jazolarni ijro etish inspeksiyasi o'talmagan muddatni ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirish haqida Jinoyat kodeksining 46 va 83-moddalarida nazarda tutilgan tartibda sudga taqdimnoma kiritadi.

JK 46-moddasiga muvofiq, agar shaxs sud tomonidan tayinlangan axloq tuzatish ishlari muddatining jami bo'lib o'ndan bir qismidan ko'prog'ini o'tashdan bo'yin tovlasa, sud axloq tuzatish ishlarining o'talmagan muddatini xuddi shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtiradi.

Jazoni o'tashdan bo'yin tovlangan axloq tuzatish ishining bir kuni ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga hisoblab almashtiriladi, bunda mahkumning jinoyati kvalifikatsiya qilingan moddaning sanksiyasida axloq tuzatish ishlarining muddati qancha belgilanganligi yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan yoki tutilmaganligining ahamiyati kasb etmaydi.

Axloq tuzatish ishlari jazosini ijro etishdan ozod qilish asoslari. Axloq tuzatish ishiga hukm qilingan shaxslar quyidagi asoslarda jazoni o'tashdan ozod qilinadi va hisobdan chiqariladi: a) sud hukmi bilan belgilangan jazo muddatini o'tab bo'lganda; b) amnistiya akti qo'llanganda; v) afv etilishi sababli; g) sud hukmi bekor bo'lgani uchun jinoiy ish yotqizilgan taqdirda; d) hukm bo'yicha belgilangan jazo turi o'zgartirilganda; ye) O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunining tegishli moddalari asosida muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilganda; j) qonunda ko'rsatilgan boshqa asoslarda.

Jazo o'tashdan ozod qilinganlardan tashqari quyidagi hollarda ham mahkumlar hisobdan chiqariladi: a) yashash joyini o'zgartirganligi sababli

jazoni ijro etish inspeksiyasi xizmat qilayotgan hududdan tashqariga chiqib ketgan shaxslar; b) vafot etganlar; v) axloq tuzatish ishini o'tashdan qasddan bosh tortganligi uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosiga almashtirilgan shaxslar; g) yangi jinoyat sodir etib, ozodlikdan mahrum etilganlar.

Hisobdan chiqarishga asos borligini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iborat: a) jazo muddatini o'tab bo'lganlar uchun axloq tuzatish ishi jazosiga qo'shilgan vaqt oylik ish haqi va ushlab qolgan pul miqdorlari to'g'risidagi hisob ma'lumotlari; b) amnistiya haqidagi farmonlarni ijro etish yuklatilgan mas'ul organlarning hujjatlari; v) afv etilganlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining afv etish to'g'risidagi Farmonini ijro etish haqida Ichki ishlar vazirligi axborot markazining yozma buyrug'i; g) hukmning bekor qilinishi, o'zgarishi, muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinganlarga tegishli sud organlari ajrimlari va qarorlarining nusxalari; d) yashash joyini o'zgartirib, ushbu jazoni ijro etish inspeksiyasi xizmat qilayotgan hududdan tashqariga chiqib ketganligi sababli, tegishli jazoni ijro etish inspeksiyasidan hisob varaqa va shaxsiy yig'ma jildni olinganligi haqidagi tasdiqnoma; ye) yangi jinoyat sodir etgan mahkumlarga nisbatan, uning hukm nusxasi va hukm qonuniy kuchga kirganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma; j) vafot etganlarga nisbatan, vafot etganligi haqidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qiluvchi organlarning ma'lumotnomasi.

Mahkumning hisobdan chiqarilgan kuni va asosi haqida uning hisobvaraqa-siga, axloq tuzatish ishiga hukm qilingan shaxslarning hisobini olib boruvchi jurnalga hamda mahkumning shaxsiy yig'ma jildiga belgi kiritiladi.

Axloq tuzatish ishini o'tashdan ozod qilingan shaxslarga jazo muddatini o'tagani haqida 9-ilogaga muvofiq ma'lumotnoma beriladi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi hisobidan chiqqan shaxslarning ish joyi ma'muriyatiga mahkumning mehnat daftarchasiga tegishli yozuv kiritish uchun ma'lumotnoma yuboriladi. Belgilangan jazosi boshqa turdagi jazoga o'zgartirilganlar, yashash joyini o'zgartirganliklari munosabati bilan shu jazoni ijro etish inspeksiyasi xizmat qilayotgan hududdan chiqib ketganlar va vafot etganlar bundan mustasno.

Hisobdan chiqqan mahkumlarning shaxsiy yig'ma jildi va hisob hujjatlari quyidagi muddatlar mobaynida saqlanadi:

a) shaxsiy yig'ma jildlar hisobdan chiqarilgan kundan boshlab 3 (uch) yil;

b) hisobvaraqalari 5 (besh) yil;

v) axloq tuzatish ishini o'tayotgan shaxslarning hisob jurnallari 5 (besh) yil;

g) axloq tuzatish ishiga jalb qilingan shaxslarning harakati va sonlari haqidagi hisobotlar 5 (besh) yil;

d) axloq tuzatish ishi bilan jazolanganlarning hukmlarini ijro qilish bilan bog'liq bo'lgan yozishma jildlari 3 (uch) yil.

Nazorat uchun savollar:

1. Jarima jazosini to'lashdan bo'yin tovlash oqibatlari qonunda belgilangan.

Mazkur oqibatlar yuzasidan o'z fikringizni bildiring.

2. Ahloq tuzatish ishlari jazosini ijro etish tartibi va uni ijro etuvchi organlarning huquqiy maqomi qonun hujjatlarida belgilangan.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu tartib va jazoni ijro etuvchi organlarning huquqiy maqomini muhokama eting.

3. Sud sudlanuvchiga eng kam ish haqining 50 barobari miqdorida jarima jazosini tayinladi. Sudlanuvchi jarima jazosini to'lashdan bo'yin tovladi. Sud jarimani qamoq tarzidagi jazoga almashtirishga qaror qildi.

Sudning harakatlari qonuniyligiga baho bering va u qanday qaror qabul qilish kerakligi yuzasidan fikr bildiring.


4. Sud tomonidan Chilonzor tumanida yashovchi D. ismli shaxs 2 yil muddatga ahloq tuzatish ishlariga hukm qilindi. Jazolarni ijro etish inspeksiyasi D. ismli shaxsni jazoni Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi poyabzal zavodida o'tash uchun yubordi.

Sud va jazolarni ijro etish inspeksiyasi qanday xatoliklarga yo'l qo'yganligini kuvsating va axloq tuzatish ishlari jazosini ijro etish tartibini tushuntirib bering.

QAMOQ TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH

Qamoq jazosini ijro etish muassasalari. Qamoq jazosini ijro etish tartibi. Qamoq jazosini ijro etish shartlari. Qamoq uylarida mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralari qo'llash.

Qamoq jazosini ijro etish muassasalari; Qamoq jazosini ijro etish tartibi



O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 48-moddasiga binoan qamoq shaxsni jamiyatdan batamom ajratgan sharoit ostida saqlashdan iborat majburlov chorasidir. Qamoq jazosi bir oydan olti oygacha muddatga belgilanadi. Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan qamoq jazosi o'ziga hos bo'lib, bir oydan uch oygacha muddatga tayinlanadi.

Jinoyat kodeksi qabul qilingan dastlabki davrda muqaddam qasddan sodir etgan jinoyat uchun qamoq jazosi yoki ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab chiqqan shaxslarga nisbatan qamoq jazosi qo'llanilmasligi ko'rsatilgan edi. "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun va hujjatlariga

o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda qonuniga muvofiq, endilikda qamoq jazosi sud tomonidan ilgari qasddan sodir etgan jinoyatlari uchun qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tagan shaxslarga nisbatan ham qo'llanilishi belgilandi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar jazoni hukm chiqarilgan joydagi **maxsus qamoq uylarida** o'taydilar.

Qamoq jazosini o'tash sharoitlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 25 apreldagi «O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida»gi qarorida qamoq uylari haqida fikr yuritilgandi. Jumladan, qamoq jazosining ta'minlanishi uchun bunday uylar tashkil qilingunga qadar tergov hibsonalari va turma qamog'ida alohida qamoq jazosiga hukm qilinganlar uchun qamoq jazosi ijrosi huquqiy holatlari ta'minlanishi ta'kidlandi. Bundan xulosa shuki, qamoq jazosiga hukm qilinganlar qamoq uylarida saqlanishi uchun maxsus joylar tashkil qilinadi. Bunday joylar viloyatlarda, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida tashkil etilishi lozim bo'ladi.

Mahkumlar jazoning butun muddatini, bitta qamoq uyida o'taydilar. Mahkumlarni bir qamoq uyidan boshqasiga o'tkazishga ruxsat etilmaydi. Lekin ayrim hollarda, masalan mahkumning xavfsizligini ta'minlash uchun, og'ir kasallikka uchraganida yoki jazoni o'tashni davom ettirish uchun imkoniyat bermaydigan boshqa favqulodda holatlarda mahkumni boshqa qamoq uylariga o'tkazilishi mumkin. Kasalligi tufayli boshqa qamoq uyiga o'tkazish uchun bu qamoq uyida mahkumning kasalligini davolash imkoniyati yoki sharoiti mavjud bo'lmaganidagina ruxsat etiladi. Odatda har bir qamoq uylarida maxsus shifokorlari bo'lishligi talab qilinadi.

Mahkumning xavfsizligini ta'minlash maqsadida boshqa qamoq uyiga ko'chirilishi uchun mahkumning roziligi olinishi lozim. Shuningdek, mahkumga uning hayotini xavf ostida qolganligi haqida murojaatnomasiga ko'ra ham ma'muriyat mahkumni boshqa qamoq uyiga ko'chirishi uchun asos bo'ladi. Ma'muriyat bunday murojaatning asoslilikini ko'rib chiqib, o'tkazish lozim degan xulosaga kelsa, viloyat yoki shahar ichki ishlar boshqarmasiga xabar qilinadi, o'z navbatida viloyat yoki shahar ichki ishlar boshqarmasi ichki ishlar vazirligiga xabar qilinadi. Ichki ishlar vazirligining ruxsati bilan mahkum boshqa qamoq uyiga ko'chiriladi. Bunday ruxsat bilan viloyat yoki shahar ichki ishlar boshqarmasi mahkumni etap qilish naryadi orqali boshqa qamoq uyiga ko'chiriladi.

Bir hududdagi qamoq uylarida Jinoyat-ijroiya kodeksining 57-moddasi 2-qismiga binoan, mahkumlar soni ko'payib ketsa, yangi mahkumlarni shu hududga yaqin bo'lgan boshqa qamoq uylariga jo'natish mumkin bo'ladi. Mahkumning xavfsizligini ta'minlash maqsadida boshqa qamoq uyiga ko'chirish uchun mahkumning ham roziligi olinishi shart hisoblanadi. Shuningdek, mahkumning hayoti xavf ostida qolganligi haqidagi murojaatnomasi ham uning boshqa qamoq uyiga ko'chirishi uchun asos bo'ladi. Ichki ishlar vazirligining ruxsati bilan mahkum boshqa qamoq uyiga ko'chiriladi. Bunday ruxsat bo'lganda viloyat yoki shahar ichki ishlar boshqarmasi mahkumni etap qilish naryadi orqali boshqa qamoq uyiga ko'chiradi.

Mahkumlar uchun boshqa favqulodda holatlar: qamoq uyini suv bosishi, yong'in sodir bo'lishi, yer qimirlashi natijasida avariya hollari, ommaviy tartibsizliklar va hokazo holatlar ham boshqa qamoq uylariga ko'chirish uchun asos bo'ladi.

Jinoyat qonunchiligida faqat jarima jazosini qamoq jazosi bilan almashtirilishi nazarda tutilgan.

Mahkumlar jazoni o'tashi uchun qamoq uylariga tergov hibsonasi ma'muriyati hukm qonuniy kuchga kirganligi haqida sud xabarnomasini olgan kundan boshlab 3 kun ichida jo'natiladi. Agar mahkum chet eldan kelgan yoki boshqa joylarga borganda sodir etilgan jinoyatlari bo'lsa, shu hududdagi qamoq uylarida jazoni o'tashi uchun qoldirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida qamoq jazosining ijro etish tartibi va bajarilishi Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar JIK 58-moddasining hamda 124-moddasi birinchi qismining talablariga rioya etilgan holda ikki kishilik, to'rt kishilik yoki umumiy kameralarda saqlanadilar. Qamoq uylari kamera tipidagi xonalardan iborat bo'lib, xonalarda qamoqning xususiyatlariga va tarkibiy holatlariga mos keladigan sharoitlar moslangan bo'lishi lozim. Masalan, qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar turmadagi shaxslarga o'xshab kunda bir marta ochiq havoda sayr qilishlari mumkin. Hozirgi kunda tergov izolyatorlari turma qamog'ining ayrim xonalari shunday joylarga ajratilgan. Qamoq uylari ham mahkumni jamiyatdan butunlay ajratilgan holda saqlash uchun mo'ljallanganligi bois ularning maxsus himoyalangan bo'lishi talab etiladi.

Mahkumlarni kameralarga taqsimlash masalasi ham ularni tasniflash printsiplari asosida amalga oshiriladi. Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar erkaklar va ayollar, voyaga yetmaganlar va katta yoshlilar, qamoq jazosiga birinchi marta hukm qilingan shaxslar va ilgari qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish jazo turini o'tagan mahkumlar alohida-alohida

saqlanadi. Bundan tashqari ilgari huquqni muhofaza qilish organlarida ishlagan shaxslar ham iloji boricha boshqa mahkumlardan ajratib saqlanadi. Birinchi marta qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar ilgari qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o'tagan shaxslardan alohida saqlanadi. Mahkumlarni bunday ajratib saqlash, avvalo ularning xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek kameradagilarning bir-biriga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi uchun, shuningdek mahkumlarning ongi, dunyoqarashi, bilimi va hokazolarning mos kelishi ham e'tiborga olinadi.


O'n olti yoshgacha bo'lgan qamoq jazosiga hukm qilingan voyaga yetmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 124-moddasiga asosan odatda kattaroq yoshdagi mahkumlardan, ya'ni 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan mahkumlardan alohida saqlanadi. Jazoni o'tash jarayonida 18 yoshga to'lib qolgan voyaga yetgan mahkumlar Jinoyat-ijroiya kodeksining 128-moddasiga muvofiq muassasa boshlig'ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori bilan jazoni voyaga yetmagan mahkumlar ichida o'tab chiqishlariga ruxsat etiladi.

Qamoq jazosiga hukm etilgan mahkumlarga fuqarolik namunasidagi kiyimda yurish Jinoyat-ijroiya kodeksining 35-moddasida ruxsat berilgan. Biroq voyaga yetmagan qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarga nisbatan o'rnatilgan tartibdagi maxsus kiyim-bosh berilishi ham mumkin.

Mahkumlarga har kuni muddati bir soatlik, voyaga yetmaganlar, homilador ayollar va bolasi bor ayollarga esa – bir yarim soatlik sayr qilish imkoniyati beriladi (JIK 35-m. 4-q.).

Qamoq joylaridagi sharoit ozodlikdan mahrum qilish jazosining turma qamog'i kamerasi ko'rinishidagi sharoitlar bilan mos keladi. Bunday sharoitga tushib qolgan birinchi marta jinoyat sodir qilib jazolanayotgan shaxslarning ruhiyatiga qattiq ta'sir qilishi mumkin. Natijada tezroq bu joylardan qutilish va to'g'ri yo'lga kirish istagi paydo bo'lishi mumkin.

Qamoq jazosini ijro etish shartlari. Qamoq uylarida mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish yoki intizomiy jazo choralari qo'llash



Qamoq jazosiga hukm qilinganlarga yaqin qarindoshlari bilan uchrashuvga, telefon orqali so'zlashuvga, posilkalar olish, oziq-ovqatlar sotib olishga ruxsat etilmaydi.

Mazkur jazoga hukm qilingan, davolanishga va kuchli ovqatga muhtoj mahkumlarga tibbiy xulosa asosida ularning shaxsiy hisobvarag'idagi mablag'laridan oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga ruxsat etiladi.

Mahkumlar eng zarur narsalarni pul o'tkazish yo'li bilan belgilangan eng kam ish haqi miqdorining o'ttiz foizidan oshmaydigan qiymatda sotib olishlari mumkin.

Qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarga umumiy tarzda qarindoshlari bilan uchrashuvga yo'l qo'yilmaydi. Jinoyat-ijroiya kodeksining 37-moddasida faqat voyaga yetmagan mahkumlarga yaqin qarindoshlari bilan har oyda bir marta, muddati uch soatgacha bo'lgan qisqa muddatli uchrashuv imkoniyati beriladi.

Qamoq jazosiga hukm qilinganlar, umumiy tarzda qarindoshlari bilan telefon orqali so'zlashuvga ruxsat etilmaydi.

Ammo alohida hollarda, jumladan og'ir kasallikka uchraganda, og'ir operatsiya qilish zarurati bo'lganda, qarindoshlaridan vafot etganida, yer qimirlash natijasida og'ir holatlar kelib chiqqanida, yaqin qarindoshlardan birining haqiqiy harbiy xizmatga chaqirilganida, chet davlatga uzoq

muddatga ketayotganda va hokazo holatlarda telefon orqali so'zlashuvga ruxsat berilish mumkin. Bunday vaqtlarda telefon orqali so'zlashuv ham qamoq uyi xodimining nazorati ostida va maxsus telefon tarmog'i mavjud bo'lganidagina yo'l qo'yilishi mumkin. Qamoq uyidan tashqarida telefon orqali so'zlashishlarga ruxsat berilmaydi. Telefon orqali so'zlashuvlar mahkumning hisob raqamidagi mablag'i hisobiga ruxsat berilishi mumkin. Telefon orqali so'zlashuv qoidalarini IIV tomonidan belgilanadi. Telefon so'zlashuvi uzog'i bilan 15 minutga ruxsat berilishi mumkin. Telefonda urishish, so'kishish, ma'muriyat tushunmaydigan parol yoxud boshqa tilda so'zlashish mumkin emas, nazoratchi suhbatni uzib qo'yishi mumkin.

Qamoq jazosiga hukm qilinganlarga, posilkalar olishga ruxsat etilmaydi, ammo mahkumlar har oyda bir marta eng zarur narsalardan iborat bitta banderol yoki yo'qlov olish huquqiga egadirlar. Bunday mahkumlarga eng zarur narsalardan boshqa narsalarni berish taqiqlanadi. Qamoq jazosini o'tayotgan mahkumlarga banderol va yo'qlov tarzida berish mumkin bo'lgan eng zarur narsalar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan Ichki tartib qoidalarida belgilanadi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan homilador ayollar, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga hamda shifokorning xulosasiga ko'ra davolanishga va kuchli ovqat bilan ta'minlanishga muhtoj, deb topilgan bemorlarga qo'shimcha tarzda posilkalar hamda yo'qlovlar olishga ruxsat etiladi. Davolanishga va kuchli ovqat bilan ta'minlanishga muhtoj, deb topilgan bemorlarga olish ruxsat etilgan posilkalar hamda yo'qlovlar miqdori va turi tibbiy xulosada ko'rsatiladi.

Qarindosh va boshqa shaxslardan banderol yoki yo'qlovlar qabul qilib olish uchun fuqarolar erkin kira oladigan maxsus joylar jihozlanadi. Ularda stullar yoki o'rindiqlari bo'lgan stollar, tekshirib ko'rish uchun tarozi, xat, ariza va shikoyatlar uchun qutichalar o'rnatiladi. Posilka va yo'qlovlarni qabul qilib olish xonasining ish tartibi, fuqarolar qabul qilinadigan vaqt, uchrashuvlar olish, yo'qlov va posilkalarni qabul qilib olish tartibini, ularning soni va miqdorini belgilab beruvchi, shuningdek bu tartibni buzganlik uchun fuqarolarning javobgarligini belgilovchi normativ hujjatlardan ko'chirmalar ko'rinarli joyga osib qo'yiladi. Posilka va yo'qlovlarni qabul qilib oluvchi nazoratchilar oq xalatda bo'lishlari lozim.

Yo'qlov yoki banderol olib kelgan shaxs belgilangan shakldagi arizani ikki nusxada yozib imzolaydi. Yo'qlov yoki banderol arizaning har ikkala nusxasi bilan birga nazoratchiga topshiriladi. Nazoratchi mahkum yo'qlov olish huquqiga ega ekanligi yoki ega emasligini tekshirib, yo'qlov olib shaxs ishtirokida yo'qlovning turi va og'irligini tekshirib ko'radi, so'ngra yo'qlov qabul qilib olib, arizaning bir nusxasini yo'qlov olib kelgan shaxsga yo'qlov

qabul qilib olinganligi to'g'risidagi tilxat bilan qaytarib beradi, ikkinchi nusxasini esa mahkum yo'qlovni olganligi haqida unga imzo chekkanidan keyin alohida yig'majildga qo'shib qo'yadi. Nazoratchi olingan yo'qlovlar soni hamda bu yo'qlovlar topshirilgan shaxslar haqida har kuni uchrashuvlar, telefon orqali so'zlashuvlar, olingan yo'qlov, posilka va banderollar hisobini yuritish varaqchasiga tegishli yozuvlarni kiritib boradi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar qarindoshlari va boshqa shaxslardan pul jo'natmalari olishi mumkin. Pul jo'natmalari pochta orqali o'tkaziladi yoki muassasa kassasiga kelib tushadi. Kelib tushgan barcha jo'natmalar mahkumning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkazilib, bu xususda uni xabardor etiladi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar ham pul jo'natmalarini yuborishlari mumkin. Mahkumlar faqat jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining ruxsati bilan o'zlariga yaqin qarindosh bo'lmagan shaxslarga, shuningdek turli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga pul jo'natmalarini yuborishi mumkin.

Pul jo'natmalarini yuborish uchun mahkum jo'natma miqdorini, oluvchining manzili, familiyasi, otasining ismini ko'rsatgan holda muassasa boshlig'i nomiga ariza beradi. Zarur hollarda, jo'natma nima sababdan yuborilayotganligi tushuntiriladi. Mahkumning arizasi buxgalteriyaga yo'llanadi, buxgalteriya arizada ko'rsatilgan miqdordagi pulni belgilangan tartibda ko'rsatilgan manzilga o'tkazib, bu xususda ariza beruvchiga xabar beradi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar qarindoshlari va boshqa yaqinlariga cheklanmagan miqdorda xat yozishi yoki ulardan xatlarni qabul qilishi mumkin.

Mahkumlarning xat va boshqa jo'natmalari tsenzuradan o'tkaziladi.

Mahkumlarning xatlarni yuborishi faqat jazoni ijro etish muassasalarining ma'muriyati orqali amalga oshiriladi. Qamoq uylaridagi mahkumlar jo'natish uchun yozgan xatlarini ma'muriyat vakillariga beradilar. Xatlar yelimlanmasdan ma'muriyat vakiliga topshiriladi. Xatlarni mahkumlarga topshirish hamda ko'rsatilgan manzillarga jo'natish ular kelib tushgan yoki jo'natish uchun topshirilgan kundan e'tiboran uch kunlik muddat ichida ma'muriyat tomonidan amalga oshiriladi. Telegrammalar ko'rsatilgan manzilga (egasiga) darhol jo'natiladi (topshiriladi).

Mahkumlar nomiga ular muassasadan jo'nab ketganlaridan keyin kelgan xatlar ular saqlanayotgan yangi joyga uzog'i bilan uch kunlik muddat ichida yuboriladi.

Maxfiy belgilar bilan yozilgan, rasmiy narsalar ifodalangan, shifr yoki boshqa shartli belgilar qo'llanilgan, shuningdek beadab, behayo tusdagi, tahdid, o'ch olish maqsadi ko'rsatilgan, po'pisa qilingan yoxud oshkor etish mumkin bo'lmagan ma'lumotlar bo'lgan xatlar ko'rsatilgan manzilga yuborilmaydi, bu xususda mahkumga ma'lum qilinib, xatlar yo'q qilib tashlanadi.

Qoida tariqasida qamoq uylarida saqlanayotgan mahkumlar o'rtasida yozishmalar taqiqlanadi. Muassasa ma'muriyati tomonidan turli muassasalarda saqlanayotgan qarindoshlarga, istisno tariqasida yozishmaga ruxsat etilishi mumkin.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslarning maishiy-yashash sharoitlari belgilangan gigiena va sanitariya qoidalariga mos bo'ladi. Bir mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi ikki yarim kvadrat metrdan kam bo'lishi mumkin emas. Mahkumga yotishi uchun alohida joy, ko'rpa-to'shak va choyshab, shuningdek tergov hibsonalarida qamoqda turgan shaxslar uchun qonun hujjatlarida belgilangan norma bo'yicha ovqat beriladi.

Qamoq uyining kameralari radioeshittirish tarmog'i bilan jihozlanadi, mahkumlarga stol ustida o'ynaladigan o'yinlar, gazetalar, jurnallar beriladi, ular kutubxonadan foydalanish huquqiga ega. Mahkumlarga bo'sh vaqtlari ko'p bo'lganligi tufayli mustaqil ravishda bilimlarini oshirishiga, hunar o'rganishiga qarshilik qilinmaydi.

Ixtisoslashgan shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun mahkumlar jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi davolash muassasalariga, alohida hollarda esa – sog'liqni saqlash organlarining davolash muassasalariga yuborilishi mumkin.

Qamoq jazosi o'tayotgan mahkumlarga nisbatan turma qamog'i qoidalari joriy qilinadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan tarbiya koloniyalarining talablari joriy etiladi. Qish mavsumida xonaning harorati 18-20 daraja pasayib ketmasligi uchun isitish vositalari bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Mahkum mavsumga qarab kiyim-bosh, poyabzal va, bir kunda uch mahal ovqat bilan ta'minlanadi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan shaxslar qamoq uyining xo'jalik xizmatiga oid ishlarga haftasiga to'rt soatgacha haq to'lanmasdan jalb etilishi mumkin.

Qamoq jazosini o'tayotgan mahkumlar majburiy mehnatga jalb qilinmaydilar.

Ulardan faqat qamoq uyining tozaligi yoki xo'jalik ishlarini amalga oshirishda foydalanish mumkin. Lekin bunday ishlarga ham mahkumlardan navbatma-navbat jalb qilinadilar. Ma'muriyat bunday ishlarga haq to'lamaydi. Mahkumlar o'z kameralarini doimo tozalashlari shart hisoblanadi.

Mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlar qamoq uylarining ma'muriyati tomonidan JIKda bayon etilgan qonuniylik, adolat, insonparvarlik, demokratizm, jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish, majburlov vositalarini oqilona qo'llash va mahkumlarning qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish printsiplari asosida olib boriladi.

Qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarga ham bir qator rag'batlantirish va intizomiy choralar qo'llaniladi. Mahkumlarga rag'batlantirish choralarining qo'llanishi uchun mahkumning ijobiy xulqi asos bo'ladi. JIKning 44-moddasida bunday choralarning turlari sanab o'tilgan, lekin ularning qanday hollarda qo'llanish belgilanmagan. Ma'muriyat bu masalani mahkumning bevosita ijobiy yoki salbiy xulqini inobatga olgan holda hal qiladi. Jumladan, mahkumga ijobiy xulqi uchun tashukkur e'lon qilish, ilgari qo'llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash, har kungi sayr vaqtini bir soatga ko'paytirish kabi rag'batlantirish choralarini qo'llashi mumkin. Bu choralardan faqat tashakkur e'lon qilish ham og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi mumkin. Qolgan choralar esa faqat yozma ravishda amalga oshiriladi. Og'zaki ravishda tashakkur ham boshqa rag'batlantirish choralaridek mahkumning shaxsiy xulq-atvor daftariga kiritiladi.

Mahkumlarning yomon xulqi uchun intizomiy jazo choralari ichki tartib qoidaga bo'ysunmaganlarga qo'llaniladi. Mahkumlarga nisbatan ogohlantirish, hayfsan e'lon qilish, o'n (ayollar va voyaga yetmaganlarni esa yetti) sutkagacha kartser xonalariga kiritib qo'yish, kunlik sayrning rag'batlantirish tariqasidagi ko'paytirilgan muddatini bekor qilish kabi intizomiy choralar qo'llaniladi. Intizomiy chora qo'llanilgan mahkumlarga ularni muddatidan avval jazodan ozod etilishiga mone'lik qiladi va keyingi intizomiy choraning qo'llanishiga ham ta'siri bo'ladi. Kartser xonalariga kiritib qo'yilgan mahkumlarga ovqat kamaytirilgan holda beriladi. Intizomiy choralar ham vaqti bilan olib tashlanishi mumkin. Intizomiy chora olib tashlangan mahkumlar jazolanmagan, deb hisoblanadi.

Qamoq jazosini o'tayotgan voyaga yetmagan mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish choralari katta yoshdagi mahkumlarniki bilan bir xil, biroq jazoni o'tash tartibini buzganligi uchun qo'llaniladigan intizomiy jazolardan birmuncha farqlanadi. Masalan, katta yoshdagi

mahkumlar o'n sutkagacha karserga kiritib qo'yilsa, voyaga yetmaganlarga, shu jumladan ayollarga nisbatan bu muddat yetti sutkadan oshmasligi lozim.

Nazorat uchun savollar:

1. Qamoq jazosini ijro etuvchi muassasalar va bu muassasalarda mahkumlarni saqlash tartibi belgilangan.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu tartibni muhokama eting.

2. Qamoq tariqasidagi jazoni o'tashga hukm qilingan mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti va ularga tibbiy xizmat ko'rsatish tartibi belgilangan.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu tartibni muhokama eting.

3. 16 yoshga to'lgan K. sud tomonidan qamoq jazosiga hukm qilinib, jazoni o'tash uchun yuborildi. Jazoni o'tash muddati davomida K. qamoqxona ma'muriyatidan yaqin do'sti kelganligi munosabati bilan uchrashishni so'radi. Lekin qamoqxona ma'muriyati buni rad qildi.

Qamoqxona ma'muriyati harakatlarini muhokama qilib, qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarning uchrashuvlari shartlarini tushuntiring.

4. Qamoq jazosini o'tayotgan Yu. chet davlatga uzoq muddatga ketayotgan akasi bilan telefon orqali so'zlashishni so'rab, qamoqxona ma'muriyatiga murojaat qildi. Lekin qamoqxona ma'muriyati mahkum bunday holatlarda telefon orqali so'zlashish huquqidan foydalana olmasligini tushuntirib, uni iltimosini rad qildi.


Qamoqxona ma'muriyati harakatlarini muhokama qilib, qamoq jazosiga hukm qilingan mahkumlarni telefon orqali so'zlashuvlari tartibini bayon eting.

6-BOB

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARI

Jazoni ijro etish muassasalarining turlari. Manzil-koloniyaalar. Umumiy tartibli koloniyaalar. Qattiq tartibli koloniyaalar. Maxsus tartibli koloniyaalar. Tarbiya koloniyaalar. Turmalar. Mahkumlarni tergov hibsxonasida yoki turmada qoldirish.

Jazoni ijro etish muassasalarining turlari



Ozodlikdan mahrum qilish jazosi jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga sud hukmi bilan olti oydan yigirma yilgacha tayinlanishi mumkin. “Qanchalik qayg’uli tuyulmasin, jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va xamma davrlarda bo’lgan. Biroq, o’tish davrida uning mazmuni faqat jinoiy qilmish doirasi bilangina cheklanib qolmaydi. Yangi mustaqil davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali amalda mulkni qayta taqsimlash jarayoni yuz bermoqda. Ayni shu islohotlarning mohiyatini

belgilaydi. Avvalgi tuzumda davlat tomonidan tortib olingan boylik endilikda uni yaratgan va o'z mehnati bilan ko'paytirayotganlarga tegishli bo'lishi lozim" [Karimov I.A. «O'zbekiston Respublikasi XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». – T: O'zbekiston, 1997].

Jazoni ijro etish muassasalari ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish maqsadida tashkil etilib, ushbu muassasalarda sudlar tomonidan tayinlangan ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jinoiy jazolar ijro etiladi.

Jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunlariga asosan, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolar koloniya va turmalarda o'taladi. Koloniya va turmalarda jazoni o'tash deganda, sud tomonidan jazo tayinlangan shaxsni Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan tartib qoidalarga muvofiq, jazoni ijro etishning maqsad va vazifalari, shakli, mahkumlar bilan ishlash usullari, mahkumga bo'lgan talab, boshqaruv apparatining tarkibiy tuzilmasini belgilaydigan, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tegishli koloniya va turmada o'tash tartibi tushuniladi.

Koloniya va turmalarda jazoni o'tashning tartibi va shartlari Jinoyat kodeksi va Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan. Shuningdek, 2012 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 174-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari" [O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495 // www.lex.uz] da koloniya va turmalardagi jazoni o'tashning tartib-qoidalarni o'zida aks ettirgan.

Jinoyat kodeksining 50-moddasi va Jinoyat-ijroiya kodeksining 45-moddasida jazoni ijro etish koloniyalarining 4 xil turi ko'rsatilgan bo'lib, ular:

- manzil-koloniyalari;
- umumiy tartibli koloniyalar;
- qattiq tartibli koloniyalar;

- maxsus tartibli koloniyalar.

Jazoni ijro etish muassasalarining aniq turlarga ajratilishi, ya'ni Jinoyat-ijroiya kodeksining 45-moddasida mustahkamlangan turlarga bo'linishi qo'yidagi tamoyillarni o'zida aks ettiradi:

- 1) demografik (mahkumning yoshi, jinsi);
- 2) jinoiy-huquqiy (sodir etilgan jinoyatlarning og'irligi);
- 3) tibbiy (mahkum sog'lig'ining ahvoli);
- 4) mahkumning tuzalishi (mahkumning jazoni o'tash jarayonida axloqan tuzalishi).

Shu bilan birga, mahkumlarning ijtimoiy xavfliligi, sodir etgan jinoyatlarning og'irligi va tayinlangan og'ir jazoni hisobga olib, ular jazoning muayyan qismini turmada o'tkazishlari qonunda nazarda tutilgan. Yuqoridagilarga asoslangan holda, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash joylarini shartli ravishda **3 turga** ajratish mumkin:

1. Jazoni ijro etish koloniyalari.
2. Turmalar.
3. Tarbiya koloniyalari.

Mahkumlarni tasniflash nafaqat ularning jinsi, balki psixologik holati, dunyoqarashi, ma'lumoti, shuningdek boshqa holatga ko'ra amalga oshiriladi. Bunday tasniflashda mahkumning sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavflilik darajasi, uning shaxsi, ilgari ham jinoyat sodir etganligi, ayb shakli kabilarga qarab mahkumlar bir-biridan ajratilgan holda saqlanadilar.

Bu choralar jazoni ijro etishdan ko'zlagan maqsadga erishish uchun mahkumning o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib, uning tuzalishi uchun ta'sir vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi.

Manzil-koloniylar



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu - qonun ustuvorligi va qonuniylilikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir" [Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B. 15-16.].

Mazkur demokratlashtirish hamda liberallashtirish jarayonida 2003 yil 30 avgustda va 2003 yil 12 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining bir qator moddalariga, shu jumladan 46-moddasiga ayrim qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, "manzil koloniylari quyidagilarga bo'linadi:

-ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun, shuningdek, kasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniylar;

-umumiy, qattiq tartibli koloniylardan, shuningdek tarbiya koloniylardan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniylar".

Ma'lumki, manzil-koloniylar respublikamizda 1963 yil iyul oyida tashkil etilgan va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Manzil-koloniylarning asosiy xususiyati shundaki, mahkumni qayta tarbiyalash nisbatan yengil sharoitlarda amalga oshiriladi. Mahkumlarning jazoni o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi 113-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, manzil-koloniyalarda mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan, shuningdek umumiy, qattiq tartibli hamda tarbiya koloniyalaridan sudning ajrimi asosida o'tkazilgan voyaga yetgan mahkumlar jazoni o'taydilar.

Manzil-koloniyalarga ijobiy tavsifga ega, og'ir, shuningdek qasddan jinoyat sodir etganligi uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rttdan bir qismini o'tagan mahkumlar, muqaddam qasddan sodir etilgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shuningdek, muqaddam jazoni o'tamasdan shartli ravishda muddatidan ilgari ozod etilgan yoki jazo yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs o'ta og'ir jinoyatni, shuningdek jazo muddatining o'talmagan qismi davomida qasddan yangi jinoyatni sodir etganligi uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o'tagan mahkumlar o'tkaziladi.

Manzil-koloniylarining quyidagi:

- 1) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlari uchun hukm qilinganlar saqlanadigan manzil-koloniylar;
 - 2) sudning ajrimi asosida umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan, shuningdek tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniya turlari mavjud.
-


Manzil-koloniylariga:

- o'ta xavfli retsdivistlar;
- uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar;
- yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlar;
- majburiy davolanishdan o'tayotgan mahkumlar;
- mehnatga qobiliyatsiz mahkumlarning o'tkazilishi mumkin emas.

Manzil koloniylarning chegarasi uning manzili hamda mahkumlar tomonidan bajariladigan ishlarning xususiyatini inobatga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vaziri, viloyat ichki ishlar boshqarmalari boshliqlarining buyruqlari bilan belgilanadi. Manzil koloniya

chegaralari to'g'risida mahkumga uning shaxsiy yig'ma jildiga tirkab qo'yiladigan tilxat orqali ma'lum qilinadi.

Umumiy tartibli koloniyalar



Mamlakatimizda jazolarni ijro etish borasida O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan mahkumlarning huquq va qonuniy manfaatlarini to'liq ta'minlashga erishilmoqda va mahkumga sobiq ittifoq tuzumi davridagi "xavfli jinoyatchi" nazari bilan qarash fikri fuqarolarimizda asta-sekinlik bilan yo'qolib bormoqda, sababi yurtimizda inson manfaatlariga hurmat bilan qaralib, uning sha'n va qadr-qimmatini e'zozlanib kelingan va kelinayapti.

Mustaqilligimizning ilk yillaridan boshlab jazo va uni ijro etish masalalariga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilgan. Xususan 2003 yilning 30 avgust hamda 12 dekabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 47-moddasiga o'zgarishlar kiritilib, ularga binoan, umumiy tartibli koloniyalar quyidagilarga bo'linadi:


- og'ir jinoyat sodir etganligi uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;
- o'ta og'ir jinoyat sodir etganligi uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;
- og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan ayollar saqlanadigan koloniyalar. Agar ayol ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganligi uchun yana sudlangan bo'lsa, sud unga qattiq tartibli koloniyada jazoni o'tashni belgilaydi.

Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni o'tayotgan shaxslar umumiy turar-joy yoki yotoqxonalarga joylashtiriladi. Har bir mahkumga uxlashi

uchun alohida joy berilib, bu joyga uning ismi sharifining bosh harflari va familiyasi yozilgan taxtacha o'rnatiladi.

Yotoqxona va umumiy turar-joy binolarida har bir turkum (otryad) hisobidan kelib chiqqan holda, turkum (otryad) boshliqlari (tarbiyachilar) xizmat xonalari, tarbiya ishlarini olib borish, kiyinib yechinish, mahkumlarning shaxsiy buyumlarini saqlash uchun mo'ljallangan xonalar jihozlanadi.

Qattiq tartibli koloniyalar



Qattiq tartibli koloniyalarning quyidagi turlari mavjud:

-o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

-ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

-ilgari qasddan sodir etilgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganligi uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek o'ta xavfli retsidivist, deb topilgan ayollar saqlanadigan koloniyalar.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 48-moddasida jinoyat-ijroiya qonunchiligining differentsiatsiya va individuallashtirish printsiplari rioya etilgan.

Mahkumlarni differentsiyalash maqsadida qonun chiqaruvchi qattiq tartibli koloniyalarning yuqoridagi ikki turini belgilaydi. Mahkumlarni bu kabi tabaqalashtirish o'zini oqlagan bo'lib, jinoiy tajribaga ega bo'lgan mahkumlarni o'z tajribalarini boshqalarga o'rgatishlarining oldini oladi.

Turli toifaga mansub mahkumlarni alohida saqlash Jinoyat-ijroiya kodeksining jazoni ijro etishda differentsiya va individuallashtirishga rioya etish printsiptini amalda o'zida mujassamlashtiradi. Jazoni ijro etish muassasalari mahkumning tavsifi va ijtimoiy xavflilik darajasi, uning shaxsi, xulqini hisobga olib axloq tuzatish vositalarini qo'llaydi.

Binobarin, JIKning 58-moddasiga asosan, jazoni ijro etish muassasasi rahbariyatiga sud tomonidan bir turdagi rejim belgilangan mahkumlarni bir-biridan alohida saqlash majburiyati yuklanadi.

Qattiq tartibli koloniyalarda saqlash sharoitlari uch xilda tashkil etiladi:


- umumiy (oddiy);
- engillashtirilgan;
- og'ir.

Qattiq tartibli koloniyalardagi sharoitlar umumiy rejim koloniyalarning sharoitlariga nisbatan qattiq ekanligi bilan farqlanadi.

Mahkumlarni axloqan tuzatish va halol mehnatga o'rgatish uchun **yengillashtirilgan** sharoitga uni o'tkazish masalasi O'zbekiston Respublikasi JIKning 104-moddasi asosida ko'rib chiqiladi. Mahkum yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilganda, o'tkazish muddati belgilanmaydi.

Og'irlashtirilgan sharoitga muassasada o'rnatilgan tartib-qoidalarini buzgan ashaddiy tartibsiz deb topilgan mahkumlarni o'tkazish masalasi ko'rib chiqiladi. Og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazish muddati belgilanadi va mahkum ko'pi bilan olti oyga og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazilishi mumkin.

Maxsus tartibli koloniyalar



Maxsus tartibli koloniyalar ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, o'ta xavfli retsidivist deb topilgan, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan erkaklar ham maxsus tartibli koloniyalarda saqlanadi (Jinoyat-ijroiya kodeksining 49-moddasi).

Yuqoridagi mahkumlardan tashqari boshqa kishilar maxsus tartibli koloniyalarga joylashtirilishi mumkin emas. Shuningdek, bu xildagi kameralarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar va o'ta xavfli jinoyatchilar saqlanadi. Koloniya ma'muriyati tomonidan maxsus tartibli koloniya mahkumlari o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boriladi.

Maxsus tartibli koloniyalar turma ko'rinishida bo'lib, nazoratchilari rezina tayoqchalari bilan qurollangan, mahkumlarning nazorat ostida bo'lgan kamera tipidagi xonalarda saqlanishi nazarda tutiladi.


Maxsus tartibli koloniyalar quyidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda jihozlanadi:

- turar joy zonasi ikki qismga: kamera tipidagi va oddiy turar joylar hududiga bo'linadi;

- oddiy turar joylar hududida boshqa turdagi koloniyalarda bo'lgan kabi xizmat va kommunal-maishiy ob'ektlar joylashadi. Bunda turar-joylar ma'muriy va xo'jalik-maishiy binolardan batamom ajratiladi. Tibbiyot bo'limi va statsionar binosi yaxlit devor bilan o'raladi.

Intizomiy bo'linma kamera tipidagi xonalar mavjud bo'lgan hududga joylashtiriladi, unda hibsxona va kartserlar kameralari bo'lib, kartser kameralari mahkumlarni yakka saqlash uchun mo'ljallangan. Bu binolar yaqinida sayr qilish maydonchalari jihozlanadi.

Tarbiya koloniyalar



Jinoyat-ijroiya kodeksining 50-moddasida nazarda tutilgan tarbiya koloniyalari voyaga yetmay turib jinoyat sodir etgan mahkumlarni saqlashga mo'ljallangan.

Jinoyat-ijroiya qonunchiligi mahkumlarni axloqan tuzatish tartib-qoidalarini belgilaydi. Zero, mahkumlarni axloqan tuzatish masalasi har bir jazoning o'ziga xos xususiyatlarida aks ettiriladi. Axloqan tuzatish masalasi ayniqsa, voyaga yetmaganlarga nisbatan jazo ijrosini ta'minlashda o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Voyaga yetmaganlar bilan bog'liq jazoni ijro etishda tarbiya koloniyalarining yaratilishi qonunchilikda nazarda tutilgan. Bunda qonun chiqaruvchining "tarbiya" termini o'ziga xos bo'lib, bu yerda umumiy tartibdagi koloniyalarga nisbatan voyaga yetmagan jinoyatchiga ko'proq psixologik-pedagogik ta'sir o'tkaziladi.

Tarbiya koloniyalari voyaga yetmagan mahkumlar uchun mo'ljallangan bo'lib, jazo umumiy asoslarga ko'ra o'taladi. O'n sakkiz yoshga yetgan mahkumlar voyaga yetmagan mahkumlardan ajratilgan holda saqlanadi. Voyaga yetmagan mahkumlarni tarbiya koloniyalarda saqlashning asosiy sababi shuki, bu jinoyatchilik sohasida tajribali mahkumlarning salbiy ta'siridan saqlaydi.

Umumiy qoida bo'yicha tarbiya koloniyalarida 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan mahkumlar saqlanadi, ammo ularning bu muassasada jazoni o'tash bilan bog'liq holda 21 yoshgacha saqlab turish mumkin. Jumladan, jazo o'tashni davom ettirish uchun mahkumlarni jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalalari sud tomonidan Jinoyat-protsessual kodeksining 537-moddasining 4-bandida belgilangan tartibda amalga oshiriladi: "o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumni tarbiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalasini hal etishda sud uning tuzalish darajasini hisobga olishi lozim. Mahkum tarbiya koloniyasida jazoni o'tash muddatini davom ettirish uchun uzog'i bilan 21 yoshga to'lgunga qadar qoldirilishi mumkin"[Jinoyat-ijroiya huquqi. Ma'ruzalar kursi. / Z.S.Zaripov, Ch.A.Sattarov, Yu.S.Pulatov va boshq. – Toshkent: Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti, 2013. B.297.].

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar uchun mo'ljallangan kasb-hunar ta'limi va kasb tayyorgarligi sinf hamda yordamchi texnik xonalari boshqa binolardan ishonchli tarzda batamom ajratib qo'yilgan bo'lishi lozim.

Turar joy zonasi hududida sport zali yoki bir vaqtning o'zida barcha mahkumlarni safga tizish uchun maydon, stadion, zarur sport inventarlari kompleksi mavjud maydonchalar jihozlanadi.

Tarbiya koloniyasi hududi balandligi uch metrdan kam bo'lmagan devor bilan o'raladi, uning tashqi perimetri bo'ylab niqoblab devor bilan o'raladi. Tarbiya koloniyalarining intizomiy bo'linmasida kartserga mo'ljallangan kameralar jihozlanmaydi.

Turmalar

Turmalar quyidagilarni saqlash uchun mo'ljallangan:

turma qamog'iga hukm qilingan shaxslarni;

shuningdek umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzganligi uchun o'tkazilgan shaxslarni.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 52-moddasiga binoan turmalar turma qamog'iga hukm qilingan shaxslar, shuningdek umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzganligi uchun o'tkazilgan shaxslarni saqlash uchun mo'ljallangan.

Turmalar jazoni ijro etish muassasalari tizimida o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ozodlikdan mahrum qilinganlarga nisbatan turma qamog'ini tadbiq etish ham mahkumlarni tasniflashning yana bir turi deb e'tirof etiladi. Jumladan, mahkumlarning ijtimoiy xavfliligini e'tiborga olgan xolda sud ozodlikdan mahrum qilish jazosining muayyan qismini turma kamog'ida xam belgilashga xaqli hisoblanadi. Turma kamog'iga ozodlikdan mahrum qilish kilish jazosini o'tashlik uchun yuborish kat'iy emas.

Sud jinoyatchining shaxsi, uning ijtimoiy xavfliligi va axloqan tuzatish kiyinchiligini inobatga olgan holda, ozodlikdan mahrum qilish jazosining ma'lum qismiga turma qamog'ini qo'llashi mumkin bo'ladi. Turma qamog'iga yuborish shartlari ham Jinoyat kodeksining 50-moddasi 7-qismida belgilab qo'yilgan. Jumladan, ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni turma qamog'iga yuborish ozodlikdan mahrum qilish jazosining faqat besh yildan ko'p bo'lmagan qismiga tadbiq etilishi mumkin. Turma qamog'iga o'ta xavfli retsidivistlar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar yuborilishi mumkin.

Turma hududi rejim, ma'muriy va xo'jalik xonalariga bo'linadi.

Rejim zonasi hududida mahkumlar saqlanadigan korpuslar oshxona, kir yuvish xonasi, hammom, stotsionar, tibbiyot bo'limi, sayr qilish maydonchalari, ishlab chiqarish binolari joylashadi.

Sayr qilish maydonchalari, odatdagidek, korpuslarning yuqori qavatlarida barpo etiladi. Ayrim hollarda, kameralardan ko'rib turish imkoniyati bo'lmasa, sayr qilish maydonchalariga jihozlanadi.

Ishlab chiqarish korpuslari boshqa binolardan batamom ajratilgan holda joylashtiriladi. Turar joy korpuslari, odatda ishlab chiqarish kommunal-maishiy va boshqa ob'ektlari bilan tunellar yoki yer ustidagi yopiq o'tish joylari orqali tutashgan bo'ladi.

Ma'muriy zona hududida xizmat xonalari, soqchilik xonasi mavjud nazorat o'tkazish punkti, alohida ajratilgan xonalardan iborat qabul bo'linmasi, navbatchilik xizmati binosi, tergov xonalari, mahkumlarni qarindosh-urug'lari va boshqa shaxslar bilan uchrashuvlarga mo'ljallangan xonalar joylashadi.

Xo'jalik zonasida omborxonalar, sabzavot saqlash omborlari, garaj, xo'jalik ustaxonalari va boshqa yordamchi binolar joylashadi.

Mahkumlarni tergov hibsxonasida yoki turmada qoldirish

Mahkumlarni tergov hibsxonasida yoki turmada qoldirish:

Qasddan sodir etilgan og'ir jinoyati uchun birinchi marta sakkiz yilgacha va sakkiz yil muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar qoldirilishi mumkin.

alohida hollarda, mahkumning yozma roziligi bo'lgan taqdirda, muassasa boshlig'ining qaroriga binoan xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun tergov hibsxonasi yoki turmada qoldirilishi mumkin.

Quyidagilar tergov hibsxonasida yoki turmada qoldirilmaydi:

Voyaga yetmagan shaxslar;

ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

shuningdek sudlar va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining sobiq xodimlariga mansub mahkumlar.

Umumiy qoidaga ko'ra sudning hukmi konuniy kuchga kirganidan so'ng ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlar jazoni tegishli tartibdagi jazoni ijro etish muassasasida o'taydilar. Shu bilan birga, ba'zan sud hukmi bilan jazoni o'tash koloniyasiga yuborishi belgilangan mahkumni tergov hibsxonasi yoki turmada qoldirish zarurati yuzaga keladi.

Masalan, Jinoyat-ijroiya kodeksi 53-moddasiga ko'ra, mahkumni xo'jalik ta'minoti bilan bog'liq ishlarni bajarishi uchun zarurat bo'lsa, tergov hibsxonasi yoki turmada qoldirish mumkin.

Mahkumni tergov hibsxonasida yoki turmada xo'jalik ta'minoti ishlarni bajarish uchun qoldirish, bu ishlarni bajarish uchun ixtiyoriy yollanma ishchilarni topish qiyin (kam haq to'lanishi, obro'siga to'g'ri kelmasligi bilan bog'liqdir). Tergov hibsxonasida yoki turmada qoldirishga ko'pi bilan sakkiz yilgacha va sakkiz yil muddatgacha ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlarga yo'l qo'yiladi.

Buning uchun albatta mahkumlarning yozma roziligi talab qilinadi. Bu holat mahkumni tergov hibsxonasida yoki turmaga qoldirish uchun nafaqat rasmiy ahamiyatga ega, balki uning huquqlarini buzilmasligiga ham xizmat qiladi. Masalan: agar, mahkum o'zini yana jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish to'g'risida ariza bersa, tergov hibsxonasi yoki turma ma'muriyati uning talabini qondirishi shart.

Tergov hibsxonasi yoki turma boshlig'ining buyrug'i mahkumni xo'jalik ishlarni bajarishga qoldirish uchun asosiy yuridik asos hisoblanadi. Bu hujjatning bir nusxasi mahkumning shaxsiy yig'ma jildiga tikib qo'yiladi.

Tergov hibsxonasi yoki turmada qoldirilgan shaxslarni boshqalardan ajratgan holda saqlash lozim. Chunki tergov hibsxonasida odatda og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslar saqlanadi. Ularning birga saqlanishi mahkumning xulqiga, boshqa tarafdin esa, tergov jarayonining borishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xo'jalik ta'minoti ishlarini bajarish uchun tergov hibsxonasida qoldirilgan mahkumlar qulflanmaydigan umumiy kameralarda saqlanadilar, shuningdek, bu mahkumlar jazoni ijro etish koloniyalarida o'tayotganlar foydalanayotgan barcha huquqlardan foydalanadilar.

Ular o'z qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan qisqa muddatli yoki uzoq muddatli uchrashish huquqiga egadirlar. Agar uzoq muddatli uchrashuvga ruxsat berish imkoni bo'lmasa, bir martalik uzoq muddatli uchrashuv o'rniga, ikki marta qisqa muddatli uchrashuvga ruxsat beriladi.

Qonunda tergov hibsxonasida yoki turmada qoldirilishi mumkin bo'lmagan shaxslar toifasi belgilangan. Voyaga yetmagan shaxslar, xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek, sudlar va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining sobiq xodimlari bo'lgan

mahkumlar shular jumlasiga kiradi. Bunday cheklovlardan ko'zlangan maqsad ularning xavfsizligini ta'minlashdir.

Nazorat uchun savollar:

1. Tergov hibsxonalari ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasalari vazifasini bajaradi.

Tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda mazkur tartibni muhokama eting.

2. Turma hududi rejim, ma'muriy va xo'jalik xonalariga bo'linadi.

Turma hududida amal qiluvchi rejimni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar qaysilar va mazkur hujjatlar asosida ma'muriy va xo'jalik xonalaridagi rejimlarni tahlil eting.

3. Sud voyaga yetgan R.ga ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlab, uning o'ta tarbiyasizligini inobatga olib kuchaytirilgan tartibdagi tarbiya koloniyalarida jazoni o'tashini belgiladi.

Yuqoridagi vaziyatda sud harakatlarining qonuniyligi to'g'risida fikr bildiring.

4. Qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etganligi uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan R.ning o'zini xo'jalik xizmatiga oid ishlarini bajarishi uchun tergov hibsxonasida qoldirilishini so'rab sudga murojaat etmoqda.

Vaziyatga huquqiy asoslantirilgan fikringizni bildiring, masala qanday hal etilishi lozim?

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZO IJROSINI TASHKIL ETISH

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish asoslari va tartibi. Ozodlikdan mahrum etish joylarida jazo ijrosini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Mahkumlarni jazoni o'tash uchun jo'natish, mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilish tartibi. Mahkumlar jazoni o'tash uchun jo'natilganligi va yetib kelganligi to'g'risida xabar. Mahkumlarni ajratilgan holda saqlash. Turli toifadagi mahkumlarni birga saqlash. Mahkumlarni ko'chirish. Mahkumlarni saqlash sharoitini rag'batlantirish tarzida yengillashtirish tartibi. Mahkumlarni saqlash sharoitini intizomiy jazo tarzida o'zgartirish tartibi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish asoslari va tartibi


Ozodlikdan mahrum qilish jazosi sud tomonidan ijtimoiy xavfli harakati yoki harakatsizligi uchun aybli deb topilgan shaxsga, olti oydan yigirma yilgacha tayinlanishi mumkin. Ozodlikdan mahrum qilish faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda asosiy jazo tariqasida tayinlanishi mumkin.

Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, “Qanchalik qayg'uli tuyulmasin, jinoyatchilik hamma mamlakatlarda va hamma davrlarda bo'lgan. Biroq, o'tish davrida uning mazmuni faqat jinoiy qilmish doirasi bilangina cheklanib qolmaydi. Yangi mustaqil davlatlarda amalga oshirilayotgan islohotlar orqali amalda mulkni qayta taqsimlash jarayoni yuz bermoqda. Ayni shu islohotlarning mohiyatini belgilaydi. Avvalgi tuzumda davlat tomonidan tortib olingan boylik endilikda uni yaratgan va o'z mehnati bilan ko'paytirayotganlarga tegishli bo'lishi lozim”[Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» - Toshkent: O'zbekiston, 1997.].

JIKning 5-moddasida jazoni ijro etish asoslari ko'rsatilgan bo'lib, unga ko'ra jinoiy jazolarni ijro etish asos sifatida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, ajrimi yoki qarori, shuningdek, amnistiya yoki afv akti hisoblanadi.

Ozodlikdan mahrum etish joylarida jazo ijrosini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZO IJROSINI



Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi halqaro talablarga javob bera oladigan qonunlarni qabul qilishda muxim ahamiyat kasb etmoqda. Garchand davlat jinoyatchilikdan butunlay holi bo'lish imkoniyatlariga ega bo'lmasada, lekin uning oldini olish, unga qarshi kurash, jinoyatchilikni tergov qilish va jazolash masalalari ham adolatli qonun normalari bilan tartibga solinmoqda. Davlatning ravnaqiga uning rivojlanishiga jinoyatchilik jiddiy to'siq bo'lmay, davlat bunday illatga qarshi faqat adolatli qonun bilan kurashadi [Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrоров. – T.: O'qituvchi, 2002. – B.55.].

Yuridik adabiyotlarda, **ozodlikdan mahrum etish joylarida jazo ijrosini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari** sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish lozim deb e'tirof etiladi:

- ijtimoiy-tarbiyaviy dominantalik vazifasini o'taydi;
- jinoyatchining yangi jinoyat sodir etishining maxsus ogohlantiruvchi, oldini oluvchi xususiyat hisoblanadi;
- ozodlikdan mahrum etish joylarida jazo o'zining qoralash xususiyati orqali uzluksiz xusuiyatda mujassamlashtiradi;
- jazoning ogohlantirish mahkumning ruhiy mexanizmini chuqur o'rganishni taqozo etadi;
- ozodlikdan mahrum etish joylarida jazoning ta'sir kuchi shaxsga ma'lum muddatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- jazo o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra, mahkumlarning sodir etgan jinoyat turiga qarab og'ir yoki o'ta og'ir sifatida qoraladi [Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.].

Mahkumlarni jazoni o'tash uchun jo'natish, mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilish tartibi

Jinoyat ijroiya kodeksining 54-moddasida ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar tergov hibsonasining ma'muriyati hukm qonuniy kuchga kirganligi to'g'risida sud xabarnomasini olgan kundan boshlab o'n kunlik muddat ichida jazoni o'tash uchun jo'natadi. Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasasiga jo'natish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 50-moddasiga muvofiq, ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iborat. Shuningdek, Jinoyat kodeksining 85-moddasiga muvofiq, hukm chiqarish paytida o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosini umumiy yoki kuchaytirilgan tartibli koloniyalarida o'tash tayinlanadi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, Jinoyat ijroiya kodeksiga muvofiq jazoni o'tash uchun mahkumni jo'natish hukm qonuniy kuchga kirganligi to'g'risida sud xabarnomasi olingan kundan boshlab yoki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 528-moddasiga muvofiq, hukm apellyatsiya yoki kassatsiya tartibida murojaat qilish muddati o'tgandan boshlab qonuniy kuchga kiradi, deb belgilab qo'yilgan. Mahkumni jazoni ijro etish muassasiga yuborilishini ta'minlash muammolari hukm chiqargan

sud tomonidan amalga oshirilishi lozim. O'n kunlik muddatning belgilanishi mahkumni vaqtida ijro muassasasiga jo'natish muammosini hal qiladi. Bu muddatning belgilanishida asosiy omil – mahkum jo'natilayotgan ijro etish muassasida mahkum bilan bog'liq muammolarni, ya'ni qanday transport vositasida yetkazilishi, qaysi muassasaga yetkazilishi hal etilishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Mahkumlar jazoni O'zbekiston Respublikasining hududida o'tashadi, ayrim xildagi jazolarni o'tash hududiylik asosida mahkumning yashash joyidagi hududiy jazoni ijro etish muassasasida ham o'talishi mumkin. Mahkumni o'z hududidan uzoq bo'lmagan muassasada jazoni o'tashi ko'plab muammolarni ijobiy hal qilinishiga imkon yaratadi: bu mahkumning oila a'zolari bilan uchrashuv o'tkazishida moddiy harajatlarning tejalishiga, banderol va posilkalar yuborilishida kamharjlik bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, muassasaning tibbiyot xodimlari insonparvarlik tamoyiliga muvofiq, mahkumning sog'lig'i haqida g'amxo'rlik qiladilar. Respublikamizning ayrim viloyatlarida manzil koloniyalarning, tarbiya muassasalarining mavjud emasligi ba'zi bir muammolarni keltirib chiqarayotganligi sir emas. Mahkum sog'lig'i yomonlashgan hollarda jazoni o'tayotgan muassasada unga tibbiy xizmat ko'rsatish iloji bo'lmagan hollarda muassasa tibbiyot xodimlarining bergan xulosasiga muvofiq, mahkum boshqa viloyatdagi jazoni o'tash muassasiga ko'chirilishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosining ijro etilishi **Ichki ishlar vazirligining jazolarni ijro etishning Bosh boshqarmasi tomonidan** tashkil etiladi. Bosh boshqarma jazolarni ijro etish muassasalarini tashkil etadi, ularni boshqaradi, o'zgartiradi va tugallash vazifalarini amalga oshiradi.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish jarayonida muassasa ma'muriyati qonun normalarining bajarilishini ta'minlaydi. Bu borada mahkumlarni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash uchun mehnat jamoalaridan, murabbiy va ish o'rgatuvchi muxandislik faoliyatlaridan ham foydalanishlari mumkin. Muassasa ma'muriyati xodimlari ish xizmati xodimlari hisoblanadi. Mahkum hukm qonuniy kuchga kirganidan so'ng, jazoni o'tash uchun jo'natilguniga qadar yaqin qarindoshlari yoki oila a'zolari bilan qisqa muddatli diydor ko'rishishiga ruxsat beriladi. Mahkumning qaerga jo'natilayotganligi uning oila a'zolariga xabar qilinadi. Xabar berish mahkum tegishli joyga jo'natilganidan so'ng, uch kunlik muddat ichida amalga oshiriladi. Xabarda muassasa manzili va qachon jo'natilganligi ma'lum qilinishi shart.

Mahkumni jazoni o'tash joylariga jo'natish Ichki ishlar vazirligining maxsus yo'riqnomalariga binoan amalga oshiriladi. Jumladan, konvoy belgilanadi, bu konvoy mahkumni, uning shaxsiy hujjatlarini qabul qilib oladi, belgilangan koloniyalarga olib borib topshiradi. Mahkumlarni ijro etish koloniyalariga jo'natish, asosan, temir yo'l yoki avtotransportda amalga oshiriladi. E'tiborli jihati shundaki, mahkumlarni jazoni ijro etish koloniyalariga jo'natish ularning sodir etgan jinoyat turi, og'irlilik darajasi, jinsi hisobga olingan holda alohida-alohida jo'natiladi. Zarur hollarda kasal mahkumlar maxsus tibbiyot xodimi nazoratida bo'lishlari lozim. Mahkumlarni zarur hollarda xavfsizligi ta'minlanadi va qochib ketishi mumkinligining oldini olinadi.

Mahkumlarni koloniyaga olib borishda ular maxsus mavsumga muvofiq kiyim-bosh bilan ta'minlanadi va maxsus ta'minot belgilanadi. Barcha sarflanadigan harajatlar davlat hisobidan amalga oshiriladi. Mahkumlarni qabul qilish amalga oshirilgandan so'ng uning otryadi, brigadasi, manzili haqida shuningdek, unga berilgan imtiyozlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Mahkumlar jazoni o'tash uchun jo'natilganligi va yetib kelganligi to'g'risida xabar berish

Jinoyat-ijroiya kodeksining 55-moddasiga muvofiq, tergov hibsonasining ma'muriyati mahkum jazoni o'tash uchun jo'nab ketganligi to'g'risida uning oilasiga uch kunlik muddat ichida xabar yuborishi shart.

Jazoni ijro etish muassasasining mahkum yetib kelgan kundan boshlab **uch kunlik muddat** ichida bu haqda hukm chiqargan sudni xabardor qilishi, shuningdek mahkumning oilasiga muassasa manzilini ko'rsatib hamda mahkumning yozishma olib borish, uchrashuv, posilka, yo'qlov va banderollar olishi, telefon orqali so'zlashuv huquqlarini tushuntirib, xabarnoma yuborishi shart.

Mahkumni jazoni o'tash muassasalariga qabul qilish jazosini ijrosini tashkil etishning maxsus bosqichi bo'lib hisoblanadi. Amaliyotda ba'zan shunday holatlar ham ro'y beradiki, mahkumning oila a'zolarigacha mahkumning jazoni o'tash joyi haqidagi ma'lumot yetib bormaydi, qanday holat ro'y berishidan qat'i nazar, muassasa ma'muriyati mahkumning qaysi jazoni ijro etish muassasasida jazoni o'tayotganligi haqidagi xabarni uning qarindoshlariga yetkazishi shart, bo'lib hisoblanadi. Mahkumlarni jazoni ijro etuvchi muassasalarga qabul qilish Ichki ishlar vazirligining tegishli normativ hujjatlariga asosan belgilanadi. Qabul qilishning asosini sudning

ayblov hukmi tashkil etadi [O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2014 yil 27 iyuldagi 103-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasasiga jo'natish hamda ularni bir muassasadan boshqasiga ko'chirish tartibi to'g'risidagi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 8 avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2608).].

Aynan muassasa ma'muriyati tomonidan mahkumning qarindoshlariga yuboriladigan xabarnomada mahkum joylashgan muassasa manzilini to'liq ko'rsatishi lozim. Shuningdek, mahkumning qarindoshlari muassasada saqlanayotgan mahkumga turli xildagi noqonuniy narsalar yetkazib berish ta'qiqlanganligi haqida ogohlantiradi. Mahkumning shaxsi, xulq-atvorini, shaxsiy hujjatlarini, sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavfliligini o'rganish uchun uning kelib tushganidan boshlab o'n besh sutkagacha vaqt belgilanadi. Bu davr yuridik adabiyotlarda mahkumning "karantin" davri deb yuritiladi. Eslatib o'tish lozimki, bu qoida manzil koloniyalardagi, tergov hibsonalarning xo'jalik xizmatiga qoldirilganlarga va turmaga yuborilganlarga tadbiiq etilmaydi. [Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrоров. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Muassasa raxbarining yordamchisi muassasaga keluvchi mahkumlarning shaxsiy kartochkalarini qabul qiladi. Belgilangan tartib qoidaga rioya qilinmagan hollarda muassasa raxbariyati mahkumni qabul qilmaslik huquqiga ega. Bunday hollar quyidagilar bo'lib hisoblanadi:

- mahkum jazoni ijro etish rejimini qay tartibda o'tashi ko'rsatilmagan taqdirda;

- sud tomonidan chiqarilgan hukm ijro etish koloniyasi rejimiga mos tushmagan taqdirda;

- hukm qonuniy kuchga kirmagan paytda yoki hukmning qonuniy kuchga kirishi haqidagi ma'lumot (qay paytdan boshlanishi) bo'lmagan taqdirda;

- mahkum shaxsiga doir ma'lumotlar mavjud bo'lmagan taqdirda;

- mahkum muassasa ma'muriyatiga naryad yoki muassasa ma'muriyati qoidalarini buzib keltirilgan taqdirda;

- voyaga yetmagan mahkum jazoni ijro etuvchi muassasaga yuborilgan taqdirda yoki voyaga yetgan mahkumni tarbiya muassasiga yuborilgan taqdirda;

- mahkumning shaxsiy kartochkasida yetarli ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish


muassasalarining ichki tartib qoidalarini (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Yuqorida ko'rsatilgan holatlardan birontasi mavjud bo'lmagan taqdirdagina muassasa raxbariyati mahkumni ko'rsatilgan rejim bo'yicha joylashtirib, muassasa nizomi bilan tanishtirib o'tadi. Muassasada biror bir qoida buzilish holatlari kayd etilgan paytda, muassasa ma'muriyati bu xaqida zudlik bilan yuqori turuvchi organlarga xabar berishi shart. Bundan tashqari muassasada jazoni ijro etilishi qonuniy hal etilayotganligini nazorat qiluvchi prokurorga ham ma'lumot yetkazilishi shart.

Muassasaga yetib kelgan mahkum kiyimlari tintuv qilinadi, har bir o'zi bilan olib kelgan narsasi ham tekshirib ko'riladi, bu holatlarning barchasiga qonuniy tus berish maqsadida Jinoyat-ijroiya Kodeksining 67-moddasida belgilab qo'yilgan. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumning shaxsi, buyum va kiyimlari tintuv qilinganligi va ko'zdan kechirilganligi haqida, kim tomonidan amalga oshirilganligi to'g'risida akt yoki protokol hujjati tuziladi. Mahkumning o'zi bilan pul, turli xil qimmatli buyumlar olib yurishiga jazoni ijro etuvchi muassasalarda (manzil-koloniyalardan tashqari) yo'l qo'yilmaydi. Shuning uchun, mahkumga tegishli bo'lgan tilla taqinchoklar, pul va boshqa ashyolar olib qo'yiladi. Olib qo'yilgan buyumlar haqida kvitantsiya berilishi shart.

Mahkum muassasaga yetib kelgan kuni to'liq ravishda kompleks tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi, ularga tibbiy holati to'g'risida ma'lumotnoma taqdim qilinadi, shuningdek mavsumga mos kiyim-kechak bilan ta'minlanadi. Mahkum tibbiy ko'rikdan **o'tkazilgach 15 kundan kechikmagan holda** muassasaga joylashtiriladi. Muassasaga yetib kelgan mahkum muassasa tomonidan o'rnatilgan qonun-qoidalar bo'yicha har bir mahkumning shaxsini o'rganib chiqadi. Shuningdek, mahkum qanday ish bilan shug'ullanishi, qaysi otryadda jazoni o'tashligi, turmalarda esa qanday izolyatorlarda jazoni o'tashligi belgilanadi.

Mahkumlarni ajratilgan holda saqlash va turli toifadagi mahkumlarni birga saqlash



Jinoyat-ijroiya kodeksining 57-moddasida: “Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxs butun jazo muddatini, odatda, bitta muassasada o’taydi.

Mahkumni bir koloniyadan ayni shu turdagi boshqa koloniyaga jazoni o’tashni davom ettirish uchun o’tkazishga uning havfsizligini ta’minlash maqsadida uning roziligini olgan holda, shuningdek mahkumning mazkur muassasada qolishiga to’sqinlik qiluvchi boshqa hollarda yo’l qo’yiladi.

Mahkum kasal bo’lib qolgan taqdirda uni koloniyadan yoki turmadan ixtisoslashgan davolash muassasasiga o’tkazishga tibbiy xulosa asosida yo’l qo’yiladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni jazoni ijro etuvchi bir muassasadan boshqasiga o’tkazish tartibi O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi” deb yozib qo’yilgan.

JIKning 57- moddasi va jinoyat-ijroiya qonunchiligi mahkumlar uchun yagona qoida bo'lib, ya'ni jazoni faqatgina bitta koloniyada o'tashni shart qilib qo'yadi. Bu xil shart-sharoitlar jazolarni samaradorligi va mahkumning qayta tarbiyalanishida katta ijobiy rol o'ynaydi. Aks holda, mahkumning jazoni turli koloniyalarda o'tashligi jamiyat uchun xavfli tus olishi mumkin. Buni bir necha asoslarda salbiy holatlariga olib kelishini ko'rsatish mumkin:

- mahkumning jazoni turli koloniyalarda o'tashi uning kayta tarbiyalanishida samarasizlik belgisi bo'ladi;
- uning harakteri, qiziqishi va shu kabi omillarning pasayishiga olib keladi;
- uning ruhiyatiga kuchli ta'sir o'tkazadi;
- yaqin qarindoshlariga juda ko'plab mushkulotlar orttiradi.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrоров. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Har bir jazoni ijro etuvchi muassasa o'ziga qabul qilayotgan mahkumning shaxsiy kartochkasidagi ma'lumotlardan tashqari uning qiziqishi, tabiati haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi lozim.

Jinoyat-ijroiya Kodeksi 57-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan qoida jinoyat-ijroiya qonunchiligiga istisno holat sifatida baholanadi. Bunday holatlar jumlasiga, mahkumning shaxsiy xavfsizligi, tibbiy bemorligi va boshqa omillarda namoyon bo'ladi. Mahkumni boshqa jazoni ijro muassasaga o'tkazish birinchi navbatda uning roziligi bilan amalga oshiriladi. Mahkumning hayotiga taxdid soluvchi harakatlar uning jazoni ijro etuvchi muassasasidagi mahkumlar tomonidan, ijro koloniyasi xodimlari tomonidan yoki shu muassasa bilan bog'liq boshqa shaxslar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2014 yil 27 iyuldagi 103-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasasiga jo'natish hamda ularni bir muassasadan boshqasiga ko'chirish tartibi to'g'risidagi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 8 avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2608).]

Shaxsni tibbiy muassasaga o'tkazish bilan bog'liq ishlar faqatgina **tibbiy xulosa asosida** amalga oshirilishi mumkin, sababi har qanday kassallik mahkumni tibbiy muassasaga o'tkazish uchun xizmat qila olmaydi. Mahkumni tibbiy muassasaga o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan tibbiy xulosani O'zbekiston Respublikasi IIV tibbiy muassasalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV tibbiy muassasalari, viloyatlardagi

jazolarni ijro etish bilan bog'liq ichki ishlar boshqarmalarining tibbiy muassasalari berish huquqiga ega. Shuningdek, mahkum qaysi holda zudlik bilan tibbiy muassasaga joylashtirilishi kerak, degan masala qiziqarli bo'lishi tabiiy. Mahkumga jazoni ijro etish koloniyasida tibbiy yordam ko'rsatish iloji bo'lmagan taqdirda u zudlik bilan tibbiy muassasaga joylashtiriladi.

Ma'lumki, qonunchilik mahkumni boshqa muassasaga o'tkazish bilan bog'liq barcha holatlarni o'zida qamrab ola olmaydi. Bunga misol qilib quyidagi omillarni ko'rsatish mumkin:

- turli xildagi tabiiy ofatlar (bo'ron, yer qimirlashi, va hok.);

- mahkumlar o'rtasidagi o'zaro nifoq bo'ladigan hollar;

- mahkumning yaqin qarindoshlari bilan uchrashuvlar o'tkazishda manzilning uzoqligi yoki mahkumning yaqin qarindoshlari nochor bo'lgan hollarda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mahkumni bir muassasadan boshqasiga o'tkazish O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi (sud tomonidan emas).

Shuningdek, mahkumni boshqa muassasaga o'tkazish tashabbusi bilan quyidagilar chiqishga xakli:

- jazoni ijro etuvchi muassasa ma'muriyati;

- jazoni ijro etuvchi muassasada qonunlarni bir xilligi ustidan nazorat qiluvchi prokuror;

- mahkumning yaqin qarindoshlari iltimosi va arizalari bo'yicha;

- mahkum yashaydigan mahalla qo'mitasi yoki mehnat boshqarmasining tavsifnomasi.

Jinoyat-ijroiya Kodeksining 58-moddasida mahkumlarni ajratilgan holda saqlash holatlari belgilanib berilgan. Unga ko'ra, quyidagilar boshqa mahkumlardan batamom ajratilib, alohida-alohida saqlanadi:

- o'ta xavfli retsidivistlar;

- umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi avf etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan mahkumlar;

- mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

- sud va huquq-tartibotni muxofaza qiluvchi organlarning sobiq xodimlariga mansub mahkumlar;

- turli yuqumli kasalliklarga chalingan mahkumlar.

Ma'lumki, axloq tuzatish vositalari jazo turini, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini, shuningdek mahkumning shaxsi va xulq-atvorini inobatga olgan holda qo'llaniladi (JIK 7-m).

Mahkumlarni bir-biridan ajratilgan holda saqlash ularning turli xil xususiyatlariga ko'ra hal etilishi ham mumkin:

a) birinchi marta ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etgan mahkumlar alohida ajratiladi;

b) birinchi marta qasddan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan mahkumlar;

v) birinchi marta qasddan og'ir jinoyatni sodir etgan mahkumlar;

g) birinchi marta qasddan o'ta og'ir jinoyatni sodir etgan mahkumlar alohida ajratiladi;

d) ilgari ham ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqanlar alohida ajratiladi;

e) alohida havfli retsdivistlar ham alohida-alohida saqlanadilar;

j) umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilganda ham ular ham alohida saqlanadi;

z) fuqaroligi bo'lmagan va chet el fuqarolari ham ozodlikdan mahrum qilinganida alohida, ajratilgan holda saqlanishlari lozim. Lekin bunday shaxslar ko'pincha boshqa shaxslar bilan birga saqlanganliklarini ko'rsak ham, lekin ularning huquqiy holatlari tamomila boshqacha tus olgan. Erkak jinsdagi mahkumlar ayollar va voyaga voyaga yetmagan mahkumlardan ko'ra og'irroq darajada jazolanadi.

Voyaga yetmagan mahkumlarda mahkumlarning tasniflanishi ularning jinsiga qarab ham farqlanadi. Jumladan, ilgari ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan voyaga yetmagan mahkumlarning erkak jinsidagilar, yana ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlarida, kuchaytirilgan tarbiya koloniyalarida saqlansalar, voyaga yetmagan qizlarga bu qoida tadbiiq etilmaydi. Voyaga yetmagan qizlar nechanchi marta ozodlikdan mahrum qilingan bo'lishlaridan qat'i nazar umumiy tartibli koloniyalarga yuboriladilar.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrоров. – T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Voyaga yetmaganlarning tasniflanishi aksariyat hollarda yoshiga nisbatan tatbiq etiladi. Jumladan, o'n olti yoshgacha bo'lganlar alohida va o'n olti yoshdan oshganlar alohida ajratiladi.

Ayollarni tasniflashda koloniya tartib turidan tashqari homilador yoki emizikli yosh bolasi bor ayollar ozodlikdan mahrum qilinganida ular uchun maxsus imtiyozlar yaratiladi.

Mahkumlarning jinsi, yoshiga qarab ajratish yuridik adabiyotlarda, odatda, huquqiy tasniflash deb yuritiladi. Shuningdek, mahkumlarni tasniflashda ularni jazoni o'tash jarayoni ham muhim rol o'ynaydi. Mahkumlar bilimi, dunyoqarashi, ruhiy munosabatlari bo'yicha tasniflanadi.

Mahkumlarni ko'chirish

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 60-moddasiga muvofiq, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni jazoni ijro etuvchi bir muassasadan boshqasiga ko'chirish ushbu kodeksning 58-moddasi talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar qamoq jazosiga hukm qilingan va tergov qilinayotgan shaxslardan alohida ajratiladi.

Homilasi yigirma to'rt haftalikdan oshgan yoki uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar boshqa mahkumlardan alohida ko'chiriladi.

Mahkum bemorlar, homilador ayollar va yosh bolasi bor ayollar, zarurat bo'lganda, tibbiy xodimlar ko'zatuvida ko'chiriladi.

Mahkumlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida ularni boshqa hollarda ham ajratilgan tarzda ko'chirishga yo'l qo'yiladi.

Ko'chirish chog'ida mahkumlar zarur moddiy-maishiy va sanitariya-gigiena sharoitlari bilan ta'minlanadi, ularga poyabzal, belgilangan norma bo'yicha oziq-ovqat maxsulotlari beriladi.

Mahkumlarni ko'chirish davlat hisobidan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan tartibda soqchi kuzatuvida amalga oshiriladi.

Mahkumlarni ko'chirish bilan bog'liq muammolar jinoyat-ijroiya huquqining o'ziga xos ob'ekt dasturi hisoblanadi. Mahkumlarni bir jazoni ijro etuvchi muassasadan boshqasiga ko'chirish bilan bog'liq muammolar davlat byudjeti hisobidan amalga oshiriladi va konvoy nazoratida amalga oshiriladi. Mahkumlarni ko'chirish bilan bog'liq tartib-qoidalar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining normativ huquqiy hujjatlari asosida tartibga solinadi. Mahkumlarni ko'chirish bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarda quyidagilar mahkumlarni zudlik bilan ko'chirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi deb ko'rsatilgan. Bular:

- sil kasalligi bilan og'rigan mahkumlar;
- teri tanosil kasalligi bilan og'rigan mahkumlar;
- asab kasalligi bilan og'rigan bemorlar, tuzalishi katta muddatni talab qiluvchi bemorlar;

-OITS kasalligi bilan kasallangan bemorlar.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2014 yil 27 iyuldagi 103-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasasiga jo'natish hamda ularni bir muassasadan boshqasiga ko'chirish tartibi to'g'risidagi nizom

(O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 8 avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2608).]

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlariga ko'ra, mahkumlarni ko'chirish kamida 4 ta soqchi nazorati ostida amalga oshiriladi. Soqchilar guruxi, odatda, oddiy va kuchaytirilgan bo'lishi mumkin. Kuchaytirilgan soqchilar guruxi o'ta og'ir turdagi jinoyat sodir etgan mahkumlar, retsidivistlarni ko'chirishda tayinlanadi. Amaldagi qonun normalariga muvofiq, soqchilar guruxi tartib qoidani buzgan mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, turli xil tinchlantiruvchi vositalarni qo'llash huquqiga ega. Mahkumlarni ko'chirishda mahkumlar qonun normalarida ko'rsatilgan normalar bo'yicha oziq-ovqat bilan ta'minlanadi. Ko'chirilayotgan mahkum o'zi bilan oziq-ovqat maxsulotlari, kiyim-kechak olishi; bemor mahkumlar esa o'ziga kerakli bo'lgan tibbiy dori-darmonlar olishi, yosh bolasi bor ayollar esa bola uchun kerakli bo'lgan buyumlarni olishga haqli. [Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Ko'chirilayotgan mahkumga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining normativ huquqiy hujjatlariga muvofiq, mavsumga mos kiyim-kechak va poyabzal beriladi.

Quyidagi mahkumlar bir jazoni ijro etuvchi muassasadan boshqasiga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi:

- o'zining shaxsiy anketasiga ega bo'lmagan mahkumlar;
- mavsumga mos kiyinmagan mahkumlar;
- oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlanmagan mahkumlar.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining normativ huquqiy hujjatlariga muvofiq, ba'zi hollarda mahkumning qo'llariga kishan solinishi mumkin:

- samolyotda yoki vertolyotda;
- uzoq yo'lga chiqqan avtotransport vositasi yoki poezdda ko'chirilayotganda;
- jazoni ijro etuvchi muassasadan qochish niyatida bo'lgan mahkumni boshqa muassasaga ko'chirishda;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlar.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2014 yil 27

iyuldagi 103-sonli buyrug'it bilan tasdiqlangan Mahkumlarni jazoni ijro etish muassasasiga jo'natish hamda ularni bir muassasadan boshqasiga ko'chirish tartibi to'g'risidagi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 8 avgustda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2608).]

Mahkumlar saqlash sharoitlarini o'zgartirish va engillashtirish tartibi

Mahkumlar yengillashtirilgan sharoitga o'tkazishga, o'zining xulq-atvori bilan o'rnak bo'ladigan shaxslar jazoning kamida olti oyi o'talganidan keyin yo'l qo'yilishi mumkin. Yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilgan mahkum ichki tartib-qoidani ashadiy buzuvchi deb topilganida uni umumiy yoki og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazishlari mumkin, lekin bunday o'zgarishga ham yana olti oydan keyin yo'l qo'yiladi. Tarbiya koloniyalarida ham mahkumlarni yengillashtirilgan imtiyozli va oddiy sharoitlari mavjud. Bundan tashqari, mahkumlarning intizomsizligi, ichki tartib-qoidani domiy buzuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan hibsonalar ham mavjud. Bu xildagi hibsonalarga kiritib qo'yilgan mahkumlarning sharoiti albatta og'irlashtiriladi. Yengillashtirilgan sharoitga o'tkazish mahkumning ijobiy xulqi, mehnatga halol munosabati, intizomiy jazo chorasining bo'lmasligi va jazoning kamida to'rtidan bir qismi o'taganidan so'ng qo'llaniladi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Mahkumlarning saqlash sharoitini o'zgartirilishi Jinoyat-ijroiya kodeksining 61-moddasiga asosan amalga oshiriladi. Unga ko'ra, «jazoni o'tash davrida ozodlikdan mahrum etishga mahkum qilingan shaxslarning saqlash sharoiti bir muassasa doirasida yoki boshqa turdagi muassasaga o'tkazish yo'li bilan yengillashtirilishi mumkin».

Mahkumlarni saqlash sharoiti rag'batlantirish tarzida quyidagicha yengillashtirilishi mumkin:

-muassasa boshlig'ining qaroriga binoan Jinoyat-ijroiya kodeksining 102, 104-moddalariga muvofiq, masalan, tashakkur e'lon qilish, yorliq,

qimmatli sovg'a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash, qo'shimcha posilka, yo'qlov yoki banderol olishga ruxsat etish va hokazo;

-sud tomonidan Jinoyat protsessual Kodeksining 537-moddasiga muvofiq, ya'ni mahkumni jazoni ijro etishning bir tartibli koloniyasidan boshqa tartibli koloniyasiga, turmadan koloniyaga va koloniyadan turmaga o'tkazish jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining taqdimnomasiga binoan maxkum yoki himoyachisining iltimosnomasiga ko'ra sud tomonidan amalga oshiriladi yoki yana bir qoida bu, Jinoyat protsessual kodeksining 537-moddasi 4-bandiga muvofiq, 18 yoshga to'lgan mahkumni tabiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalasini hal etishda sud uning tuzalish darajasini hisobga olishi lozim. Shuningdek, yuqoridagi moddaga ko'ra, mahkum tarbiya koloniyasida jazoni o'tash muddatini davom ettirish uchun uzog'i bilan 20 yoshga to'lgunga qadar qoldirilishi mumkin. [Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Mahkumlarni saqlash sharoiti Jinoyat-ijroiya kodeksining 61-moddasiga ko'ra, intizomiy jazo tarzida quyidagicha og'irlashtirilishi mumkin:

-muassasa boshlig'ining qaroriga binoan ushbu kodeksning 105-moddasiga muvofiq, intizomiy jazo choralari sifatida mahkumlarga nisbatan quyidagi jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

-ogohlantirish;

-xayfsan;

-engillashtirilgan saqlash sharoitini bekor qilish;

-intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish va hokazo. [Salaev N.S., Rasulev A.K. Jinoyat-ijroiya huquqi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot o'tkazish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Q.R.Abdurasulova. –T.: TDYI nashriyoti, 2013. - 320 b.]

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 106-moddasiga muvofiq intizomiy jazo huquqbuzarlikning og'irligi va xususiyatiga mos bo'lishi kerakligi belgilangan. Shuningdek, intizomiy jazoning amal qilish muddati jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yildan oshmasligi kerak.

Mahkumlarni saqlash sharoiti intizomiy jazo tarzida sud tomonidan ham Jinoyat-protsessual kodeksining 537-moddasi 3-bandiga muvofiq og'irlashtirilishi mumkin.

Mahkumni tarbiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga va umumiy tartibli tarbiya koloniyasidan kuchaytirilgan tartibli tarbiya

koloniyasiga o'tkazish tarbiya koloniyasi ma'muriyatining voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiya bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan sudya tomonidan amalga oshiriladi.

Bu xildagi mahkumlarni saqlash sharoitini o'zgartirish jinoyat-ijroiya qonunchiligining 2 tamoyiliga asosan amalga oshiriladi:

1) differentsiatsiya va individualizm jazolarni ijro etishda;

2) mahkumlarni qonunga itoatkor xulq-atvorini rag'batlantirish printsiplariga;

Shuningdek, mahkum jazoni ijro etishda saqlash sharoitini o'zgartirish shu ijro muassasasi boshlig'i roziligi bilan amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ko'chirilayotgan mahkumga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining normativ huquqiy hujjatlariga muvofiq, mavsumga mos kiyim-kechak va poyabzal beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tegishli normativ huquqiy hujjatlariga asoslanib fikr bildiring.

2. Mahkum kasal bo'lib qolgan taqdirda uni koloniyadan yoki turmadan ixtisoslashgan davolash muassasasiga o'tkazishga tibbiy xulosa asosida yo'l qo'yiladi.

Mahkumlarga ko'rsatiladigan tibbiy hizmat ko'rinishlari tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida tahlil qiling.

3. Umumiy tartibli koloniyada jazoni o'tayotgan S. emizikli farzandi borligi sababli unga nisbatan imtiyozli sharoit yatib berishni so'rab jazoni ijro etish muassasasi raxbariga murojaat qildi.

Mahkuma S.ning murojaati asosida qanday maxsus imtiyozli sharoitlar yaratib berilishi lozim.


4. Jazoni ijro etish muassasi raxbari O. mahkum N.ni muassasaga qabul qilayotganida mahkumning shaxsiy kartochkasidagi ma'lumotlardan tashqari hech qanday ma'lumotlarni aniqlashtirmadi.

Jazoni ijro etish koloniyasiga qabul qilinayotgan mahkumdan shaxsiy kartochkasidagi ma'lumotlardan tashqari yana qanday ma'lumotlar aniqlashtirilishi lozim.

JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDA REJIM

Jazoni ijro etish muassasalarida rejim tushunchasi va ahamiyati. Rejimning asosiy talablari. Mahkumlarning jazoni ijro etish muassasalaridagi kiyimi. Mahkumlarni batamom ajratib qo'yish va qo'riqlash. Mahkumlarni nazorat qilish va tekshirishda texnikaviy vositalaridan foydalanish, tintuv o'tkazish va ko'zdan kechirish. Mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, tinchlantirish ko'ylagini va maxsus vositalarni ishlatish tartibi va shartlari. O'q-otar qurollarni qo'llash, foydalanish asoslari tartibi va shartlari. Jazoni ijro etish muassasalarida alohida holat joriy etish. Mahkumlarning oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishi. Mahkumlarning qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashish tartibi va shartlari. Mahkumlarning telefon orqali so'zlashuvi va yozishmalari. Mahkumlarning posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalari olishi va yuborishi. Mahkumlarning adabiyot va yozuv ashyolarini sotib olishlari tartibi. Mahkumlarning kinofilmlar va teleko'rsatuvlar ko'rishi, radio eshitish tartibi. Mahkumlarning alohida hollarda muassasa doirasidan chetga chiqishi. Mahkumlarning belgilangan muddatda joyiga qaytishdan bo'yin tovlaganlik oqibatlari.

Jazoni ijro etish muassasalarida rejim tushunchasi va ahamiyati



Mustaqillik davrida qonun hujjatlarini demokratiya talablariga moslashtirish borasida ijobiy yutuqlarga erishildi. Bu borada Respublikamizda erishilgan yutuqlar haqida Prezidentimiz I.A.Karimov 2005 yil 28 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzalarida ham alohida to'xtalib o'tganlar. Xususan, ushbu ma'ruzada Prezidentimiz jinoiy jazolarni ijro etishga oid quyidagi fikrlarni bildirganlar. "Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar jazoni o'tash sharoitlarini ancha yaxshilash, mahkumlarga muddatdan ilgari ozod bo'lish huquqini beradigan moddalarni ko'paytirish, jazoni o'tash joylarida yashash tartibi va sharoitini sezilarli darajada yengillashtirish imkonini yaratadi. Natijada jazoni manzil koloniyalarda o'tayotgan shaxslarning ulushi qamoqda saqlanayotganlar soniga nisbatan ancha ko'paydi. Ya'ni 1990 yilda manzil-koloniyalarda jazoni o'tayotgan mahbuslarning umumiy soniga nisbatan 7 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 21 foizni tashkil etmoqda.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrorov. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

O'zbekiston Respublikasi JIKning talablariga muvofiq jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlarni axloqan tuzatish maqsadida har bir muassasada maxsus rejim tashkil etiladi. Ushbu rejimni qo'llashdan

maqsad mahkumlarni qonunga itoatkor ruhda tarbiyalash, ularda intizom xissini uyg'otish, shuningdek, ularning mas'uliyatini ortirishni ko'zda tutadi.

Rejim tushunchasi va uning asosiy talablari. Jazoni ijro etish muassasalarida rejim jazodan ko'zlangan maqsadga erishish uchun belgilanadi.

Rejim quyidagilarni ta'minlash maqsadida qo'llanadi:

mahkumlarni batamom ajratib qo'yish, ularni qo'riqlash va nazorat qilib turishni;

mahkumlarni batamom ajratib qo'yish, ularni qo'riqlash va nazorat qilib turishni;

muayyan toifadagi mahkumlarni alohida-alohida saqlashni;

muassasa turiga qarab mahkumlarni har xil sharoitda saqlashni;

mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish, shuningdek ularning o'z majburiyatlarini ado etishini.

Jazoni ijro etish muassasalarida rejim O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan Ichki tartib qoidalar va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ichki tartib qoidalari O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining barcha jazoni ijro etish muassasalari uchun majburiy.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrоров. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar kiyimi. Jazoni ijro etish muassasalarida, manzil koloniyalarini istisno etganda, mahkumlar belgilangan namunadagi kiyimlar kiyadilar. Kiyimning ko'rinishi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Ichki tartib qoidalarida nazarda tutilgan hollarda mahkumlarga fuqarolik namunasidagi kiyimdan foydalanishga ruxsat etiladi.

Ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan mahkumlarning barchasi jazoni ijro etish muassasalarida davlat hisobidan kiyim-bosh bilan ta'minlanadilar.

Mahkumlarning kiyim bilan ta'minlanishi jazoni ijro etish muassasalarining turi, jazoni o'tayotgan shaxsning yoshi va jinsiga qarab belgilanadi. Mahkumlarga yuqoridagi asoslarga ko'ra **35 xil kiyim** berilishi mumkin. Bular jumlasiga quloqli telpak, yozgi bosh kiyim, etagi tizzaga yetmaydigan paxtali kalta palto, kostyum, shim, ko'ylak, tungi ko'ylak, ichdan kiyiladigan erkaklar kiyimi, mayka, trusik, paytava, paxtali qo'lqop, rezina taglikli charm poyabzal, tapochka, paypoq, yarim sherst sochiq, uchburchak ro'mol, kurtka, yengil matodan tikilgan kofta, xalat, pantolon, chulki(uzun paypoq), tufli, sharf, paxtali kurtka, sport oyoq kiyimi, ishchi kiyim kabilar beriladi.

Agar jazoni ijro etish muassasasining ichki tartib-qoidalarida fuqarolik kiyimida yurish mumkinligi belgilangan bo'lsa, mahkumlarga shunday kiyimdan foydalanishiga ruxsat beriladi. Fuqarolik namunasidagi kiyimda yurishga ruxsat berilgan hollarda ham gigiena qoidalariga qattiq rioya qilinishi lozim.

Mahkumlarni batamom ajratib qo'yish va qo'riqlash. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni batamom ajratib qo'yish va qo'riqlash, shuningdek ular saqlanadigan va mehnat qiladigan ob'ektlarni qo'riqlash O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bunda har bir muassasada qat'iy belgilab qo'yilgan kun tartibi tuziladi, kun tartibi mahkumlarning u yoki bu kontingenti bilan olib boriladigan ishlarning xususiyatiga, tezkor vaziyat holatiga, ishlab chiqarish sharoitiga, yilning fasliga, mahalliy sharoitlar hamda boshqa aniq holatlarga bog'liq bo'ladi. Mahkumlarning kun tartibini bajarishlarini ta'minlash uchun muassasa boshlig'ining buyrug'i bilan signal va buyruq berish tizimi joriy etiladi. Muassasalarda har kuni ikki marotaba mahkumlarni bor-yo'qligi umumiy tekshirudan o'tkaziladi.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Mahkumlarni batamom ajratish bilan bog'liq rejim talabi mahkumlarni sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi asosida jazoni ijro etish muassasasiga joylashtirish bilan ta'minlanadi va ularni boshqa fuqarolardan farqli ravishda huquqlari cheklangan holda ajratib qo'yilishida ifodalanadi. Ajratib qo'yishning jiddiyligi jazoni ijro etish muassasasi turi va unda belgilangan

rejimga bog'liq bo'ladi. Mahkumlarni boshqalardan ajratib qo'yishga ko'proq turmalarda, maxsus tartibli koloniyalarda erishiladi, manzil-koloniyalarida qurollangan soqchilarning yo'qligi tufayli mahkumlarni ajratib qo'yish tartibi (imkoniyati) turma va maxsus tartibli kolloniyalarga nisbatan kam.

Jinoyat-ijroiya kodeksiga muvofiq, jazoni ijro etish muassasalari bir-biridan jiddiy ravishda farq qiladi. Shuningdek mahkumning yoshi (voyaga yetmaganlar tarbiya kolloniyalarida), jinsi, sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi ham ularni ajratilgan holda saqlash darajasiga ta'sir qiladi.

Mahkumlarni doimiy nazorat qilish rejimining asosiy talablaridan biri bo'lib, jazoni o'tash rejimini ta'minlashning vositasi hisoblanadi. Bu mahkumlarni saqlash va mehnat qilishi jarayonida ularning yangi jinoyatni yoki boshqa ijtimoiy xavfli qilmishlarni sodir etishining oldini oladi. Muassasa ma'muriyati va barcha xodimlari jinoyatlar sodir etilishi va rejim talablari buzilishining oldini olish uchun barcha zarur choralarni ko'rishlari lozim.

Mahkumlarni nazorat qilish nazorat xizmati tomonidan amalga oshiriladigan vazifa bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jazoni ijro etish muassasasidagi nazorat xizmati IIV qorovul qo'shinlarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Nazoratchilarning rejimni amalga oshirishga qaratilgan faoliyati ko'p tarmoqli va kengdir. Ular sutka davomida mahkumlarning yashash zonalarini va ishlab chiqarish ob'ektlaridagi xulqlarini nazorat qiladilar, kun tartibiga oid tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish, mahkumlarni shaxsiy tintuv qilish, yashash zonalarini ko'zdan kechirish va tintuv qilish, qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan uchrashuvlarni o'tkazish, mahkumlarga kelgan posilka, yo'qlovlarni qabul qilish, ko'zdan kechirish va egasiga topshirish, mahkumlarni intizomiy bo'limga o'tkazish to'g'risidagi qarorni bajarish va boshqa vazifalarni bajaradilar.

Mahkumlarni nazorat qilish va tekshirishda texnika vositalaridan foydalanish, tintuv o'tkazish va ko'zdan kechirish. Ozodlikdan mahrum etish joylaridan qochish va boshqa jinoyatlar, shuningdek, jazoni o'tashning belgilangan tartibini buzishning oldini olish, mahkumlar xulq-atvori to'g'risida zarur axborot olish uchun jazoni ijro etish muassasalarida nazorat qilish va tekshirish uchun audiovizual, elektron va boshqa texnika vositalaridan foydalaniladi. Muassasa ma'muriyati mahkumlarni nazorat va tekshirishning texnikaviy vositalari qo'llanilayotganligidan xabardor etishi

shart.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Nazorat va tekshirishda qo'llaniladigan texnika vositalari ro'yxati, ulardan foydalanish tartibi, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga o'z yonida saqlashga ruxsat etilgan narsalar va buyumlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

Mahkumlarning yonidan topilgan, foydalanishga ruxsat etilmagan narsalar va buyumlar muassasa boshlig'i qaroriga binoan olib qo'yiladi hamda mahkum ozod bo'lgunga qadar saqlash uchun topshiriladi yoki yo'q qilinadi yohud davlat foydasiga o'tkaziladi va bu haqda tegishli hujjat (akt) tuziladi. Narsalar va buyumlarni davlat foydasiga o'tkazish to'g'risidagi qaror prokuror tomonidan tasdiqlanadi. Olib qo'yilgan pul va qimmatli ashyolar ularni olib qo'ygan mansabdor shaxsning dalolatnomasi yoki raporti (bildirgisi) bo'yicha uzog'i bilan bir sutkalik muddat ichida muassasa boshlig'ining navbatchi yordamchisi tomonidan kassaga yoki buxgalteriyaga topshiriladi. Ularning hisobini yuritish mahkumlardan olib qo'yilgan pullar va qimmatliklar baho buyumlar kiritilgan daftarda qayd etiladi, daftar muassasaning navbatchilik xizmati tomonidan yuritiladi. Mazkur xizmatni o'tash samaradorligi ustidan nazorat qilish maqsadida bunday daftarlar kontrolerlar va harbiy naryadlar boshliqlari tomonidan ham yuritiladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida foydalanishi **man etilmagan**, lekin mahkumlarning yonida belgilangan tur va miqdordagidan ortiqcha narsa va ashyolar ham olib qo'yiladi hamda saqlash uchun omborga topshirilib, bu xususida tegishli dalolatnoma tuziladi. Agar omborda saqlanayotgan narsalar yoki ashyolar mahkumga kerak bo'lib qolsa va ular belgilangan tur va miqdordagidan ortiqcha bo'lmasa, ular berilgan ariza asosida egalariga topshiriladi.

Mahkumlarning saqlashi man etilgan, ulardan olib qo'yilgan, ammo qimmatli narsa va ashyolar jumlasiga kirmaydigan narsa va ashyolar (spirtli ichimliklar va h.k.), shuningdek, g'ayriqonuniy olingan oziq-ovqat mahsulotlari mahkumlarning hozirligida yo'q qilib tashlanadi yoki omborxonaga topshirilib, bu xususda dalolatnoma topshiriladi. [O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Milliy xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Mudofaa vazirligi va Davlat bojxona qo'mitasining 2006 yil 8 avgustdagi 63, KGB-176-06, 3/2161, 9, 19, 12, 01-

02/22-19-son qarori bilan tasdiqlangan Tergov, surishtiruv va sud davomida jinoyat ishlari va materiallari bo'yicha olib qo'yilayotgan ashyoviy dalillar va moddiy boyliklarni olib qo'yish, hisobga olish, saqlash, berish va yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 29 dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2174).]

Mahkumlarning yonidan saqlashi man etilgan narsa va ashyolar, shuningdek qonunga xilof ravishda olingan oziq-ovqat mahsulotlari topilganligi va olib qo'yilganligi yuzasidan xizmat tekshiruvi o'tkazilib, ularning natijalari asosida aybdor shaxslarga nisbatan intizomiy ta'sir choralari ko'riladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar, ularning buyumlari va kiyimlari, shuningdek jazoni ijro etish muassasalarining ob'ektlari va xonalari tintuv qilinishi hamda ko'zdan kechirilishi mumkin. Shaxsiy tintuv mahkum bilan bir jinsda bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Turar-joy binolarini ularda mahkumlar bo'lgan chog'da tintuv qilishga kechiktirib bo'lmaydigan hollardagina yo'l qo'yiladi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ushbu muassasaga hamda mahkumlar ishlayotgan ob'ektlarga kirayotgan va chiqayotgan shaxslarning transport vositalarini, buyumlari va kiyimini ko'zdan kechirishga haqli, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Tintuv qilish va ko'zdan kechirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

Jazoni ijro etish muassasalarida tezkor-qidiruv faoliyati:

- 1) mahkumlar, muassasa xodimlari va boshqa shaxslar xavfsizligini ta'minlash;
- 2) mahkumlar mazkur muassasaga yetib kelgunga qadar sodir etgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish;
- 3) sodir etilgan jinoyatlar va saqlash rejimi buzilganligini aniqlash va ularning oldini olish;
- 4) jazoni ijro etish muassasalarida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish;

5) ozodlikdan mahrum etish joylaridan qochgan mahkumlarni qidirish;

6) boshqa jinoyatlarni fosh etishga yordam berish maqsadida olib boriladi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini jazoni ijro etish muassasalarining tezkor xizmatlar xodimlari, shuningdek boshqa vakolatli organlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradilar.

Mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish, tinchlantirish ko'ylagini va maxsus vositalarni ishlatish tartibi va shartlari.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar va huquqbuzarliklarni to'xtatish maqsadida, shuningdek ularni ushlash chog'ida, agar boshqa usullar bilan muassasa ma'muriyatining qonuniy talablarini ta'minlashning iloji bo'lmasa, mahkumlarga nisbatan jismoniy kuch ishlatilishi mumkin.

Jismoniy kuch ishlatish natijasida mahkumlar hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilgan har bir hodisa haqida prokurorga xabar qilinadi.

Mahkumlarga nisbatan, agar ular jazavaga tushsalar, tinchlantirish ko'ylagi qo'llanishiga yo'l qo'yiladi. Tinchlantirish ko'ylagi tibbiy xodim ishtirokida qo'llaniladi, uni qo'llash muddati ikki soatdan oshmasligi kerak. Tinchlantirish ko'ylagi voyaga yetmagan mahkumlarga va mahkuma ayollarga nisbatan qo'llanilmaydi. Tinchlantirish ko'ylagi batamom ajratib qo'yilgan joyda (intizomiy bo'linmada yoki kontrolni xonasida) faqat muassasa boshlig'i yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs ko'rsatmasi asosida, tibbiyot xodimining ruxsati bilan va uning kuzatuv ostida kiydirilishi mumkin. Tibbiyot xodimining tibbiy ko'rsatmalariga asosan tinchlantirish ko'ylagi qo'llab bo'lmasligi yoki bunday qo'ylakni qo'llashni to'xtatish to'g'risidagi talabi darhol bajarilishi kerak. Tinchlantirish ko'ylagi qo'llanilgan har bir hodisa haqida dalolatnoma tuziladi, dalolatnoma muassasa boshlig'i yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs tomonidan tasdiqlanadi.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Mahkumlarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini to'xtatish, shuningdek, o'ziga o'zi zarar yetkazishining oldini olish maqsadida ularga nisbatan maxsus vositalar ishlatilishi ham mumkin.

Boshqa usullar bilan muassasa ma'muriyati vakillarining qonuniy talablari mahkumlar tomonidan bajarilishini ta'minlashning iloji bo'lmagan hollardagina jismoniy kuch va maxsus vositalar ishlatiladi.

Maxsus vositalar jumlasiga rezina tayoqlar, qo'lkishanlari yoki boshqacha bog'lash vositalari, xizmat itlari, ko'zdan yosh chiqaruvchi moddalar, chalg'itma ta'sir ko'rsatuvchi nur-tovush moslamalari, to'siqg'ovlarni bartaraf etuvchi vositalar, suv bilan zarba beruvchi va zirhli mashinalar, inshootlarni ochish, transportni majburiy to'xtatish moslamalari hamda qonunda nazarda tutilgan boshqa vositalar kiradi.

Maxsus vositalar quyidagi hollarda qo'llaniladi:

1) mahkumlarning muassasa ma'muriyati vakillariga, boshqa mahkumlarga va o'zga shaxslarga hujumini, mahkumlar tomonidan sodir etilgan ommaviy tartibsizliklarni, jamoat tartibini guruh bo'lib buzishlarni to'xtatish, muassasa ma'muriyatiga ashaddiy bo'ysunmayotgan yoki qarshilik ko'rsatayotgan huquqbuzarlarni ushlash vaqtida;

2) garovga olinganlarni ozod qilish, mahkumlar egallab olgan binolar, inshootlar, xonalar va transport vositalari egallash uchun;

3) mahkumlarni qo'riqlab borish va qo'riqlab turish vaqti ularning qochishini oldini olish uchun;

4) jazoni ijro etish muassasasidan qochgan mahkumlarni ushlash vaqtida;

5) maxsus vositalar qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qo'llanilishi mumkin.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Maxsus vositalarning turlari, ularni ishlatish jadal yuzaga kelgan vaziyat, huquqbuzarlikning xususiyati va huquqbuzarning shaxsini inobatga olgan holda belgilanadi. Maxsus vositalarni qo'llash mahkumlarga va boshqa shaxslarga mumkin qadar kam zarar yetkazishi lozim.

Homiladorlik belgilari sezilib turgan ayollarga, nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan shaxslarga hamda yoshi aniq ko'rinib turgan yoki ma'lum bo'lgan voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan maxsus vositalarning ishlatilishi taqiqlanadi, ular tomonidan qurolli qarshilik ko'rsatilgan yoki fuqarolar hayoti va sog'lig'iga tahdid etib, guruh bo'lib hujum qilingan hollar bundan mustasno.

Maxsus vositalarni qo'llash natijasida mahkumlar va boshqa shaxslar hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilgan har bir hodisa haqida prokurorga xabar qilinadi.

O'q-otar qurollarni qo'llash, foydalanish asoslari tartibi va shartlari. Jazoni ijro etish muassasalarida alohida holat joriy etish. Alohida hollarda, agar jinoyatni boshqa vositalar bilan to'xtatishning iloji bo'lmasa, eng so'nggi chora sifatida o'qotar qurolning qo'llashga yo'l qo'yiladi.

O'qotar quroli quyidagi hollarda:

1) muassasa ma'muriyati vakillarini, boshqa mahkumlarni va o'zga shaxslarni ularning hayoti va sog'lig'iga aniq tahdid etuvchi hujumdan himoya qilish, shuningdek qurolni qo'lga kiritish maqsadida qilingan hujumni qaytarish;

2) garovga olinganlarni, mahkumlar egallab olgan binolarni, inshootlarni, xonalarni va transport vositalarini ozod qilish;

3) jazoni ijro etish muassasasining qo'riqlanadigan ob'ektlariga, transport vositalariga guruh bo'lib qilingan yoki qurolli hujumni qaytarish yoxud mahkumlarni zo'rlik bilan ozod qilishga urinishlarni to'xtatish;

4) ozodlikdan mahrum etish joylaridan qochayotgan yoki qurolli qarshilik ko'rsatayotgan mahkumni ushlash;

5) mahkumlar qochishda foydalanayotgan transport vositasini to'xtatish vaqtida qo'llanilishi mumkin.

O'qotar qurolni qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham qo'llanilishi mumkin.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

O'qotar qurolini qo'llashdan oldin qurol qo'llanilishi mumkinligi haqida mahkumlarni ogohlantirish va yuqoriga qarab ogohlantiruvchi o'q otish kerak. Quyidagi hollarda o'qotar qurol ogohlantirishsiz qo'llanilishi mumkin:

qo'qqisdan hujum qilinganida;

qurolli hujumni yoki jangovar texnika, transport vositalari, uchish apparatlari, dengiz va daryo kemalaridan foydalangan holda qilingan hujumni daf etishda;

garovga olinganlarni ozod qilishda;

ozodlikdan mahrum etish joylaridan qurol bilan, transport vositalari yordamida yoki yurib ketayotgan transport vositalaridan foydalangan holda;

tunda yoki ko'rish cheklangan sharoitda qochilganda.[Payzullaev Q., Abduqodirov Sh.Yo. Jinoyat-ijroiya huquqi (albom sxemalar). –T.: TDYI, 2010. – 147 b.]

O'qotar qurol qo'llanilganda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, shuningdek jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish uchun imkoni bor barcha choralar ko'rilishi zarur.

O'qotar qurol qo'llanilgan har bir hodisa haqida raport tuziladi va darhol prokurorga xabar qilinadi.

Tabiiy ofat ro'y bergan, jazoni ijro etish muassasasi joylashgan yerda favqulodda yoki harbiy holat joriy etilgan taqdirda, urush holatida, mahkumlar tomonidan guruh bo'lib bo'ysunmaslik, shuningdek ommaviy tartibsizlik sodir etilganida muassasalarda alohida holat joriy etilishi mumkin.

Alohida holat O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda o'ttiz sutkagacha bo'lgan muddatga joriy etiladi. Alohida holatning amal qilish vaqti alohida hollarda qo'shimcha ravishda yana o'ttiz sutkagacha uzaytirilishi mumkin.

Alohida holat joriy etishda muassasada qator ishlar amalga oshiriladi. Xususan, muassasalarda qo'riqlash va nazorat kuchaytiriladi, bunga muassasa xodimlari va qorovul xizmatidagi harbiy xizmatchilarning ish vaqti uzaytirilib, dam olishlarini qisqartirish, ta'tillarni taqiqlash orqali erishiladi. Ob'ektlarga kirishning alohida tartibi joriy etilib, muassasaga kirish cheklanadi yoki maxsus ruxsatnoma rejimi joriy qilinadi; muassasaning kun tartibi madaniy-oqartuv, maishiy, tibbiy-sanitar, ishlab chiqarish va boshqa xizmatlarni qisqartirish hisobiga o'zgartiriladi; ishlarini kamaytirish, kun tartibi o'zgartirilishi, ayrim xizmatlarning faoliyati cheklanishi mumkin. Shuningdek, ma'muriyat tomonidan mahkumlarning ushbu Kodeksda nazarda tutilgan (75-83 moddalar) huquqlarining amalga oshirilishi to'xtatiladi. Yuqoridagi holatning joriy etilishi mahkumlar va muassasa xodimlari huquqlarining cheklanishiga sabab bo'ladi.

Alohida holat amal qilib turgan davrda muassasalarda qo'riqlash va nazoratning kuchaytirilgan turi, ob'ektlarga kirishning alohida tartibi joriy etiladi, kun tartibi o'zgartirilishi, ayrim xizmatlarning faoliyati cheklanishi mumkin. [Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Mahkumlarning oziq ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishi



Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar o'z shaxsiy hisobvarag'idagi pul hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni pul o'tkazish yo'li bilan sotib olishlari mumkin.

Mahkum muassasa do'konlaridan mahsulotlarni:

- 1) mahkumlar uchun belgilangan namunadagi bosh va oyoq kiyimi hamda yotar joy buyumlari;
- 2) ichki kiyimlar (issiq va oddiy) – ikki komlektdan ko'p bo'lmagan miqdorda;
- 3) qo'lqop, boshmaldoqli ko'lqop, paypoq, chulkilar – ikki juftdan ko'p bo'lmagan miqdorda, sharf, dast ro'mol, kamar, igna, ip va ichki kiyimlar;
- 4) uy tapochkalari va sport oyoq kiyimi – bir juft;
- 5) oyna, elektron ustara;
- 6) krujka, qoshiq, choynak, piyola, elektron choynak, zavodda tayyorlangan maishiy elektropitilnik, polietilen idish-tovoq;
- 7) hojatxona jihozlari (atir sovun, xo'jalik sovuni, tish yuvish poroshogi va pastasi, tish shchuyotkasi, taroq, sochiq);
- 8) qo'ltiq tayoq, yog'ochdan yasalgan trost, protezlar (vrach ruxsati bilan), ko'zoynak uchun plastmassa futlyar;
- 9) darsliklar, o'quv anjomlari, san'at, texnik, ommaviy va diniy mazmundagi asarlar;
- 10) yozuv qog'ozi, daftar, oddiy qalam, avtoruchka, qora, ko'k, binafsha rangli sterjen, konvert, otkritka va markalar;

- 11) shashka, shaxmat, domino, narda (bir komplektdan);
- 12) xat va rasmlar (fotoalbomlar);
- 13) kiyim va oyoq kiyim uchun shlyotka, poyabzal uchun krem;
- 14) gugurt, tamaki mahsulotlari, nos, chekish va hojatxona qog'ozi;
- 15) ichki belgilar va boshqalar, qimmatbaho bo'lmagan metallardan tayyorlangan ibodat qilishning o'xshash vositalari.
- 16) non va non mahsulotlari;
- 17) issiq holda qayta ishlashni talab qilmaydigan tuzlangan va dudlangan baliq;
- 18) qotgan konditorlik mahsulotlari;
- 19) meva, sabzavot, quruq mevalar;
- 20) konserva (baliq, go'sht, mevali, sabzavotli);
- 21) sut, quruq tvorog sotib olishi mumkin [O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Ozodlikdan mahrum qilish turdagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i O'z.R. Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatga olingan, ro'yxat raqami 2495.].

Sarflashga ruxsat etiladigan pul miqdori jazoni ijro etish muassasasining tartib turiga hamda mahkum saqlanayotgan sharoitga qarab belgilanadi.

Mahkumlar yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazilganda, mehnat normasi va mehnat vazifalarini bajarganda, shuningdek bayram kunlari rag'batlantirish tarzida, mahkumlarga eng kam ish haqi belgilangan miqdorining o'n foizigacha bo'lgan miqdorda qo'shimcha pul sarflashga ruxsat etiladi.

Bir oy davomida sarflashga ruxsat etilgan pulning umumiy summasi:

- 1) umumiy tartibli koloniyalarda – belgilangan eng kam ish haqi miqdorining uch baravaridan;
- 2) qattiq tartibli koloniyalarda – belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yarim baravaridan;
- 3) maxsus tartibli koloniyalarda – belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki baravaridan;
- 4) turmalarda – belgilangan eng kam ish haqi miqdorining bir yarim baravaridan;
- 5) tarbiya koloniyalarida, ixtisoslashtirilgan davolash muassasalarida, shuningdek mahkum birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, homilador ayollar va jazoni ijro etish muassasasidagi bolalar uyida bolalari bo'lgan

ayollar uchun – belgilangan eng kam ish haqi miqdorining uch yarim baravari miqdoridan oshmasligi lozim.

Muassasa boshlig'i yangi kelgan mahkumga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ellik foizigacha, manzil-koloniyalarda esa - to'liq miqdorigacha bo'lgan summada avans berishga haqli.[O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "Ozodlikdan mahrum qilish turdagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i O'z.R. Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatga olingan, ro'yxat raqami 2495.]

Mahkumlarning qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashish tartibi va shartlari. Mahkumlarning telefon orqali so'zlashuvi va yozishmalari. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning qisqa muddatli va uzoq muddatli uchrashuv huquqlariga ruxsat beriladi.

Mahkumlarning qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan qisqa muddatli uchrashuv to'rt soatgacha bo'lib, uchrashuvlar muassasa ma'muriyatining vakillari nazorati ostida o'tadi. Boshqa shaxslar bilan uchrashuvlarga, jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining fikricha, mahkumga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan hollardagina ruxsat beriladi.

Mahkumlarga yaqin qarindoshlari (er, xotin, ota-onalar, bolalar, o'g'il (qiz)likka olganlar, aka-ukalar, opa-singillar, buvalar, buvilar, nevaralar) bilan uzoq muddatli uchrashuv muassasa hududida yoki, Jinoyat-ijroiya kodeksining 114- va 130-moddalarida nazarda tutilgan hollarda, muassasa hududidan tashqarida ular bilan birga yashash huquqi bilan beriladi.

Uzoq muddatli uchrashuv muddati quyidagicha belgilanadi:

muassasa hududida - bir sutkadan uch sutkagacha,

muassasa hududidan tashqarida - uch sutkadan besh sutkagacha.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli uchrashuv miqdori jazoni ijro etish muassasasining tartib turiga hamda mahkum saqlanayotgan sharoitga qarab belgilanadi.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrоров. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlarga uchrashuvlar shifokor ruxsati asosida beriladi.

Uchrashuv uchun berilgan vaqt mobaynida mahkumlar ishdan ozod etiladi, uchrashuv kunlarida ularga ish haqi yozilmaydi.

Uzoq muddatli uchrashuv mahkumning iltimosiga ko'ra qisqa muddatli uchrashuv yoki telefon orqali so'zlashuv bilan, qisqa muddatli uchrashuv esa telefon orqali so'zlashuv bilan almashtirilishi mumkin.

Qisqa yoki uzoq muddatli uchrashuv berish rad etilgan taqdirda mahkumning yoki u bilan uchrashish istagini bildirgan shaxsning arizasini rad etish sabablari ko'rsatilgan holda tegishli yozuv yozib qo'yiladi. Uchrashuvlarni o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidolari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Mahkumlarga uchrashuvlar muassasa boshlig'ining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan har oylik jadvalga muvofiq beriladi. Muassasa bo'yicha uchrashuvlar o'tkazish jadvali har bir otryad bo'yicha turkumlar boshliqlari tomonidan tuziladigan uchrashuvlar jadvallari asosida ishlab chiqiladi.

Uchrashuvga ruxsat jazoni ijro etish muassasasining boshlig'i yoki uning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari tomonidan beriladi. Mahkum bilan uchrashuvga kelgan shaxs uchrashuvga ruxsat olish uchun muassasa boshlig'i nomiga ariza beradi. Arizaning namunasi uchrashuvga kelgan qarindoshlarga mo'ljallangan kutish xonasiga osib qo'yiladi. Uchrashuvga kelgan fuqarolarning shaxsini, shuningdek ularning mahkumlar bilan qarindoshlik aloqasini tasdiqlovchi hujjatlar pasport, shaxsiy guvohnoma, tug'ilgandik to'g'risidagi guvohnoma (voyaga yetmaganlar uchun), nikoh to'g'risidagi guvohnomadir.

Uchrashuvga kelgan shaxslar muassasa boshlig'i yoki uning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari tomondan qabul qilinadi. Mazkur shaxslar uchrashuv vaqtida xulq-atvor qoidolari to'g'risida, nolegal yo'qlovlar berganlik uchun javobgarlik va buning oqibatlari xususida, shu jumladan belgilangan qoidalar buzilgan taqdirda uchrashuv darhol to'xtatib qo'yilishi haqida ogohlantiriladilar. Zarurat bo'lganda qarindosh bilan suhbatlashuvga turkum boshliqlari jalb etiladi, ular mahkumlarning xulq-atvori to'g'risida axborot berib o'tadilar.

Uchrashuvga kelgan shaxslar pul, qimmatbaho buyumlar, shuningdek jazoni ijro etish muassasalarida foydalanish man etilgan narsalarni uchrashuv o'tkazish bo'yicha tekshiruvchiga saqlash uchun topshirib, undan tilxat oladilar, pul, buyum va narsalar maxsus daftarga qayd etiladi. Uchrashuvga

kelgan shaxs jazoni ijro etish muassasasida saqlash man etilgan narsa yoki buyumlarni mahkumga berish yoki mahkumdan yashirin tarzda qandaydir materiallarni olish niyatida deb, mo'ljallash uchun yetralicha asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, jazoni ijro etish muassasasi boshlig'i yoki uning tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari bunday shaxsga uchrashuvga ruxsat uning buyumlari, usti boshi uchrashuvdan oldin va keyin ko'zdan kechirilishiga rozi bo'lgan taqdirdagina berilishini ma'lum qiladi. Agar uchrashuvga kelgan shaxs buyumlari va ust boshi ko'zdan kechirilishidan bosh tortsa, unga mahkum bilan uchrashuvga ruxsat etilmaydi. Uchrashuv berish rad etilganligi sabablari xususida mahkum xabardor etiladi.

Ko'zdan kechirishda yashirib qo'yilgan, ta'qiqlangan narsalar va bunday narsalarni mahkumlarga berishga uringan shaxslar aniqlangan taqdirda, muassasa ma'muriyati ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ish tutadi.

Mahkumga ikkitadan ko'p bo'lmagan katta yoshli shaxslar bilan uchrashuvga ruxsat etiladi, mahkumning voyaga yetmagan farzandlari ular bilan birga bo'lishi mumkin.

Uchrashuvlarning muddati jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati tomonidan belgilanadi. Barcha hollarda qisqa muddatli uchrashuvlar muddati 2 soatdan kam, uzoq muddatli uchrashuvlarning muddati esa 1 sutkadan kam, agar uchrashuv berilayotgan shaxsning o'zi bundan qisqa muddat so'ramasa, kamaytirilishi mumkin emas.

Uchrashuvga mahkumlar orasta ko'rinishda kelishlari lozim. Uzoq muddatli uchrashuvlar vaqtida ularga uchrashuvga kelgan shaxslar keltirgan fuqarolar kiyadigan kiyim kiyib yurishga ruxsat beriladi, uchrashuv tugagandan keyin bu kiyimlarni ularni olib kelgan shaxslarning o'zi qaytarib olib ketadilar.

Mahkumlar uchrashuvdan oldin va keyin to'liq tintuv qilinadi. Ularga uzoq muddatli uchrashuvlar o'tkaziladigan xonaga o'zlari bilan yuvinish, taranishda ishlatiladigan va chekish uchun zarur bo'lgan narsalarni olib kirish imkoni beriladi.

Uzoq muddatli uchrashuv xonalariga oziq-ovqat mahsulotlarini (vino, aroq mahsulotlari va pivo bundan mustasno), uchrashuv kunlarini hisobga olgan holda, shuningdek, mahkumlarga yonlarida saqlash man etilmagan narsalar, buyumlar va ashyolarni (toza qog'oz va yozuv ashyolari bundan mustasno) olib kirish mumkin. Mahumlarga uzoq muddatli uchrashuv joylaridan uchrashuv tugaganidan keyin qolgan oziq-ovqat mahsulotlari va ashyolarni yonlarida saqlashga ruxsat etilgan miqdorda va turda olib chiqishga ruxsat etiladi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston

Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Uchrashuvlar vaqtida mahkumlarga biron bir hujjat, yozuv, chizma va hokazolarni berish yoki ulardan shunday narsalarni olishga, shuningdek, mahkumlar bilan qisqa muddatli uchrashuvga kelgan shaxslarning biron bir oziq-ovqat mahsuloti yoki ashyolarni olib kirishiga yo'l qo'yilmaydi.

Qisqa muddatli uchrashuvlarda suhbat so'zlashuv uchrashuvga kelgan shaxslar tanlagan tilda olib boriladi. Agar jazoni ijro etish muassasasi xodimlaridan yoki qorovul qo'shinlari bo'linmalari harbiy xizmatchilaridan birontasi ham so'zlashuv olib borilayotgan tilni bilmasa, u holda suhbat mazmunini nazorat qilish uchun tarjimon yoki bu tilni biladigan boshqa shaxs (mahkumlar bundan mustasno) taklif etilishi mumkin.

Uchrashuvni o'tkazishning belgilangan tartibi buzilgan taqdirda uchrashuv shu zahoti to'xtatiladi, bu xususda kontroler uchrashuvga ruxsat etgan shaxsga, uning yo'qligida esa koloniya (turma) boshlig'ining navbatchi yordamchisiga axborot beradi, ular uchrashuvni davom ettirish yoki tugatish to'g'risida uzil-kesil qaror qabul qiladilar.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Mahkumlar bilan uchrashuvga kelgan shaxslarni joylashtirish uchun jazoni ijro etish muassasalari huzurida mehmonxona sifatida qurilgan maxsus uylar barpo etiladi. Bu joylardan shuningdek, uzoq muddatli uchrashuvlar xonalaridan foydalanganlik uchun uchrashuvga kelgan shaxslardan yoki mahkumlardan mehmonxonalar uchun belgilangan tegishli tariflar stavkalari bo'yicha haq olinadi. Uchrashuvlar xonasi ro'yxatga muvofiq uskuna va inventar bilan jihozlanadi.

Muassasa hududi doirasidan tashqaridagi uchrashuvlar qonun hujjatlarida belgilangan hollarda beriladi. Shu maqsadda muassasa joylashgan yerda, uning qo'riqlanadigan hududi chegarasidan tashqarida maxsus joylar jihozlanadi. Bunday uchrashuvlarni o'tkazish uchun keluvchilarga mo'ljallangan uylardan ham foydalanish mumkin.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga texnikaviy imkoniyatlar mavjud bo'lgan taqdirda telefon orqali so'zlashuv huquqi beriladi, bunday so'zlashuvlar muassasa ma'muriyati nazorati ostida o'tkaziladi va ularning haqi O'zbekiston Pochta va telokommunikatsiyalar

agentligi tomonidan belgilangan tarif asosida mahkumning shaxsiy hisobvarag'idagi mablag' hisobidan to'lanadi.

Telefon orqali so'zlashuvlar miqdori jazoni ijro etish muassasasining tartib turiga hamda mahkum saqlanayotgan sharoitga qarab belgilanadi. Mahkumning iltimosiga ko'ra, mahkum jazoni ijro etish muassasasiga yetib kelganidan keyin, shuningdek alohida hollarda unga qo'shimcha ravishda telefon orqali so'zlashuvga ruxsat etilishi mumkin.

Intizomiy bo'linmalarda saqlanayotgan mahkumlarga faqat alohida hollarda telefon orqali so'zlashuvga ruxsat etilishi mumkin.

Mahkumlarga qarindoshlari hamda boshqa shaxslar bilan telefon orqali so'zlashuvga ruxsat etiladi. Ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlarning telefon orqali o'zaro so'zlashuvlari taqiqlanadi. Mahkumlarga telefon orqali so'zlashuvga ruxsat etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.

Telefon orqali so'zlashuv chog'ida muassasaning ichki tartib qoidalariga rioya etilishi lozim. Telefon orqali so'zlashuvlarni muassasa ma'muriyatining ruxsatisiz va ma'muriyat nazoratisiz olib borish jazoni o'tash tartibini qo'pol buzish sifatida baholanadi. Telefon orqali so'zlashuvlar odatda mahkum ishlamaydigan vaqtda beriladi.

Uyali aloqa apparatlarida, kechqurungi yotish chog'idan ertalab o'rindan turishgacha bo'lgan vaqtda telefon so'zlashuv huquqini berish va shunday so'zlashuvni amalga oshirish, telefon orqali ikkita yoki bir nechta so'zlashuvlarni birlashtirish, ikkita yoki undan ortiq miqdordagi mahkumlar guruhining yoki mahkumlar guruhi nomidan telefon orqali so'zlashuv, shuningdek, telefon orqali so'zlashuv huquqini boshqa shaxsga berish ta'qiqlanadi.

Mahkumlar telefon orqali so'zlashuv berilishi iltimosi bayon etilgan arizani jadvalda [Telefon orqali so'zlashuv navbati jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati tomonidan muassasa boshlig'ining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari tasdiqlaydigan har oylik jadvalda belgilanadi.] belgilangan muddatga kamida uch kun qolganda beriladi. Arizaga koloniya boshlig'i, shuningdek, mahkumning shaxsiy hisobvarag'ida mablag'i borligini ko'rsatgan holda buxgalteriya xodimi o'z rizolik belgisini qo'yadi. Tasdiqlangan jadvaldan ko'chirmalar har bir turkumda osib qo'yiladi. Agar mahkum telefon orqali so'zlashuv berilishi iltimosi bayon etilgan arizani vaqtda bermagan bo'lsa yoki unga shaxsiy hisobvarag'ida puli yo'qligi boisidan so'zlashuv rad etilgan bo'lsa, uning telefon orqali mazkur so'zlashuvni o'tkazish huquqi bekor bo'ladi.

Mahkum telefon orqali so'zlashuvga ruxsat olganda faqat bir abonent bilan bog'lanish huquqiga ega. Mahkumlar agar abonent javob bermagan bo'lsa, bosharti boshqa abonent bilan ulanib qolgan bo'lsa yoki so'zlashuv texnikaviy sabablarga ko'ra uzilib qolgan bo'lsa, telefon orqali so'zlashuv huquqini takroran olish huquqiga ega. Telefon orqali so'zlashuv muddati IIV tomonidan tasdiqlangan qoidaga muvofiq, 10 daqiqadan oshmasligi lozim.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Telefon orqali so'zlashuvlar odatda, davlat tilida yoki kontroler yohud muassasa ma'muriyatining boshqa vakili tushunadigan tilda olib borilishi lozim. Mahkumlar telefon orqali so'zlashuvga muassasa boshlig'ining navbatchi yordamchisi tomonidan ovoz kuchaytirgich orqali, besh kishidan ko'p bo'lmagan guruh bilan chaqiriladi. Mahkumlarning telefon orqali so'zlashuvlar hisobini yuritish "Mahkumlarning telefon orqali so'zlashuvlarini qayd etish daftari" bo'yicha kontroler yoki muassasa ma'muriyatining bunday so'zlashuvlarni olib borish tartibi va qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qiluvchi boshqa vakili tomonidan amalga oshiriladi.

Telefon stantsiyasidan telefon orqali so'zlashganlik uchun hisob-kitob varag'i olingach, so'zlashuv muddati hamda telefon orqali so'zlashganlik haqi uchun uning shaxsiy hisob-varag'idan chiqarilgan pul miqdori mahkumga xabar qilinadi.

Mahkum jazoni ijro etuvchi bir muassasadan ikkinchisiga o'tkazilganda, navbatdagi telefon orqali so'zlashuv mahkum bu huquqdan oxirgi marotaba qachon foydalanganligiga qarab belgilanadi.

Mahkumlarning posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalari olishi va yuborishi

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jazoni ijro etish muassasasiga yetib kelgan kundan boshlab posilka, yo'qlov va banderol olishlari hamda jo'natishlari mumkin. Posilka, yo'qlov va banderollar ko'zdan kechiriladi.

Bitta posilka yoki banderolning og'irligi pochta qoidalarida belgilab qo'yilgan normadan, yo'qlovning og'irligi esa posilkaning belgilangan vaznidan oshib ketishi mumkin emas.

Olinadigan posilka, yo'qlov va banderollarning miqdori jazoni ijro etish muassasasining tartib turiga hamda mahkum saqlanayotgan sharoitga qarab belgilanadi.

Hukm qilingan homilador ayollarning va jazoni ijro etish muassasidagi bolalar uyida bolalari bo'lgan ayollarning, shuningdek vrach xulosasiga ko'ra davolanish va kuchli taomga muhtoj deb e'tirof etilgan bemorlarning, birinchi yoki ikkinchi guruh nogironlarining tibbiy xulosada belgilanadigan miqdorda va xillarda qo'shimcha posilkalar, yo'qlovlar va banderollar olishiga ruxsat etiladi.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Mahkumlar cheklanmagan miqdorda pul jo'natmalari olishlari va yuborishlari mumkin. Pul jo'natmalari mahkumning shaxsiy hisobvarag'iga kelib tushadi. Mahkumlar o'zlariga yaqin qarindosh bo'lmagan shaxslarga, shuningdek korxona, muassasa va tashkilotlarga faqat jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining ruxsati bilan pul jo'natmalari yuborishlari mumkin. Pul jo'natmalari pochta orqali o'tkaziladi yoki muassasas kassasiga kelib tushishi mumkin. Kelib tushgan barcha jo'natmalar mahkumning shaxsiy hisob varag'iga o'tkazilib, bu xususda u xabardor qilinadi. Pul jo'natmalarini yuborish uchun mahkum jo'natma miqdorini, oluvchining manzili, familiyasi, ismi, otasining ismini ko'rsatgan holda muassasa boshlig'ining nomiga ariza beradi. Zarur hollarda, jo'natma nima sababdan yuborilayotganligi tushuntiriladi. Mahkumning arizasi buxgalteriyaga yo'llanadi, buxgalteriya aytilgan miqdorni belgilangan tartibda ko'rsatilgan manzilga o'tkazib, bu xususda ariza beruvchini xabardor etadi.

Mahkumlarning posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalarini olishi hamda yuborishi tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidolari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar cheklanmagan miqdorda xat va telegrammalar olishlari hamda jo'natishlari mumkin.

Mahkumlarning xatlari va boshqa jo'natmalari tsenzuradan o'tkaziladi, jazoni manzil-koloniyalarda o'tayotgan shaxslar bundan mustasno.

Mahkumlarga xatlarni topshirish va ularning xatlarini ko'rsatilgan manzilga jo'natish muassasa ma'muriyati tomonidan xat kelib tushgan yoki jo'natish uchun topshirilgan kundan boshlab uch kunlik muddat ichida amalga oshiriladi. Telegrammalar egalariga darhol topshiriladi va jo'natiladi.


Xatlar va boshqa jo'natmalar olish hamda yuborish, shuningdek ularni tsenzuradan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilanadi. Mahkumlarning xatlarni yuborishi faqat jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati orqali amalga oshiriladi. Shu maqsadda koloniyalar hududida pochta qutilari qo'yilgan bo'ladi, ularni shunga vakolat berilgan mansabdor shaxslar har kuni ochib tekshirib turadilar. Turmada, umumiy va qattiq tartibli koloniyalarning kartserlarida, maxsus tartibli koloniyalarning kamera tipidagi joylarida mahkumlar jo'natish uchun xatlarni ma'muriyat vakillariga beradilar. Xatlar yelimlanmasdan (yopishtirilmagan holda) pochta qutilariga tashlanadi yoki ma'muriyat vakillariga beriladi.

Maxfiy belgilar bilan yozilgan, ramziy narsalar ifodalangan, shifr yoki boshqa shartli belgilar qo'llanilgan, shuningdek beadab, bahayo tusdagi, tahdid, o'ch olish bilan po'pisa qilingan yohud oshkor etish mumkin bo'lmagan ma'lumotlarni aks ettiruvchi xatlar ko'rsatilgan manzilga yuborilmaydi, bu xususda mahkumga ma'lum qilinib, xatlar yo'q qilinadi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar o'rtasida yozishma olib borish man etiladi. Ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar o'rtasida xat yozishmalari faqat o'zaro qarindoshlar o'rtasida va muassasa ma'muriyatining ruxsati bilan amalga oshirilishi mumkin.

Prokuror nomiga yo'llangan taklif, ariza va shikoyatlar ko'zdan kechirilmaydi hamda **bir sutkalik** muddat ichida tegishliligi bo'yicha jo'natiladi.

**Mahkumlarning adabiyot va yozuv ashyolarini sotib olishlari
tartibi. Mahkumlarning kinofilmlar va teleko'rsatuvlar ko'rishi, radio
eshitish
tartibi**



Mahkumlar posilka, yo'qlov va banderollarda yozuv ashyolari, adabiyotlar olishlari, shuningdek ularni savdo shoxobchalari orqali sotib olishlari, cheklanmagan miqdorda gazeta va jurnallarga obuna bo'lishlari mumkin.

Mahkumlarga urushni, milliy va diniy adovatni, zo'rlik va shafqatsizlikni targ'ib qiluvchi nashrlarni, shuningdek behayo nashrlarni olish, sotib olish, saqlash va tarqatish taqiqlanadi.

Mahkum savdo shoxobchalari orqali sotib olgan adabiyot u olishga haqli bo'lgan posilka va banderollar soniga kirmaydi.

Mahkum o'z yonida ko'pi bilan o'n nusxa kitob va jurnal saqlashi mumkin. Mazkur miqdordan ortiqcha adabiyot mahkumning roziligi bilan saqlash uchun topshiriladi, foydalanish uchun kutubxonaga beriladi yoki uning qarindoshlari va boshqa shaxslarga jo'natiladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga haftada kamida bir marta kinofilm namoyish etiladi, ular ishdan bo'sh soatlarida, tungi dam

olish vaqtidan tashqari, teleko'rsatuvlar ko'rish, radioeshittirishlar eshitish huquqiga ega.

Shu maqsadda yotoqxonalaridagi turar joylar, kutubxonalari mavjud klublar, umum-ta'lim maktablari, kasb-hunar ta'limi tizimi va kasbga tayyorgarlik, umumiy va qattiq tartibli kolloniyalardagi kantserlarning kameralari, maxsus tartibli kolloniyalardagi bir kishilik kameralar, turmalardagi kameralar, davolash muassasalaridagi palatalar radio orqali yo'lga qo'yiladi.

Umumiy tartibli va qattiq tartibli jazoni ijro etish kolloniyalarining, tarbiya kolloniyalarining turar joylarida, maxsus tartibli kolloniyalarning oddiy turar joylarida markazlashgan tartibda yoqib o'chiriladigan televizorlar o'rnatilishi mumkin.

Tergov hibsxonalari va turmalarda televizorlar xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan mahkumlar uchun o'rnatiladi.

Televizion ko'rsatuvlarni ko'rish vaqti **kun tartibi** bilan belgilab qo'yiladi. Mahkumlarning teleko'rsatuvlarni ko'rish dasturi har hafta uchun muassasa boshlig'ining tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Radio eshittirishlarni translatsiya qilish uzellari jazoni ijro etish muassasalari hududi doirasidan tashqarida yoki mahkumlar borishi taqiqlangan binolarda joylashtiriladi.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.] Jazoni ijro etish muassasasida haftasiga kamida bir marta qo'shimcha ravishda tarbiyaviy ahamiyatga molik kinofilmlar namoyish etishga ruxsat etiladi. Kinofilmlar markazlashtirilgan boshqaruv pulti orqali ham namoyish etilishi mumkin. Tarbiyaviy maqsadlarda foydalaniladigan qisqa metrajli o'quv, hujjatli va ilmiy-ommabop filmlarni namoyish etishga moddiy cheklovlar tatbiq etilmaydi.

Televizion ko'rsatuvlar bir necha mahkumlarga bir joyda jamoa bo'lib namoyish qilinadi. Shu sababli ham agar mahkum kameralarda jazo o'tayotgan bo'lsa, u o'zining kinofilm va teleko'rsatuvar ko'rish huquqidan foydalana olmaydi.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Mahkumlarning alohida hollarda muassasa doirasidan chetga chiqishi. Mahkumlarning belgilangan muddatda joyiga qaytishdan bo'yin tovlaganlik oqibatlari

Mahkumlarning alohida hollarda muassasa doirasidan chetga chiqishi

Mahkumlarga alohida hollar (yaqin qarindoshining vafoti yoki hayoti uchun xavfli bo'lgan og'ir kasalligi, mahkumga yoki uning oilasiga jiddiy moddiy zarar yetkazgan voqea) munosabati bilan borish-kelish uchun ketadigan vaqtni (to'rt sutkagacha) hisobga olmagan holda, yetti sutkagacha bo'lgan muddatga jazoni ijro etish muassasasi doirasidan chetga chiqishga ruxsat etilishi mumkin. Mahkumlarga O'zbekiston Respublikasi doirasida chetga chiqishga ruxsat etiladi.

Mahkumning chetga chiqishga ruxsat so'rab yozgan arizasini muassasa ma'muriyati bir sutka ichida ko'rib chiqadi. Bu haqda mahkumning shaxsi, xulq-atvori, tasdiqlovchi hujjatlar bor-yo'qligidan kelib chiqib qaror qabul qilinadi. CHetga chiqishga beriladigan ruxsatnoma prokuror tomonidan tasdiqlanadi.

Quyidagilarga: o'ta xavfli retsdivistlar; umrbod ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar; o'ta og'ir jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslar; majburiy davolanishdan o'tayotgan va yuqumli kasallikka chalingan mahkumlarga chetga chiqishga ruxsat berilmaydi.

CHetga chiqish vaqti jazoni o'tash muddati hisobiga qo'shiladi. CHetga chiqish bilan bog'liq xarajatlar mahkum mablag'lari hisobidan yoki boshqa shaxslar tomonidan to'lanadi. Mahkumning belgilangan muddatda joyiga qaytib kelishini qiyinlashtiruvchi kutilmagan hollar yuz bergan taqdirda u borgan joydagi ichki ishlar organi boshlig'ining qaroriga binoan qaytish muddati, jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatini albatta ogohlantirgan holda, besh sutkagacha uzaytirilishi mumkin. Mahkum belgilangan muddatda joyiga qaytishdan bo'yin tovlagan taqdirda u ichki ishlar organi tomonidan ushlanadi va jazoni o'tash joyiga jo'natiladi.

Mahkum uch holatda muassasa doirasidan chetga chiqishi mumkin bo'lib, muassasa doirasidan chetga chiqishga faqat O'zbekiston Respublikasi hududi doirasidagina ruxsat berilishi mumkin. Birinchi holatda mahkumga muassasa doirasidan chetga chiqishga favqulotda holatlarda ruxsat beriladi. Ikkinchi holatda JIKning 133-moddasiga ko'ra maktab yoshigacha farzandi bor ayollarga ularni qarindoshlari, vasiylarga yoki bolalar muassasalariga joylash uchun ruxsat beriladi. Uchinchi holatda, nogiron farzandi bor ayollarga ular bilan uchrashishga ruxsat beriladi.

Ayrim istisno holatlarda yaqin qarindoshining vafoti yoki hayoti uchun xavfli bo'lgan og'ir kasalligi, mahkumga yoki uning oilasiga jiddiy moddiy zarar yetkazgan voqea – tabiiy ofatlar, o't ketishi, shaxsga qarshi og'ir jinoyat sodir etilishi, mulkka qasddan zarar yetkazilishlar muassasa tomonidan mahkumga muassasadan chiqishiga ruxsat berish uchun asos bo'lishi mumkin.

Muassasa doirasidan chetga chiqishga ruxsat berish muassasa ma'muriyati uchun majburiy emas. Buning uchun mahkum muassasa ma'muriyatiga muassasa doirasidan chetga chiqishni so'rab, asoslantirilgan holda yozgan arizasi talab qilinadi. Arizani muassasa ma'muriyati bir sutka ichida ko'rib chiqadi. Bu haqda mahkumning shaxsi, xulq-atvori, tasdiqlovchi hujjatlar bor-yo'qligidan kelib chiqib qaror qabul qilinadi.

Muassasa rahbarining ruxsatnomasi albatta, prokuror tomonidan tasdiqlanishi shart. Bundan so'ng mahkumga davlat gerbi tushirilgan muhr bosilgan belgilangan shakldagi ruxsatnoma beriladi. Mahkum tartib qoida bilan tanishtiriladi, uni jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi haqida ogohlantiriladi va imzo bilan tilxat olinadi. Mahkum jo'nab ketayotgan hududdagi ichki ishlar organlariga ularni telegraf orqali ogohlantiriladi. Mahkumga muassasa doirasidan chetga chiqish vaqtida fuqarolik kiyimi beriladi.

Voyaga yetmaganlarni muassasa hududidan chetga chiqishi muassasa xodimlari kuzatuv bilan amalga oshiriladi. Shuningdek voyaga yetganlarga ham muassasa rahbari tomonidan kuzatuv belgilanishi mumkin.

Muassasa doirasidan chetga chiqish huquqidan jazoni ijro etish va tarbiya koloniyasidagilar, shuningdek, xo'jalik ishlarini bajarish uchun tergov hibsxonasida qoldirilganlar foydalanishi mumkin. Bu huquqdan o'ta xavfli retsidivistlar, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslar, o'ta og'ir jinoyatlari uchun hukm qilingan shaxslar, majburiy davolanishdan o'tayotgan va yuqumli kasallikka chalingan mahkumlar foydalana olmaydi.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrarov. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Muassasa doirasidan chetga chiqish sutkalar bilan hisoblanadi. Agar mahkum belgilangan muddatda jazoni ijro etish muassasasiga qaytib kelsa, bu muddat jazo muddatiga qo'shiladi.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Mahkumni chetga chiqish bilan bog'liq harajatlari mahkum tomonidan olingan ish haqi, yoki uning ota-onasi yoxud boshqa shaxslar tomonidan uni hisobiga o'tkazilgan mablag'lar hisobidan yoki boshqa shaxslar tomonidan to'lanadi. Mahkumlar yo'l uchun biletlarni mustaqil sotib oladilar. Zarur hollarda muassasa ma'muriyati bunga ko'mak beradi. Muassasa doirasidan chetda bo'lgan vaqtda unga ish haqi yozilmaydi.

Mahkum tegishli joyga yetib borganda, bir sutkalik muddatda ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tishi shart. Qaytayotgan kunida ham bu haqda ichki ishlar organlariga kelib bu haqda ma'lum qilib ketishi lozim. Mahkumni muassasaga kelishini qiyinlashtiruvchi holatlar yuzaga kelsa, u borgan joydagi ichki ishlar organi boshlig'ining qaroriga binoan qaytish muddati, jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatini albatta ogohlantirgan holda, besh sutkagacha uzaytirilishi mumkin.

Mahkum belgilangan muddatda joyiga qaytishdan bo'yin tovlagan taqdirda, ichki ishlar organlariga ro'yxatdan o'tish uchun kelmasa, u ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan uni qaerdaligini aniqlash uchun choralar ko'riladi, uni muassasaga qaytmaslik, ichki ishlar organiga kelmasligi sabablari, jazoni o'tashdan bo'yin tovlaganligi aniqlanadi. Bu holatlar aniqlanganda mahkum ushlanib, jazoni o'tash joyiga jo'natiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Jazoni ijro etish muassasalarida rejim jazodan ko'zlangan maqsadga erishish uchun belgilanadi.

Jazoni ijro etish muassasalaridagi rejim turlaridan kelib chiqib o'z fikringizni bildiring.

2. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar o'z shaxsiy hisobvarag'idagi pul hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni pul o'tkazish yo'li bilan sotib olishlari mumkin.

Mahkumlarning oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olishini xususiyatlarini muhokama eting.

3. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini manzil koloniyasida o'tayotgan mahkum Z. fuqarolik namunasidagi kiyimda yurganligi uchun muassasa ma'muriyati uni muassasa ichki tartib qoidalarida bu holat mumkin emasligini aytib unga ogoxlantirish e'lon qiladi.

Muassasada o'rnatilgan rejim hamda, mahkum Z.ga nisbatan qo'llanilgan ogohlantirish to'g'riligi haqida fikringizni bildiring.

4. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab bo'lgan K. uyga qaytish oldidan muassasa ma'muriyatidan u bu yerga kelgan vaqtida o'zi bilan olib kelgan va muassasa ma'muriyati tomonidan olib qo'yilgan narsalarini qaytarib berishini so'raydi. Muassasa ma'muriyati uning narsalarini bir


qismini qaytarib berdi, qolgan qismi muassasa boshlig'ining qarori bilan yo'q qilib tashlanganligini ma'lum qiladi.

Vaziyatni tahlil eting, vaziyat bo'yicha K. qanday yo'l tutishi mumkinligi haqida fikr bildiring.

**OZODLIKDAN MAHRUM ETISHGA HUKM QILINGAN
SHAXSLAR MODDIY – MAISHIY TA’MINOTI, TIBBIY XIZMAT
KO’RSATISH VA MEHNATI, TA’LIMI VA TARBIYASI**

Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning yashash joylari. Mahkumlarning ovqati, ularga belgilangan ovqat normasi va ma’lum toifadagilarga oshirilgan normada ovqat berish. Mahkumlarning tibbiy-sanitariya ta’minoti. Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarni mehnatga jalb etishni tashkillashtirish shartlari va tamoyillari. Mahkumlarning ba’zi toifalarini mehnatga jalb etishning ixtiyoriyligi. Ish bilan ta’minlash. Ish vaqti. Mahkumlarning mehnat ta’tili, ularga haq to’lash tartibi, ijtimoiy sug’urtasi va pensiya ta’minoti. Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning ta’limi va kasbiy tayyorgarligini tashkil qilish tushunchasi. Mahkumlarning umumiy o’rta ta’limi. Mahkumlarning o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va kasb tayyorgarligi.

Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning yashash joylari



Jinoyat-ijroiya kodeksining 84-moddasida ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning yashash joyi haqida fikr yuritilgan. Unda aytilishicha, “ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlash sharoitiga qarab umumiy turar joylarda, xonalarda yoki kameralarda yashaydilar.

Bir mahkumga to'g'ri keladigan yashash maydoni normasi quyidagi miqdordan kam bo'lishi mumkin emas:

- umumiy turar joylarda - ikki kvadrat metr;
 - tergov hibsxonalari va turmalarning umumiy kameralarida -ikki yarim kvadrat metr;
 - ayollar va voyaga yetmaganlar saqlanadigan koloniyalardagi umumiy turar joylarda - uch kvadrat metr;
 - bemor mahkumlar saqlanadigan palatalarda - to'rt kvadrat metr,
- shuningdek jazoni manzil-koloniyalarda o'tayotgan shaxslar uchun mo'ljallangan xona tipidagi turar joylarda - to'rt yarim kvadrat metr.

Mahkumlarga yotish uchun alohida joy, ko'rpa-to'shak, choyshab va kerakli inventar beriladi”.

Bu xildagi normalarning belgilab qo'yilishi mahkumlarning yashashidagi asosiy norma hisoblanadi. Har bir mahkum o'zining sodir etgan jinoyatining og'ir yoki yengilligiga qarab, muassasa saqlash sharoitiga qarab joylashtiriladi.

Umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tayotgan mahkumlar **umumiy turar joylarda** yashaydilar.

Qonunda ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning yashash joylarining minimal va maksimal o'lchami ko'rsatib qo'yilgan. Biroq bu belgilangan normaning qancha bo'lishini muassasa quyidagi xususiyatlarga ko'ra belgilab oladi:

tibbiy mezonlarga ko'ra;

mahkumlarning yosh darajasiga ko'ra.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrоров. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Jazoni ijro etish muassasalarida yashash uchun mo'ljallangan qismda yashash uylaridan ovqatlanish xonasi, dam olish xonasi, shifoxona, o'qish va kasb-xunar o'rgatish xonalari, magazin, klub, kir yuvish va hammom, kutish va uchrashuv xonalari, kir quritish xonasi, kiyim-bosh va poyabzallarni ta'mirlash xonalari, mahkumlarning shtablari, kamera tipidagi xonalari, nazorat qilish va o'tkazish joylari, yoz mavsumlarida mahkumlarning saf tortishi, sport bilan shug'ullanishi va tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish maydoni, ibodat qilish uchun mo'ljallangan xonalari va boshqa inshootlar bo'lishi shart. Mahkumlarni yashash uylarida yuvinish, xojatxonalar, ayollar koloniyalarida gigiena xonalari bo'lishi shart.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Qishki mavsumda mahkumlar yashash joylari isitilib, harorat **18-20 daraja** bo'lishi ta'minlanadi. Har bir mahkum o'zi bilan sovun, tish chiyotkasi, tish pastasi, taroq, ro'molcha, ruchka, kitob va daftar bo'lishiga ruxsat etiladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida nazorat-o'tkazish punkti binosi (KPP) yoki uning yonida qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlar o'tkazish, posilka va yo'qlovlar berish, telefon orqali so'zlashuvni olib borish uchun xonalar bir-biridan alohida, shuningdek, muassasa hududiga kirib kelayotgan shaxslarni

hamda ularning buyumlarini ko'zdan kechirish uchun mo'ljallangan bino mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, mahkumlarni tintuv qilish joylari nazorat maydonchasi yaqinida hamda turar-joy va yonma-yon bo'lgan ishlab chiqarish zonalari o'rtasidagi ichki nazorat o'tkazish punkti qurilib, ma'muriy bino koloniya hududidan tashqarida joylashgan bo'ladi.

Mahkumlar turar joylarida har bir maxkum uchun alohida karavot, ko'rpa-yostik, ikki kishiga bitta tumbochka va stol bilan ta'minlanadi. Har bir karavotning oyoq tarafiga mahkum haqidagi ma'lumotlar yozilgan belgilar osib qo'yiladi. Haftada kamida bir marta mahkumlar xammomga tushirilib, o'rin-ko'rpa jildlari almashtiriladi. Muassasada tozalik mahkumlarning bepul yordamlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Muassasa hududida mahkumlarning **qisqa muddatli va uzoq muddatli** uchrashuvlari uchun mo'ljallangan joylari tashkil etiladi. Bunday joy, odatda, mahkumlarning yashash joylarida tashkil etiladi va ma'muriyat vakili va soqchilar tomonidan qo'riqlanadi. Uzoq muddatli uchrashuv joylari mexmonxona ko'rinishida bo'lib, bu joylarda yashash pullik to'lov asosida ruxsat etiladi.

Mahkumlarning ovqati, ularga belgilangan ovqat normasi va ma'lum toifadagilarga oshirilgan normada ovqat berish

Mahkumlarning ovqati, uning normasi kabilar Jinoyat-ijroiya kodeksining 85-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda belgilangan oziq-ovqat normasi kishi organizmining normal faoliyatini ta'minlaydigan darajada bo'lishi kerak.

Ovqat normasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan mahkumlarning sog'lig'i holatiga, ularning yoshi, bajarayotgan ishining xususiyati va og'irligiga qarab belgilanadi. Mahkumlarga ularni ishga jalb etgan korxona, muassasa va tashkilotlar mablag'lari hisobidan qo'shimcha ovqat berilishi mumkin.

Mahkum homilador ayollar, emizikli onalar, voyaga yetmaganlarga, shuningdek I va II gurux nogironlariga beriladigan ovqat normalari oshiriladi. Tibbiy xulosa asosida ularga qo'shimcha oziq-ovqat maxsulotlari olishga ruxsat berilishi mumkin.

Jazoni ijro etish muassasalarining intizomiy bo'linmalariga kiritib qo'yish tariqasidagi jazo chorasi o'n besh sutkagacha bo'lgan muddatga qo'llanilgan mahkumlarga ovqat kamaytirilgan norma bo'yicha beriladi.

Ma'lum toifadagi, ya'ni og'ir mehnatga jalb qilingan mahkumlarga oshirilgan normada ovqat beriladi. Har bir jazoni ijro etuvchi muassasada maxsus ovqat pishirish joylari bo'ladi va ular zarur idish-tovoq bilan ta'minlanadi. Bir kunda mahkumlarga **uch mahal** ovqat berilishi shart. Shuningdek, mahkumlarni ishga jalb qilgan korxona yoki muassasalar mablag'i hisobidan qo'shimcha ovqat berilishiga yo'l qo'yiladi. Mahkumlarning ovqati maxsus oshxonalarda yollanma mehnatga jalb qilinganlar va mahkumlarning o'zlaridan foydalangan holda tayyorlanadi, Kun tartibida belgilangan vaqtlarda mahkumlar ovqatlanadilar. Mahkumlarga pishiriladigan ovqat birinchi navbatda sifatli va kaloriyaga boy bo'lishi lozim. Mahkumlarga tarqatiladigan ovqat ma'muriyat vakili va tibbiyot xodimi tomonidan tekshiriladi. Ovqat uchun tayyorlash zarur bo'lgan xom ashyolar maxsus omborlarida saqlanadi. Koloniya hududidagi do'kondan mahkumlarga normada belgilangan miqdorida qo'shimcha oziq-ovqat sotib olishlariga ruxsat beriladi. Bundan tashqari, belgilangan miqdor bo'yicha posilkalar olishlariga yo'l qo'yilganligi ham ularning qo'shimcha oziq-ovqat olishlariga imkoniyat yaratadi.

Mahkumning ovqati albatta, inson jismining normal faoliyat yuritishi uchun zarur talablarga javob bera oladigan bo'lishi lozim. Ovqat normasini belgilashda ham mahkumlarning toifasiga qarab emizikli va homilador ayollarga, voyaga yetmaganlar, I va II guruh nogironlari va kasalmand mahkumlarga hamda og'ir mehnatga jalb qilingan mahkumlarga beriladigan ovqat boshqalarnikidan farq qilishi mumkin. Ularga oshirilgan miqdorda ovqat beriladi. Bir kunda uch mahal ovqatlantirilish tartibiga amal qilinadi. Mahkumlarni ishga jalb qilgan korxona yoki muassasalar mablag'i hisobiga qo'shimcha ovqat berishga yo'l qo'yiladi.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Mahkumlarning tibbiy-sanitariya ta'minoti

Jinoyat-ijroiya kodeksning 87-moddasiga muvofiq, mahkumlar tibbiy-sanitariya xizmatidan foydalanadi. Mahkumlarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli yo'riqnomalari va o'zaro Ichki ishlar vazirligi bilan kabul qilingan maxsus buyruq, yo'riqnomalari bilan tartibga solinadi. Jazoni ijro etish muassasalari ma'muriyatiga mahkumlarga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun maxsus vazifalar bilan belgilab beriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ma'muriyat tarkibida maxsus tibbiy xizmat bo'limlari tashkil etiladi.[Ermatov G'.O. Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlari. – T.: TDYI, 2012. – 131 b.]

Mahkumlarning tibbiy-sanitariya xizmat bo'limlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi qoshida maxsus tibbiy boshqarma tuzilgan bo'lib, bu boshqarma jazoni ijro etish muassasalarining tibbiy sanitariya xizmatlari faoliyatini ham tartibga soladi.

Tibbiy ta'minot bo'yicha asosiy normativ-huquqiy hujjat – O'zbekiston Respublikasi IIV vaziri tomonidan 2002 yil 3 sentyabrda qabul qilingan **“O'zbekiston Respublikasi IIV tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar tibbiy ta'minoti bo'yicha Qoidalar”** va uni tasdiqlash to'g'risidagi buyrug'i hisoblanadi. Ushbu Qoidalar 2002 yil 3 noyabr kundan kuchga kirgan bo'lib, ularda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalari tibbiy xizmatlarining asosiy vazifasi sifatida, birinchi navbatda tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning sog'lig'ini saqlash va salomatligini tiklashdan iboratdir.[O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2002 yil 3 sentyabrdagi 231-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi IIV tergov hibsxonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslar tibbiy ta'minoti bo'yicha Qoidalar". "NORMA" elektron-huquqiy ma'lumotlar dasturi.]

Tibbiy xizmatlarning asosiy vazifalari:

a) mahkumlarga zarur bo'lgan tibbiy yordamni ko'rsatish va uni tashkil etish;

b) mahkumlarni vaqti-vaqti bilan profilaktik tibbiy ko'rikdan va tekshiruvdan o'tkazish yo'li bilan ular salomatligini nazorat qilish, davolashga va doimiy tibbiy kuzatuvga muhtoj bo'lgan shaxslarni aniqlash, ularning mehnat qobiliyatini mustahkamlashga, ular tomonidan kasalligi

tufayli saqlash tartibini buzish va qayta jinoyat sodir etish holatlarini oldini olishga qaratilgan davolash-sog'lomlashtirish tadbirlarini olib borish;

v) jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsonalarida mahkumlar uchun sanitariya va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish;

g) mahkumlar orasida tibbiy va gigiena bilimlarini targ'ib qilish, hamda ularga sog'lom turmush tarzini singdirish;

d) mahkumlar orasida kasallanish va mehnat qobiliyatini yo'qotish hollarini tahlil qilish natijasida, ularga nisbatan davolash-profilaktika tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishlardan iboratdir.


Mahkumlarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat barcha fuqarolarga ko'rsatiladigan bepul va cheklashsiz tibbiy xizmatdan farq qilmaydi. Mahkumlarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda kabul qilingan maxsus buyruq, instruktsiya va farmoyishlar bilan tartibga solinadi. Jazoni ijro etish muassasalari ma'muriyatiga mahkumlarga tibbiy xizmat ko'rsatishi uchun maxsus vazifalar bilan belgilab beriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ma'muriyat tarkibida maxsus tibbiy xizmat bo'limlari tashkil etiladi. Mahkumlarning tibbiy-sanitariya xizmat bo'limlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bunday bo'limlar jumlasiga tibbiy markazlar, shifoxonalar, tibbiy ro'yxatga olingan tuberkulyoz, I va II gurux nogironlari uchun qisqa muddatli maxsus koloniyalar tashkil etilgan. Yuqumli kasalliklar, tanosil va orttirilgan immunitet tanqisligi kasalligi, giyohvandlik yoki alkogolizmga chalinganlarni saqlash va davolash uchun maxsus tibbiy muassasa tashkil etiladi. Tanosil kasalliklariga chalingan mahkumlar davolanish jarayonida koloniyaning tibbiy bo'limlarida boshqa mahkumlar bilan birga saqlanadilar.

Orttirilgan immunitet tanqisligi bilan xastalangan, giyohvandlikka yoki alkogolizmga chalingan shaxslarni maxsus koloniya yoki bo'linmalarda alohida saqlash nazarda tutilmagan. Bunday mahkumlar boshqa mahkumlar bilan birgalikda saqlanadilar, lekin ular tibbiy ruyxatga olinadilar, zarur hollarda ularga tegishli tibbiy yordam ko'rsatiladi. Jumladan, sud tomonidan tayinlangan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining qo'llanilishi bunday davolanishning turi hisoblanadi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2014 yil 3 maydagi 65-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Qamoq jazosiga va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash tartibi to'g'risidagi Nizomi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2014 yil 3 iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2591).]

Mahkumlarning ayrim zarur hollarda sog'liqni saqlash tizimi tibbiy xizmatlaridan foydalanishlariga ham yo'l qo'yilishi mumkin. Manzil koloniyalarida jazoni o'tayotgan mahkumlarning sog'liqni saqlash tizimi xizmatlaridan navbati bilan foydalanishlariga yo'l qo'yiladi.[Qamoqqa olingan va ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish samarasini oshirish choralari to'g'risida qo'shma buyruq (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000 yil 22 dekabrda 994-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan).]

Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar uchun tibbiy-sanitariya xizmatlari davlat hisobidan amalga oshiriladi, lekin shunday hollar ham uchraydiki, bunda mahkumlarga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat o'z hisob varaqlaridagi mablag' hisobiga amalga oshiriladi.

Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarni mehnatga jalb etishni tashkillashtirish shartlari va tamoyillari



Ozodlikdan mahrum qilinganlarning axloqan tuzalishi va qayta tarbiyalanishida ularning mehnati, ta'limi va kasb tayyorgarligi katta ahamiyatga ega. Mahkumlarni mehnatga jalb etish masalasi Jinoyat-ijroiya kodeksining alohida 13-bobida o'z ifodasini topgan bo'lib, ushbu bob 88-96 moddalarni o'z ichiga oladi.

Mahkumlarni mehnatga jalb qilishdan **asosiy maqsad** ularda ijtimoiy-foydali faoliyat bilan shug'ullanish ko'nikmasini shakllantirishdan iboratdir.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jinsi, yoshi, sog'lig'ining holati, mehnat kobiliyati va iloji boricha, ixtisosligini inobatga olgan holda mehnatga jalb etiladi. Mahkumlarning mehnatga oid munosabatlari mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan, ushbu Kodeksda nazarda tutilgan istisno va cheklashlarni hisobga olgan holda tartibga solinadi.

Ozodlikdan mahrum qilinganlar mehnati ozod shaxslar mehnatidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar o'zlarining kasb faoliyati yoki xohishiga ko'ra ish tanlay olmaydilar.

Mahkumlar mehnati vaqti mehnat qonunchiligida belgilangan eng uzaytirilgan vaqtlarda hisoblanadi.

Mahkumlar mehnatiga to'lov eng kam ish haqi miqdorida belgilanadi va undan bosh tortishga mazkur shaxsning haqi yo'q.

Mahkumlarni jazolash **xususiyatlari** ularning mehnatlarini tashkil etish jarayonida o'z aksini topadi.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrоров. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar, odatda, shu muassasaning korxonalarida, ayrim hollarda talab darajasida qo'riqlash va batamom ajratib qo'yish ta'minlangan taqdirda, boshqa korxonalarda mehnatga jalb etiladilar. Mahkumlarning xususiy shaxslar foydasiga mehnat qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Mahkumlarning mehnatidan:

a) jazoni ijro etish muassasalarining boshqarmalari, bo'limlari va bo'linmalarida;

b) harbiy bo'linmalarning shtablarida hamda shaxsiy tarkib joylashgan, qurol-yaroq va hujjatlar saqlanayotgan joylarda;

v) nusxa ko'paytiruv apparatlari, radiotelegraf, telefon va kompyuter texnikasi bilan bog'liq ishlarda;

g) sotuvchi, amaliyotchi buxgalter, kassir, oziq-ovqat omborlarining, shuningdek, murakkab va qimmatbaho uskunalar omborlarining mudiri tariqasida;

d) dori vositalari, shuningdek portlovchi va zaharlovchi moddalarning hisobini yuritish, ularni saqlash va berish bilan bog'liq ishlarda;

e) fotosuratchi, tish protezchisi, shifokor, transport vositalari haydovchisi tariqasida;

j) bo'ysunuvida erkin yollanib ishlaydigan xodimlar bo'lgan vazifalarda;

z) mahsulot qabul qilish va uning sifatini tekshirish bilan bog'liq vazifada;

i) qo'riqlash xizmati itlarini boqish bilan bog'liq ishlarda foydalanish taqiqlanadi. [Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Bundan tashqari, mahkumlarni agar ular davlat mulkini o'g'irlaganlik, xizmat mavqeini suiste'mol qilganlik, poraxo'rlik, bosqinchilik, talonchilik, o'g'irlik, firibgarlik, mansab soxtakorligi uchun hukm etilgan yoki sodir etgan jinoyatlari davlat va jamoat mol-mulkiga tajovuz etish bilan bog'liq bo'lgan taqdirda moddiy javobgarlik va hisoblash-buxgalteriya bilan bog'liq mehnatga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

Mahkumlarning ba'zi toifalarini mehnatga jalb etishning ixtiyoriyligi. Ish bilan ta'minlash. Ish vaqti

Mahkumlarning jinsi, yoshi, sog'lig'ining holati, mehnat qobiliyati va imkon qadar mutaxassisligi inobatga olingan holda mehnatga jalb etiladi. 60 yoshdan oshgan erkaklar va 55 yoshdan oshgan ayollar hamda I va II guruh nogironlari mehnatga o'z xohishlariga ko'ra jalb etiladilar.

Mahkuma ayollar homiladorligi va tug'ishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan muddatga ishdan ozod qilinadilar.

Shuningdek, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq, voyaga yetmagan va ayol jinsidagilarning bajarishi ta'qiqlangan ishlarda ishlashlariga yo'l qo'yilmaydi.

Mahkumlarning mehnatini tashkil kilishda ularning qobiliyati, jismoniy xususiyatlari, bilimi, kasbiy malakasi kabi xususiyatlari birlamchi sanaladi. Sababi, jazoni ijro etish muassasasiga kelib tushgan har bir mahkumning ishga yaroqliligi tibbiy komissiya tomonidan tekshiriladi. I va II guruh nogironlari tibbiy komissiyaning xulosasiga ko'ra mehnat qilishga yuboriladi. Har bir mahkum o'zining kasb-xunariga qarab ish bilan ta'minlanadi, bundan ko'zlangan maqsad ish unumdorligini yaxshilashdir. Kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkumlar ham muassasa ma'muriyati tomonidan ish bilan ta'minlanadilar. Hech qanday hunar yoki kasbga ega bo'lmagan mahkumlar maxsus kasb-xunar muassasalarida o'qitiladilar.

Mahkumlar muassasaning xo'jalik yoki savdo-sotiq ishlarida, raxbar vazifasida ishlashiga tavsiya etilmaydi. Masalan, oziq-ovqat do'koni, ombor mudiri, nazoratchisi.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning axloqan tuzalishlarida mehnat qilishning ijobiy ta'siri haqiqatan ham o'rni beqiyosdir. Shu maqsadda ular bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqqan holda zarur hollarda ish bilan ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi o'z vakolati doirasida mahkumlarni ish bilan ta'minlashda umumiy vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

jazoni ijro etish muassasalarida ishlab chiqariladigan muayyan mahsulot turlari uchun buyurtmalarni taqsimlaydi;

ishlab chiqarish korxonalarini moddiy-texnika bilan ta'minlash choralarini ko'radi;

ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, ishlab turgan korxonalarni texnika bilan qayta jihozlash va rekonstruktsiya qilishni mablag' bilan ta'minlaydi;

korxona, muassasa va tashkilotlarni mahkumlar mehnatidan foydalanishga jalb etishga imkon yaratib beradi;

korxona, muassasa va tashkilotlarda mehnat qilayotgan mahkumlarga yoziladigan ish haqi miqdorini belgilab beradi.[Payzullaev Q., Abduqodirov Sh.Yo. Jinoyat-ijroiya huquqi (albom sxemalar). –T.: TDYI, 2010. – 147 b.]

Mahkumlar mehnati O'zbekiston Respublikasi qonunlari va JIK normalari bilan tartibga solinadi. JIKning 90-moddasiga binoan jazoni ijro etish muassasalarida jazoni o'tayotgan mahkumlar uchun olti kunlik ish haftasi belgilangan. Ularning ish vaqti rejimini ijro etish muassasasining ma'muriyati belgilaydi va umumiy ish vaqtining qonunda belgilangan eng ko'p normasidan oshib ketmasligi kerak.

Odatda, mahkumning ish joyi jazoni o'tayotgan muassasadan uzoqda bo'lmaydi, ammo ish joyining uzoqligi yashash joyidan 3 km masofadan oshsa, mahkum ishga moslashtirilgan transportda olib boriladi. Mahkumlar, odatda, brigadalarga bo'lingan holda ishga taqsimlanadi, har bir brigadada

o'zining brigadiri bo'ladi va u javobgar shaxs sanaladi. Brigadir quyidagi ishlarni amalga oshirishi shart:

- brigada a'zolarining ish sifatini tekshirish;

- brigada a'zolari ish rejasining bajarilishini nazorat qiladi va brigada tarkibida tartib-intizomni ta'minlash choralari ko'radi.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrоров. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Ish vaqtidan tashqaridagi ishlar. Dam olish va bayram kunlarida mehnatga jalb etish tartibi

Mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga ko'ra mahkumlarni ish vaqtidan tashqari ishlarga, dam olish va bayram kunlarida ishga jalb etish uchun zarurat bo'lganida amalga oshiriladi.

Shuningdek, mahkumlarning dam olish vaqti Jinoyat-ijroiya kodeksining 91-moddasi bilan tartibga solinaldi. Unda mahkumlarga haftada bir marta dam olish kuni berilishi, bayram kunlari esa ishdan ozod qilinishi belgilab qo'yilgan.

2003 yil 30 avgustda bu moddaga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishga ko'ra ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga har yilgi mehnat ta'tili berilmaydi, jazoni manzil koloniyalarda o'tayotganlar esa bundan mustasno. Shuningdek, mahkum jazoni ijro etish koloniyasining intizomiy bo'linmasi turar joylarida saqlangan vaqt haq to'lanadigan har yilgi mehnat ta'tili berish uchun zarur muddatga qo'shib hisoblanmaydi.

Mahkumlar mehnatidan chegirib qolish mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq bir necha istisno, cheklashlar bilan amalga oshiriladi. Bunda ishning boshlanish va tugallanish vaqti koloniya boshlig'i tomonidan belgilanadi. Mahkumga to'lanadigan ish haqi ularning hisob varag'iga o'tkaziladi, hisob varag'idagi mablag'lardan ularning barcha to'lovlari uchun o'tkazilishi mumkin.

Mahkumlar jazoni ijro etish muassasalarini va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish, shuningdek madaniy-maishiy sharoitni yaxshilash ishlariga haq to'lamay ishga jalb qilinadilar.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda 174-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari (O'zbekiston

Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013 yil 29 iyulda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2495).]

Mahkumlarning mehnat ta'tili, ularga haq to'lash tartibi, ijtimoiy sug'urtasi va pensiya ta'minoti.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar mehnatiga amaldagi qonun va qonun osti hujjatlari hamda ularda belgilangan tariflar va baholash mezonlari bo'yicha ishning miqdori hamda sifatiga muvofiq haq to'lanadi. Ushbu davr mobaynida mehnat qonunchiligi normalari va mehnat vazifalarini bajargan mahkumlar mehnatiga to'lanadigan oylik ish haqi qonunchilikda belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lishi va eng yuqori miqdor bilan chegaralanishi mumkin emas. Eng kam ish haqiga qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, rag'batlantiruvchi to'lovlar, normalar ish vaqtidan tashqari qilingan mehnat uchun oshirilgan to'lov, shuningdek, tuman koefitsientlari ish haqi hisobiga kirmaydi.

Mahkumlar mehnatiga ishbay va vaqtbay tartibida haq to'lanadi. Mahkumlar mehnatiga haq to'lashning asosiy tizimi barcha ishlarda me'yorlashtirish va aniq hisob-kitobni ta'minlovchi ishbay haq to'lash hisoblanadi. Ishbay haq to'lash individual yoki jamoaviy bo'lishi mumkin. Mehnatga individual haq to'lashda mahkumning butun maoshi u tayyorlagan yaroqli mahsulot miqdori va har bir mahsulot birligi uchun ishbay baholash yo'li bilan aniqlanadi. Jamoaviy haq to'lashda jamoa (brigada)ning umumiy maoshi muayyan vaqt, (smena, hafta, oy) davomida bajarilgan butun ish natijalariga qarab hisoblanadi. Lekin jamoaning har bir a'zosiga bu maosh unga belgilangan tartibda berilgan malakaviy razryadi va jamoada ishlagan vaqtni hisobga olgan holda ajratiladi. Vaqtbay haq to'lash faqat me'yorlashtirilmagan va aniq hisobga asoslanmagan ishlarda qo'llaniladi. Mahkumlarga vaqtbay haq to'lashda har oylik ish kuni uchun kunlik ta'rif stavkasi ajratiladi. Oylik haq to'lashda mahkumning oylik maoshi kalendar bo'yicha bu oydagi ish kuni miqdoridan qat'i nazar qa'tiy oylik stavkasi shaklida, lekin har bir kunda ishlagan vaqtni hisobga olgan holda belgilanadi. Mahkumlarning moddiy manfaatdorligini kuchaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini va rentabelligini oshirish, mehnat unumdorligini o'stirish, mahsulot sifatini yaxshilash va hokazo maqsadida vaqtbay-mukofotlash va ishbay-mukofotlash tarzida haq to'lash tizimi joriy qilinadi.[Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: B.J.Axrorov. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.]

Mahkumlar dam olish va bayram (ish kunidan tashqari) kunlarida ishga, shuningdek, hashar ishlariga jalb qilinganda ularga ikki baravardan kam bo'lmagan haq to'lanadi.

Tungi vaqtdagi ishga (22-00 dan 6-00 gacha) bir yarim baravar miqdorda haq to'lanadi. Tungi vaqtdagi ishlar uchun haq to'lash ta'rif stavkalariga kiritilmaydi.

Mahkumning aybi bilan yo'l qo'yilgan to'liq ishlamaganlik yoki qisman ishlanmagan vaqt uchun haq to'lanmaydi. Mahkumning aybi bilan yo'l qo'yilgan qisman sifatsiz bajarilgan ishlar uchun kamaytirilgan miqdorda haq to'lanadi. Mahsulotning yaroqlilik foizi bunday hollarda muassasa ma'muriyati tomonidan belgilanadi. Agar sifatsiz maxsulotni ishlab chiqarishda mahkumning aybi bo'lmasa, u holda mahkumning o'rtacha maoshi saqlab qolinadi. Yangi mahsulotlar ishlab chiqarilgunga qadar sifatsiz mahsulotlar uchun tegishli razryaddagi ta'rif stavkasi hisobidan haq to'lanadi.[Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007. – 574 b.]

Mahkumlarning pensiya ta'minoti va ijtimoiy sug'urtasi masalasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 96-moddasida o'z ifodasini topgan.

Mahkumlarni oylik maoshidan davlat sug'urtasi uchun mablag'lar ajratilmaydi. Ozodlikdan mahrum etilgan maxkumlarga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida nazarda tutilgan Davlat ijtimoiy sug'urtalash mablag'lari hisobidan ta'minot turlari bo'yicha nafaqalar qo'llanilmaydi.

Nafaqaxo'r ozodlikdan mahrum etilganida unga belgilangan nafaqaning to'lovi to'xtatiladi. Nafaqaxo'r ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod bo'lib chiqqanidan so'ng, unga belgilangan nafaqaning berilishi u murojaat qilgan kundan boshlab tiklanadi. Ozodlikdan mahrum etish ko'rinishidagi jazoni o'tash davrida maxkumlar tomonidan yetkazilgan moddiy zararni qoplash huquqidan foydalanmaydilar.

Jazoni o'tash mobaynida mehnat qilish layoqatini yo'qotib, o'rnatilgan tartibda nogiron deb tan olingan shaxslar nafaqa olish huquqiga egadirlar. Nogironlik bo'yicha nafaqa tayinlashda mehnatga layoqatlilik yo'qotilgan holatlari ham ahamiyatga ega. Jazoni o'tash davrida mahkumlarning mehnatga layoqatliligini yo'qotganligi "umumiy kasallanish" natijasida mehnatga layoqatlilikni yo'qotish, deb hisoblanadi. Nafaqa miqdorini belgilashda shaxsning mehnat staji ham inobatga olinadi. Jazoni o'tash davri mehnat stajiga kiritilmasligi tufayli mahkum jazodan ozod etilgach yoki uni o'tab bo'lgandan so'ng, nafaqaga chiqishida uing ozodlikdan mahrum etilgunga qadar bo'lgan mehnat staji e'tiborga olinadi.

Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod bo'lgan shaxslarga nafaqa tayinlash masalasi ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan hal etiladi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarning ta'limi va kasbiy tayyorgarligini tashkil qilish tushunchasi



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida har kim bilim olish huquqiga ega ekanligi belgilangan. Mazkur norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 26-moddasi talablariga to'la mos keladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan mazkur huquq ijrosini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nomativ-huquqiy hujjatlarda respublikamizda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining **asosiy tamoyillari** sifatida quyidagilar belgilangan:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik harakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy harakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

- bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

Ta'lim olish huquqi respublikamizdagi barcha shaxslarga, jumladan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxslarga nisbatan ham tatbiq etiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 100, 101-moddalarida aynan ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan shaxslarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va kasb tayyorgarligini tashkil qilish masalalari mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 7-moddasi 2-qismida mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalariga umumiy va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi ham kiritilgan.

Jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkumlarning umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi hamda ularning ishlab chiqarishdagi kasb tayyorgarligi tashkil etiladi. O'quv jarayoni va kasbga o'rgatishni tashkil etish ta'limi organlarining normativ hujjatlari talablariga muvofiq ravishda hamda saqlash rejimi, kun tartibi va turli toifadagi mahkumlarni batamom ajratib qo'yish qoidlariga rioya etilishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, ozodlikdan mahrum etish muassasalarida jazo o'tayotgan mahkumlarning ma'lum bir qismini to'liq va umumiy o'rta ma'lumotga, ayrim hollarda boshlang'ich ta'limga ega bo'lmaganlar tashkil etadi.

Ana shu nuqtai nazardan ozodlikdan mahrum etish joylarida Jinoyat-ijroiya kodeksining 100–101-moddalariga asosan mahkumlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va kasb tayyorgarligi tashkil etiladi. Jazoni ijro etish muassasalarida ushbu yo'nalishdagi ishlar O'zbekiston Respublikasi IIV va Xalq ta'limi vazirligining 1994 yil 22 fevraldagi 45/45-sonli qo'shma buyruqlari asosida tartibga solingan bo'lib, unga muvofiq har bir sinfdan jamlangan o'quvchilar soni 25 kishidan ortiq bo'lmasligi hamda 5-sinf va undan yuqori bo'lgan sinflarga mo'ljallangan dasturlar asosida umumiy o'rta ta'lim berilishi nazarda tutilgan.[Ismailov I., Yuldashev M., Mirzaraimov I. Jinoyat-ijroiya huquqi: darslik. – Toshkent, 2010. – 98 b.] Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxslarning ta'lim olishlarini tashkil qilishda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2014 yil 29 dekabrda 174-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari" ham muhim ahamiyat kasb etadi.[

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 31-son, 414-modda.]

Ushbu qoidalarining 417-bandiga muvofiq jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning umumiy o'rta ta'limi tashkil etiladi. JIEM ma'muriyati mahkumlarga ular ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratadi hamda zarur ko'mak ko'rsatadi.

Mahkumlarning umumiy o'rta ta'limi

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 100-moddasiga muvofiq, jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning umumiy o'rta ta'limi tashkil etiladi. Muassasa ma'muriyati mahkumlarga ular ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratadi hamda zarur ko'mak ko'rsatadi.

Yoshi o'ttizdan oshgan mahkumlar, I va II guruh nogironlari xohishlariga ko'ra ta'lim olishga jalb etiladilar.

Mahkumlarning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olishiga yo'l qo'yilmaydi, manzil-koloniyalardagi mahkumlar bundan mustasno bo'lib, ular o'quv yurtlarining sirtqi bo'limlarida ta'lim olishlari mumkin.

O'quv yurtlarida ta'lim olayotgan mahkumlar imtihonlarni topshirish uchun qonun hujjatlariga muvofiq ishdan ozod qilinadi.

Jazoni ijro etish muassasalaridagi mahkumlarning umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi hamda ularning ishlab chiqarishdagi kasb tayyorgarligi tashkil etiladi. O'quv jarayoni va kasbga o'rgatishni tashkil etish ta'limi organlarining normativ hujjatlari talablariga muvofiq ravishda hamda saqlash rejimi, kun tartibi va turli toifadagi mahkumlarni batamom ajratib qo'yish qoidlariga rioya etilishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

2003 yil 30 avgustda Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga muvofiq jazoni ijro etish muassasalarida kasb-hunar ta'lim va kasb tayyorgarligidan tashqari o'rta maxsus ta'limi ham yo'lga qo'yildi.

Mahkumlar kasb tayyorgarligining asosiy maqsadi bevosita ishlab chiqarishda ularga kasb o'rgatishdir. Kasbga o'rgatish mahkumlar ishlaydigan korxona faoliyatining xususiyati, u yoki bu mutaxassislikka bo'lgan talab va ehtiyojidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Ayni paytda ma'muriyat alohida mintaqalarning ommaviy kasblarga bo'lgan talabini hisobga olishi kerak. Bunda mahkumlar ozodlikka chiqqanlaridan keyin ularning mutaxassisliklaridan foydalanish mumkinligini nazarda tutish

lozim. Bevosita ishlab chiqarishda yangi kasbga o'rgangan yoki malakasini oshirgan yoxud malaka oshirish imtihonini muvaffaqiyatli topshirgan shaxslarga olgan mutaxassisligi va berilgan razryadi, darajasi, toifasi to'g'risidagi yagona namunadagi hujjat topshiriladi. Bu hujjat mahkumning shaxsiy yig'majildida saqlanadi va jazoni ijro etish muassasasidan bo'shatilayotgan paytda uning qo'liga beriladi.

Mahkumlarning umumiy va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi ayniqsa, tarbiya koloniyasida namunali tashkil etilganligi e'tiborga molik jihatdir. Chunki voyaga yetmaganlar orasida turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklarni nafaqat jazo o'tayotgan joyda, balki ular ozodlikka chiqqanlaridan so'ng ham oldini olishning eng ta'sirchan choralaridan hisoblanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish joylarida **asosiy umumiy ta'limni tashkil etish** jarayoni jazoni o'tash tartibiga zid bo'lmagan holda tashkillashtirilishi lozim. Bunda muassasa ma'muriyati mahkumlarning o'qishi uchun sharoit yaratib berishi kerak. Bu mahkumlarga darsliklar, o'quv-yozuv qurollaridan foydalanish imkoniyatini berish demakdir. Ma'muriyat mahkumlarning o'qishlari vaqtida rejadan tashqari ishlarga jalb qilmasligi, ularning mustaqil ta'lim olishlariga ko'maklashishi lozim. Mahkumlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va kasb tayyorgarligiga intilishlari ularning jinsi, yoshi va sog'lig'ining holatidan qat'i nazar rag'batlantirilishi kerak. Bu sezilarli tarbiyaviy samara beradi va mahkumning huquqiy holatini o'zgartirishga olib keladi.

Shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan o'qituvchilar odatda salbiy ruhiy o'zgarishlarga ega shaxslarga psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish tajribasiga ega insonlardir. Shuning uchun ham ular jazoni ijro etish muassasalaridagi tarbiyaviy jarayonga faol yordamlashishlari mumkin.

Mahkumlarning o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va kasb tayyorgarligi

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksining 101-moddasiga muvofiq, jazoni ijro etish muassasalarida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beriladi va (yoki) mahkumlar ishlab chiqarishda kasbga o'rgatiladi.

Mahkumlarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi berish va ularni kasbga o'rgatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 10-moddasida ta'lim turlari belgilangan bo'lib, unga ko'ra O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta ta'lim;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Ushbu qonunning 13-moddasiga muvofiq, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim olish maqsadida har kim umumiy o'rta ta'lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga egadir. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.

Jazoni ijro etish muassasalarida ozodlikdan mahrum etilib jazoni o'tayotgan mahkumlar uchun jazoni o'tash muassasasi va undan keyin ham ishlash imkonini beruvchi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi beriladi va (yoki) mahkumlar ishlab chiqarishda kasbga o'rgatiladi.

Mahkumlarning kasb-hunar ta'limi va tayyorgarligini olishlari ularning tuzalish darajalariga oid tarzda tashkil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 6 iyuldagi 200-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risida"gi Nizom[O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 28-son, 315-modda.]da o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va amalga oshirish tartibi belgilangan.

Jazoni ijro etish muassasalarida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq holda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari asosida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar ta'limi umumiy ta'lim standartlari darajasida va dasturlari asosida tashkil qilinadi, faqatgina ozodlikdan mahrum etilganlarning shart-sharoitlari, tartib qoida talablari va kun tartibiga mos keladigan holda

o'qitishni tashkil qilishda ba'zi moslashtirishlar (o'zgartirish) kiritilishi mumkin. O'qitish vaqti tugagach esa tegishli imtihonlarni topshirishib, bir xil namunadagi (ko'rinishdagi) va ma'lum bir kasb yoki mutaxassislikka tegishli bo'lgan hujjat beriladi.

Mahkumlarning hunar ta'limi vazifalarini hal qilishning **muhim omili** yuqori malakali injener-pedagogik kadrlar bilan ta'minlashdir. Ayniqsa, tarbiya koloniyalaridagi kasb-hunar maktablariga tajribali mutaxassislarni jalb etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Garchi bu Xalq ta'limi vazirligi va uning joylardagi organlarining majburiyati hisoblansada, ozodlikdan mahrum qilish muassasalari ma'muriyati umumiy va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi maktablarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashga har tomonlama yordam berishi kerak.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar ta'limi va kasb tayyorgarligi qonun tomonidan rag'batlantiriladi va ularning xulq-atvorini baholashda hisobga olinadi. Bu esa shartli ravishda muddatidan ilgari ozod qilish, afv etish, belgilangan rag'batlantirish choralarini qo'llashda muhimdir. Asosiy umumiy ta'lim olish majburiyati joriy qilinadigan shaxslar uchun agar ular sababsiz ravishda dars qoldirsalar yoki o'qishdan bosh tortsalar intizomiy jazoga tortiladilar. Ozodlikdan mahrum qilish joylarida asosiy umumiy ta'limni tashkil etish jarayoni jazoni o'tash tartibiga zid bo'lmagan holda tashkillashtirilishi lozim. Bunda muassasa ma'muriyati mahkumlarning o'qishi uchun sharoit yaratib berishi kerak. Bu mahkumlarga darsliklar, o'quv-yozuv qurollaridan foydalanish imkoniyatini berish demakdir.

Mahkumlar ta'limini tashkil etishda ularning adabiyotlar va davriy nashrlar bilan ta'minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir JIEMda mahkumlarning adabiyotlar va davriy matbuot nashrlaridan foydalanishlari uchun o'quv xonalari mavjud bo'lgan kutubxonalar tashkil etiladi. Mahkumlar kutubxonadan kun tartibiga muvofiq belgilangan jadval asosida foydalanadi.

Kutubxona fondi har bir mahkumni kamida beshta adabiyot bilan ta'minlashga mo'ljallab tashkil etiladi.

Turmalarda (xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan mahkumlardan tashqari), umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning kartserlarida, maxsus tartibli koloniyalarning bir kishilik kameralarida saqlanayotgan mahkumlarning adabiyotlari o'n kunda almashtiriladi.

Kutubxona fondi JIEMni mahkumlar bilan to'ldirish limitidan va boshqa holatlardan kelib chiqib, har yili qayta ko'rib chiqiladi.

Mahkumlar posilka, yo'qlov va banderollarda yozuv ashyolari, adabiyotlar olishlari, shuningdek ularni savdo shoxobchalari orqali sotib olishlari, cheklanmagan miqdorda gazeta va jurnallarga yakka tartibda yoki guruh bilan obuna bo'lishi mumkin. Obuna bo'lish JIEM ma'muriyati tomonidan tashkillashtiriladi.

Mahkum o'z yonida ko'pi bilan o'nta kitob va jurnal saqlashi mumkin. Mazkur miqdordan ortiqcha adabiyot saqlash uchun topshiriladi yoki mahkumning roziligi bilan foydalanish uchun kutubxonaga olinadi yoxud qarindoshlari va boshqa shaxslarga yuboriladi.

Ma'muriyat mahkumlarning o'qishlari vaqtida rejadan tashqari ishlarga jalb qilmasligi, ularning mustaqil ta'lim olishlariga ko'maklashishi zarur. Mahkumlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar va kasb tayyorgarligiga intilishlari ularning jinsi, yoshi va sog'lig'ining holatidan qat'i nazar rag'batlantirilishi kerak. Bu sezilarli tarbiyaviy samara beradi va mahkumning huquqiy holatini o'zgartirishga olib keladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning yashash joylariga qo'yilgan shartlar, ularning ovqati va har bir mahkumga belgilangan ovqat normasi aniq belgilangan.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu normalarni muhokama eting.

2. Mahkumlarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi berish va ularni kasbga o'rgatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mazkur qonun-hujjatlariga muvofiq Mahkumlarga o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi berish va ularni kasbga o'rgatishni muhokama eting.

3. Ozodlikdan mahrum qilish muassasasidagi mahkumlarga shu muassasa mahkumlarini ishga jalb etgan korxona o'z mablag'larini mahkumlarning shaxsiy hisob varag'iga oziq-ovqat uchun o'tkazishini bildiradi. Muassasa ma'muriyati esa bunday qilish mumkin emasligini, chunki bunda mahkumlarga beriladigan belgilangan ovqat normasi oshib ketishiga va mahkumlarni ahloqan buzilishiga olib kinishi mumkinligini, yaxshisi ushbu mablag'ni ozodlikdan mahrum qilish muassasasi hisobiga o'tkazishni taklif qildi.

Vaziyatda ozodlikdan mahrum qilish muassasasi ma'muriyatining harakatlari to'g'rimi?

4. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan va mehnatga jalb qilingan mahkum N. yillik mehnat tatiliga chiqishni so'rab murojaat qildi. Muassasa ma'muriyati bu talabni g'ayriqonuniy deb rad etdi.

Vaziyatda ma'muriyatning javobi to'g'rimi, fikringizni qonun hujjatlariga muvofiq asoslab bering.

**OZODLIKDAN MAHRUM ETISHGA HUKM QILINGAN
SHAXSLARGA NISBATAN QO'LLANILADIGAN
RAG'BATLANTIRISH VA INTIZOMIY JAZO
CHORALARI**


Rag'batlantirish choralari, ularning turlari va qo'llash tartibi. Intizomiy jazo choralari turlari, ularni qo'llash asoslari va tartibi. Mahkumlarni intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi. Jazoni qo'llash xususiyatlari. Jazoni o'tash tartibini qo'pol tarzda buzganlik uchun va saqlash rejimini ashaddiy buzuvchilar uchun javobgarlik choralari. Intizomiy jazo choralari qo'llovchi mansabdor shaxslar, intizomiy jazo ustidan shikoyat berish tartibi. Qo'llanilgan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari hisobini yuritish.

Rag'batlantirish choralari, ularning turlari va qo'llash tartibi

Rag'batlantirish choralari – mahkumlarning xulqi, mehnat va ta'limga vijdonan munosabati, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda faol ishtiroki boshqa ishchanlik obro'si inobatga olinib beriladigan yengillikdir.[Salaev N.S., Rasulev A.K. Jinoyat-ijroiya huquqi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot o'tkazish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Q.R.Abdurasulova. –T.: TDYI nashriyoti, 2013. - 320 b.]

Rag'batlantirish choralari jazoni ijro etish muassasa va organlari rahbariyatining mahkumga jazoni ijro etish davomida o'z majburiyatlarini va muassasa vakilining qonuniy talablarini bajarganligi uchun qonunga hamda boshqa nomartiv hujjatlarga asosan amalda beriladigan bahosidir. Berilgan baho ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Bunga qarab mahkum yo rag'batlantiriladi, yo unga nisbatan talab kuchaytiriladi. Mahkumning jinoyat-ijroiya qonuniga muvofiq baholanishi lozim bo'lgan xulqi uning mehnatga va o'qishga bo'lgan munosabati, muassasa ishlaridagi va

tarbiyaviy ishlardagi ishtirokiga qarab belgilanadi.



Rag'batlantirish choralari mahkumlarga ijobiy xulqi, mehnatga halol munosabatda bo'lishi, kasb-hunar o'rganishdagi yutuqlari, jazoni ijro etish muassasasining faoliyatidagi ishtiroki va tarbiyaviy ishlarini amalga oshirishdagi faolligi uchun qo'llaniladi. Rag'batlantirish yuqorida ta'kidlangan holatlarning barchasi uchun umumiy tarzda yoki alohida bittasi uchun ham qo'llanilishi mumkin.

Rag'batlantirish choralari Jinoyat-ijroiya kodeksining 102-moddasida belgilab berilgan va ular quyidagilardan iborat:

- tashakkur e'lon qilish;
- ilgari qo'llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash;
- yorliq, qimmatli sovg'a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash;
- qo'shimcha posilka, yo'qlov yoki banderol olishga ruxsat etish;
- qo'shimcha uchrashuv yoki telefon orqali so'zlashuv huquqi berish;
- oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish pul summasini ko'paytirish;
- yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish (manzil koloniyalarda saqlanayotgan shaxslar bundan mustasno).

Yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish tariqasidagi rag'batlantirish mahkumlarga ushbu Kodeks 75-moddasining uchinchi qismiga muvofiq qo'shimcha pul sarflash huquqini, shuningdek:

- umumiy, qattiq tartibli koloniyalarda va tarbiya koloniyalarida
- yil mobaynida qo'shimcha ravishda bir marta uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, bitta posilka yoki yo'qlov olish;
- maxsus tartibli koloniyalarda – kameralardan umumiy turarjoylarga o'tkazish hamda yil mobaynida qo'shimcha ravishda bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, bitta banderol olish;
- turmalarda – yil mobaynida qo'shimcha ravishda bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bitta posilka yoki yo'qlov olish huquqini beradi.

Rag'batlantirish choralarini shartli ravishda quyidagi **uch guruhga** ajratish mumkin:

- mahkumlarning saqlash sharoitini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lmagan rag'batlantirish choralari (tashakkur e'lon qilish, taqdirlash va h.k.);
- mahkumlarning saqlash sharoitini o'zgartirish bilan bog'liq rag'batlantirish choralari (engillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish);
- jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish yoki yengilrog'iga almashtirish bilan bog'liq rag'batlantirish choralari (muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, amnistiya yoki afv etish tariqasida ozod etish).[Ismailov I., Yuldashev M., Mirzaraimov I. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik. – Toshkent, 2010. – 148 b.]

Rag'batlantirish choralari mahkumning ijobiy hulqiga qarab belgilanadi. Mahkumning ijobiy, qonunga itoatkor xulqi deganda, u tomonidan muassasa tomonidan o'rnatilgan majburiyatlarining vijdonan bajarilishini, ish vaqtida va dam olish vaqtida belgilangan tartibga rioya qilishini, kun tartibiga rioya qilishini tushunish lozim. Mehnatga vijdonan munosabatda bo'lishda mahkum muassasa rahbariyati tomonidan

belgilangan joyda va ishlarda o'z xoxishi bilan ishlaydi; texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi talablarini bajaradi; ish joyini ozoda saqlaydi; ishlab chiqarish topshiriqlarini bajaradi; ish quroli, ishchi kiyimlarni asrab-avaylaydi; mehnat intizomiga qattiq rioya qiladi; o'z kasbiy mahoratini oshiradi yoki mutaxassislikka o'rganadi, jamoat ishlarini ish haqi to'lanmagan holda bajaradi.

Mahkumni rag'batlantirish uchun muassasa rahbariyatining unga bergan ijobiy bahosi asos bo'ladi. O'zining mahkumga nisbatan ahamiyati va huquqiy oqibatlariga qarab rag'batlantirish choralari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh rag'batlantirish choralariga mahkumni saqlash sharoitini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lmagan rag'batlantirishlar kiradi. Ushbu rag'batlantirishlarning o'ziga xosligi shundaki, u bir muassasa doirasida qo'llanadi. Mazkur choralarni qo'llash uchun muassasa rahbariyati mahkumning tuzalish yo'liga qat'iy o'tganligiga ishonch xosil qilgan bo'lishi lozim.

JIKning 103-moddasida mahkumlarning saqlash sharoitini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lmagan rag'batlantirish choralarini qo'llash tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra mahkumga nisbatan tashakkur tariqasidagi rag'batlantirish og'zaki yoki yozma, boshqa rag'batlantirish choralari esa, yozma ravishda qo'llaniladi.

Rag'batlantirish choralari ushbu JIK talablariga rioya etilgan holda qo'llaniladi.

Mahkumga nisbatan qo'llanilgan rag'batlantirish choralari haqida uning shaxsiy hujjatlar yig'majildiga tegishli yozuv kiritiladi.

Mahkumga rag'batlantirish tarzida yil mobaynida ko'pi bilan ikkita posilka, yo'qlov yoki banderol olishga, ikki marta uchrashuvga ruxsat berilishi mumkin.

Rag'batlantirish tarzida mahkumdan ilgari qo'llanilgan bitta intizomiy jazo muddatidan oldin olib tashlanishi mumkin.

Jazoni ijro etishning **muhim printsiplaridan** biri uni o'tash sharoitlarini o'zgartirish mumkinligi, mahkumning hulqi va mehnatga bo'lgan munosabatiga qarab huquqiy holatini o'zgartirishdir. Rag'batlantiruvchi yoki jazolovchi choralar mahkumga nisbatan bitta muassasa doirasida muassasa rahbari tomonidan yoki boshqa muassasaga rag'batlantiruvchi yoki jazolovchi chora sifatida o'tkazilishi mumkin. JIKning 104-moddasi ijobiy tavsifga ega bo'lgan mahkumlarni sharoitini o'zgartirish tartibini belgilaydi. Mahkumni saqlash sharoiti yaxshiroq bo'lgan joyga o'tkazishda ikkita mezonni hisobga olish lozim: mahkumning

namunali xulqi va jazoni ijro etish muassasasi turiga qarab jazoning ma'lum bir qismini o'taganligi. Bu jazoni ijro etishda jazoni ijro etishning differentsiatsiyalash va individuallik printsiplarini ta'minlaydi.

JIKning 104-moddasiga muvofiq yengillashtirilgan saqlash sharoitlariga intizomiy jazosi yo'q mahkumlar:

qasddan sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida olti oyini o'taganidan keyin;

sodir etilgan og'ir jinoyat uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida chorak qismini o'taganidan keyin;

sodir etilgan o'ta og'ir jinoyat uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o'taganidan keyin o'tkaziladi.

Mahkumlar turmadan jazoni ijro etish koloniyasiga va maxsus tartibli koloniyadan qattiq tartibli koloniyaga sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini o'taganlaridan keyin, Jinoyat-protsessual kodeksining 537-moddasida nazarda tutilgan tartibda o'tkaziladi.

Mahkumlar qattiq va umumiy tartibli koloniyadan manzil-koloniyaga JIK 113-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda o'tkaziladi.

Yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish tariqasidagi rag'batlantirish mahkumlarga JIK 75-moddasining uchinchi qismiga muvofiq qo'shimcha pul sarflash huquqini, shuningdek:

umumiy, qattiq tartibli koloniyalarda va tarbiya koloniyalarida — yil mobaynida qo'shimcha ravishda bir marta uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, bitta posilka yoki yo'qlov olish;

maxsus tartibli koloniyalarda — kameralardan umumiy turar joylarga o'tkazish hamda yil mobaynida qo'shimcha ravishda bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, bitta banderol olish;

turmalarda — yil mobaynida qo'shimcha ravishda bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bitta posilka yoki yo'qlov olish huquqini beradi.[O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2014 yil 29 dekabrda 174-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari". O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 31-son, 414-modda.]

Mahkum JIEM boshlig'ining qarori asosida yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi.


Tarbiya koloniyalarida mahkumlar umumiy rag'batlantirish choralaridan tashqari:

JIEM hududidan tashqarida o'tkaziladigan madaniy-tomosha va sport tadbirlarini ko'rishga yuborish;

qisqa muddatli uchrashuv o'rniga ota-onasi, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar yoki yaqin qarindoshlari kuzatuvida sakkiz soatgacha bo'lgan muddatga erkinlikka chiqarish;

hibsxonada bo'lish muddatini qisqartirish va undan muddatidan ilgari ozod qilish tariqasida rag'batlantirilishlari mumkin. Bunda mahkumni hibsxonada bo'lish muddatini qisqartirish yoki muddatidan ilgari ozod qilish JIEM boshlig'ining qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Intizomiy jazo choralari turlari, ularni qo'llash asoslari va tartibi



Bugungi kunda sud hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan mahkumlarning huquqiy holati, ya'ni maqomi konstitutsiyaviy, fuqarolik va maxsus huquqlar hamda majburiyatlar majmuidan iborat bo'lib, ularning tatbiq etilishi jazoni ijro etish tizimining nazariyasi va amaliyotidagi eng muhim masalalardan hisoblanadi. Chunki jazoni ijro etish muassasalarida mahkum maxsus huquqiy munosabatlarning sub'ektiga aylanishi va uning konstitutsiyaviy huquq hamda erkinliklari cheklanishi, ayni vaqtda, avval mavjud bo'lmagan yangi majburiyatlarning paydo bo'lishi bilan harakterlidir.

Jazoni ijro etishda mahkumlarga O'zbekiston fuqarolariga beriladigan huquq va erkinliklar kafolatlanadi. Ularning huquq va erkinliklari jinoyat-ijroiya qonunchiligida belgilanganidan ortiqcha darajada cheklanilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Jazo tizimidagi ozodlikdan mahrum qilish jazosi mahkumni majburan jamiyatdan batamom ajratgan holda saqlashdan iborat. Bunda mahkumga ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi xulq-atvor qoidalariga rioya etish majburiyati yuklatiladi hamda jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati tomonidan mahkumning ushbu qoidalarga bo'ysunishi doimiy va har tomonlama nazorat qilib turiladi.

Jazoni ijro etish muassasalarida tartibni saqlash maqsadida mahkumlarga nisbatan salbiy hulqli huquqbuzarlar uchun va shu bilan birga

boshqa mahkumlarning jazoni o'tash tartibini buzishlarini oldini olish uchun qator choralar qo'llanadi.

Mahkumlarni axloqan tuzatish, ularni halol mehnatga o'rgatish va jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib-qoidalariga bo'ysunishni ta'minlash uchun Jinoyat-ijroiya kodeksining 105-moddasida quyidagi intizomiy jazo choralari belgilangan:

ogohlantirish;

hayfsan;

engillashtirilgan saqlash sharoitini bekor qilish;

intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish;

saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi mahkumlarni manzil-koloniya-dan umumiy tartibli koloniyaga o'tkazish;

saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi mahkumlarni manzil-koloniya-dan umumiy yoki qattiq tartibli koloniyaga, qattiq tartibli koloniya-dan maxsus tartibli koloniyaga, koloniya-dan turmaga qaytarish.

Mahkumlar mehnat normalarini bajarmaganligi uchun, agar bu ishni rad etish yoki ishdan bo'yin tovlashning oqibati bo'lmasa, intizomiy javobgarlikka tortilmaydi.

Intizomiy jazo huquqbuzarlikning og'irligi va xususiyatiga mos bo'lishi kerak.

Bir vaqtning o'zida sodir etilgan bir nechta huquqbuzarlik uchun bitta intizomiy jazo qo'llaniladi. Bitta huquqbuzarlik uchun bir nechta intizomiy jazo qo'llash taqiqlanadi.

Intizomiy jazo yozma ravishda, huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab bir oy ichida beriladi.

Intizomiy jazoni qo'llash chog'ida huquqbuzarlik sodir etilgan holat, mahkumning xulq-atvori va shaxsiy xislatlari, olib tashlanmagan va bekor bo'lmagan intizomiy jazolari bor-yo'qligi inobatga olinadi.

Intizomiy jazo darhol ijro etiladi. Agar intizomiy jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir oy ichida ijro etilmagan bo'lsa, u ijroga qaratilmaydi.

Mahkumni intizomiy chora-ga tartishda muassasa rahbariyati uning shaxsini, jazoni o'tash davomidagi xulqini, sodir etilgan huquqbuzarlikning xususiyatini hisobga olishi lozim. O'rnatilgan rejimni buzish holatini baholashda mahkumning huquqbuzarlik sodir etishiga sabab bo'lgan holatni aniqlash lozim. Huquqbuzarlik holati bo'yicha muassasa tomonidan qilmishning barcha sabablarini, ishtirokchilarni va ularning aybliligini aniqlashi lozim.

Mahkumlarni intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi jazoni qo'llash xususiyatlari

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish muassasalarining intizomiy bo'linmalariga quyidagilar kiradi:

manzil-koloniya va tarbiya koloniyalarining hibsxonalari;

umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning hibsxonalari va kartserlari;

tergov hibsxonalarining va turmalarning kartserlari.

Mahkumlar hibsxonalar va kartserlarga **o'n besh sutkagacha**, tarbiya koloniyalarining hibsxonalariga esa, o'n sutkagacha bo'lgan muddatga kiritib qo'yiladi.

Jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzuvchi mahkumlar umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning kartserlariga olti oygacha, ayollar saqlanadigan koloniyalarda esa — **uch oygacha** bo'lgan muddatga o'tkazib qo'yiladi.

Hibsxonalarga kiritib qo'yilgan mahkumlarga uchrashuv, telefon orqali so'zlashuv, oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, posilka, yo'qlov va banderollar olish hamda jo'natish, xatlar va boshqa jo'natmalar yuborish taqiqlanadi. Ularga chekish, stolda o'ynaladigan o'yinlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi. Mahkumlarga o'zlari bilan birga sochiq, sovun, tish pastasi yoki poroshogi, tish cho'tkasi hamda boshqa shu kabi narsa va buyumlaridan tashqari, oziq-ovqat mahsulotlari, narsa va buyumlarini olib kirish taqiqlanadi.

Mahkumlar har kuni muddati bir yarim soatlik sayrdan foydalanish huquqiga ega.

Mahkumlar intizomiy bo'linmada bo'lgan muddatda JIEM ma'muriyati ularning oziq-ovqat mahsulotlari, narsa va buyumlarini saqlanishini ta'minlaydi. Bunda mahkumlarning oziq-ovqat mahsulotlari, narsa va buyumlari omborxonaga topshiriladi hamda jazo chorasi muddati tugaganidan keyin ularga qaytarib beriladi.

Mahkumlarning intizomiy bo'linmada uzoq muddat saqlanishi tufayli oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy ravishda o'z sifatini yo'qotganda tegishli dalolatnoma tuziladi va mahkumning roziligi bilan ular yo'q qilinadi.

Kartserlarda mahkumlarga uchrashuv, telefon orqali so'zlashuv, posilka, yo'qlov va banderollar olish hamda jo'natish, stolda o'ynaladigan o'yinlardan foydalanish taqiqlanadi.

Intizomiy bo'linmalarda saqlanayotgan mahkumlarga kitob, jurnal, gazeta va boshqa adabiyotlardan foydalanishga ruxsat beriladi. Bunda mahkumlarga ko'rpa-to'shak, yostiq va yostiq jildi uxlash vaqtida beriladi.

Intizomiy bo'linmalarda saqlanayotgan mahkumlarga faqat alohida hollarda telefon orqali so'zlashuvga ruxsat etilishi mumkin.

Umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning kartserlariga o'tkazilgan mahkumlar quyidagi huquqlarga ega:

oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun belgilangan eng kam ish haqi miqdorining yetmish besh foizigacha pul sarflash;

har kuni muddati ikki soatlik sayrdan foydalanish.

Maxsus tartibli koloniyalarning, tergov hibsonalari va turmalarning kartserlarida mahkumlarni yakka saqlash belgilanadi.

Umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning kartserlariga kiritib qo'yilgan mahkumlarga eng zarur narsalar, tamaki mahsulotlari va gugurt olib kirishga, shuningdek o'zlarining yonida darsliklar, oddiy qalamlar, qora, ko'k, binafsha rangli ruchka va sterjenlar, daftarlar, pochta markalari, otkritkalar, konvertlar bo'lishiga ruxsat etiladi. Ular belgilangan tartibda kutubxona va undagi kitob, jurnal va gazetalardan foydalanishi mumkin.

Mahkumlarni intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish va o'tkazish JIEM boshlig'ining jazo muddati ko'rsatilgan qarori asosida hamda tibbiy ruxsatnoma bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Mahkumni intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish to'g'risidagi qaror qabul qilishdan oldin rejim buzilishi bilan bog'liq barcha holatlar batafsil o'rganilishi shart.

Mahkum intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish to'g'risidagi qaror bilan unga imzo qo'ydirish orqali tanishtiriladi, mahkum imzo qo'yishdan bo'yin tovlagan taqdirda, bu haqda dalolatnoma tuziladi.

Mahkum tezkor navbatchi rahbarligida intizomiy bo'linma bo'yicha nazoratchilar tomonidan intizomiy bo'linmaga qabul qilinadi.

Intizomiy bo'linmada saqlash muddati tugagandan so'ng, mazkur qaror mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildiga qo'shib qo'yiladi.

Mahkumlar intizomiy bo'linmalardan davolash-profilaktika muassasalariga o'tkazilgan taqdirda ular davolash-profilaktika muassasalarida bo'lgan vaqt jazoni o'tash muddatiga qo'shib hisoblanadi.

Intizomiy bo'linmalarga:

I guruh nogironlari;

homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod etilgan, shuningdek yonida emizikli bolasi bor ayollar kiritilmaydi.

Intizomiy bo'linmalarda saqlanayotgan mahkumlar mehnatga jalb etilmaydi.

JIEM ma'muriyati intizomiy bo'linmada saqlanayotgan mahkumlarni borib ko'rishlari va ularni saqlash sharoitlarini tekshirishlari, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilishlari va mahkumlarning shikoyat va arizalarini hal etishga doir choralar ko'rishlari hamda bu haqda maxsus daftarda qayd etib borishlari shart.

Intizomiy bo'linmada saqlanayotgan mahkumlarning hisobi mazkur belgilangan shakldagi daftarda qayd etib boriladi.

Jazoni ijro etish muassasalarining intizomiy bo'linmalariga: manzil-koloniya va tarbiya koloniyalarining hibsxonalari; umumiy, qattiq, maxsus tartibli koloniyalarning hibsxonalari va kartserlari; tergov hibsxonalari va turmalarning kartserlari kiradi.

Hibsxonalar – jazo o'tovchilar, jazo o'tash rejimini buzgan vaqtda kiritib qo'yiladigan maxsus jihozlangan xona.

Kartser – bu bir kishilik kamera hisoblanib, mahkumga nisbatan boshqa ta'sir choralari qo'llash ijobiy natija bermagan hollarda, uni umumiy, qattiq va maxsus tartibli koloniyalarning kartserlaridagi bir kishilik kameraga o'tkazish joyi hisoblanadi. Bir kishilik kamerada erkak mahkumlarni olti oyga qadar, ayol mahkumalarni uch oygacha saqlash belgilangan. Bir kishilik kamerada saqlanayotgan mahkumlarga uchrashuvlar, telefon so'zlashuvlari, posilka yoki yo'qlov, banderollar olish hamda jo'natish, stolda o'ynaladigan o'yinlardan foydalanish taqiqlanadi. Maxsus qamoq uylari va turmalarda ham alohida hollarda mahkumni batamom ajratib qo'yilishini ta'minlash maqsadida muassasa boshlig'ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori asosida bir kishilik kamerada saqlashga yo'l qo'yiladi.

Jazoni o'tash tartibini qo'pol tarzda buzganlik uchun va saqlash rejimini ashaddiy buzuvchilar uchun javobgarlik choralari

Jazoni o'tash tartibini qo'pol tarzda buzish tushunchasi JIKning 111-moddasida berilgan bo'lib, jazoni o'tash tartibini qo'pol tarzda buzish – ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda ko'rsatilgan huquqbuzarlikni sodir etish, shuningdek ichki tartib qoidalarida taqiqlangan buyumlar va narsalarni saqlash, tarqatish, iste'mol qilish va ulardan foydalanish *jazoni*

o'tash tartibini qo'pol tarzda buzish deb hisoblanadi. Shuningdek, mahkumning jazoni ijro etish muassasasi hududini yoki ma'muriyat yo'llanmasi bilan bo'lishi kerak bo'lgan boshqa joyni o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi ham manzil-koloniya jazoni *o'tash tartibini qo'pol tarzda buzish* deb hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik deganda qonun hujjatlariga binoan ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, shaxsga, fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, mulkchilikka, davlat va jamoat tartibiga, tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g'ayrihuquqiy, aybli (qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik tushuniladi (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 10-moddasi). Huquqbuzarlik uchun ma'muriy javobgarlik, basharti bu huquqbuzarlik o'z xususiyatiga ko'ra jinoiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lmagan taqdirda, amalga oshiriladi.

Odatda giyohvand moddalar iste'mol qilish, mayda bezorilik, jazoni ijro etish muassasa vakillari buyrug'iga buysunmaslik, ularga tahdid qilish yoki haqorat qilish, ish tashlashni tashkil etish, ommaviy buysunmaslik va ularda faol qatnashish kabi harakatlar jazoni *o'tash tartibini qo'pol tarzda buzish* hisoblanadi.

Shuningdek, mahkumning muqaddam jazoni *o'tash tartibini* ikki yoki undan ortiq marotaba *qo'pol tarzda* buzganligi va ularning har biri uchun intizomiy bo'linmaga joylashtirilganligi ham jazoni *o'tash tartibini qo'pol tarzda* buzish sanaladi.

Giyohvandlik yoki boshqa psixotrop moddalarni imte'mol qilish boshqa holatlar kabi tibbiy xodim ishtirokida tegishli hujjat tuzish yo'li bilan tasdiqlanishi lozim. Giyohvand moddalar ro'yxati (shu jumladan, tabiiy va sintetik giyohvand moddalar va giyohvand dorilar) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi giyohvand moddalarni nazorat qilish bo'yicha komissiya tomonidan belgilanadi.

Mayda bezorilik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 183-moddasida, jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalarini qasddan mensimaslik sifatida o'z aksini topgan.

Tahdid deganda, mahkum yoki bir guruh mahkumlarning muassasa ma'muriyatiga yoki mulkiga jismoniy zarar yetkazish to'g'risidagi tahdid tushuniladi.

Ma'muriyat vakiliga buysunmaslik mahkumlarning ularning bir necha marotaba takrorlangan qonuniy talablariga qasddan rioya etmasligi tushuniladi.

Ma'muriyat vakilini haqorat qilish deganda, ushbu shaxslarning mavqeini yerga uruvchi, sha'n va qadr-qimmatini tahqirlovchi har qanday harakatlar tushuniladi.

Saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi tushunchasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 112-moddasida berilgan bo'lib, unga muvofiq jazoni o'tash tartibini kamida ikki marta qo'pol tarzda buzgan va buning uchun intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tariqasidagi jazoga tortilgan mahkum, agar har bir intizomiy jazo belgilangan tartibda olib tashlanmagan yoki bekor bo'lmagan bo'lsa, saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb hisoblanadi. Jazoni ijro etish muassasasi hududini yoki ma'muriyat yo'llanmasi bilan bo'lishi kerak bo'lgan boshqa joyni o'zboshimchalik bilan yigirma to'rt soatdan ko'proq muhlat mobaynida tashlab ketgan mahkum ham manzil-koloniya saqlash rejimini ashaddiy buzuvchi deb topiladi. Rejimni ashaddiy buzuvchi yengillashtirilgan saqlash sharoitiga, manzil-koloniya o'tkazilmaydi, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish hamda jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga taqdim etilmaydi.

Intizomiy jazo choralarini qo'llovchi mansabdor shaxslar, intizomiy jazo ustidan shikoyat berish tartibi

Rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini qo'llovchi mansabdor shaxslar – bo'lib rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini qo'llash huquqiga jazoni ijro etish muassasalari boshliqlari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar hisoblanadi.

Jazoni ijro etish muassasasi boshlig'i JIKning 102-, 105-moddalarida ko'zda tutilgan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini to'la hajmda qo'llashga haqli. Umumiy qoidaga ko'ra, jazoni ijro etish muassasasi boshlig'ining o'rnini bosuvchi shaxslar deyilganda, o'z vazifasi va maqomi bo'yicha ushbu muassasa boshlig'ining o'rinbosarlari bo'lgan yoki unga tenglashtirilgan shaxslar tushuniladi. Biroq ular mahkumlarga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini faqatgina quyidagi holatlarda qo'llashlari mumkin: muassasa boshlig'i bo'lmaganda, uning vazifasini bajarish vakolat doirasiga kirishi kerak; IIV yoki tegishli IIBning yuqori turuvchi rahbariyati bilan kelishgan holda, muassasa rahbarining (kasalligi

tufayli yoki ta'tilga chiqishi munosabati bilan) o'z majburiyatlarini o'rinbosariga topshirish to'g'risidagi yozma xati bo'lishi lozim.

Jazoni ijro etish muassasasi boshlig'ining bo'lmagan taqdirda ularning o'rinbosarlari koloniya boshlig'i navbatchi yordamchisi vazifasini bajarayotib mahkumlarni vaqtinchalik intizomiy bo'linmaga joylashtirishga haqli. Ichki tartib qoidalarga muvofiq, koloniya boshlig'i navbatchi yordamchisi mahkumlarni vaqtinchalik intizomiy bo'linmaga joylashtirish huquqidan quyidagi holatlarda foydalanishga haqli:

- favqulodda vaziyatlarda, boshqacha yo'l bilan jinoyatning yoki muassasa tartibini qo'pol tarzda buzishning oldini olishning iloji bo'lmasa;

- mahkum shaxsi xavfsizligiga jiddiy va real tahdid yuzaga kelganda (JIK 11-moddasiga muvofiq). Har ikkala holatda ham koloniya boshlig'i navbatchi yordamchisi mahkumlarni vaqtinchalik intizomiy bo'linmaga joylashtirish to'g'risida asoslantirilgan qaror chiqaradi. Muassasa boshlig'i kelgunga qadar mahkumni vaqtingcha intizomiy bo'linmada ushlab turish muddati 24 soatdan oshmasligi lozim. Jazoni ijro etish muassasasining boshqa barcha mansabdor shaxslari mahkumlarga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini qo'llash huquqiga ega emaslar.

Intizomiy jazo ustidan shikoyat berish tartibi – mahkum o'ziga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazoning adolatsiz yoki g'ayriqonuniyligi yuzasidan yuqori turuvchi mansabdor shaxsga, prokurorga yoki sudga shikoyat qilishga haqli. Shikoyat berilishi intizomiy jazo ijrosini to'xtatib qo'yishga asos bo'lmaydi. Yuqori mansabdor shaxs, prokuror yoki sud intizomiy jazoni yumshatish yoki bekor qilish huquqiga ega.


Mahkumlarning shikoyatlari qoidaga ko'ra, yozma shaklda taqdim etiladi. Mahkumning yuqori turuvchi mansabdor shaxs, prokuror yoki sudga yo'llagan shikoyati jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati orqali yuboriladi. Bunday shikoyatlarga ma'muriyat odatda arizachiga oid qisqacha ma'lumotlar, shuningdek, shikoyatda ko'rsatilgan muammo qachon va qay tartibda hal etilganligi to'g'risidagi axborotni ilova qiladilar.

Mahkumning o'ziga nisbatan intizomiy jazo, masalan, intizomiy bo'linmaga joylashtirish ko'rinishidagi jazo chorasini qo'llanilganligi ustidan yuqori turuvchi mansabdor shaxsga, prokurorga yoki sudga shikoyat qilishi intizomiy jazoning ijrosini to'xtatib qo'ymaydi.

Intizomiy jazo ustidan shikoyat qilish amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Bunda shikoyat yo'llangan vakolatli davlat organi yoki mansabdor shaxs intizomiy jazo chorasini o'zgartirishi, yengillashtirishi yoki o'z kuchida qoldirishi mumkin.

Intizomiy jazoning amal qilish muddati – jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yildan oshmasligi kerak. Agar intizomiy jazo qo'llanilgan kundan boshlab bir yil mobaynida mahkum yangi intizomiy jazoga tortilmasa, unga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo olib tashlanadi va u intizomiy jazo olmagan deb hisoblanadi.

Qo'llanilgan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari hisobini yuritish



Rag'batlantirish yoki intizomiy jazo chorasini qo'llash bo'yicha qarordan ko'chirma mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildiga qo'shib qo'yiladi.

Og'zaki tashakkur e'lon qilish tarzidagi rag'batlantirish chorasini mahkum bilan yakka tartibda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar daftarida qayd etiladi hamda mahkumning axloqan tuzalish darajasini aniqlashda e'tiborga olinishi shart.

Turkum bo'yicha qo'llanilgan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari hisobi turkum boshliqlari, JIEM bo'yicha esa JIEM boshlig'ining tartibot va tarbiyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosari tomonidan yuritiladi.

Qo'llanilgan intizomiy jazo chorasini rag'batlantirish tarzida olib tashlash yilda bir marta, agar mahkum qo'llanilgan jazoning amal qilish

muddatida yangi intizomiy jazo chorasiga tortilmagan bo'lsa, quyidagicha amalga oshiriladi:

ogohlantirish, hayfsan, yengillashtirilgan saqlash sharoitini bekor qilish tarzidagi jazo chorasi qo'llanilgan kundan boshlab uch oy o'tgandan so'ng;

intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish tarzidagi jazo chorasi qo'llanilgan kundan boshlab olti oy o'tgandan so'ng.

Nazorat uchun savollar:

1. Rag'batlantirish choralari va ularning turlari, qo'llash asoslari hamda, mahkumlarni saqlash sharoitini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan rag'batlantirish choralari qo'llash tartibi belgilangan.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu tartibni muhokama eting.

2. Mahkumlar mehnat normalarini bajarmaganligi uchun, agar bu ishni rad etish yoki ishdan bo'yin tovlashning oqibati bo'lmasa, intizomiy javobgarlikka tortilmaydi.

Mahkumlarni intizomiy javobgarlikka tortishning normativ-huquqiy asoslarini tahlil eting.

3. A. ismli mahkumga jamoat ishidagi faolligi va mehnatga halol munosabati uchun intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash shaklidagi rag'batlantirish chorasi qo'llanildi. Unga intizomiy jazo 2010 yil 1 mayda qo'llanilgan edi. Rag'batlantirish chorasi esa 2010 yil 1 iyulda qo'llanilgan.

Rag'batlantirish chorasini qo'llash tartibini tushuntiring, o'z fikringizni qonun hujjatlari asosida asoslab bering.

4. G.ismli mahkumga muntazam jazoni ijro etish koloniyasi tartib qoidasini buzganligi uchun unga nisbatan ikki kun davomida kamaytirilgan tarzda oziq ovqat berilishi to'g'risida buyruq chiqarildi.

Ushbu holatni o'rganing va unda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlang.

KOLONIYALAR VA TURMALARDA JAZONI O'TASH

Koloniyalarda jazoni o'tash tushunchasi va asoslari. Manzil-koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari. Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari. Qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari. Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari. Turmalarda jazoni ijro etish tartibi. Tarbiya-koloniyaalarda jazoni o'tash xususiyatlari. Ayrim toifadagi mahkumlar tomonidan jazoni o'tashning o'ziga xos xususiyatlari.

Koloniya va turmalarda jazoni o'tash tushunchasi va asoslari

Koloniya va turmalarda jazoni o'tash tushunchasining alohida ta'rifini jinoyat-ijroiya qonunchiligida berilmagan. Shuningdek, bu xususda darsliklarda ham aniq bir ta'rif keltirilmagan.

Jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunlari normalariga asoslangan holda, koloniya va turmalarda jazoni o'tash tushunchasiga ta'rif berish mumkin.

Koloniya va turmalarda jazoni o'tash deganda, sud tomonidan jazo tayinlangan shaxsni JIKda belgilangan tartib qoidalarga muvofiq, jazoni ijro etishning maqsad va vazifalari, shakli, mahkumlar bilan ishlash usullari, mahkumga bo'lgan talabni belgilaydigan, ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tegishli koloniya va turmada o'tash tartibi tushuniladi.

Koloniya va turmalarda jazoni o'tashning huquqiy asoslari 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi hamda 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan Jinoyat-ijroiya kodeksida belgilangan. Shuningdek, 2012 yil 29 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 174-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 2495, 2013 yil 29 iyul) bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari ham koloniya va turmalardagi jazoni o'tashning tartib-qoidalarni o'zida aks ettirgan [O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 31-son, 414-modda].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 50-moddasi va Jinoyat-ijroiya kodeksining 45-moddasida jazoni ijro etish koloniyalarining 4 ta turi ko'rsatilgan bo'lib, ular:

- manzil-koloniyalari;
- umumiy tartibli koloniyalar;
- qattiq tartibli koloniyalar;
- maxsus tartibli koloniyalar.

Jazoni ijro etish koloniyalarining turlariga qarab u yerlardagi sharoitlari ham bir-biridan farqlanadi. Bunday farqlanishga asosan, sud mahkumning shaxsi, ijtimoiy xavfliligi, jinoyati og'irligi masalalariga to'g'ri baho berish imkoniyati yaratilgan. Jumladan, manzil koloniyasida saqlanayotganlarning sharoiti ozod shaxslar hayotiga juda yaqinlashtirilgan bo'lsa, maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar harbiy qismlarning nazorat tarkibi nazoratchilari va muassasaning turma ko'rinishidagi nazorati ostida kamera tipidagi koloniyasida saqlanishi nazarda tutiladi. Koloniyalarning bunday farqlanishi mahkumlarni ahloqan tuzatish va ularni to'g'ri yo'lga o'rgatish uchun yaratilgan tizim hisoblanadi.


Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan erkaklar JKning 50-moddasida belgilangan tartibda yuqorida qayd etilgan barcha turdagi jazoni ijro etish koloniyalariga, ayollar esa, faqat manzil-koloniyalar, umumiy tartibli koloniyalar, qattiq tartibli koloniyalarga jazoni o'tash uchun yuborilishi mumkin. Boshqacha aytganda, ayollarga nisbatan maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tayinlanmaydi.

O'zbekiston Respublikasida barcha jazoni ijro etish koloniyalari mahkumlar qo'riqlov va nazorat ostida saqlanadigan yopiq turdagi (umumiy, qattiq va maxsus tartibli) koloniyalardan iborat.

“Mamlakatimizdagi ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo ijro etish muassasalari tarkibida jazoni ijro etish koloniyalari nisbatan ko'proq bo'lib, uning tarkibida manzil-koloniyalari 56,8 %ni tashkil qiladi. 2012 yilgacha bo'lgan holatga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jazoni ijro etish Bosh boshqarmasi tizimiga kiruvchi muassasalar tizimiga kiruvchi muassasalarning asosiy qismini (77,2%ni) jazoni ijro etish koloniyalari tashkil etadi. Bu borada tarbiya koloniyalarning hissasi – 1,3%, turmalarning hissasi – 1,3%, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va xo'jalik xizmatiga oid ishlarni bajarish uchun qoldirilgan mahkumlarga nisbatan jazoni ijro etish muassasalari hisoblangan tergov hibsonalarning hissasi – 20,2 %ni tashkil etadi. Jazoni ijro etish koloniyalari tizimida esa, manzil-koloniyalar – 58,9 %, umumiy tartibli koloniyalar – 23,1 %, qattiq

tartibli koloniyalar – 14,3 %, maxsus tartibli koloniyalar – 3,7 %ni tashkil etadi” [Jinoyat-ijroiya huquqi. Ma’ruzalar kursi. / Z.S.Zaripov, Ch.A.Sattarov, Yu.S.Pulatov va boshq. – Toshkent: Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti, 2013. – B. 269-270].

Manzil-koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" nomli ma'ruzasida, mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir" deb ta'kidlaganlar [Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – B.24]. Mazkur demokratlashtirish hamda liberallashtirish jarayonida, albatta, ozodlikdan mahrum etish joylarida – koloniya va turmalarmalarda saqlanayotgan shaxslar huquqlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, davlatimizda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, mahkumlarning huquqlari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi.

"Bugungi kunda jinoiy jazolar va penitentsiar siyosatidagi liberallashtirish jarayoni jinoiy jazo tayinlash va ularni ijro etish tizimida samarali natijalarga olib kelmoqda. Jamiyatda kishilar o'rtasida ishonch, totuvlik, adolatparvarlik, kechirimlilik va qonunga hurmat ruhini

mustahkamlab, minglab kishilar taqdirida ijobiy mazmun kasb etib, ularning jamiyatdan, o'z oilasidan ajralmagan holda tuzalishiga, axloqan poklanishiga imkon yaratilmoqda. Sudlar tomonidan shaxsni jamiyatdan batamom ajratish bilan bog'liq bo'lmagan jinoiy jazolar bilan bir qatorda ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni manzil-koloniylarida o'tashga tayinlash amaliyoti ham yildan-yilga ko'paymoqda" [Jinoyat-ijroiya huquqi. Ma'ruzalar kursi. / Z.S.Zaripov, Ch.A.Sattarov, Yu.S.Pulatov va boshq. – Toshkent: Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti, 2013. – B. 271].

“Ma'lumki, manzil-koloniylar respublikamizda 1963 yil iyul oyida tashkil etilgan va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. O'sha paytda o'zini ijobiy xulq-atvori bilan ko'rsata boshlagan va axloqan tuzalish yo'liga qat'iy kirgan mahkumlarga nisbatan rag'batlantirish tariqasida yopiq shakldagi jazoni ijro etish koloniylaridan yarim ochiq shakldagi manzil-koloniylarga o'tkazish qo'llanila boshlandi. Shundan so'ng, manzil-koloniylarning quyidagi turlari joriy etilgan:

- axloqan tuzalish yo'liga qat'iy kirgan va sud tomonidan umumiy, kuchaytirilgan va qattiq tartibli koloniylardan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniylar;

- ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan va besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniylar;

- qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniylar” [Ismailov I., Yuldashev M., Mirzaraimov I. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik. / yu.f.d., prof. A.S.Yakubovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – B. 108].

O'zbekiston Respublikasi JIK 46-moddasiga muvofiq, respublikamizdagi manzil-koloniylar quyidagi ikki turga ajratiladi:


- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun shuningdek qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniylar;

- umumiy, qattiq tartibli koloniylardan, shuningdek tarbiya koloniylaridan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadigan manzil-koloniylar.

Manzil-koloniylarning asosiy xususiyati shundaki, mahkumni qayta tarbiyalash nisbatan yengilroq sharoitlarda amalga oshiriladi.

Mahkumlarning jazoni o'tash tartibi JIKning 113-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, manzil-koloniyalarda:

- mazkur muassasalarga sud hukmiga binoan kelgan voyaga yetgan mahkumlar;
- umumiy, qattiq tartibli koloniyalardan va tarbiya koloniyalaridan sudning ajrimi asosida o'tkazilgan voyaga yetgan mahkumlar;
- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyati, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyati uchun va qasddan sodir etgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish tarzida sudning ajrimi asosida yuborilgan voyaga yetgan mahkumlar jazoni o'taydi.



Manzil-koloniyalarga ijobiy tavsifga ega va:

- og'ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rtdan bir qismini o'tagan mahkumlar;
- o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan va jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan

yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o'tagan mahkumlar o'tkaziladi.

Shu bilan birga manzil-koloniyalarga o'tkazilishi mumkin bo'lmagan shaxslar ham bo'lib, ular:

- o'ta xavfli retsdivistlar;
- uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar;
- yuqumli kasalliklarga chalingan bemorlar;
- majburiy davolanishdan o'tayotgan mahkumlar;
- mehnatga qobiliyatsiz mahkumlar.

Manzil-koloniya mahkum erkaklar va ayollar bitta saqlanishi mumkin. Bu holatni manzil koloniyasining o'ziga xos xususiyati sifatida e'tirof etish mumkin. Shuningdek, respublikamizdagi manzil-koloniyalarda mahkumlar tomonidan turli xildagi qiziqish doirasiga ko'ra to'garaklar mavjud bo'lib, bu mahkumlarni ma'naviy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Mahkumlarning huquqiy holatlari va imtiyozlari.

Mahkumlar huquqiy holati – bu jazoni ijro etishda vujudga keladigan jazoning turi, maqsadi va mahkumning xulqi bilan bog'liq bo'lgan asosiy fuqarolik huquq va majburiyatlar yig'indisidan iborat.

Hozirgi kunda mahkumlarning huquqiy holati va ularning asosiy huquq va majburiyatlari qonun osti normativ hujjatlarda emas, balki qonun darajasida mustahkamlangan. Mahkumlar huquqiy holatining qonun darajasida belgilab olinishi alohida ahamiyatga ega. Masalan, birinchidan, mahkumlik holatini qonun darajasida belgilanishini ta'minlasa, ikkinchidan, ularning manfaatlarini himoya qilish uchun zarur hisoblanadi, uchinchidan esa, qonun ustuvorligini kafolatlashda muhim ahamiyatga ega.

Mahkumlar huquqiy holatining belgilanishi siyosiy va axloqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega, jumladan, siyosiy jihatdan jamiyat va davlatning mahkumga bo'lgan munosabatini anglatadi. Chunonchi, mahkumning huquqiy holati jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy tuzumiga bog'liq bo'lgan jazoning maqsadi bilan belgilanadi. Mahkumlar huquqiy holatining qonun darajasida belgilanishining amaliy ahamiyati jazoning maqsadini amalga oshirishning usul va vositalarini anglatadi. Shuning uchun ham mahkumlar

huquqiy holatlarining siyosiy va amaliy ahamiyati bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Mahkumlar, JIK va boshqa qonunlarda belgilangan istisno hamda cheklashlar inobatga olingan holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun nazarda tutilgan huquqlar, erkinliklarga ega bo'ladilar va majburiyatlarni bajaradilar. Mahkum ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan huquqlar, erkinliklarga ega bo'lishlari va majburiyatlarni bajarishlari mumkin. Mahkumlarning huquqlari va majburiyatlari muayyan jazo turini ijro etish tartibi va shartlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Manzil-koloniylarida jazoni o'tayotgan mahkumlar JIKning 9-moddasida belgilab qo'yilgan huquqlardan foydalanadilar.

Manzil-koloniylarda jazoni o'tashning alohida qoidalariga muvofiq, mahkumlar quyidagi huquqlarga ega:

- soqchisiz, ammo nazorat ostida yurish;
- ertalab o'rindan turishdan kechki yotishgacha bo'lgan vaqt mobaynida koloniya hududi doirasida erkin yurish;
- agar ular bajarayotgan ish yoki olayotgan ta'lim taqozo etsa, ma'muriyatning ruxsati bilan koloniya hududidan tashqarida nazoratsiz yurish;
- fuqarolar kiyadigan kiyimda yurish;
- yonlarida pul va qimmatli buyumlar saqlashlari, puldan cheklanmagan holda foydalanish;
- cheklanmagan miqdorda telefon orqali so'zlashishlari, posilka, yo'qlov va banderollar olish hamda jo'natish.
- cheklanmagan miqdorda uchrashuv olish.
- Uchrashuvlar, odatda, ishdan bo'sh vaqtda beriladi. Uchrashuv mahkumning iltimosiga binoan manzil-koloniya hududidan tashqarida o'tkazilishi mumkin.
- Mahkumlar xonalarga bo'lingan yotoqxonalarda yashaydilar. Saqlash rejimini buzmagani, oilasi bor mahkumlarga muassasa boshlig'i qaroriga binoan manzil-koloniya hududida yoki undan tashqarida oilasi bilan alohida yashashga ruxsat berilishi mumkin. Bunday shaxslar ichki tartib qoidalarida belgilab qo'yilgan tartibda ro'yxatdan o'tish uchun hozir bo'lishlari shart. Manzil-koloniya ma'muriyatining vakili mahkumlar yashayotgan joyga sutkaning istalgan vaqtida kirishi mumkin.

Respublikamiz hududidagi manzil-koloniylarda ma'muriyat istagi bilan mahkumlarning kiyim-kechaklari, buyumlari tekshirilishi mumkin

bo'lib, har oy bir martadan manzil-koloniya hududidagi xonalar nazorat tekshiruvdan o'tkaziladi. Bu tekshiruvning asosiy maqsadi, mahkumlar tomonidan uyushtirilishi mumkin bo'lgan turli xildagi noxush holatlar, masalan, ommaviy ravishda muassasadan qochish, koloniya xodimlarining hayotiga tajovuz qilish, oldini olish bo'lib hisoblanadi. Manzil-koloniya aholi yashash joylaridan uzoq bo'lgan hududlarda barpo etiladi. Har bir mahkum belgilangan ro'yxat kartochkasiga ega bo'lib, ma'muriyat ruxsatisiz koloniya hududini tark etishi man etilgan. Turli xil oilaviy sabablarga ko'ra mahkumlarga ma'muriyat tomonidan qisqa muddatli ruxsat berilishi mumkin.

Jazoni o'tayotgan mahkumlar ularning jazosi qanday bo'lmasin o'z majburiyatlarini bajaradilar, qonunda belgilangan doirada sud hukmida belgilangan tartib bilan bog'liq bo'lgan holatlarda belgilanadigan huquqlardan foydalana oladilar. Buning mazmuni shundaki, jazoning turi va mazmunidan kelib chiqqan holda mahkum asosiy huquq va majburiyatlaridan hamda jamiyat a'zolidan mahrum etilmaydi. Ularda huquq layoqati, muomala layoqati va fuqarolik huquqiy munosabatlarining sub'ekti bo'lib qolish huquqi saqlanib qolinadi. Ammo mahkumlar huquqiy holati boshqa fuqarolarning huquqiy holatidan farq qiladi. Bu farq mahkumga jazo qo'llash, ruhiy va moddiy iztirob keltirish bilan belgilanadi. Bunda mahkumga yetkaziladigan iztirob ma'lum huquqiy cheklashlar, ya'ni boshqa fuqarolarga nisbatan farqli bo'lgan sharoitdagi huquqiy holatda belgilanishidir.

Shu bilan birga, mahkumlarning asosiy majburiyatlari ham belgilab qo'yilgan bo'lib, JIKning 13-moddasiga ko'ra, mahkumlar jazoni o'tash tartibi va shartlariga rioya etishga, jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyatining qonunga asoslangan talablarini bajarishga majburdirlar. Mahkumlarning o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarmasligi qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Manzil-koloniyalardagi mahkumlar uchun quyidagilar taqiqlangan:

– muassasa hududini o'zboshimchalik bilan tark etish, koloniya hududidan tashqarida yashashga ruxsat etilgan shaxslarga esa yuqori instantsiya buyrug'i bilan belgilab qo'yilgan hudud chegarasini buzish;

– har qanday o'qotar qurol, o'q-dori, portlatuvchi, tez alangalanuvchi va zaharli moddalarni, harbiy kiyim-kechak shuningdek transport vositalari, chet el valyutasini olish va saqlash hamda ulardan foydalanish;

– giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarni tayyorlash, iste'mol qilish, saqlash, tarqatish;

– kechki yotishdan ertalab o'rindan turishgacha bo'lgan vaqt mobaynida koloniya hududida yurish, kun tartibida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Manzil-koloniya'dagi mahkumlar quyidagilarga majbur: har kuni, oilasi bilan birga yashaydigan shaxslar esa haftada bir marta kun tartibida belgilangan vaqtda koloniya boshlig'ining navbatchi yordamchisi yoki turkum boshlig'i huzurida qayd etish uchun hozir bo'lish.

Mahkumlarga rag'batlantirish choralari qo'llashga mahkumning ijobiy xulqi asos bo'ladi. JIKning mazkur normasida rag'batlantirish choralarining turlari sanab o'tilgan, lekin qanday holatlarda qo'llanishi belgilanmagan. Ma'muriyat bu masalani mahkumning bevosita ijobiy xulqini inobatga olgan holda hal qiladi. Tashakkur e'lon qilish ham og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi mumkin. Qolgan choralar esa faqat yozma ravishda amalga oshiriladi. Og'zaki ravishda tashakkur ham boshqa rag'batlantirish choralaridek mahkumning shaxsiy xulq atvor daftariga kiritiladi.

Manzil-koloniyalarda mahkumlarning mehnati, ta'limi. Jinoyat-ijroiya kodeksining 115-moddasida manzil-koloniyalarda mahkumlar mehnati va ta'limini tartibga soluvchi normalar belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur normaga ko'ra, manzil-koloniyalarda mahkumlar mehnati JIKda belgilab qo'yilgan istisno va cheklashlarni hisobga olgan holda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Mahkumlarni boshqa ishga o'tkazishni korxona, muassasa yoki tashkilot manzil-koloniya ma'muriyati bilan kelishgan holda amalga oshiradi.

Manzil-koloniya'dagi mahkumlarni mehnatga jalb etishning xususiyatlari: jazoni manzil-koloniyalarda o'tayotgan mahkumlar shu muassasalarning korxonalaridagi, mahkumlarning xulq-atvori ustidan puxta nazorat ta'minlangan taqdirda, boshqa vazirliklar va idoralarning ishlab chiqarish ob'ektlaridagi, yuridik shaxs bo'lmish fermer xo'jaliklari va boshqa tashkilotlardagi mehnatga jalb etiladilar.

Manzil-koloniya hududidan tashqaridagi mehnatga mahkumlarni jalb etish ularning har kuni muassasaga qaytishlari ta'minlangan taqdirdagina amalga oshiriladi.

Mahkumlarga muassasa joylashgan yerdagi oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida sirtidan o'qishga ruxsat etiladi.

Respublikamizda mehnat to'g'risidagi qonunchilik hujjalari barcha shaxslar uchun bir xil harakatda bo'ladi, istisno sifatida manzil-koloniya'dagi mahkumlarga ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish va boshqa ishga o'tkazish qoidalari qo'llanilmaydi. Muassasa ma'muriyati har bir mahkumni o'z kasb faoliyati, hunari va mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtiradi. Eng ahamiyatli jihati ham shundaki, manzil-koloniya

ko'chiriluvchi mahkumlar albatta biror bir kasb-hunarga ega bo'lishi lozim. Manzil-koloniya ma'muriyati mahkumni boshqa mutaxassislik bo'yicha ishga o'qitib, uni ishga joylashtirish huquqiga ega.

Mahkumlar odatda, muassasa ichidagi xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadi, ba'zi hollarda istisno sifatida ma'muriyat ruxsati bilan mahkum boshqa korxonalarda ham o'z mutaxassisligi bo'yicha shartnoma asosida boshqa hududda, boshqa ishga o'tkazilishi mumkin. Bu xil munosabatlar xo'jalik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahkumlarning ish vaqti ishlab chiqarishning tabiatiga bog'liq bo'lib, mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari majmuasining normalari bilan belgilanadi. Mahkumlar, odatda, haftada olti kun mobaynida mehnatga jalb etiladi, dam olish va bayram kunlaridagi, shuningdek, ish vaqtidan tashqari ishlar uchun ularga ikki hissa haq to'lanadi.

Jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarning umumiy o'rta va kasb-hunar ta'limi hamda ularning ishlab chiqarishdagi kasb tayyorgarligi tashkil etiladi. O'quv jarayoni va kasbga o'rgatishni tashkil etish ta'lim organlarining normativ hujjatlari talablariga muvofiq ravishda hamda saqlash rejimi, kun tartibi va turli toifadagi mahkumlarni batomom ajratib qo'yish qoidalariga rioya etilishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Mahkumlarning oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim olishiga yo'l qo'yilmaydi, jazoni manzil koloniyalarda o'tayotgan shaxslar bundan mustasno bo'lib, ular o'quv yurtlarining sirtqi bo'limlarida ta'lim olishlari mumkin.

Muassasalarning ma'muriyati maktablar hamda kasb-hunar ta'limi yo'nalishidagi o'quv dargohlari ishiga har taraflama yordam beradi hamda o'quv jarayonini nazorat qilib boradi. Shuningdek, o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan mahkumlar imtihonlarni topshirish vaqtida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari majmuasida belgilangan tartibda ishdan ozod etiladilar, ana shu davr ichida ularga ish haqi O'zbekiston Respublikasining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlari majmuasiga muvofiq hisoblab chiqariladi.

Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari

Umumiy tartibli
koloniyalarda
quyidagilar jazo
o'taydilar:

Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari O'zbekiston Respublikasi JIKning 116 va 117-moddalarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari [O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 31-son, 414-modda] 19-bandiga ko'ra, **umumiy tartibli koloniyalar quyidagilarga bo'linadi:**

- og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;
- o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;
- og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan ayollar saqlanadigan koloniyalar, JIKning 48-moddasida ko'rsatilgan ayollar bundan mustasno.

Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni:

- mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;
- JIKning 129-moddasida nazarda tutilgan hollarda tarbiya koloniyalaridan o'tkazilgan mahkumlar;
- sud tomonidan manzil-koloniyalardan intizomiy jazo tarzida o'tkazilgan mahkumlar;
- qasddan og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etganligi uchun birinchi marta hukm qilingan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish tartibida sudning ajrimi asosida yuborilgan mahkumlar;

– rag’batlantirish tarzida yoki sud tomonidan tayinlangan turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish muddatini o’taganidan keyin turmalardan o’tkazilgan mahkumlar o’taydi.

Ijobiy tavsifga ega mahkumlar JIKning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o’tkaziladi.

Umumiy tartibli bir koloniyadan ikkinchisiga o’tkazilgan mahkumlar jazoni bu yerga o’tkazilgunga qadar belgilangan saqlash sharoitida o’taydilar.

Tarbiya koloniyasidan o’tkazilgan mahkumlar jazoni yengillashtirilgan saqlash sharoitida o’taydilar.

Koloniyalarda asosan, uch xil sharoitdagi saqlash joylari tashkil etilib, ular: oddiy, yengillashtirilgan va og’irlashtirilgan sharoitlarga bo’linishi mumkin. Bunday sharoitlarni tashkil etish mahkumlarni saqlash yotoqxonalarining alohida tashkil etilishi bilan tartibga solinadi. Oddiy sharoitdagi koloniyaga odatda, mahkum sudning hukmi bilan keltirilgandagina kiritib qo’yiladi.

Keyinchalik bunday sharoitdagi koloniyaga yengillashtirilgan yoki og’irlashtirilgan sharoitdan o’tkazilgan mahkumlar ham kiritilishi mumkin. Bunday sharoitdan yengillashtirilgan sharoitga o’tkazish mahkumlarning JIK 104-moddasida belgilangan qismni o’tash mobaynidagi xulq-atvoriga qarab ma’muriyat tomonidan tashkil etilgan komissiyaning xulosasiga binoan o’tkaziladi. Bu komissiyaning mahkumga berilgan intizomiy yoki rag’batlantirish choralari o’rganib chiqishga ko’ra hal qilinadi. Yengillashtirilgan sharoitga o’tkazish mahkum uchun ijobiy tarbiyalashning asosi bo’lib hisoblanadi va uning xulq-atvorining yaxshilanishi natijasida jazoni muddatidan avval bekor qilish yoki yengilrog’i bilan almashtirish haqida uqtiriladi.

Odatda, mahkumni jazo muddati tugashiga yaqin qolganida ularni yengillashtirilgan sharoitga o’tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi va bunday sharoitda saqlanayotgan mahkum ozodlik belgilarini sezishi va unga ko’nikish imkoniyatiga ega bo’la oladi.

Mahkumni intizomiy jazolash turi sifatida huquqlari cheklangan sharoitga o’tkazib qo’yish mahkumlarni yana keyinchalik ijobiy xulqi, mehnatga halol munosabatini hisobga olib, bunday huquqiy cheklash yoki kartserda saqlash muddati tugashi bilan mahkumga belgilangan intizomiy chora bekor qilinib, mahkum yana ilgarigi huquqlarga ega bo’ladi. Bunday huquqiy cheklashlarni muddatidan oldin ham olib tashlash mumkin. Bu qoida mahkum jazoni o’tab bo’lganiga qadar tatbiq etiladi.

Mahkumlarga belgilanadigan sharoitlar koloniyaning rejim turiga qarab bir-biridan farq qiladi. Umumiy rejimli koloniyalarda oddiy sharoitda saqlanayotgan mahkumlar umumiy yotoqxonalarda saqlanadi.

Umumiy tartibli koloniyalarning kartserlarida bir kishilik kameralarida mahkumlarni saqlash tartibi haqida ham so'z yuritamiz. Mahkumlarga nisbatan boshqa ta'sir o'tkazish choralarini qo'llash ijobiy natija bermagan hollarda, ular umumiy koloniyalarning kartserlarida bir kishilik kameralariga o'tkaziladilar, bunda jazoni o'tash rejimi talablarini qasddan buzgan hollarda, saqlash muddati 6 (olti) oygacha, ayollar saqlanadigan koloniyalarning kartserlarida esa 3 (uch) oygacha bo'lgan muddatda belgilanadi.

Umumiy tartibli koloniyalarda jazoni o'tash shartlari JIKning 117-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, umumiy tartibli koloniyalarda mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar. Mahkumlar belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki baravarigacha bo'lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Mahkumlar yil mobaynida:


- to'rt marta qisqa muddatli va to'rt marta uzoq muddatli uchrashuv;
 - olti marta telefon orqali so'zlashuv;
 - oltita posilka yoki yo'qlov;
 - oltita banderol olish huquqiga ega.
-

Mahkumlarga uchrashuvlar sonini belgilash JIKning 76-moddasi va umumiy tartibli muassasaning ichki nizomi asosida amalga oshiriladi. Masalan, ushbu moddada uzoq muddatli uchrashuv mahkumning iltimosiga ko'ra qisqa muddatli uchrashuv yoki telefon orqali so'zlashuv bilan almashtirilishi mumkin.

Shuningdek, umumiy tartibli koloniyalarda ijobiy tavsifga ega mahkumlar JIKning 104-moddalarida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi. Ular kodeksning 113-moddasiga ko'ra, belgilangan jazo muddatining qolgan qismini manzil-koloniyalarda o'tashadi. Shuningdek, o'zining xulq-atvori bilan namuna bo'ladigan mahkumlar qo'shimcha ravishda yil davomida belgilangan huquqlarga bitta uchrashuv, bitta telefon orqali so'zlashuv, bitta posilka yoki yo'qlov olishlari mumkin.

Qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o'tash

tartibi va shartlari



O'zbekiston Respublikasi JIKning 48-moddasiga ko'ra, **qattiq tartibli koloniyalar quyidagilarga bo'linadi:**

– ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar saqlanadigan koloniyalar;

– ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek o'ta xavfli retsivist deb topilgan ayollar saqlanadigan koloniyalar.

Mahkumlarni differentsiatsiya qilish maqsadida qonun chiqaruvchi qattiq tartibli koloniyalarning ham ikki turini belgilaydi. Birinchi turdagi qattiq tartibli koloniyalarda ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan erkaklar saqlanadi. Ikkinchi turida esa, ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan va o'ta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun yana sudlangan ayollar, shuningdek o'ta xavfli retsivist deb topilgan ayollar saqlanadi.

Mahkumlarni bu kabi tabaqalashtirish o'zini oqlagan bo'lib, jinoiy tajribaga ega bo'lgan mahkumlarni o'z tajribalarini boshqalarga o'rgatishlarini oldini oladi.

Turli kategoriyadagi mahkumlarni alohida saqlash JIKning – jazoni ijro etishda differentsiatsiya va individuallashtirishga rioya etish printsipini o'zida mujassamlashtiradi. Bu kabi jazoni ijro etish muassasalari mahkumning harakteri va ijtimoiy xavflilik darajasi, uning shaxsi, xulqini hisobga olib axloq tuzatish vositalarini qo'llaydi.

Sharhlanayotgan modda jazoni ijro etish muassasasi rahbariyatiga sud tomonidan bir turdagi rejim belgilangan mahkumlarni bir-biridan alohida saqlash majburiyatini yuklaydi.

JIKning 118-moddasida qattiq tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi belgilab qo'yilgan bo'lib, **qattiq tartibli koloniyalarda jazoni:**

- mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;
- turmalar va maxsus tartibli koloniyalardan rag'batlantirish tarzida o'tkazilgan mahkumlar;
- sud tomonidan tayinlangan turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish muddatini o'taganidan so'ng turmalardan o'tkazilgan mahkumlar;
- sud tomonidan manzil-koloniyalardan intizomiy jazo tarzida qaytarilgan mahkumlar;
- qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ilgari o'tagan va qasddan jinoyat sodir etganligi uchun ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga qayta hukm qilinib, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoni ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo bilan almashtirish tartibida sudning ajrimi asosida yuborilgan mahkumlar o'taydi.

Ijobiy tavsifga ega mahkumlar JIKning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi.

Qattiq tartibli bir koloniyadan ikkinchisiga o'tkazilgan mahkumlar jazoni bu yerga o'tkazilgunga qadar belgilangan saqlash sharoitida o'taydilar.

Ta'kidlaganimizdek, qattiq tartibli koloniyalarda o'ta og'ir jinoyati uchun birinchi marotaba ozodlikdan mahrum qilingan va xavfli retsidivist deb topilgan ayollar ham saqlanadilar. Qattiq tartibli koloniyalarda ham umumiy yengillashtirilgan og'ir sharoit qoidalari joriy etiladi, lekin qattiq tartibli koloniyalardagi sharoitlar ham umumiy rejim koloniyalarning sharoitlaridan qattiqashtirilganligi bilan farqlanadi.

Mahkumlarni axloqan tuzatish va halol mehnatga o'rgatish uchun uni yengil sharoitga o'tkazish va muassasada o'rnatilgan tartib-qoidalarini buzuvchi ashadiy tartibsiz deb topilganida esa, og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazish masalasi ko'rib chiqiladi va shu qoidaga rioya qilinadi.

JIKning 109-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq, qattiq tartibli koloniyaning kartserlariga olti oygacha, ayollar saqlanadigan koloniyalarda esa, uch oygacha bo'lgan muddatga o'tkazib qo'yiladi.

Odatda, koloniyalarga kelib tushgan mahkum JIKning 104-moddasining 1-qismida belgilangan muddat o'tgunga qadar sharoitini o'zgartirish qoidasi tatbiq etilmaydi. Bu muddat o'tganidan so'ng yengillashtirilgan sharoitga o'tkazish masalasi ko'rib chiqilishi mumkin. Mahkum yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilganda, o'tkazish muddati belgilanmaydi. Faqat mahkumning xulqi yomonligi va tartibbuzarligi natijasida uni oddiy sharoitga yoki og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazish muddati belgilanadi va mahkum ko'pi bilan olti oyga og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazilishi mumkin. Yengillashtirilgan yoki huquqlari cheklangan sharoitlarda ham maxsus ichki tartib qoidalar mahkumni majburiy mehnatga jalb qilish tartibi, ularga huquq va majburiyatlarini belgilash qoidalari joriy etiladi.

Shuningdek, koloniyalarning hibsxonasida va turmalarining kartserida jazoni o'tash tartibini buzuvchi shaxslarga nisbatan JIKda nazarda tutilgan barcha jazo choralari, shu jumladan, hibsxona yoki kartserga takroran kiritib qo'yish chorasi qo'llaniladi. Bunday hollarda jazo muddatining yani hisobi avvalgi qaror bo'yicha belgilangan jazo muddati tugagan zahotiyoyq boshlanadi.

Qattiq tartibli koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlar sharoitini yengillashtirish asoslari va tartibi. JIKning 119-moddasiga ko'ra, qattiq tartibli koloniyalarda mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar.

Mahkumlar belgilangan eng kam ish haqi miqdorining bir yarim baravarigacha bo'lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Mahkumlar yil mobaynida:

- uch marta qisqa muddatli va uch marta uzoq muddatli uchrashuv;
- to'rt marta telefon orqali so'zlashuv;
- to'rtta posilka yoki yo'qlov;
- to'rtta banderol olish huquqiga ega hisoblanadilar.

Qattiq tartibli koloniyalarda chekish, stolda o'ynaladigan o'yinlar o'ynash, ko'rpa-to'shaklardan foydalanishga ruxsat etilmaydi. Beriladigan

ovqat ham kamaytirilgan normada, ularga bir sutkada bir soatgacha ochiq havoda sayr qilishga ruxsat beriladi.

Qattiq tartibli koloniyalar kartserlarining bir kishilik kameralarida saqlanayotgan mahkumlar oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun belgilangan eng kam ish haqi miqdorining 30 foizigacha pul sarflash hamda har kuni muddati bir yarim soatlik sayr qilish huquqiga ega.


Qattiq tartibli koloniyalarning hibsxonalariga yoki tergov hibsxonalari va turmalarining kartserlariga kiritib qo'yilgan mahkumlarga kamaytirilgan normalar bo'yicha beriladi.

Mahkumlar hibsxona va kartserlarda bo'lgan paytlarida muassasa ma'muriyati ularning shaxsiy buyumlari to'la-to'kis saqlanishini ta'minlaydi. Intizomiy bo'limga kiritib qo'yilgan mahkumning oziq-ovqat mahsulotlari va shaxsiy ashyolari omborxonaga topshiriladi va jazo chorasi tugagandan keyin unga qaytarib beriladi. Bunda uzoq saqlash oqibatida oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy sabablarga ko'ra buzilib, iste'mol uchun yaramay qolsa, komissiya tuzilib, ushbu komissiya dalolatnoma tuzadi va mahkumning roziligi bilan ular yo'q qilinadi.

Mahkumlarning ko'pi bilan uch mart qisqa muddatli va uch marta uzoq muddatli uchrashuv, to'rt marta telefon orqali so'zlashuv, to'rtta posilka yoki yo'qlov, to'rtta banderol olish huquqiga ega ekanligi haqida ham so'z yuritiladi. Bu imtiyozlar mahkum sharoitining o'zgartirilishi bilan o'zgarishi mumkin. Bu hol unga berilgan barcha imtiyozlarning bekor bulishi bilan namoyon bo'ladi va JIK 109-moddasining to'rtinchi, beshinchi va oltinchi qismlarida belgilangan huquqiy cheklash turlari va qo'shimcha huquqlardan foydalanishga ruxsat etiladi. Jumladan, yengillashtirilgan sharoitdagi qattiq tartibli koloniyalarda mahkumlar eng kam oylik ish haqining o'n foizigacha qiymatda pul sarflash, qo'shimcha posilka, banderol yoki yo'qlov olish huquqlari, telefon orqali so'zlashuv huquqlari bilan ta'minlanishi mumkin.

Qattiq tartibli koloniyadagi intizomiy bo'limlarida kartserlarda jazoni o'tayotgan mahkumlar esa chekish, stolda o'ynaladigan o'yinlardan, kitob, gazeta-jurnal va boshqa adabiyotlardan, o'rin-ko'rpa buyumlardan, telefon orqali so'zlashuv va uchrashuvlardan foydalanish, oziq-ovqat mahsuloti va eng zarur narsalarni sotib olish, yo'qlov, posilka hamda banderollarni olish va jo'natish, xat va boshqa jo'natmalarni yuborish man etiladi. Ularga o'zlari bilan birga oziq-ovqat va shaxsiy buyumlarni olib kirish taqiqlanadi, yuvinish paytida foydalanish uchun beriladigan narsalar bundan mustasno.

Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari



Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tash tartibi JIKning 120-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, **maxsus tartibli koloniyalarda jazoni**:

- mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;
- umrbod ozodlikdan mahrum qilinganlar, shuningdek umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan shaxslar;
- sud tomonidan qattiq tartibli koloniyalardan intizomiy jazo tarzida qaytarilgan mahkumlar o'taydilar.
- ijobiy tavsifga ega mahkumlar JIKning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi.

Maxsus tartibli bir koloniyadan ikkinchisiga o'tkazilgan mahkumlar jazoni bu yerga o'tkazilgunga qadar belgilangan saqlash sharoitida o'taydilar.

Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar sharoiti og'irlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Umumiy sharoitdagi maxsus rejimli koloniyalarda ham

mahkum sharoitining alohida og'irlashtirilganligini ko'rish mumkin. Shuning uchun xam maxsus rejimli koloniyalarda faqat o'ta xavfli retsidivistlar yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosi avf etilib, ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan mahkumlarga saqlanishi mumkin. Maxsus tartibli koloniyalarga ayollar yuborilmaydi.

Maxsus tartibli koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlar ham jazoning uchdan bir qismni o'tab bo'lgandan so'ng yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilishi mumkin. Yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilgan mahkumlarga JIKning 104-moddasi talablariga binoan qo'shimcha imtiyozlar beriladi. Mahkum qanday shartlarga ko'ra yengillashtiriladigan sharoitlarga o'tkazilgan bo'lsa, xuddi shu tartibda kartserlarga kiritib qo'yilishlari mumkin. Kartserga kiritib qo'yishga o'n besh sutkagacha ruxsat beriladi. Jumladan, mahkumlar turmalardan jazoni ijro etish koloniyasiga va maxsus tartibli koloniyadan qattiq tartibli koloniyaga sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarimini o'taganlaridan keyin, JPK 537-moddasida nazarda tutilgan tartibda o'tkaziladi.

Jumladan, ushbu moddada ta'kidlanishicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslarga muvofiq mahkumni jazoni ijro etishning bir tartibli koloniyasidan boshqa tartibli koloniyasiga, turmadan koloniyaga va koloniyadan turmaga o'tkazish jazoni ijro etish muassasi ma'muriyatining taqdimnomasiga binoan, shuningdek, mahkum yoki uning himoyachisining iltimosnomasiga ko'ra, sud'ya tomonidan amalga oshiriladi.

Sud'ya jazoni ijro etishning bir tartibli koloniyasidan boshqa tartibli koloniyasiga, turmadan koloniyaga, koloniyadan turmaga o'tkazishni rad etsa, bu masala yuzasidan kiritilgan taqdimnoma yoki iltimosnoma rad qilish haqida qaror chiqarilgan kundan boshlab kamida olti oy o'tgach, qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtirilgan mahkumlar odatda alohida kameralarda saqlanadilar.

Kameralarda saqlanayotgan mahkumlar mehnati ham kamera sharoitlariga mos ravishda tashkil etiladi. Maxsus tartibli koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlar har kuni bir yarim soatgacha, yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilgach esa ikki soatgacha sayrga olib chiqilishlari mumkin.

Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tayotgan mahkumlar sharoitini yengillashtirish asoslari va tartibi. Maxsus tartibli koloniyalarda mahkumlar kameralarda yoki umumiy yashash binolarida saqlanadilar va ular bir kunda ko'pi bilan 2 soatgacha ochiq havoga olib chiqiladi. Yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilganda mahkum kamera tipidagi yashash joylariga saqlanadi. Maxsus tartibli koloniyalarda saqlanayotgan mahkumlar


bir oyda eng kam oylik ish haqi miqdori summasigacha oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Mahkumlar yil mobaynida:

- ikki marta qisqa muddatli va ikki marta uzoq muddatli uchrashuv;
 - uch marta telefon orqali so'zlashuv;
 - uchta posilka yoki yo'qlov;
 - uchta banderol olish huquqiga ega.
-

Maxsus tartibli koloniyalarda jazoni o'tash mahkumlarning kamera tipidagi xonalari maxsus maishiy talablarga binoan jihozlanganligi bilan farqlanadi. Kamerada mahkumga yotishga taxta karavot, ovqatlanish va o'tirish uchun taxta stol, stul, yuvinish va hojat joylari bo'lishi talab etiladi. Kamerada mahkum uchun kun tartibi belgilanadi.

Turmalarda jazoni ijro etish tartibi



Turmalarda jazoni o'tash tartibi va shartlari. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ozodlikdan mahrum qilish mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijro etish koloniyasi yoki turmaga joylashtirishdan iboratdir. Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilish, jazoning muayyan qismiga, lekin besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga: a) o'ta xavfli retsdivistlarga; b) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Qayd etish lozimki, turmalar ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalar orasida eng kam sonli va qadimiy hisoblanadi. “Dastlabki turmalar XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlarida Amerika Qo'shma Shtatlarining Pensilvaniya shtatidagi Filadelfiya shahrida vujudga keldi. Keyinchalik “Filadelfiya tizimi” deb nom olgan turmalarga asos solindi. O'sha davrdagi turma tizimi uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlardan biri shunda ediki, mahkumlar qanday jinoyat qilishlaridan va jamiyat uchun xavflilik darajasi qanday bo'lishlaridan qat'i nazar kameralarda yakka saqlanar, hatto sayrga olib chiqishda ularning yuziga niqob (maska) kiydirgan holda yakka tartibda olib borilgan. Pirovardida turmada saqlangan mahkumlarning aksariyat qismi ruhiy kasalliklarga chalinib, o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetgan.

1853-1857-yillarda Angliyada nisbatan progressiv tizimning paydo bo'lishi natijasida mahkumlarni turmalarning umumiy kameralarida sodir etgan jinoyatiga qarab uch bosqichda saqlash tartibi ishlab chiqildi. Mahkumni bir bosqichdan boshqasiga o'tkazishda turma ma'muriyati tomonidan mahkumning xulq-atvori inobatga olingan holda amalga oshirilgan. Har bir bosqich o'z turiga qarab nomlangan, ya'ni: 1-bosqich – sinov bosqichi; 2-bosqich – tuzatish bosqichi; 3-bosqich – shartli ozod qilish bosqichi deb atalgan” [Ismailov I., Yuldashev M., Mirzaraimov I. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik. / yu.f.d., prof. A.S.Yakubovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – B. 117].

“Mamlakatimizdagi turmalarning jazoni ijro etish tizimida muassasa sifatida paydo bo'lishi Rossiya penitentsiar tizimi bilan bog'liq bo'lib, XVI asrda paydo bo'la boshlagan” [Jinoyat-ijroiya huquqi. Ma'ruzalar kursi. / Z.S.Zaripov, Ch.A.Sattarov, Y.S.Pulatov va boshq. – Toshkent: Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti, 2013. – B. 282.].

O'zbekiston Respublikasi JIKning 52-moddasida turmalar turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslarni, shuningdek umumiy va qattiq tartibli koloniyalardan jazoni o'tash tartibini ashaddiy buzganligi uchun o'tkazilgan shaxslarni saqlash uchun mo'ljallangan. Ozodlikdan mahrum qilinganlarga nisbatan turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishni tadbiq etish ham mahkumlarni tasniflashning yana bir turi, deb e'tirof etiladi. Jumladan, mahkumlarning ijtimoiy xavfliligini e'tiborga olgan holda sud ozodlikdan mahrum qilish jazosining muayyan qismini turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishda xam belgilashga haqli hisoblanadi. Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash uchun yuborish qat'iy emas. Sud jinoyatchining shaxsi, uning ijtimoiy xavfliligi va axloqan tuzatish qiyinchiligini inobatga olgan holda, ozodlikdan mahrum qilish jazosining ma'lum qismigagina turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishni qo'llashi mumkin bo'la oladi. Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga yuborish shartlari xam JKning 50-moddasi 7-qismida belgilab qo'yilgan. Jumladan, ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga yuborish ozodlikdan mahrum qilish jazosining faqat besh yildan ko'p bo'lmagan qismigagina tadbiq etilishi mumkin. Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga o'ta xavfli retsidivistlar, og'ir yoki o'ta og'ir jinoyati uchun besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar yuborilishi mumkin. Turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga yuborish masalasini sud mahkumga hukm

chiqarish jarayonida belgilab berilgan bo'lib, ozodlikdan mahrum qilish jazosining faqat dastlabki qismida o'tashni belgilay oladi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida 1970 yilgi qonun hujjatlariga muvofiq, mahkumlar kichkina huquqbuzarlik yoki mahkama tartib qoidasini buzgan taqdirda ham turma jazosi bilan jazolangan. Shuning hisobidan 70-yillar oxiriga kelib mahkumlar tomonidan uyushitiriladigan turli xildagi huquqbuzarliklar soni keskin kamaygan.

Turmalarda jazoni o'tash tartibi JIKning 122-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, turmalarda jazoni:

- mazkur muassasaga sud hukmiga binoan kelgan mahkumlar;
- sud tomonidan jazoni ijro etish koloniyalaridan o'tkazilgan jazo o'tash tartibini ashaddiy buzuvchilar o'taydilar.

Turmalarda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish JIKning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Turmalarda mahkumlarni yengillashtirilgan saqlash sharoitiga muddatidan oldin o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi, mahkumni sog'lig'iga ko'ra tegishli tibbiy xulosa asosida o'tkazish hollari bundan mustasno.

Homilador ayollar va yonida emizikli bolasi bor ayollar, shuningdek I va II guruh nogironlari turmalarda jazoni yengillashtirilgan saqlash sharoitida o'taydilar.

Turma joylari ham koloniyalar singari mahkumlarni axloqan tuzatish, ularni to'g'ri yo'lga o'rgatish vazifalarini amalga oshiradi. Turma joylari shunga qaramay koloniyalarning xususiyatlaridan jiddiy farqlanadi. Jumladan, turmada mahkumlar doimiy kameralarga qamalgan holda saqlanadilar va shunga ko'ra ularni jamiyatdan ajratishning eng og'irlashgan holatlarini belgilaydi.

Turma hududi rejim, ma'muriy va xo'jalik zonalariga bo'linadi. Rejim zonasi hududida mahkumlar saqlanadigan korpuslar, oshxona, kir yuvish xonasi mavjud hammom, statsionari mavjud tibbiyot bo'limi, sayr qilish maydonchalari, ishlab chiqarish binolari (kameralar) joylashadi.

Sayr qilish maydonchalari, odatdagidek, korpuslarning yuqori qavatlarida barpo etiladi. Ayrim hollarda, kameralardan ko'rib turish imkoniyatiga yo'l qo'yilmagan taqdirda, sayr qilish maydonchalari yer uzra jihozlanadi. Sayr qilish maydonchalarining yuqori qismiga sinch bo'ylab panjara jihozlanadi va metall sim to'ri tortib qo'yiladi.

Ishlab chiqarish korpuslari boshqa binolardan batamom ajratilgan holda joylashtiriladi. Turar joy korpuslari, odatda, ishlab chiqarish, kommunal-

maishiy va boshqa ob'ektlar bilan tonnellar yoki yer ustidagi yopiq o'tish joylari orqali tutashgan bo'ladi.

Ma'muriy zona hududida xizmat xonalari, soqchilik xonasi mavjud nazorat-o'tkazish punkti, alohida ajratilgan xonalardan iborat qabul bo'linmasi, navbatchilik xizmati binosi, tergov xonalari, mahkumlarni qarindosh-urug'lari va boshqa shaxslar bilan uchrashuvlariga mo'ljallangan xonalar joylashadi.

Xo'jalik zonasida omborxonalar, sabzavot saqlash omborlari, garaj, xo'jalik ustaxonalari va boshqa yordamchi binolar joylashadi. Turma hududi balandligi 4, 5 (to'rt yarim) metr dan kam bo'lmagan yaxlit sidirg'a devor bilan o'raladi, devor perimetri bo'ylab injener-texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlanadi. Rejim zonasi xo'jalik zonasi xudi shu xildagi devor bilan ajralib turadi.

Turmalarda o'ta xavfli retsidivistlar og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etilganida sud hukmiga binoan yuborilgan mahkumlar hamda ichki tartib qoidalarini ashaddiy buzganligi uchun koloniyalardan o'tkazilgan mahkumlar saqlanadilar.

Koloniyalardan turmaga mahkum ichki tartib qoidalarini ashaddiy buzuvchi, ma'muriyat talablariga bo'ysunmaydigan holatlarda sudning qarori bilan o'tkaziladi. Bunday holda, mahkum turma joyi qoidalariga binoan besh yilgacha emas, balki uch yilgacha o'tkazilishini mumkin. Bu muddat tugashi bilan mahkum yana sud belgilagan rejim turi koloniyasiga o'tkaziladi.

Shuningdek, turma joylarining tashkil etilishi va tuzilishi jihatidan jiddiy farqlanadi. Turmalar koloniyalarga o'xshab rejim turlariga bo'linmaydi. Lekin turma joylarida ham mahkumning uch xil sharoitlariga mos kameralar tashkil etiladi. Bular oddiy sharoitdagi kameralar va mahkumni og'irlashtirilgan sharoitlarga o'tkazilganida saqlanadigan kameralar. Turma joylarida mahkumlarning xo'jalik xizmatlarini ham mahkumlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunday ishlarga maxsus shunday ishlar uchun koloniyalardan qoldirilgan mahkumlar amalga oshiradi. Mahkumlar turmaga qamash tariqasidagi ozodlikdan mahrum qilishga yuborilganida sud uning sharoitini belgilab bermaydi. Har bir turma joyiga yuborilgan mahkum umumiy sharoitdagi kameralarga kiritib qo'yiladi. Bu joyda jazoni o'tash vaqtida mahkumning sharoiti o'zgarishi mumkin. Lekin homilador yoki emizikli bolali ayollar, I va II guruh nogironlari turmada yengillashtirilgan sharoitda saqlanadilar. Ularni oddiy yoki og'irlashtirilgan sharoitlarga o'tkazishlari mumkin emas.

Turmalarda mahkumlar umumiy kameralarda saqlanadilar. Alohida hollarda mahkumning batamom ajratib qo'yilishini ta'minlash maqsadida

muassasa boshlig'ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori asosida uni bir kishilik kamerada saqlashga yo'l qo'yiladi.

Turmada mahkumlar belgilangan eng kam ish haqi miqdorining yetmish besh foizigacha bo'lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

Turmalarda mahkumlar har kuni muddati bir soatlik sayr qilish va yil mobaynida:

- ikki marta qisqa muddatli va bir marta uzoq muddatli uchrashuv;
- ikki marta telefon orqali so'zlashuv;
- ikkita posilka yoki yo'qlov;
- ikkita banderol olish huquqiga ega.

Turmalarda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazilgan mahkumlarga rag'batlantirish tarzida har kunlik sayr muddati bir soatga uzaytirilishi mumkin.

Turmalarda jazoni o'tayotgan, shuningdek, umumiy, qattiq, maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyalarning, tarbiya koloniyalarning va turmalarning qabul va intizomiy bo'linmalarida, manzil koloniyalarning intizomiy bo'linmalarida saqlanayotgan shaxslar umumiy kameralarga joylashtiriladi hamda JIKda belgilangan normalarga muvofiq yashash maydoni bilan ta'minlanadi.

Mahkumning batamom ajratib qo'yilishini ta'minlash maqsadida, muassasa boshlig'ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori bilan uni bir kishilik kamerada saqlab turilishiga yo'l qo'yiladi.

Derazalar payvandlangan metall panjaralar bilan jihozlanadi, zarurat bo'lganda esa tunuka to'smalar o'rnatiladi. Derazalar kameraning ichki tomonidan oynaga qo'l yetmaydigan qilib, panjara bilan muhofaza etilgan bo'ladi. Qabul va intizomiy bo'linmalardagi xonalarning pollari betonlangan asosga o'rnatilib, unga taxta yoki elastik qoplama yotqiziladi. Jazoni ijro etish va tarbiya koloniyalarning qabul hamda intizomiy bo'linmalarining, shuningdek, turmalardagi kartserlarning devorlari tsement qorishma bilan silliq qilib suvaladi va oqlab qo'yiladi.

Kameralarning eshiklari 6 sm qalinlikda bo'lib, kameraning ichki tomonidan tunuka bilan qoplangan bo'ladi. Eshikning o'rtasida kuzatish tuynugi o'rnatiladi. Darchaning eshikchasi yo'lak tomonga ochiladigan bo'lib, qulf bilan ta'minlanadi.

Shu bilan birga, koloniyalarning intizomiy bo'linmasi kameralarida qo'shimcha tarzda dumaloq metall ustun hamda ko'ndalang taxtadan tayyorlangan ichki eshiklar (tamburlar) o'rnatiladi. Darcha xuddi shu eshikka o'rnatiladi va eshik singari yo'lak tomonga ochiladi.

Kameralarning barcha eshik va derazalariga maxsus signalizatsiya o'rnatiladi. Kameralarning eshiklariga maxsus tipdagi mexanik yoki elektro-mexanik qulflar o'rnatilgan bo'lib, ular yo'lak tomondan ochiladi.

Qabul va intizomiy bo'linma kameralaridagi elektr simlari mahkumlar qo'li mutlaqo yetmaydigan qilib o'rnatilgan bo'ladi. Umumiy yoritishga mo'ljallangan elektr chiroqlari shiplarning o'yiqlik joyiga, tungi yoritgichlar esa eshiklarning tepasidagi o'yiqlik joyga o'rnatiladi. O'yiqlik joylar panjara bilan batamom ajratiladi.

Turmalarining kamera va mahkumlar kirib chiqib yuradigan boshqa joylariga elektr simlari yashirincha, ko'zga ko'rinmaydigan qilib o'rnatiladi. Yoritgichlar ularga shikast yetkazilishi ehtimolidan muhofazalangan bo'ladi. Chiroq yoqib-o'chirgichlar har bir kamera oldida yo'lak tomonga o'rnatiladi.

Turmalarining kameralarida, shuningdek, koloniyalarning intizomiy bo'linmalari kartserlarida radioreproduktorlar devorlarning o'yiqlik joylariga o'rnatiladi. Nazoratchilarni chaqirish uchun kameralar signal berish tugmachalari bilan jihozlanadi.

Turmalaridagi kameralar va koloniyalarning kartserlari, intizomiy bo'linma hibsxonalarining kameralari belgilangan normalar bo'yicha inventar hamda boshqa buyumlar bilan ta'minlanadi.

Turma joylarida kameralarida mahkumlar uchun barcha zarur sharoitlar yaratiladi. Mahkum kameradan faqat sutkada bir soatga sayrga olib chiqilishi mumkin. Boshqa holatlarda kameradan chiqarilmaydi. Turma joylarida mahkumlarni ochiq havoda sayr qilish uchun olib chiqishga mo'ljallangan maxsus joylar tashkil etiladi.

Shuningdek, turma joylari ozodlikdan mahrum qilish jazosining eng og'irlashtirilgan sharoitlarini nazarda tutadi. Lekin shunga qaramay mahkumlarning huquqiy holati ham belgilangan bo'lib oziq-ovqat yoki eng zarur buyumlar sotib olish, uchrashuv, banderol olish huquqlari ham beriladi. Mahkumlarning oziq-ovqat yoki eng zarur narsalar sotib olish mahkumlarning mehnatidan tushgan mablag'i hisobiga yoki uning qarindosh yoki yaqinlari tomonidan pul jo'natmalari hisobiga bo'lishiga ham qonun yo'l qo'yadi. Bunday harid masalalari ham chegaralangan miqdorda ruxsat etilishi mumkin.

Turma joyida mahkumga eng zarur narsalar yoki oziq-ovqat sotib olish uchun bir oyda eng kam oylik ish haqining yetmish besh foizigacha sarflashga ruxsat etiladi. Agar mahkum yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilgan bo'lsa eng kam oylik ish haqining ellik foizigacha qiymatda sarflashga ruxsat etiladi. Turma joylarida saqlanayotgan mahkumga bir yilda ikki marta qisqa muddatli va bir marta uzoq muddatli uchrashuv, ikki marta

telefon orqali so'zlashuv, ikkita posilka yoki yo'qlov, ikkita banderol olishga ruxsat etiladi.

Turmalarda jazoni o'tayotgan mahkumlar sharoitini yengillashtirish asoslari va tartibi. Mahkumni yengillashtirilgan sharoitga o'tkazishga, jazoning kamida olti oyi o'talganidan keyingina yo'l qo'yilishi mumkin. Yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilgan mahkum ichki tartib qoidani ashaddiy buzuvchi deb topilganida uni umumiy yoki og'irlashtirilgan sharoitga o'tkazilishlari ham mumkin.

Shuningdek, mahkumlar faqat o'zlari saqlanayotgan kameradagina erkin harakatlanishi va yonidagi boshqa mahkum bilan muloqot qilishi mumkin. Agar mahkumni alohida saqlash zarurati tuzilsa yoki xavfsizlik holatlari vujudga kelsa bir kishilik kameralarga ham kiritib qo'yilishi mumkin. Mahkumlarni bir kishilik kameraga kiritib qo'yish og'irlashtirilgan sharoitni anglatmaydi, faqat uning xavfsizligini ta'minlash chorasi hisoblanadi.


Mahkumning xulqi, ichki tartib qoidalariga rioya qilishi, mehnatdagi yutuqlarini inobatga olib, unga nisbatan JIKning 102-moddasida belgilangan rag'batlantirishlarni qo'llash mumkin. Turma joylarida saqlanayotgan mahkumlarning kundalik ochiq havoga sayr qilish uchun olib chiqilishi ham alohida ahamiyatga ega va bu ham qonun bilan tartibga solinadi. Jumladan, mahkumlar bir sutkada bir soatga ochiq havoga chiqariladilar, yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilgan mahkumlarga rag'batlantirish tarzida har kunlik sayr bir soatga uzaytirilishi mumkin. Yengillashtirilgan sharoitga o'tkazish mahkumni ijobiy tarbiyalashning asosi bo'lib hisoblanadi va yana uning xulq atvorining yaxshilanishi natijasida uning xulq-atvorini rag'batlantirish hisoblanadi.

Shuningdek, mahkumlarni turma hududidan tashqaridagi mehnatga jalb etish taqiqlanadi. Turmalarda mahkumlar toifalariga ko'ra bir-biridan, o'ta xavfli retsdivistlar va uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar esa boshqa toifadagi mahkumlardan batamom ajratib qo'yilgan holda mehnatga jalb etiladi.

Mahkumlarni ishlab chiqarish ob'ektlariga olib chiqish imkoni bo'lmagan taqdirda, ular tegishli sanitariya normalari va mehnatni muhofaza qilish qoidalariga rioya qilingan holda ishchi kameralarda mehnatga jalb etilishi mumkin. Ishdan so'ng mahkumlar shaxsiy tintuv qilinadi, ular ishlagan joylar esa ko'zdan kechiriladi.

Tarbiya-koloniylarida jazoni o'tash xususiyatlari

Tarbiya koloniyalarida jazoni o'tash tartibi va shartlari.
O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarga bo'lgan e'tibor nafaqat ijtimoiy yoki siyosiy holatlarda, hatto jinoyat sodir etib aybli hisoblanganlarida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, voyaga yetmaganlar javobgarligi, ular huquqlarining alohida himoyalanganligi, jazolarni belgilash va o'tash jarayonidagi insonparvarlik xususiyatlari qonunda alohida belgilangan.



“Aytish joizki, jazoni ijro etish tizimida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni o'tash joylari maslasiga XX asrning boshlarigacha deyarli jiddiy e'tibor berilmagan. Masalan, 1909 yilgacha Rossiya turma qonunchiligi bo'yicha 10 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar katta yoshdagilar bilan birgalikda saqlanavergan. Turkistonda birinchi voyaga yetmagan mahkumlarni tarbiyalash uchun mo'ljallangan tibbiy ta'limot muassasalari Turkiston ASSR Adliya xalq komissarligi tomonidan 1921 yil 29 mayda tasdiqlangan “Voyaga yetmagan ozodlikdan mahrum etilganlar uchun mo'ljallangan Toshkent mehnat uyi (reformatoriumlar) to'g'risida”gi Nizom asosida tashkil etildi. 1955 yilga kelib sobiq Ittifoqda rasman voyaga yetmaganlar uchun tarbiya-mehnat koloniyalari tashkil etildi va uning ikki – umumiy va kuchaytirilgan tartibli turlari joriy etildi”. [Ismailov I., Yuldashev M., Mirzaraimov I. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik. / yu.f.d., prof.

A.S.Yakubovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – B. 117.].

O'zbekiston Respublikasining 2003 yil 12 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga muvofiq 2004 yilda respublikamizda kuchaytirilgan tartibli tarbiya koloniyasi tugatildi va hozirgi kunga kelib respublikamizda bitta tarbiya koloniyasi faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi JIKning 124-moddasiga ko'ra, tarbiya koloniyalarida:

- o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan mahkumlar kattaroq yoshdagi mahkumlardan;

- birinchi marta ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlar ilgari ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni o'tagan mahkumlardan alohida saqlanadilar.

Ijobiy tavsifga ega mahkumlar JIKning 104-moddasida nazarda tutilgan tartibda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkaziladi.

Voyaga yetmaganlar javobgarligi va ular uchun jazo masalalari ham JK va JIKda alohida boblarda ajratib berilgan va ilgarigi qonunlardan farqli jiddiy yangiliklarni nazarda tutadi.

O'n sakkiz yoshga yetgan mahkumlar voyaga yetmagan mahkumlardan ajratilgan holda saqlanadi. Voyaga yetmaganlarga nisbatan alohida turdagi jazoni ijro etish koloniyalarining tashkil etilishi ularga nisbatan tarbiyaviy choralarni alohida turlarini joriy etish imkoniyatlarini yaratadi. JK 85-moddasi va JIK 45-moddasiga binoan voyaga yetmagan ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar tarbiya koloniyalarida saqlanadilar. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish jarayonida bu qoidaga qat'iy amal qilinadi va faqat sud hukmiga qadar shaxs tergov hibsxonasida saqlanadigan hollardagina bu qoidaga rioya qilinmasligi mumkin. Bu vaqtda ular hali ozodlikdan mahrum qilingan hisoblanmaydilar.

Voyaga yetmaganlarning tasniflanishi aksariyat hollarda yoshiga nisbatan tatbiq etiladi. Jumladan, o'n olti yoshgacha bo'lganlar alohida va o'n olti yoshdan oshganlar alohida ajratiladi.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan JKga binoan ozodlikdan mahrum qilishning muddati har bir jinoyat uchun o'n besh yilgacha, bir necha jinoyatlar yoki bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlanganida o'n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin. Voyaga yetmaganlar uchun belgilangan tarbiya koloniyalaridagi sharoitlari ham yengillashtirilganligi bilan ajralib turadi. Qonunga binoan tarbiya

koloniyalarining faqat umumiy tartibli turi mavjud. JIKning XXII bobida tarbiya koloniyalarining xususiyatlari alohida qonunlashtirib berilgan. Umumiy tartibli koloniyalarning ichki xususiyatlari ham kattalar uchun belgilangan koloniyalardan yengillashtirilganligi bilan farqlanadi.

Shuningdek, tarbiya koloniyasi hududi balandligi 3 (uch) metr dan kam bo'lmagan devor bilan o'raladi, uning tashqi perimetri bo'ylab niqobli devor o'rnatiladi. Mahkumlar uchun mo'ljallangan kasb-hunar ta'limi va kasb tayyorgarligi sinf hamda yordamchi texnik xonalari boshqa binolardan ishonchli tarzda batamom ajratib qo'yilgan bo'lishi lozim. Turar joy zonasi hududida sport zali yoki bir vaqtning o'zida barcha mahkumlarni safga tizish uchun maydon, stadion, zarur sport inventari kompleksi mavjud maydonchalar jihozlanadi. Nazorat-o'tkazish punkti mavjud blokda qurol-aslahani saqlash va berish uchun mo'ljallangan xonalar joylashtiriladi. Tarbiya koloniyalarning intizomiy bo'linmasida kartserga mo'ljallangan kameralar jihozlanmaydi.

Voyaga yetmagan erkaklar ozodlikdan mahrum qilishga birinchi marta hukm qilinganlarida va ayollar nechanchi marta ozodlikdan mahrum qilishgan bo'lishiga qaramay umumiy tartibli tarbiya koloniyalarida saqlanadilar.

Shu bilan birga, tarbiya koloniyalarida mahkumlar voyaga yetgunga qadar saqlanadilar. Voyaga yetganligidan so'ng ularni jazoni o'tash koloniyalariga o'tkazadilar. Qonunga binoan mahkumning sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavfliligiga qarab jazoni ijro etish koloniyasining turi belgilanadi. Uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatini qasddan sodir etganlar uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni qasddan birinchi marta sodir etilganlar umumiy tartibli koloniyaga o'tkazadilar. O'ta og'ir jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslar og'ir jinoyati uchun birinchi marta hukm qilingan shaxslar saqlanadigan umumiy tartibli koloniyaga o'tkazdilar. Ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etganlar o'n sakkiz yoshga yetganlaridan so'ng manzil koloniyalariga o'tkaziladilar.

Tarbiya-koloniyalarida voyaga yetmagan mahkumlarni qo'shimcha rag'batlantirish yoki ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash shartlari. Tarbiya koloniyalarida jazoni o'tash shartlari JIKning 125-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, tarbiya koloniyalarida mahkumlar umumiy turar joylarda yashaydilar.

Mahkumlar belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ikki yarim baravarigacha bo'lgan summaga oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olishlari mumkin.

O'n sakkiz yoshga to'lgan va tarbiya koloniyalarida qoldirilgan mahkumlarga voyaga yetmagan mahkumlar uchun belgilangan normalarda

ovqat, ust-bosh, moddiy-maishiy ta'minot va boshqa jazo o'tash sharoitlari tatbiq etiladi. Bu shaxslarning mehnat sharoitlari mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Tarbiya koloniyalarida ham mahkumlarni yengillashtirilgan imtiyozli va oddiy sharoitlari mavjud. Bundan tashqari mahkumning intizomsizligi, ichki tartib qoidalarini doimiy buzuvchilariga nisbatan qo'llaniladigan hibsonalar ham mavjud. Hibsonalarga kiritib qo'yilgan mahkumlarning sharoiti albatta og'irlashtiriladi. Yengillashtirilgan sharoitga o'tkazish mahkumning ijobiy hulqi, mehnatga halol munosabati hamda intizomiy jazo chorasining bo'lmasligi va birinchi marta ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan erkakga yoki ayollarga kamida jazoning uch oyini o'taganidan so'ng, ilgari ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan erkaklarga esa kamida olti oyini o'taganidan so'ng qo'llaniladi.

Mahkum yengillashtirilgan sharoitdan yana umumiy sharoitlarga ham qaytarilishi mumkin. Mahkumni hibsonaga kiritib qo'yishga ular yomon xulqi, doimiy intizomiy jazolanganligi sabab bo'lishi mumkin. Hisobxonaga kiritib qo'yish o'n sutkadan oshmasligi lozim.

Shuningdek, tarbiya koloniyalarida mahkumlarga tarbiyachilar tayinlanadi. Tarbiyachilar mahkumlarning kundalik faoliyatlarini belgilab beradi, nazorat qiladi va boshqaradi. Tarbiya koloniyalarida mahkumni yengillashtirilgan sharoitga o'tkazish yoki hisobxonaga kiritib qo'yish tarbiyachining tavsiyasiga ko'ra koloniya boshlig'ining buyrug'i bilan hal qilinadi.

Tarbiya koloniyalarida mahkumlar umumiy yotoqxonalarda yashaydilar. Mahkumlar bir yilda olti marta qisqa muddatli va olti marta uzoq muddatli uchrashuv, o'n ikki marta telefon orqali so'zlashuv, oltita posilka yoki yo'qlov, oltita banderol olish huquqiga ega. Yengillashtirilgan sharoitga o'tkazilganlarida qo'shimcha yana bittadan uchrashuv, telefon orqali so'zlashuv, posilka yoki yo'qlov olish huquqi ham beriladi. Tarbiya koloniyalarida rag'batlantirish choralari juda keng qo'llaniladi. Voyaga yetmaganlarning axloqan tuzalishida va ularni qayta tarbiyalanishlarida rag'batlantirish choralarining ahamiyati juda seziladi. Rag'batlantirish choralari mahkumning har bir yutug'i, xulqining ijobiyligi yoki mehnat normalarini bajarganligi natijasida qo'llaniladi. JIKning 102-moddasiga binoan tashakkur e'lon qilish, ilgari intizomiy jazoni muddatni oldin bekor qilish, maqtov yorlig'i berish, qimmatli sovg'a bilan taqdirlash, pul mukofati berish, qonunda belgilangan holatlardan tashqari qo'shimcha posilka, yo'qlov yoki banderol olish huquqi berish, qo'shimcha uchrashuv yoki telefon orqali so'zlashuvga ruxsat berish, oziq-ovqat yoki zaruriy narsalar

sotib olish pul qiymatini oshirish kabi imtiyozlar beriladi. Bunday imtiyozlarni muddatlari chegaralanmagan.


Hibsonaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo chorasini qo'llash xususiyatlari. Ma'lumki, tarbiya koloniyasida hibsonaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo o'n uch yoshdan o'n oltigacha bo'lgan mahkumlarga yetti sutkagacha, o'n olti va undan katta yoshdagi mahkumlarga esa o'n sutkagacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi.

Tarbiya koloniyasining hibsonasiga kiritib qo'yilgan mahkumlarning sayr qilish muddati sutkasiga ikki soat qilib belgilanadi.

Shuningdek, mahkumning intizomsizligi, ichki tartib-qoidalarni doimiy buzuvchilarga nisbatan qo'llaniladigan hibsonalar mavjud bo'lib, hibsonalarga qo'yilgan mahkumlarning sharoiti, albatta, og'irlashtiriladi. JIKning 127-moddasida tarbiya koloniyasida hibsonaga kiritib qo'yish tariqasidagi intizomiy jazo o'n uch yoshdan o'n olti yoshgacha bo'lgan mahkumlarga yetti sutkagacha, o'n olti va undan katta yoshdagi mahkumlarga esa o'n sutkagacha bo'lgan muddatga qo'llaniladi.

2003 yil 30 avgustda JIKga kiritilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar bu moddani ham chetlab o'tmadi. Unda tarbiya koloniyasining hibsonasiga kiritib qo'yilgan mahkumlarning sayr qilish muddati sutkasiga ikki soat qilib belgilandi. Yengillashtirilgan sharoitga o'tkazish mahkumning ijobiy xulqi, mehnatga halol munosabati hamda intizomiy jazo chorasining bo'lmasligi va jazoning kamida 1/4 qismini o'taganidan so'ng qo'llaniladi.

O'n sakkizga to'lgan mahkumlarni tarbiya koloniyalarida jazoni o'tashni davom ettirish uchun qoldirish tartibi va shartlari.



JIKga ko'ra, voyaga yetmasdan turib, jinoyat sodir qilgan shaxslar tarbiya koloniyalarida jazoni o'taydilar. Tarbiya koloniyalarida mahkumlar voyaga yetgunlariga qadar saqlanishlari mumkin. Voyaga yetganlaridan so'ng, ular jazoni o'tash koloniyalariga o'tkazishlari mumkin. Masalan, JIK 129-moddasiga asosan, mahkumlar yigirma bir yoshga to'lganida, salbiy tavsifga ega mahkumlar esa o'n sakkiz yoshga to'lganidan so'ng jazo o'tashni davom ettirish maqsadida tarbiya koloniyasidan umumiy tartibli koloniyaga o'tkaziladi. Ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun hukm qilingan mahkumlar o'n sakkiz yoshga to'lganidan keyin jazo o'tashni davom ettirish uchun ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslar saqlanadigan manzil-koloniyalarga o'tkaziladi.

Voyaga yetmagan mahkumning ijobiy xulqi, mehnatga bo'lgan halol munosabati va boshqalarga o'rnak bo'la olish hisobga olinib, jazo o'tashni davom ettirish uchun mahkumlarni jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalalari sud tomonidan JPKning 537-moddasining 4-bandida belgilangan tartibda amalga oshiriladi: "o'n sakkiz yoshga to'lgan mahkumni tarbiya koloniyasidan jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalasini hal etishda sud'ya uning tuzalish darajasini hisobga olishi lozim. Mahkum tarbiya koloniyasida jazoni o'tash muddatini davom ettirish uchun uzog'i bilan 21 yoshga to'lgunga qadar qoldirilishi mumkin".


Shuningdek, mahkumlarni jazoni ijro etish koloniyalariga o'tkazish masalasi JIKning 128-129-moddalari talablaridan kelib chiqqan holda hal etilib, odatda, ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlar 18 yoshda bo'lsa, 21 yoshga to'lgunga qadar tarbiya koloniyalarida qoldiriladi, mahkumlarni tarbiya koloniyalarida qoldirish muassasa boshlig'ining prokuror tomonidan tasdiqlangan qarori bilan, jazoni o'tashni davom ettirish uchun jazoni ijro etish koloniyalariga o'tkazish masalasi agarda mahkum yoki uning advokati tegishli iltimosnoma bilan sudga bevosita murojaat etmagan bo'lsa, sud tomonidan JPKning 537-moddasida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Mahkumlarni tarbiya koloniyalaridan jazoni ijro etish koloniyalariga o'tkazish. Ma'lumki, tarbiya koloniyalarida mahkumlar voyaga yetgunga qadar saqlanadilar. Voyaga yetganlaridan so'ng ular jazoni o'tash koloniyalariga o'tkazadilar. Mahkumlar yigirma bir yoshga to'lganidan, salbiy tavsifga ega mahkumlar esa o'n sakkiz yoshga to'lganidan keyin jazo o'tashni davom ettirish uchun tarbiya koloniyasidan umumiy tartibli koloniyaga o'tkaziladi.

Jazo o'tashni davom ettirish uchun mahkumlarni jazoni ijro etish koloniyasiga o'tkazish masalalari sud tomonidan JPKning 537-moddasida nazarda tutilgan tartibda hal etiladi.

Qonunga binoan mahkumning sodir etgan jinoyatining ijtimoiy xavfliligiga qarab jazoni ijro etish koloniyasining turi belgilanadi. Uncha og'ir bo'lmagan va og'ir jinoyatini qasddan birinchi marotaba sodir etgan mahkumlar jazoni umumiy tartibli koloniyalarda o'taydilar. O'ta og'ir jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslar og'ir jinoyati uchun birinchi marta hukm qilingan shaxslar saqlanadigan umumiy tartibli koloniyaga o'tkaziladilar. Ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etganlar o'n sakkiz yoshga yetganlaridan so'ng manzil koloniyalariga o'tkazdilar.

Ayrim toifadagi mahkumlar tomonidan jazoni o'tashning o'ziga xos xususiyatlari



Homilador ayollar va yosh bolasi bor ayollar uchun qo'shimcha huquqlar va imtiyoz berish shartlari va tartibi. Ma'lumki, mahkuma homilador ayollar va bolasi bor ayollar uchun qo'shimcha huquqlar belgilab

qo'yilgan bo'lib, JIKning 130-moddasiga ko'ra, ular JIKda mahkumlar uchun nazarda tutilgan huquqlardan tashqari:

- muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash;
- bolalarini jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi bolalar uyiga joylashtirish;
- bolalarini joylashtirib kelish va ular bilan uchrashish uchun muassasa doirasidan chetga chiqish huquqiga ham ega.

Mahkuma ayollarga voyaga yetmagan bolalari bilan muddati besh sutkagacha bo'lgan, shu jumladan muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash imkoniyati bilan, uzoq muddatli uchrashuv berilishi mumkin.

Jinoyat-ijroiya kodeksiga mustaqil modda sifatida mazkur toifa mahkumlarni, shuningdek, ularning voyaga yetmagan bolalarini alohida himoya qilish, g'amxo'rlik qilishni ta'kidlash maqsadida kiritilgan. Mahkuma homilador ayollar va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollar ushbu kodeksning maxsus qismida mahkumlar uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlardan foydalanishlari mumkin. Ushbu huquqlardan tashqari ular uchun alohida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qo'shimcha huquqlar ham ko'zda tutilgan.

Ijobiy xulq-atvorli homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga prokuror sanktsiyasi bilan tasdiqlangan muassasa ma'muriyati rahbari qarori asosida muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash imkoniyati berilishi mumkin. Homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarning muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash tartibi JIK (xususan, kodeksning 131-moddasi shunga bag'ishlangan) bilan belgilangan.

Shuningdek, uch yoshga to'lmagan bolasi bor mahkuma ayollar bolalarini jazoni ijro etish muassasalari qoshidagi bolalar uyiga joylashtirish huquqiga ega. Bolalar uyida, shuningdek, ozodlikdan mahrum etish muassasasida yoki ushbu muassasadan tashqarida dunyoga kelgan bolalar ham joylashtirilishi mumkin. Mahkuma ayolning o'z farzandini bolalar uyiga joylashtirishi muassasa ma'muriyati hamda vasiylik va homiylik organlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga asosan amalga oshiriladi. Mahkuma ayolning farzandi bolalar uyida uch yoshgacha saqlanishi mumkin. Bola uch yoshga to'lganida mahkuma ayolning jazoni o'tashiga bir yildan kam muddat qolgan bo'lsa, bolalar uyida saqlash muddati muassasa ma'muriyati iltimosi bilan, uning onasi ozodlikka chiqqunga qadar uzaytirilishi mumkin.

Mahkuma ayollarning voyaga yetmagan bolalari bilan uzoq muddatli uchrashuvga ruxsat berish tartibi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya qonuni uch yoshga to'lmagan bolasi bor mahkuma

ayollarning bolalarni qarindoshlarnikiga, vasiylik yoxud bolalar uyiga joylashtirish, shuningdek, ular bilan uchrashishlari uchun muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash huquqini belgilaydi.

Voyaga yetmagan bolasi bor mahkuma ayollarning muddati besh sutkagacha bo'lgan uzoq muddatli uchrashuvlarga ega bo'lish, shu jumladan muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash imkoniyati bilan, uzoq muddatli uchrashuv berilishi huquqini ta'minlaydi. Voyaga yetmagan bolasi bor mahkuma ayollarning muddati besh sutkagacha bo'lgan uzoq muddatli uchrashishlarni amalga oshirish huquqini qo'lga kiritish uchun uning xulqi ijobiy jihatdan tavsiflangan bo'lishi hamda zarur yashash sharoitlari (mehmonxona, kvartira va h.k.) ta'minlangan bo'lishi lozim. Bunday uchrashuvlar muassasa ma'muriyati nazorati asosida amalga oshiriladi. Bunda mahkumalarning uchrashuv joyini tark etishlari taqiqlanadi hamda ularning uzoq muddatli uchrashuvlarga doir rejim talablari va jazoni ijro etish muassasasi ichki tartib qoidalariga rioya etishi lozim.

Mahkuma ayollarning muassasa doirasidan tashqarida yashash tartibi va shartlari. Ijobiy tavsifga ega mahkuma ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod etilgan vaqt mobaynida, shuningdek bolasi uch yoshga to'lgunga qadar muassasa boshlig'ining prokuror tasdiqlagan qarori bilan koloniya hududidan tashqarida yashashga ruxsat etilishi mumkin.

Muassasa hududidan tashqarida yashash huquqi Jinoyat kodeksi 73-moddasining to'rtinchi qismida ko'rsatilgan mahkumlarga berilmaydi.

Koloniya hududi doirasidan tashqarida yashaydigan mahkumlar:

- xona tipidagi turar joylarda joylashadilar va muassasa ma'muriyatining nazorati ostida bo'ladilar;

- ertalab o'rindan turishdan kechki yotishgacha bo'lgan vaqt mobaynida belgilangan yo'nalishlar doirasida erkin yurish huquqidan foydalanadilar;

- fuqarolar kiyadigan kiyimda yurishlari, yonlarida pul va qimmatli buyumlar saqlashlari, puldan cheklanmagan holda foydalanishlari mumkin;

- cheklanmagan miqdorda banderol, posilka va yo'qlovlar olish hamda jo'natish, qisqa muddatli uchrashuvlar olish huquqiga ega. Qisqa muddatli uchrashuvlar, odatda, ishdan bo'sh vaqtda beriladi.

Muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash huquqi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

- jazoni o'tash tartibi muntazam ravishda yoki bir marta qo'pol tarzda buzilganda;

- homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod qilish davri tugaganda;

- bola uch yoshga to'lganda.

Ijobiy tavsifga ega (yaxshi xulq-atvor, mehnat va ta'limga vijdonan munosabatda bo'lish, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda faol ishtirok etish, oilasi bilan doimiy muloqotda bo'lishi va shu kabilar) mahkuma ayollarga homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod etilgan vaqt mobaynida, shuningdek bolasi uch yoshga to'lgunga qadar muassasa boshlig'ining prokuror tasdiqlagan qarori bilan koloniya hududidan tashqarida yashashga ruxsat etilishi mumkin. Ushbu holatda qonunchilikda ikki vaqt omili ajratilgan. Birinchisi mahkuma ayolni homiladorlik va bola tug'ilgunga qadar hamda tug'ilgandan so'ng bo'lgan muddatda koloniya hududidan tashqarida yashashi bilan bog'liq hisoblanadi. Ikkinchisi esa, bolaning tug'ilganidan so'ng hamda uning uch yoshga yetganiga qadar bo'lgan muddatni qamrab oladi.

Bunda asosiy mezon sifatida mahkuma ayolning ijobiy xulq-atvori namoyon bo'ladi.

Agar mahkuma ayolni jazoni o'tash jarayonida ijobiy jihatdan tavsiflab bo'lmasa, shuningdek: a) o'ta xavfli retsidivist; b) jinoiy uyushma tashkilotchisi yoki ishtirokchisi bo'lsa, unga koloniya hududidan tashqarida yashash huquqi taqdim etilmaydi.

Mahkuma ayollarga koloniya hududidan tashqarida yashashga jazoni ijro etish muassasasi boshlig'ining prokuror tasdiqlagan qarori bilan ruxsat beriladi.

Mahkuma ayollarning koloniya hududidan tashqarida yashashi to'g'risida qaror qabul qilish uchun quyidagi hujjatlar talab etiladi: mahkuma arizasi yoki muassasa ma'muriyati iltimosnomasi; mahkum xulqini tavsiflovchi tavsifnoma; mahkumaning homiladorlik hamda tug'ish muddatlarini tasdiqlovchi kasallik tarixidan ko'chirma; uch yoshga to'lmagan bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi (nusxasi) hamda koloniya hududidan tashqarida yashashini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

Jazoni ijro etish koloniyasi hududidan tashqarida yashash huquqini qo'lga kiritgan mahkuma ayollar koloniya ma'muriyati nazoratida bo'lgan (odatda, koloniya hududi xo'jalik qismidagi) xona tipidagi yashash binosiga joylashtiriladi. Ularga uyqudan turish va uyquga yotishgacha bo'lgan vaqt oraliq'ida muayyan yo'nalishlarda erkin harakatlanishi mumkin bo'ladi.

Ushbu toifa mahkuma ayollar koloniya hududidan tashqarida yashab o'z hisoblaridan fuqarolik namunasidagi kiyimda yurishlari mumkin, bunday imkoniyat mavjud bo'lmagan taqdirda ular belgilangan namunadagi kiyimda yuradilar. Bundan tashqari, ular yonlarida qimmatbaho buyumlar va pul olib yurishlari hamda ulardan oziq-ovqat mahsulotlari va ichki tartib qoidalarida taqiqlanmagan boshqa buyumlarni qo'lga kiritishda cheklashlarsiz foydalanishlari mumkin.

Homilador ayollar va yangi chaqalog'i bor ayollarni qo'llab-quvvatlash hamda ularning sog'lig'ini yomonlashmasligini ta'minlash maqsadida jinoyat-ijroiya qonunchiligida ularning cheklanmagan miqdorda banderol, posilka va yo'qlovlar olishlari mumkinligi ko'zda tutilgan. Shuningdek, ularning cheklashlarsiz qisqa muddatli uchrashuvlar huquqi ta'minlanadi. Bunday uchrashuvlar muddati odatda to'rt soatgacha bo'lib, mahkuma ayollarning ishdan bo'sh vaqtlarida amalga oshiriladi.

Muassasa hududi doirasidan tashqarida yashash huquqining bekor bo'lish asoslari. Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ushbu toifa ayollarning koloniya hududidan tashqarida yashash huquqini quyidagi uch holatda bekor qilishi mumkin. Birinchi holatda, jazoni o'tash tartibi muntazam (ikki yoki undan ko'p marotaba) ravishda yoki bir marta qo'pol tarzda buzilganda (MJtKda taqiqlangan huquqbuzarliklardan biri sodir etilganda, shuningdek, ichki tartib qoidalarida taqiqlangan buyumlarni saqlangan, tarqatilgan yoki foydalanilganda). Ikkinchi holat homiladorlik va tug'ish bo'yicha ishdan ozod qilish davri tugashi bilan bog'liq. Uchinchi holatda mahkuma ayolning koloniya hududidan tashqarida yashash huquqi bola uch yoshga to'lishi munosabati bilan bekor qilinishi mumkin.

Koloniya hududidan tashqarida yashash yana, shuningdek, mahkuma ayol qonunda belgilangan taqdirda bolani uch yoshga to'lganiga qadar qarindoshlariga yoki vasiylik va homiylik organlari qaroriga ko'ra boshqa shaxslarga yoxud bolalar uyiga bergan taqdirda ham tugatilishi mumkin.

Bolalarni jazoni ijro etish koloniyalari qoshidagi bolalar uyiga joylashtirish. Ma'lumki, mahkuma ayollarni saqlashga mo'ljallangan koloniyalar qoshida bolalar uyi tashkil etiladi, unda bolalar normal yashashi va kamol topishi uchun zarur sharoitlar ta'minlanadi.

Mahkuma ayollar uch yoshga to'lmagan bolalarini bolalar uyiga joylashtirishga va ishdan bo'sh vaqtda ular bilan birga bo'lishga haqli.

Agar mahkumaning jazoni o'tash muddati tugashiga ko'pi bilan bir yil qolgan va u onalik burchlarini lozim darajada bajarib kelgan bo'lsa, muassasa ma'muriyati bolaning bolalar uyida bo'lish vaqtini uzaytirishi mumkin.

Jinoyat-ijroiya qonunchiligiga muvofiq, mahkuma ayollarni saqlashga mo'ljallangan koloniyalar qoshida bolalar uyi tashkil etilishi mumkin bo'lib, ushbu muassasalar o'z maqomiga ko'ra maxsus shtatli bolalar uyi hisoblanadi. Unda bolalar normal yashashi va kamol topishi uchun zarur sharoitlar ta'minlanadi, jumladan, maxsus oshxona tashkil etilib, unda bolalar uchun maxsus issiq ovqatlar pishiriladi. Bolalar uyi koloniyaning alohida hududida tashkil etiladi, tegishli tartibda bolalar uchun zarur bo'lgan buyum va jihozlar bilan jihozlanadi, maxsus o'yin xonalari tashkil etiladi.

Shuningdek, farzandlar bolalar uyida uch yoshga to'lgunlariga qadar saqlanishlari mumkin. Mahkuma ayollar uch yoshga to'lmagan bolalari bilan muomalasi uning ishdan bo'sh vaqtlarida amalga oshiriladi, sanitariya yoki tibbiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq ayrim holatlar bundan mustasno.

Jinoyat-ijroiya qonunchiligiga muvofiq, bolalar uyidagi bola uch yoshga to'lganidan keyin onasining roziligi bilan uning qarindoshlariga yoki, homiylik va vasiylik organining qaroriga binoan, boshqa shaxslarga berilishi yoxud tegishli bolalar muassasalariga yuborilishi mumkin.

Mahkuma ayollarning muassasa doirasidan chetga qisqa muddatli chiqishi tartibi va asoslari. Ma'lumki, JIKning 133-moddasiga ko'ra, mahkuma ayollarning muassasa doirasidan chetga qisqa muddatli chiqishi mumkin bo'lib, unga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalari bor mahkuma ayollarga bolalarini qarindoshlarinikiga, vasiylarinikiga yoki bolalar muassasalariga joylashtirib kelish uchun borish-kelish vaqtini (to'rt sutkagacha) hisobga olmagan holda o'n besh sutkagacha muddatga chetga chiqishga ruxsat etilishi mumkin.

Voyaga yetmagan nogiron bolalari bor ayollarga bir yilda bir marta ular bilan uchrashish uchun yo'lga ketadigan vaqtni hisobga olmagan yetti sutkagacha bo'lgan muddatga chetga chiqishga ruxsat etiladi.

Jinoyat-ijroiya qonunchiligiga muvofiq ozodlikdan mahrum etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumalar muassasa doirasida qisqa muddatli uchrashuvlar o'tkazish huquqiga ega. Bunda boshqa toifa mahkumlar bilan taqqoslaganda, maktabgacha yoshda bo'lgan bolali hamda nogiron bolali mahkuma ayollar imtiyozli huquqqa ega. Bunday toifadagi mahkumlarga jazoni ijro etish koloniyasidan chiqish huquqining taqdim etilishi jinoyat-ijroiya qonunchiligini insonparvarlik tamoyilini amalga oshirish shakli hisoblanadi hamda uni mahkumlar bilan muomala qilishga doir xalqaro standartlarga yanada yaqinlashtiradi. Ushbu norma muhim rag'batlantiruvchi ahamiyatga ega bo'lib, mahkumlarni o'z oilalari bilan munosabatlarini qo'llab-quvvatlaydi.

Mahkumlarni belgilangan muddatda qaytishini mushkallashtiruvchi yoki belgilangan muddatda qaytishini rad etuvchi sharoitlar bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya qonunchiligining boshqa normalari bilan tartibga solinadi. Shuningdek, mazkur toifa mahkumlarning tashqariga chiqish muddatlari jazoni ijro etish muddatiga qo'shib hisoblanadi.

Muassasa tashqarisiga chiqish bilan bog'liq harajatlar mahkumning shaxsiy hisobvarag'idan yoki boshqa shaxslar (qarindoshlar, nodavlat tashkilotlar va h.k.) hisobidan amalga oshiriladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Har bir koloniya turida jazoni o'tashning o'ziga xos xususiyat kasb etuvchi tartibi o'rnatilgan bo'lib, ular o'zaro farqlanadi.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu tartibni muhokama eting.

2. 2003 yil 12 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan.

Mazkur qonunga muvofiq joriy etilgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini muhokama eting.

3. Maxsus tartibli koloniyada jazoni o'tayotgan mahkum B. ijobiy xulq-atvori, tuzalish yo'liga qat'iy o'tayotganligini inobatga olib, rag'batlantirish tarzida umumiy tartibli koloniyaga o'tkazilgan. Keyinroq, ushbu koloniyadan rag'batlantirish tarzida manzil-koloniyaga o'tkazildi. Ammo, manzil-koloniyasida tartib-intizomni buzish holatlari kuchaygani sababli, u maxsus tartibli koloniyaga qaytarilgan. Lekin B.ning advokati ushbu holatni qonunga zid deb baholab, shikoyat qiladi.

Ushbu holat yuzasidan mahkum B.ga qo'llanilgan intizomiy choraning qonuniyligi to'g'risida fikringizni bayon eting.


4. Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanib, uning 4 yilini turmada, 6 yilini umumiy tartibli koloniyada o'talishi belgilandi. Ammo, mahkumning ota-onasining arizasiga binoan, jazo tayinlangandan 1 yildan so'ng, mahkum umumiy tartibli koloniyaga o'tkazilgan.

Ushbu holatni o'rganing va unda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlang.

UMRBOD OZODLIKDAN MAHRUM QILISH TARIQASIDAGI JAZONI IJRO ETISH

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi va shartlari. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tayotgan mahkumlarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini qo'llash tartibi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan mahkumlarning afv etishni so'rab murojaat qilish muddatlari va tartibi

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari



Jamiyat va davlat hayotini demokratik jihatdan yanada yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish borasidagi islohotlarning mohiyati va

mazmuni, sud-huquq tizimini liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning natijalari jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinishini hamda uni umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan almashtirilishi zarurligini taqozo etdi. Shunga muvofiq, 2005 yil 1 avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi 3641-sonli Farmoniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida 2008 yilning 1 yanvaridan jinoiy jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilindi va uning o'rniga umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi joriy etildi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo o'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan kiritilgan favqulodda jazo chorasi bo'lib, Jinoyat kodeksining 51-moddasiga muvofiq, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo'yishdan iboratdir. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (97-moddaning ikkinchi qismi) va terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) uchun belgilanadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tamom bo'lmagan jinoyat, xususan, jinoyatga tayyorgarlik ko'rish va jinoyat sodir etishga suiqasd qilish uchun tayinlanishi mumkin emas. Jinoyat qonunga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum qilish va uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazolari ayolga, o'n sakkiz yoshga to'lmadan jinoyat sodir etgan shaxsga va oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan ham tayinlanishi mumkin emas. Bunda oltmish yoshdan oshgan erkakka nisbatan bunday jazolar tayinlanishi mumkin emasligi to'g'risidagi qoida birinchi instantsiya sudi tomonidan aybdorning hukm chiqarish kuniga qadar, apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan holda - ish apellyatsiya instantsiyasida ko'rilgan kunga qadar bo'lgan yoshidan kelib chiqib qo'llaniladi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llash masalasini hal etishda sud mazkur jazo, faqat ish bo'yicha aybdor tomonidan g'ayriinsoniy xatti-harakatlarga yo'l qo'yilganligidan, shuningdek, jinoyatni sodir etgan shaxs jamiyat uchun mutloq xavfli ekanligidan dalolat beruvchi va unga nisbatan boshqa jazo tayinlanishi imkoniyatini istisno etuvchi alohida holatlar bo'lganda, tayinlanishi mumkinligini inobatga olishi kerak.


JK 50-moddasi 3-qismida nazarda tutilgan yigirma yildan ortiq, biroq yigirma besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga tayinlanadigan uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi ozodlikdan mahrum qilish jazosining bir ko'rinishi bo'lib, u faqat javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish (JK 97-moddaning 2-qismi) va odam o'lishiga yoki boshqa og'ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan terrorizm (JK 155-moddaning 3-qismi) sodir etgan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi sud tomonidan ushbu jinoyatlarga nisbatan qonunda umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanishi istisno etilgan (masalan, tamom bo'lmagan jinoyat uchun), shuningdek ish holatlariga ko'ra sud aybdorga nisbatan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi yoki o'n besh yildan yigirma yil muddatgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi maqsadga muvofiq emasligi haqidagi xulosaga kelgan hollarda tayinlanishi mumkin. [O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 14 noyabrdagi "Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 15-sonli Qarori.]

Umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tomonidan tayinlanishi mumkin.

2007 yil 11 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinib, Jinoyat-ijroiya kodeksiga "Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish" nomli yangi bo'lim kiritildi. Mazkur bo'limda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlash tartibi, jazoni o'tash shartlari, mahkumlarning mehnatini tashkil etish, ularga nisbatan intizomiy va rag'batlantirish choralarini qo'llash hamda umrbod ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarni afv etish masalalari qonuniy jihatdan mustahkamlab qo'yildi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tash tartibi va shartlari



Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lib, mazkur turdagi shaxslarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi jinoiy jazolarning eng og'iri bo'lib, mahkumlar alohida tartib asosida jazoni o'taydi.

Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxsga nisbatan koloniya turi, sodir etilgan jinoyat og'irligi va mahkumning shaxsidan kelib chiqqan holda, JK 50-moddasi yettinchi qismi "b", "v", "g" bandlariga muvofiq belgilanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarning har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish, yil mobaynidagi uchrashuvlari soni, telefon orqali so'zlashuvi, posilka, yo'qlov, banderol olish huquqlari ham mustahkamlab qo'yilgan. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi.

Jinoyat sodir etganlik uchun umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jazoni boshqa mahkumlardan

ajratilgan holda maxsus tartibli jazo ijro etish uchun ixtisoslashtirilgan muassasalarda o'taydilar.

Shuningdek, maxsus tartibli koloniyalarda umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilgan erkaklar ham saqlanadi. Maxsus tartibli koloniyalarda muassasaning turma ko'rinishidagi nazoratchilari rezina tayoqchalari bilan qurollangan nazorati ostida kamera tipidagi koloniyalarda saqlanishi nazarda tutiladi. Maxsus tartibli koloniyalar quyidagi xususiyatlarni hisobga olgan holda jihozlanadi:

- turar joy zonasi ikki qismga: kamera tipidagi xonalari hamda oddiy turar joylari mavjud bo'lgan hududlarga bo'linadi;

- oddiy turar joylari mavjud hududda boshqa turdagi koloniyalarda bo'lgan kabi xizmat va kommunal-maishiy ob'ektlar joylashadi. Bunda turar joylar ma'muriy va xo'jalik – maishiy binolardan batamom ajratilgan holda joylashtiriladi. Tibbiyot bo'limi hamda statsionar binosi yaxlit sidirg'a devor bilan o'raladi.

- intizomiy bo'linma kamera tipidagi xonalar mavjud bo'lgan hududga joylashtiriladi, unda hibsxona va kartserlarning kameralari jihozlangan bo'lib, kartser kameralari mahkumlarni yakka yolg'iz saqlash uchun mo'ljallangan. Bu binolar yaqinida sayr qilish maydonchalari jihozlanadi.

Umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bir nafar mahkumga to'g'ri keladigan turar joy maydonining normasi to'rt kvadrat metrdan kam bo'lishi mumkin emas. Umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlar kameralarga ko'pi bilan ikki kishidan joylashtiriladilar. Mahkumlarning iltimosiga ko'ra yoki zarurat taqozo etganda ular bir kishilik kameralarda saqlanishlari ham mumkin. Kun tartibiga ko'ra o'tkaziladigan tadbirlarda turli kameralarda saqlanayotgan shaxslarning o'zaro muloqoti cheklanadi. Kameralarda saqlanadigan mahkumlarning kinofilm va teleko'rsatuvlar ko'rishi taqiqlanadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxslar umumiy ta'lim olishga jalb etilmaydi, jazoni ijro etish tartibi va shartlariga zid kelmagan hollarda mustaqil ta'lim olish imkoniyati yaratiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 2008 yilning 1 yanvarigacha respublikamiz jinoyat-ijroiya qonunchiligida mahkumlarni saqlash sharoitlarining ikki xil turi, ya'ni odatdagi va yengillashtirilgan saqlash sharoitlari joriy etilgan edi. Jinoyat, jinoyat-ijroiya kodekslariga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi kiritilganligi munosabati bilan umrbod ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlar jazoni qattiq, odatdagi va yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida o'tashligi belgilab qo'yildi.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 136-moddasiga ko'ra, umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jazoning dastlabki o'n yilini **qattiq saqlash sharoitlarida** o'taydilar.

Mahkum tergov izolyatorida bo'lgan vaqtda unga nisbatan kartserga qamash tariqasidagi jazo qo'llanilmagan bo'lsa, qattiq saqlash sharoitida bo'lish muddati mahkum qamoqqa olingan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Qattiq saqlash sharoitida jazoni o'tayotgan mahkumlar quyidagi huquqlarga ega:

- o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan belgilangan eng kam ish haqi miqdorining yetmish besh foizigacha bo'lgan summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish;
- yil mobaynida bir marta qisqa muddatli uchrashuv, bir marta telefon orqali so'zlashuv, bitta posilka yoki yo'qlov, bitta banderol olish huquqiga ega.

Muddatning kamida o'n yilini o'tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazolar (ogohlantirish, hayfsan, yengillashtirilgan saqlash sharoitini bekor qilish, intizomiy bo'linmaga kiritib qo'yish va hokazo) olmagan umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlar qattiq saqlash sharoitlaridan **odatdagi saqlash sharoitlariga** o'tkazilishlari mumkin.

Odatdagi saqlash sharoitida jazoni o'tayotgan mahkumlar quyidagi huquqlarga ega:

- o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish;
- yil mobaynida bir marta uzoq muddatli va bir marta qisqa muddatli uchrashuv, ikki marta telefon orqali so'zlashuv, ikkita posilka yoki yo'qlov, ikkita banderol olish huquqiga ega.

Muddatning kamida o'n besh yilini o'tagan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinganlar odatdagi saqlash sharoitlaridan **yengillashtirilgan saqlash sharoitlariga** o'tkazilishlari mumkin.

Yengillashtirilgan saqlash sharoitida jazoni o'tayotgan mahkumlar quyidagi huquqlarga ega hisoblanadi:

- o'z shaxsiy hisobvarag'ida mavjud bo'lgan mablag'lardan belgilangan eng kam ish haqining bir yarim baravarigacha miqdordagi summaga har oyda oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish;

-yil mobaynida bir marta uzoq muddatli va ikki marta qisqa muddatli uchrashuv, uch marta telefon orqali so'zlashuv, uchta posilka yoki yo'qlov, uchta banderol olish huquqiga ega.

Shuni ta'kidlash lozimki, umrbod ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlar saqlash sharoitlaridan qat'i nazar, har kuni bir yarim soatgacha sayr qilish huquqiga ega. Mahkumning xulqi namunali bo'lgan taqdirda sayr muddati 2 soatgacha uzaytirilishi mumkin.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 138-moddasida umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlarning mehnatini tashkil etish haqida so'z yuritilgan bo'lib, unga muvofiq, umrbod ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan mahkumlarning mehnati odatdagi va yengillashtirilgan saqlash sharoitlarida saqlanayotgan shaxslar uchun ish kameralarida tashkil etilib, mehnat qonunchiligiga asosan tartibga solinadi. Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga mahkum qilinganlarning mehnatini tashkil etish tartibini belgilanishi, birinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1966 yildagi "Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standart" Qoidalarining 71.3-bandidagi "Mahkumlarga normal ish kunini to'ldirish uchun yetarli bo'lgan foydali ishni yuklatish lozim", degan norma talablariga mos kelsa, ikkinchidan, fuqarolarda umrbod ozodlikdan mahrum qilishga mahkum qilinganlarni davlat byudjeti hisobidan ta'minlanar ekan, degan fikrni uyg'otmaslikka olib keladi [Rustambaev M.H. Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar.. –T.: TDYI, 2007. – B.275.]


Umrbod ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm etilgan shaxslarga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llaniladi. Mazkur rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llash tartibi Jinoyat-ijroiya kodeksida mustahkamlangan.

Mahkumlarga nisbatan quyidagi rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin:

- tashakkur e'lon qilish;
- ilgari qo'llanilgan intizomiy jazoni muddatidan oldin olib tashlash;
- yorliq, qimmatli sovg'a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash;
- qo'shimcha posilka, yo'qlov yoki banderol olishga ruxsat berish.

Jazoni o'tashning yengillashtirilgan sharoitlariga belgilangan tartibda o'tkazilgan mahkumlarga nisbatan rag'batlantirish tartibida qo'shimcha uchrashish yoki telefon orqali so'zlashish imkoniyati ham berilishi mumkin.



Lekin ularga nisbatan boshqa mahkumlar foydalanishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalar sotib olish uchun pul summasini ko'paytirish kabi rag'batlantirish choralari qo'llanilmaydi.

Jazoni o'tash tartibini buzgan umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarga JIKning 105-moddasidagi intizomiy jazo choralaridan faqat ogohlantirish, hayfsan, intizomiy bo'linmagan kiritib qo'yish choralari qo'llaniladi. Shuningdek, agarda mahkum jazoni ijro etuvchi muassasaning ichki tartib qoidalarini buzsa, yengillashtirilgan saqlash sharoitidan odatdagi yoki qattiq saqlash sharoitiga yoxud odatdagi saqlash sharoitidan qattiq saqlash sharoitiga o'tkazilishi mumkin.

Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'tagan shaxs vafot etgan taqdirda dafn etish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Mahkumning vafoti haqida yaqin qarindoshlariga xabar yuborilganidan so'ng, qirq sakkiz soat ichida jasadni berish to'g'risida yoki yetib kelishi

to'g'risida jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati xabar olmasa, mahkum JIEM ma'muriyati tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dafn etiladi [O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2012 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 174-sonli buyrug'i]

Umrbod ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan mahkumlarning afv etishni so'rab murojaat qilish muddatlari va tartibi

Afv etish akti sudlangan shaxsni to'liq yoki qisman jazodan ozod qilish yoxud tayinlangan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish to'g'risidagi hujjat bo'lib, insonparvarlik tamoyilining ifodasi hisoblanadi. Afv etish mahkumga nisbatan individual tartibda qo'llanilib, shaxsning aybdor emasligini inkor etmaydi va jinoyat sodir etish faktini bekor qilmaydi. Mazkur akt O'zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan sudlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlat fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga ko'ra, afv etish akti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mutloq vakolati bo'lib, Prezident Farmoni asosida amalga oshiriladi.

Afv etish akti quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

-asosiy jazodan to'liq yoki qisman ozod etish va qo'shimcha jazoni ijro etmaslik;

-jazodan shartli ravishda ozod etish;

-umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini yoki jazoning ijro etilmagan qismini yengilroq jazoga almashtirish;

-sudlanganlikni olib tashlash. [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 13 martdagi PF-4094-sonli "O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish Nizomini qo'llash tartibi to'g'risida"gi Farmoni]

Afv etish to'g'risida murojaat qilingandan so'ng jazoni ijro etish O'zbekiston Respublikasi Prezidentidan tegishli javob kelgunga qadar to'xtatib turiladi. Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini afv etish uni ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirishni nazarda tutadi. Afv etish to'g'risidagi

iltimosnoma dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi afv etish masalalari bo'yicha Komissiya tomonidan ko'rib chiqiladi. Komissiyaning ishchi organi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha xizmatining fuqarolik va afv etish masalalari bo'yicha sho'basi hisoblanadi. Komissiyaning tarkibi (rais, uning o'rinbosari, a'zolari) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Afv etish to'g'risidagi iltimosnoma, qoidaga ko'ra, sudlangan shaxs tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga yozma ravishda hukm qonuniy kuchga kirgandan boshlab quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

a) umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxs tomonidan tayinlangan jazo muddatining 25 yili amalda o'talganidan so'ng, agar shaxs tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazo olmagan, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan yondashgan, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda faol ishtirok etib kelayotgan bo'lsa – tayinlangan jazo muddatining 15 yilini amalda o'tab bo'lganidan keyin;

b) uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxs tomonidan tayinlangan jazo muddatining 20 yili amalda o'talganidan so'ng, agar shaxs tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan, belgilangan tartibni buzganlik uchun intizomiy jazoga ega bo'lmasa, mehnat va o'qishga nisbatan vijdonan yondashayotgan bo'lsa, tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishda faol ishtirok etib kelayotgan bo'lsa – tayinlangan jazo muddatining 15 yilini amalda o'tab bo'lganidan keyin.

Iltimosnomaga quyidagi hujjatlar ilova etiladi:

a) mahkumning xulqi, jazoni ijro etish davrida o'qishga, ishga va sodir etgan jinoyatiga nisbatan munosabati kabi ma'lumotlar aks ettirilgan tavsifnoma;

b) mahkumning anketa ma'lumotlari, oilaviy ahvoli, shuningdek, sog'lig'i to'g'risidagi ma'lumotnoma;

v) jazoni ijro etishga asos bo'lgan hukm (hukmlar) nusxasi va mazkur hukm (hukmlar)ga oid yuqori instancesiya sudlarining qarori;

g) muassasa ma'muriyatining hukm qonuniy kuchga kirganligi; mahkumga nisbatan amnistiya yoki afv etish akti qo'llanilganligi; jinoyat natijasida yetkazilgan moddiy zarar qoplanganligi; avval berilgan iltimosnomaning natijasi yuzasidan tegishli hujjatlar.

Shuningdek, mahkumning iltimosiga ko'ra ishga taaluqli boshqa hujjatlar ham ilova etilishi mumkin. Iltimosnoma va unga ilova qilingan

hujjatlar iltimosnoma berilgan kundan boshlab 20 kun ichida fuqarolik va afv etish masalalari bo'yicha sho''baga yuboriladi. Muassasa ma'muriyati iltimosnoma yuborilganligi to'g'risida mahkumni xabardor etadi. Iltimosnoma to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshirilib, 10 kun ichida iltimosnomani tegishli tartibda ko'rib chiqish uchun qabul qilish yoki qabul qilishni rad etish to'g'risida (agar iltimosnoma tegishli ravishda rasmiylashtirilmagan, zarur hujjatlar ilova qilinmagan bo'lsa) qaror qabul qilinadi. Ko'rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilganidan so'ng iltimosnoma qayta kiritilishi mumkin. Bayon etilgan holatlarni tekshirish zarurati yuzaga kelganda iltimosnoma yuqori turuvchi organlarga nazorat tartibida yuboriladi. Zarurat yuzaga kelgan hollarda fuqarolik va afv etish masalalari bo'yicha sho''ba tegishli organlarga so'rovnoma bilan murojaat etish huquqiga ega hisoblanadi. Bunday hollarda davlat organlari va o'zini-o'zi boshqa organlari so'rovnoma kelib tushgan vaqtdan boshlab 15 kun ichida javob berilishi lozim.

Fuqarolik va afv etish masalari bo'yicha sho''ba hujjatlar va ma'lumotlarni umumlashtirib, umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarni afv etish to'g'risida xulosa berish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Bosh Prokuraturasiga yuboradi. Xulosa bir oylik muddatda taqdim etilishi lozim.

Fuqarolik va afv etish sho''basi to'plagan hujjatlarni o'rganish asosida umumlashtirilgan ma'lumotnoma tayyorlaydi va "Afv etish komissiyasi"ga taqdim etadi. Komissiya tomonidan iltimosnoma uch oydan ortiq bo'lmagan muddat davomida ko'rib chiqiladi. Zarurat bo'lganda komissiya yig'ilishlari o'tkaziladi va a'zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Komissiya yig'ilishi rais yoki uning topshirig'iga asosan rais o'rinbosari tomonidan olib borilib hamda bayonnoma asosida rasmiylashtiriladi. Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Raisi, Bosh Prokuror, Milliy xavfsizlik xizmati Raisi, Adliya vaziri va Ichki ishlar vaziri, ular bo'lmagan taqdirda o'rinbosarlari ishtirok etadi.

Iltimosnomani ko'rib chiqishda quyidagi holatlar e'tiborga olinadi: a) sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va xususiyati; b) mahkumni jazoni o'tash vaqtidagi xulqi; v) jazoning o'talgan muddati (miqdori); g) mahkum avval shartli ravishda jazodan ozod etilganligi, unga nisbatan amnistiya akti qo'llanilganligi, afv etilganligi; d) jinoyat natijasida yetkazilgan zarar qoplanganligi; e) mahkumning shaxsi, sog'lig'i, sudlanganligi, oilaviy ahvoli, yoshi va b.q. Shundan so'ng komissiya a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan qaror qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Iltimosnoma ijobiy ko'rib chiqilgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taklif kiritiladi.

Iltimosnoma rad etilgan taqdirda fuqarolik va afv etish masalalari bo'yicha sho''ba mahkumni yozma ravishda xabardor etadi.

Afv etish to'g'risidagi takroriy iltimosnomalar bir yildan so'ng qayta kiritilishi mumkin. Afv etish to'g'risidagi komissiya amalga oshirilgan ishlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga ma'lumot beradi. Prezident zarur hujjatlar bilan tanishib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining afv etish to'g'risidagi Farmoni chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining afv etish to'g'risidagi Farmoni ijro uchun Ichki Ishlar vazirligiga, ijrosi ustidan nazorat uchun esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Bosh Prokuraturasiga yuboriladi. Afv etish masalalari bo'yicha chiqarilgan farmonning o'z vaqtidagi ijrosi ustidan nazorati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining Fuqarolik va afv etish masalalari bo'yicha sho''ba zimmasiga yuklatiladi. Umrbod yoki uzoq muddatli ozodlikdan mahrum etish jazosi afv etish tartibida ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirilganda jazoni maxsus tartibli koloniyada o'taladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'tash tartibi ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash tartibidan farqlanadi. *Ushbu farqlarni muhokama eting.*

2. Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish yoki umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilgan shaxslar afv etish to'g'risidagi iltimosnoma bilan murojaat qilishi mumkin. *Uning asoslari va tartibini muhokama eting.*

3. Sh. ikki yoki undan ortiq shaxsni o'ta shavqatsizlik bilan o'ldirganlikda ayblanib, Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi "a", "j" bandlari bilan aybdor deb topilib, unga umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan va jazoni maxsus tartibli koloniyada o'tash belgilangan. Jazoni ijro etish koloniyasiga yetib kelgan Sh. koloniya boshlig'iga uzoq muddatga uchrashuv o'tkazish uchun ariza bilan murojaat etgan. Jazoni ijro etish muassasasi boshlig'i mahkumning iltimosini rad etgan va umrbod ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm etilgan shaxslarga uzoq muddatga uchrashuv huquqi berilmasligi bilan izohlagan.

Vaziyatni tahlil eting, unga huquqiy baho bering.

4. Uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan T. jazoning 10 yilini qattiq tartibdagi saqlash sharoitida o'tadi. Keyin T. odatdagi saqlash sharoitiga o'tkazildi. Biroq jazoni ijro etish vaqtida

intizomni buzganligi uchun unga xayfsan e'lon qilindi va qattiq saqlash sharoitiga qayta o'tkazildi.

Vaziyatni tahlil eting, unga huquqiy baho bering.


HARBIY XIZMATCHILARGA NISBATAN TAYINLANGAN XIZMAT BO'YICHA CHEKLASH, QAMOQ VA INTIZOMIY QISMGA JO'NATISH TARIQASIDAGI JAZOLARNI IJRO ETISH

Xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish tushunchasi, tartibi va mazkur jazoni ijro etish bo'yicha harbiy qism komandiri (boshliq)ning vazifalari. Qamoq tariqasidagi jazoni ijro etish tushunchasi, tartibi va ushbu jazoga hukm qilingan mahkumlarning huquqiy holati. Intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi va shartlari. Mahkumlarning uchrashuvlari, posilkalar, yo'qlovlar, banderollar va pul jo'natmalarini olish hamda yuborish. Intizomiy qismda jazoni o'tayotgan mahkumlarning moddiy-maishiy ta'minoti va ularga tibbiy xizmat ko'rsatish. Intizomiy qismda jazo o'tayotgan mahkumlarning mehnati va uni tartibga solish. Intizomiy qismdagi mahkumlarni rag'batlantirish, intizomiy jazo choralari va ularni qo'llash tartibi.

Xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni ijro etish tushunchasi, tartibi va mazkur jazoni ijro etish bo'yicha harbiy qism komandiri (boshliq)ning vazifalari

Harbiy xizmatni o'tayotgan shaxslarga nisbatan tayinlangan xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni tayinlash tartibi O'zbekiston Respublikasi JK 47-moddasida belgilangan. Unga ko'ra mazkur jazo harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko'rsatilgan muddat davomida muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum qilib, pul ta'minotining **o'n foizidan o'ttiz foizigacha** bo'lgan miqdorini davlat hisobiga ushlab qolishdan iboratdir. Mazkur jazo harbiy xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan shaxslarga **ikki oydan uch yilgacha** muddatga qo'llaniladi. Shuningdek, ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki og'ir oqibatlarini keltirib chiqarmagan ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyat uchun uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish, qamoq yoki axloq tuzatish ishlari jazosi o'rniga shu muddatga xizmat bo'yicha cheklash jazosi qo'llanilishi mumkin. Xizmat bo'yicha cheklash kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan shaxsga nafaqat u javobgarlikka tortilayotgan modda sanksiyasida ushbu jazo ko'rsatilganida, balki xizmatchining muayyan qilmishi uchun modda sanksiyasida axloq

tuzatish ishlari nazarda tutilgan bo'lsa ham qo'llanilishi (bu hol harbiy xizmatchining xizmat vazifasi bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatga taalluqlidir) mumkin.



Xizmat bo'yicha cheklash jinoiy jazo chorasi sifatida axloq tuzatish ishlari bilan mazmunan o'xshash (miqdori, mohiyati va h.k.) bo'lib, ushbu jazolarning farqli jihatini ularning sub'ektida ko'rish mumkin. Xususan, axloq tuzatish ishlari jinoyat sodir etish vaqtida harbiy xizmatni o'tamayotgan fuqarolarga nisbatan qo'llanilsa, xizmat bo'yicha cheklash jinoyat sodir etgan vaqtda amalda harbiy xizmatni o'tayotgan harbiylarga nisbatan qo'llaniladi. Yuqoridagilar asosida hamda JK 47-moddasini mazmunan tahlil etib shunday xulosaga kelish mumkinki, xizmat bo'yicha cheklash harbiylarga nisbatan axloq tuzatish ishlarini qo'llashda ifodalanadigan jinoiy jazo chorasidir" [Jinoyat ijroiya kodeksiga sharhlar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustamboev. – Toshkent: TDYI, 2007. – B. 280.].

Jinoyat qonun hujjatlarida ushbu jazo turining mohiyati mahkum pul ta'minotining muayyan miqdorini **(10%dan 30%gacha)** ushlab qolishda ifodalanadi, xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tash muddati davomida mahkumning mansabi, harbiy yoki maxsus unvoni oshirilishi mumkin emas, jazoni o'talgan vaqt esa, uning ko'p yil ishlaganlik, navbatdagi harbiy yoki maxsus unvon hamda pensiya olish uchun asos bo'ladigan xizmat muddatiga qo'shilmaydi. Ushbu jazo turining o'ziga xos

xususiyati shundaki, mahkum harbiy xizmatni o'zi xizmat qilayotgan qismda, o'z harbiy jamoasida davom ettiradi. Bu esa uning xulq-atvoriga ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi JIKda mazkur jazoni ijro etishga alohida e'tibor berilgan (141-148-moddalar). Kodeksning 16-moddasi 3-qismiga muvofiq hukm qonuniy kuchga kirganidan so'ng uning nusxasi va hukmni ijro etish to'g'risidagi sudning farmoyishi kelganidan keyin xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazo harbiy xizmatchi xizmatni o'tayotgan joydagi harbiy qismlar (muassasalar)ning qo'mondonligi tomonidan ijro etiladi.

Hukm qonuniy kuchga kirganidan so'ng uning nusxasi, sudning hukm ijrosi to'g'risidagi farmoyishi harbiy qismga kelib tushganidan keyin qism komandiri **uch kundan** kechiktirmasdan tegishli buyruq chiqarishi shart.

Buyruqda: 1) mahkumning lavozimi va harbiy unvonini ko'tarishga taqdim etmaslik asosi va muddati; 2) harbiy xizmatchiga navbatdagi harbiy unvon berish va pensiya tayinlash uchun uning xizmat muddatiga qo'shib hisoblanmaydigan vaqt; 3) mahkumning pul ta'minotidan davlat foydasiga o'tkaziladigan chegirma miqdori ko'rsatiladi. Ushbu buyruq harbiy xizmatchi e'tiboriga yetkaziladi va uning shaxsiy hujjatlari yig'ma jildiga hukm nusxasi bilan birgalikda qo'shib qo'yiladi. Komandir (boshliq) hukm ijro etilganligi haqida uni chiqargan sudga **uch kunlik** muddat ichida xabar berishi kerak.

Harbiy qism komandiri sudning hukmini ijro etishdan bo'yin tovlagan taqdirda, u sud hujjatini ijro etmaganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi JK 232-moddasi bilan javobgarlikka tortiladi.

Mahkum-harbiy xizmatchi xizmat bo'yicha cheklash jazosining ijrosi(ta'siri)ni oylik ish haqini olgan kuni his etadi. Chunki, o'sha kundan boshlab sud hukmida ko'rsatilgan miqdordagi summa uning pul ta'minotidan ushlab qolinadi. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuniga (2002 yil) muvofiq harbiy xizmatchilarning pul ta'minoti uning harbiy mansabi bo'yicha oylik ish haqi va harbiy unvoni bo'yicha oylikdan tashkil topadi. Xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotgan shaxslar yuqoridagilardan tashqari turli qo'shimcha (uzoq muddat xizmat qilganligi, alohida sharoitlarda xizmat qilganligi va b. q.)larni shuningdek, qo'shimcha pul to'lovlari (kalendar yili yakuni bo'yicha, ta'tilga ketish vaqtida, harbiy xizmatni yangi joyda o'tashga o'tkazilishi munosabati bo'yicha va h.k.)ni oladilar. Ushlab qolish yuqorida ko'rsatilgan barcha turdagi to'lovlardan amalga oshiriladi.

Mahkum harbiy xizmatchiga harbiy xizmatni o'tash vaqtida kasalligi yoki shikast olganligi munosabati bilan to'lanadigan sug'urta miqdoridan ushlab qolinmaydi. Mazkur jazo turini ijro etishning boshqa salbiy oqibati ham bo'lib, u xizmat vazifasini o'zgartirishga ham ta'sir ko'rsatadi, xususan, xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazo muddati mobaynida mahkum harbiy xizmatchining lavozimi va harbiy unvoni oshirilishi mumkin emas. Bunday holda komandir (boshliq)ga mahkumni harbiy qism doirasida yoki boshqa qismga ko'chirgan holda boshqa teng lavozimga o'tkazish huquqi beriladi (JIK 145-m.). Komandir (boshliq) jazoni ijro qilishning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, muayyan harbiy qismda teng lavozim mavjudligini e'tiborga olib, qaror qabul qiladi. Agar harbiy xizmatchining roziligi bilan u boshqa qism yoki joyga o'tkazilgan bo'lsa, bu haqida hukm chiqarilgan sud xabardor qilinadi. Kontrakt bo'yicha harbiy xizmatni o'tayotgan shaxs muayyan qismda yoki boshqa joyda harbiy xizmatni o'tashga rozi bo'lmasa, u bilan tuzilgan kontrakt bekor qilinishi mumkin. Bu holda ham hukm chiqargan sud xizmat bo'yicha cheklash jazosini boshqa turdagi jazo bilan almashtirishi uchun xabardor qilinadi.

Ushbu jazo turi nafaqat jazolash, balki tarbiyaviy ta'sir choralarini ham nazarda tutadi. Xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tayotgan harbiy xizmatchilar bilan ular sodir etgan jinoyatning xususiyatini, ijtimoiy xavflilik darajasini va mahkumning shaxsi, shuningdek, xulq-atvori, hamda harbiy xizmatga munosabatini inobatga olgan holda tarbiyaviy ish olib boriladi (JIK 144-m.). Bunday tarbiyaviy ishlarning shakli va usullari qonunda ko'rsatilmagan, ammo tarbiyaviy ishlarni olib borishda ular sodir etgan jinoyatning xususiyati, ijtimoiy xavflilik darajasi va mahkumning shaxsi, shuningdek, xulq-atvori va harbiy xizmatga munosabatini e'tiborga olish lozimligi ko'rsatilgan, ya'ni mazkur ishni tashkil qilish va o'tkazishda individual yondashuv talab qilinadi. Qonunda tarbiyaviy ishlarni olib borish vazifasi harbiy qism komandiri zimmasiga yuklatilgan bo'lsada, qoidaga ko'ra uni shaxsiy tarkib bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish bo'yicha uning o'rinbosari olib boradi. Ushbu ishga ofitserlar va serjantlar tarkibidan tajribali va obro'li xizmatchilar jalb qilinishi bilan birga, qismda faoliyat yuritayotgan jamoat tashkilotlari (masalan, ofitserlar kengashi, ayollar kengashi, "Kamolot" YoIH BT va h.k.)lar ham ishtirok etadilar. Qism komandiri mazkur ishni nazorat qiladi, shuningdek, shaxsan o'zi u yoki bu tarbiyaviy xususiyatdagi tadbirni o'tkazishi mumkin. Asosiysi tarbiyaviy ish tizimli va chuqur o'ylangan tarzda, harbiy xizmatchidagi muayyan jinoyatni sodir etilishiga turtki bo'lgan sifatlarni bartaraf qilishga, neytrallashtirishga qaratilishi kerak. Xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazo muddati mobaynida mahkum-harbiy xizmatchining lavozimi va harbiy unvoni


oshirilishi mumkin emas. Xizmat bo'yicha cheklash muddati tugashidan kamida **uch kun** oldin komandir (boshliq) jazo ijrosi tugaydigan sanani ko'rsatib buyruq chiqaradi. Mazkur buyruqda avvalo, jazoning ijrosi tugaydigan muddat, ya'ni uning oxirgi kuni ko'rsatiladi. JK 47-moddasi 2-qismiga ko'ra, ushbu jazo chorasining muddati oylar va yillar bilan o'lchanadi. Shuningdek, buyruqda harbiy xizmatchining pul ta'minotidan chegirib qolishning to'xtatilganligi, lavozim va harbiy unvonini ko'tarish muddatlarining tiklanishi ko'rsatilishi kerak. Buyruqning nusxasi hukm chiqargan sudga yuborilishi shart. Bu sudga ushbu turdagi jazoning ijrosini nazorat qilish imkonini beradi. Qonunda xizmat bo'yicha cheklash jazosi ijrosini muddatidan ilgari to'xtatish yoki tugatish imkoniyatlari ham nazarda tutilgan.

Bunday jazodan:

- ushbu jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirish;
 - amnistiya akti yoki avf etish asosida;
 - aynan ushbu harbiy xizmatchi tomonidan xizmatni o'tash bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlarga ko'ra muddatdan ilgari ozod qilish mumkin.
-

O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuniga muvofiq kontrakt bo'yicha xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchi tuzilgan kontrakt bekor qilinishi munosabati bilan harbiy xizmatdan muddatdan ilgari bo'shatilishi mumkin. Mazkur qonunga muvofiq va JIKning 165- moddasiga binoan mahkum kasalligi tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi munosabati bilan ham jazodan ozod qilinishi mumkin (bunday hollarda harbiy-tibbiy komissiyaning xulosasi talab qilinadi). Ayol harbiy xizmatchilar xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham ozod qilinadilar.

Qamoq tariqasidagi jazoni ijro etish tushunchasi, tartibi va ushbu jazoga hukm qilingan mahkumlarning huquqiy holati



JIK 148-moddasi harbiy xizmatchilarga nisbatan sud tomonidan tayinlangan qamoq jazosining o'talishiga bag'ishlangan bo'lib, unga muvofiq qamoq jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar jazoni garnizon gauptvaxtasida o'taydilar. Oddiy fuqarolarga nisbatan tayinlangan qamoq jazosi va harbiy xizmatchilarning ushbu jazoni o'tashi shartlari va tartibida muayyan farqlar mavjud.

Qamoq jazosi harbiy sud tomonidan **bir oydan olti oygacha** muddatga tayinlanadi. Ushbu jazo turi ofitserlar, kontrakt asosida xizmatni o'tayotgan oddiy askar, serjantlar va muddatli harbiy xizmatni o'tayotganlarga nisbatan tayinlanadi.

Mazkur jazo chorasiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar jazoni garnizon gauptvaxtasida o'taydilar hamda ushbu jazo chorasining ijro etilishi mazkur garnizon gauptvaxtalari tomonidan ta'minlanadi. Qamoq harbiy xizmatchilarga qo'llaniladigan mustaqil jazo chorasi hisoblanadi, mazkur jazo chorasi o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa jazolardan tubdan farq qiladi. Gauptvaxtalarda mahkumlar alohida izolyatsiya qilingan kamera sharoitida (ikki kishilik yoki to'rt kishilik kameralarda) saqlanadilar. Gauptvaxtalarda nafaqat qamoq jazosini o'tayotganlar, balki mast holda harbiy intizomni buzganligi uchun ushlanganlar; sud sanksiyasiga ko'ra qamoqqa olinganlar; sudlanuvchilar (sudda jinoyat ishlarining ko'rilishi tugaguniga qadar); harbiy sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinganlar (hukm nusxasini olguniga qadar); harbiy sud tomonidan

intizomiy qismga jo'natish jazosiga hukm qilinganlar (hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar) ham saqlanadilar.

Harbiy sud tomonidan jazoga hukm qilinganlar, sudlanuvchilar, gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilar gaupvaxtada harbiy intizomni buzganligi uchun qamoqqa olingan va ushlanganlardan alohida saqlanadi. Shuningdek, mahkum va sudlanuvchilar ham gumondor va ayblanuvchilardan alohida saqlanadilar. Ofitserlar tarkibidagi shaxslar jazoni boshqa toifadagi harbiy xizmatchilardan, starshina, serjantlar va oddiy askarlardan alohida o'taydilar, shuningdek, chaqiruv asosida va xizmatni kontrakt bo'yicha o'tayotganlar ham jazoni alohida o'taydilar. Jazoni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning bunday nisbati jazoning tarbiyaviy ta'siri samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Harbiy xizmatchini qamoq tariqasidagi jazoga hukm qilgan harbiy sud harbiy qismga jazoni ijro etish to'g'risidagi farmoyishini yuboradi. Harbiy qism komandiri **o'n kun** ichida harbiy xizmatchini qamoq jazosini o'tashi uchun gaupvaxtaga jo'natadi. Harbiy xizmatchi gaupvaxtaga yuborilishi uchun kuzatuv ostiga olingan, mustaqil o'zi borganida esa garnizon gaupvaxtasi boshlig'i uni qabul qilgan vaqtdan qamoqqa olingan hisoblanadi. Mahkumlarni gaupvaxtaga jo'natish uchun garnizon harbiy komendanti (harbiy qism shtab boshlig'i)ning buyrug'iga ko'ra transport vositasi ajratiladi; konvoy (soqchilar) tarkibi, uning vazifalari, qo'riqlash tartibi belgilanadi. Mahkumlar bilan shahar va katta aholi punktlarida piyoda yurish, shuningdek, jamoat transportida yurish man etiladi. Harbiy xizmatchilar tomonidan qamoq jazosini o'tash tartibi va shartlari nafaqat JIKdagi asosiy qoidalar bilan, balki O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining normativ huquqiy aktlari, shuningdek, Harbiy xizmatchi mahkumlarning jazoni o'tashi qoidalari bilan ham tatribga solinadi. Qamoq jazosini harbiy xizmatchilarga qo'llash uchun ularni gaupvaxtaga qabul qilish va saqlash amaliyoti shakllangan.

Mahkum harbiy xizmatchi guptvaxtaga keltirilganidan so'ng gaupvaxta (yoki harbiy qism bo'yicha navbatchi, qorovul) boshlig'i tomonidan unda zarur bo'lgan ashyolarning mavjudligi tekshiriladi. Mahkum shaxsiy ko'rikdan o'tkaziladi, uning kamari, kamerada bo'lishi ta'qiqlangan ashyo va qimmatbaho narsalari, xizmatga oid barcha hujjatlari saqlab qo'yish uchun olib qo'yiladi. Mahkumlar kitobi va shaxsiy ro'yxatga harbiy sud chiqargan hukmning nusxasidagi va boshqa zarur ma'lumotlar yozib qo'yiladi. Mahkumga ashyolar, pul, hujjatlarning omborda saqlash uchun undan olib qo'yilganligi haqida tilxat beriladi.

Mahkum harbiy mashg'ulotlar va ishlarga chiqarilmaydi, yotishi uchun ko'rpa, yostiq, choyshab bilan ta'minlanadi, unga o'zi olib kelgan kurtkasi beriladi. Uning chekishiga alohida belgilangan joyda ruxsat beriladi.

Mahkumning boshqa harbiy xizmatchilar bilan uchrashishi uchun gauptvaxta boshlig'ining maxsus orderi talab qilinadi. Qolgan barcha hollarda ular intizomiy tartibda qamoqqa olingan harbiy xizmatchilar singari umumiy asoslarda saqlanadilar. Harbiy prokurorlar doimiy ravishda gauptvaxtalarga kelib, qamoq tarzidagi jazoning to'g'ri ijro etilayotganligi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Namunaviy xulqi va harbiy xizmatga vijdonan munosabatda bo'lganligi uchun rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash maqsadida mahkum harbiy xizmatchilarga quyidagi **maxsus rag'batlantiruvchi choralar** qo'llaniladi: 1) tashakkur e'lon qilish; 2) ilgari qo'llanilgan intizomiy jazo chorasini olib tashlash; 3) har kunlik sayr vaqtini bir soatga oshirish; 4) qamoqda bo'lgan barcha vaqtni yoki uning bir qismini harbiy xizmatni o'tashning umumiy muddatiga qo'shish. Mazkur choralar mahkumlarning axloqan tuzalishiga xizmat qiladi.

Jazoni o'tayotgan vaqtida garnizon gauptvaxtasida belgilangan yoki jazoni o'tash tartibini buzgan mahkumlar **intizomiy jazo** sifatida **10 sutkagacha** bo'lgan muddatga kartserga o'tkazib qo'yilishi mumkin.


Faqat garnizon gauptvaxtasi boshlig'i yoki harbiy komendant mahkum harbiy xizmatchiga nisbatan rag'batlantirish yoki intizomiy jazo chorasini ko'llashi mumkin.

Qamoq jazosini o'tash davrida mahkumga pul ta'minoti harbiy unvoni bo'yicha belgilangan maosh miqdorida to'lanadi, qamoqni o'tash davri harbiy xizmatini o'tashning umumiy miqdoriga qo'shilmaydi, shuningdek, ushbu muddat navbatdagi harbiy unvon berishda ham e'tiborga olinmaydi. Bundan tashqari mahkum harbiy xizmatchilarga jazoni o'tash jarayonida navbatdagi harbiy unvonni olishga taqdim etmaslik, yuqori lavozimga tayinlanmaslik kabi cheklovlar ham qo'llaniladi.

Jazoni o'tash vaqtida harbiy xizmatchi kasalligi tufayli xizmatga yaroqsiz, deb topilganida, sud uni jazoni o'tashdan ozod qilish yoki qamoqni boshqa jazo turi bilan almashtirish masalasini ko'rib chiqishi lozim.

Qamoq tariqasidagi jazoga hukm etilgan harbiy xizmatchilarga nisbatan muddatidan ilgari shartli ravishda, amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish bilan bog'lik umumiy qoidalar tatbiq qilinadi.

Intizomiy qismga jo'natish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi va shartlari



Harbiy xizmatchilarga qo'llaniladigan intizomiy qismga jo'natish, ya'ni muddatli harbiy xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchini sud hukmida ko'rsatilgan muddatga ichki tartibi ancha qattiq bo'lgan maxsus harbiy qismga joylashtirishning asosiy tavsifi JKda belgilab qo'yilgan. Ya'ni "Intizomiy qismga jo'natish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 49-moddasiga muvofiq muddatli harbiy xizmatchilarni sud tomonidan belgilangan muddat mobaynida ichki tartibi ancha qattiq bo'lgan maxsus harbiy qismga joylashtirish orqali muayyan huquq va imtiyozlardan mahrum etishdir".

Mazkur jazo turi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etgan muddatli harbiy xizmatchilar (umumiy safarbarlik asosida va muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan oddiy askarlar va serjantlar, shuningdek ofitserlar tarkibida muddatli harbiy xizmatni o'tayotganlar)ga tayinlanadi.

Intizomiy qismga jo'natish JK Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan hollarda **uch oydan bir yilgacha** muddatga qo'llaniladi. Sud ish holatlari va mahkumning shaxsini hisobga olgan holda uch yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga shu muddatga intizomiy qismga jo'natish jazosini tayinlashi mumkin. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'rniga mazkur jazo tayinlanganida, uning bir kuni ozodlikdan mahrum qilishning bir kuniga to'g'ri keladi.

Intizomiy qismga jo'natish muddatli harbiy xizmatchilarga nisbatan qo'llaniladigan eng og'ir jazo hisoblanadi. Ushbu jazoning ijrosini ta'minlash JIKning nafaqat Umumiy, balki ozodlikdan mahrum qilish jazosi ijrosini tartibga soluvchi Maxsus qismi (149-160 m.) qoidalari bilan ham muayyan darajada bog'liqdir. Yuqoridagilar intizomiy qismga jo'natish jazosini ijro etishda barcha turdagi jazolarni ijro etish uchun asos bo'lgan umumiy qoidalar, printsiplar va institutlarni qo'llash bilan birga rejimga, tarbiyaviy ishlarga, mahkumlarning xulqini tuzatishga oid va boshqa ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etishga xos bo'lgan qoidalarga ham rioya qilinishi kerakligidan dalolat beradi.

Mazkur jazo turi intizomiy qism, ya'ni ichki tartibi bir muncha qattiq bo'lgan harbiy qismda o'taladi. Intizomiy qismning tashkiliy tuzilmasi va soni O'zbekiston Respublikasining Mudofaa vazirligi tomonidan belgilanadi ["O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida intizomiy qismlar to'g'risida"gi Nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 1996 yil 9 oktyabr.].

Intizomiy qismga jo'natishga hukm qilingan shaxslar hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari" Nizomida belgilangan tartibda gauptvaxtada saqlanadilar.

Intizomiy qismda jazoni o'tash muddati hukmda ko'rsatilgan vaqtdan boshlab hisoblanadi. Hukm qonuniy kuchga kirganidan keyin mahkum intizomiy qismga jo'natiladi. Qism komandiri qonuniy kuchga kirgan hukmni ijro etish to'g'risidagi sud farmoyishini olganidan keyin **uch kun** muddatda mahkumni soqchilar kuzatuvida intizomiy qismga jo'natadi va bu haqda hukm chiqargan sudga ma'lum qiladi.

Qism komandiri (garnizon boshlig'i) soqchilar boshlig'i bilan intizomiy qismga quyidagilarni yuboradi:

- a) ilova hujjati;
- b) sud hukmining bir nusxasi va qonuniy kuchga kirgan hukmni ijro

etish to'g'risidagi farmoyish, hukm o'zgartirilgan hollarda esa sud tomonidan chiqarilgan kassatsiya ajrimining nusxasi;

v) xizmat ro'yxatiga oid va xizmat varaqlari hamda tibbiy daftarcha;

g) harbiy bilet;

d) oziq-ovqat, buyum va pul attestatlari;

e) qism komandiri (garnizon boshlig'i) yoki qism shtabining boshlig'i va mahkum tomonidan imzolangan shaxsiy buyumlar ro'yxati (ikki nusxada), bu ro'yxatga mahkumning orden, medallari, ko'krak nishonlari, ularning hujjatlari, pullari, qimmatbaho va boshqa barcha buyumlari yozib qo'yiladi.

Intizomiy qismga jo'natiluvchi mahkumlar muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun belgilangan ta'minot normalariga muvofiq oziq-ovqat, ust-bosh bilan ta'minlanadilar. Mahkum kasallanib qolgan va uning kasalxona sharoitida davolanishi zarur bo'lganida u soqchi nazorati ostida gospitalga jo'natiladi va maxsus jihozlangan palatada davolanadi.

Intizomiy qism garnizonning boshqa harbiy qismlaridan alohida joylashtiriladi.

Jazoni intizomiy qismda o'tash vaqtida barcha mahkumlar harbiy unvoni, lavozimi avvalgi xizmatlaridan qat'i nazar soldatlar holatida bo'ladilar, belgilangan ust-boshda yuradilar va tafovut belgilarini taqadilar.

Intizomiy qismga jo'natilayotgan mahkumlarga muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun belgilangan ta'minot normalariga muvofiq kiyim-kechaklar beriladi. ["O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida intizomiy qism to'g'risida"gi Nizom //http://www.lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=635338].

Mahkumning intizomiy qismga kelganligi hamda ro'yxatda sanab o'tilgan hujjatlar va buyumlarni olganligi to'g'risida intizomiy qismning komandiri shaxsiy buyumlar ro'yxatining ikkinchi nusxasida tilxat beradi, uni gerbli muhr bilan tasdiqlaydi va ro'yxatning shu nusxasini soqchilar boshlig'i bilan mahkum kelgan qism komandiri (garnizon boshlig'i)ga yuboradi. Shaxsiy buyumlar ro'yxatining birinchi nusxasi intizomiy qismda qoladi. Mahkumning kelganligi to'g'risida intizomiy qism komandiri hukm chiqargan sudga **uch kun** muddat ichida ma'lum qiladi.

Mahkumga tegishli bo'lgan pullar va qimmatbaho buyumlarni soqchilar boshlig'i intizomiy qismning moliya xizmatiga topshiradi, bu yerda ular mahkumning shaxsiy hisobiga yozib qo'yiladi. Ordenlar, medallar, ko'krak nishonlari va ularning hujjatlari intizomiy qism shtabida muhrlangan seyf (temir shkaf)da, qolgan shaxsiy buyumlar esa maxsus omborxonada saqlanadi.

Intizomiy qismda barcha mahkumlarga:

a) mahkumlarni hisobga olish daftari (shakli bo'yicha): familiyasi, ismi,

otasining ismi, tug'ilgan yili; chaqirilgan sanasi, qaysi qismdan va qachon kelganligi; qaysi sud tomonidan, JK qaysi moddasida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etganligi; jazo muddati; jazo muddatining tugash vaqti; harbiy unvoni va hukm etilgunga qadar qanday lavozimni egallaganligi; oilaviy ahvoli va oilasining manzili: mahkumdan qabul qilib olingan ordenlar, medallar, ko'krak nishonlari va ularga oid hujjatlarning nomlari; qabul qilib olingan pullarning miqdori, qimmatli qog'ozlarning nomi (summasi); intizomiy qismdan qachon ozod qilinganligi va qayoqqa jo'nab ketganligi; mahkumning qismga kelganligi to'g'risidagi belgi (harbiy qism komandiri xabarnomasining raqami va sanasi);

b) mahkumning shaxsiy buyumlari ro'yxati;

v) shaxsiy hujjatlar yig'majildi (ilova hujjati, sud hukmining bir nusxasi va qonuniy kuchga kirgan hukmni ijro etish to'g'risidagi farmoyish, hukm kassatsiya yoki nazorat tartibida o'zgartirilgan hollarda esa sud ajrimining nusxasi, xizmat ro'yxatiga oid va xizmat varaqlari, tibbiy daftarcha, harbiy билет, tavsifnoma va boshqalar) yuritiladi.

Mahkum qismga kelgan kundan boshlab intizomiy qismning o'zgaruvchan tarkibi ro'yxatlariga kiritib qo'yiladi va qaysi harbiy qismdan kelgan bo'lsa o'sha qism hisobidan ta'minlanadi.

Soqchilik, xizmat ko'rsatish bo'linmalarini, intizomiy rotalarning serjantlarini joylashtirish uchun mo'ljallangan barcha xizmat xonalari va turar-joy binolari; ofitserlar, shartnoma bo'yicha xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilarning xonadonlari, shuningdek o'q otar qurollar va o'q-dori omborlari mahkumlarni joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan hududdan (zonadan) tashqarida bo'ladi.

Mahkumlar intizomiy qism hududidan tashqariga ish va mashg'ulotlar uchun bo'linma yoki vzvod tarkibida saf tortgan holda (mahkumlarning chiqishi va qaytishi daftariga yozib qo'yiladi) qurollangan soqchilar qo'riqchiligida va tegishli komandirlar boshchiligida olib chiqiladi. Hudud (zona)ga kiruvchi va chiquvchi avtomobil transporti qism navbatchisi tomonidan ko'zdan kechirib chiqiladi. Axloqi tuzalayotganlar toifasiga kiritilgan ayrim mahkumlarga intizomiy qism komandiri tomonidan agar ular bajarayotgan ishning turi taqozo etgan taqdirda soqchilarsiz yurishga ruxsat berilishi mumkin. Soqchilarsiz yurishga ruxsatnoma intizomiy qism komandirining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Soqchilar "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari" Nizomi talablariga muvofiq xizmat qiladilar va mahkumlar tomonidan belgilangan tartibning buzilmasligi, ularning ishga vijdonan yondoshishlarini va begona shaxslar bilan muloqot qilmasliklarini kuzatib borishlari shart. Mahkum belgilangan tartibni har qanday tarzda

buzganida soqchilar bu haqida tegishli komandirga ma'lum qiladilar.

Mahkumlarning nomiga kelgan posilkalar, yo'qlov va banderollar tekshirib chiqiladi. Ularni tekshirib chiqish va mahkumlarga topshirish tartibi intizomiy qism komandiri tomonidan belgilanadi, bunda posilkalar, peredachalar, banderollar qaysi mahkumga yuborilgan bo'lsa o'sha mahkum tomonidan qism navbatchisi yoki rota ofitseri huzurida ochiladi va ularning ichidagi narsalar olib ko'riladi.

Jazoni o'tash davrida mahkumning har oyda bitta posilka olishiga ruxsat beriladi, uning vazni aloqa muassasasi tomonidan belgilangan eng yuqori og'irlikdan oshib ketmasligi kerak.

Kelgan posilka, yo'qlov, banderol va xatlarni mahkumning o'zi intizomiy qism vakili ishtirokida ochadi. Xatlarning mazmuni tekshirilmaydi. Qonunda mahkumlar olishi mumkin bulgan posilka, banderol va h.k. miqdori ko'rsatilgan bo'lsa, ular tomonidan yuboriladigan yuqoridagi narsalar va pul jo'natmalarining miqdori cheklanmagan. Shuningdek, intizomiy qismda jazoni o'tayotganlar cheklanmagan miqdorda xat yoki telegrammalar olishlariga ruxsat berilgan. Mahkumlarning shaxsiy hisobvarig'iga har oyda muddatli xizmat soldatlari (matroslari) uchun belgilangan miqdordagi ta'minot puli o'tkazib boriladi. Mahkumlarning nomiga kelgan pullar ularning shaxsiy hisobvaraqlariga o'tkaziladi va bu haqida ularga xabar beriladi. Bu pullar egalariga jazoni o'tab bo'lganlaridan so'ng beriladi.

Posilka, yo'qlov, banderol yoki xat ichida man qilingan predmet yoki buyumlar topilganida, ular olib qo'yilib, mahkumning shaxsiy buyumlari ro'yxatiga kiritiladi va jazo muddatini o'tagunga qadar uning boshqa shaxsiy buyumlari bilan birga saqlanadi.

Qurol, pichoq, zaharli moddalar yoki giyohvandlik vositalari olib qo'yiladi va mahkumga qaytarib berilmaydi. Shunday predmetlar va moddalar topilgani haqida intizomiy qism komandiri darhol harbiy prokurorga ma'lum qiladi.

Mahkumlar tomonidan o'z manziliga jo'natish uchun yuboriladigan xatlar rota kantselyariyasiga yopiq holda topshiriladi. Xatlarning ochilishi mumkin emas.

Mahkumlar qisqa va uzoq muddatli uchrashuvlar olish huquqiga egadirlar. Ularga qarindoshlari bilan oyiga bir marta to'rt soatgacha davom etadigan uchrashuvga va yiliga bir marta uch kungacha uzoq muddatli uchrashuvga ruxsat beriladi. Bundan tashqari intizomiy qism komandirining ijozati bilan mahkumlarga hukm chiqarilguniga qadar xizmatni o'tagan

harbiy qismning vakillari va boshqa shaxslar bilan uchrashuvlariga yo'l qo'yiladi.

Qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bilan ularning uchrashuvi ish va mashg'ulotlardan bo'sh vaqtida, intizomiy qism komandiri belgilagan kun va soatlarda maxsus jihozlangan xonada qism navbatchisining kuzatuvi ostida o'tkaziladi.

Tashrifchilar olib kelgan oziq-ovqat mahsulotlari hamda mahkumlar tomonidan foydalanish uchun ruxsat berilgan buyumlar va predmetlar "O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarida intizomiy qism to'g'risida"gi Nizomning 30-bandida belgilangan tartibda mahkumlarga olib borib berish uchun intizomiy qism komandiri tomonidan tayinlangan shaxsga topshiriladi.

Mahkumlarga muddatli xizmatdagi harbiy xizmatchilar uchun ko'zda tutilgan ta'tillar berilmaydi. Ayrim hollarda ularga yaqin qarindoshi (otasi, onasi, xotini, farzandlari, aka-ukalari va opa-singillari, o'zini tarbiya qilgan shaxslar)ning o'limi yoki og'ir kasalligi, mahkumga yoki uning oilasiga katta moddiy zarar yetkazgan tabiiy ofat munosabati bilan intizomiy qismdan tashqariga borib-kelishi uchun uzog'i bilan **yetti kun** muddatga (har ikkala tomonga borib-kelish uchun zarur bo'lgan vaqt bu hisobga kirmaydi) qisqa muddatli ta'tillarga ruxsat berilishi mumkin.

Intizomiy qism komandiri mahkumning shaxsi va xulq-atvorini hisobga olib, qisqa muddatli ta'tilga ruxsat beradi va bu haqida prokurorni xabardor qiladi. Mahkumning intizomiy qismdan tashqarida bo'lgan vaqti jazoni o'tash muddatiga kiritiladi.

Intizomiy qismdagi kun tartibi qism komandiri tomonidan belgilanadi. Kun tartibida: ishlab chiqarishda ishlash uchun - 8 soat, tungi uyqu uchun - 8 soat, kuniga uch mahal ovqatlanish uchun, haftasiga bir kun (shanba) – jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg'ulotlari uchun ajratiladi.

Mahkumlar ishlab chiqarish korxonalari, intizomiy qism ustaxonalari, qurilish va O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining boshqa ob'ektlarida mehnatga jalb etiladilar. Ularning mehnati mahkumlarning axloqini tuzatish va ularni qayta tarbiyalash, mahkumlarning doimiy va to'liq band bo'lishlarini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

Tarbiyaviy ishlar ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish va tezkor axborot berish; yakka tartibdagi tarbiyaviy ishni olib borish; O'zbekiston Respublikasi qonunlarini tushuntirish; suhbatlar, savol-javob kechalari, mavzularga oid va adabiy kechalar, gazeta va jurnallar, badiiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar qiroatxonligi hamda boshqa tadbirlarni tashkil qilish; badiiy havaskorlikni, kutubxonachilikni va klub ishlarini rivojlantirish, mahkumlarni qayta tarbiyalashga ko'maklashuvchi kinofilmlarni namoyish etish, shuningdek ommaviy-sport ishlari yo'nalishida

amalga oshiriladi.

Intizomiy qism komandirlariga mahkumlarning axloqini tuzatish va ularni qayta tarbiyalash borasidagi ishlarga ko'maklashish maqsadida namunali xulqi hamda mehnatga va harbiy xizmatga halol munosabati bilan o'zlarini ko'rsatgan shaxslardan iborat tarkibda rotalarda jamoatchilik kengashlari tuziladi.

Jamoatchilik kengashi mahkumlarning yig'ilishlarida saylanadi va intizomiy qism komandiri tomonidan tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashi qabul qiladigan qarorlar intizomiy qism komandiri tomonidan tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashi o'z ishi to'g'risida vaqti-vaqti bilan mahkumlarning yig'ilishlarida hisob berib turadi. Mahkumlarning jamoatchilik organi hisoblanuvchi kengash turli tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazishda komandirga yordam beradi: umumharbiy nizomlarning talablari mahkumlar tomonidan qanday bajarilayotganini nazorat qilishga jalb etiladi; badiiy havaskorlik va ommaviy-sport ishlarini tashkil qilishda, devoriy gazetalarni chiqarishda qatnashadi; intizomsiz mahkumlar bilan yakka-yakka tushuntirish ishlarini o'tkazadi; axloqi tuzaluvchilar toifasiga kiritishga va shartli ravishda muddatidan ilgari ozod qilishga taqdim etiladigan nomzodlarni muhokama etishda qatnashadi.

Intizomiy qismda jazoni o'tayotganlarga nisbatan: hayfsan; qattiq hayfsan; navbatdan tashqari beshtagacha naryadga tayinlash; o'n besh sutkaga qadar gaupvaxataga joylashtirish; axloqan tuzalayotganlar qatoridan chiqarish kabi intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.

Mahkumlar ilgari xizmat qilgan harbiy qismlarning komandirlari intizomiy qism komandiri bilan doimiy aloqa bog'lab turishlari, ilgari o'zlariga bo'ysungan shaxslarning axloqi qanday tuzalib borayotgani bilan qiziqishlari va ularni qayta tarbiyalashda yordam berishlari shart.

Xulq-atvori tuzalish yo'liga o'tganligidan dalolat berayotgan, mehnatga va harbiy xizmatga vijdonan munosabatda bo'lgan mahkumlarga nisbatan quyidagi rag'batlantirish choralari qo'llaniladi:

- a) tashakkur e'lon qilish;
- b) ilgari berilgan intizomiy jazoni olib tashlash;
- v) oyiga bir marta ko'rishishga ruxsat berish;
- g) axloqi tuzalayotganlar toifasiga kiritish.

O'zlarining namunaviy xulq-atvori, mehnatga va harbiy xizmatga halol munosabati bilan tuzalish yo'liga qat'iy o'tganliklarini isbotlagan, jamoat ishlarida faol qatnashayotgan mahkumlar jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o'tab bo'lganlaridan keyin intizomiy qism komandirining buyrug'i bilan axloqi tuzalayotganlar toifasiga kiritiladi. Bunday mahkumlar

sud tayinlagan jazo muddatining **kamida yarmini** o'tab bo'lganlaridan keyin intizomiy qism komandiri tomonidan qonunda belgilangan tartibda shartli ravishda muddatidan ilgari jazodan ozod qilishga taqdim etilishlari mumkin.

Taqdimnomada mahkumning xulq-atvorini, jazoni o'tash vaqtida uning mehnatga va harbiy xizmatga munosabatini ta'riflovchi ma'lumotlar bo'lishi kerak. Taqdimnoma bilan bir vaqtda sudga shaxsiy hujjatlar yig'majildi ham yuboriladi.

Sud mahkumni shartli ravishda muddatidan ilgari jazoni o'tashdan ozod qilishni rad etganida, intizomiy qism komandiri rad etish to'g'risidagi ajrim chiqarilgan kundan boshlab kamida olti oy muddat o'tgandan keyin yana taqdimnoma kiritishi mumkin.

Intizomiy qism komandiri mahkumlarni shartli ravishda muddatidan ilgari ozod qilishga beriladigan taqdimnomaning asosli va ob'ektivligi uchun javobgar hisoblanadi.

Mahkumlar intizomiy qismdan quyidagi hollarda:

- a) sud hukmi bilan tayinlangan jazo muddati o'talganidan keyin;
- b) amnistiya yoki afv etish to'g'risidagi hujjat asosida;
- v) ish yuritishdan to'xtatilib, hukmni bekor qilinganida; shartli hukmni qo'llanilganida, shartli ravishda muddatidan ilgari jazoni o'tashdan ozod qilinganida, hukmni o'zgartirish haqidagi sud ajrimi chiqarilganida; kasalligi bo'yicha ozodlikka chiqariladi.

Intizomiy qismdan ozod qilingan shaxslar xizmatni davom ettirishi uchun Mudofaa vazirligining Bosh shtabi ko'rsatmasiga binoan ular hukm qilingunga qadar qaysi qismda xizmatni o'tagan bo'lsa, ayni o'sha qismga jo'natiladi, rejimli qismlar bundan mustasno.

Intizomiy qism komandiri ozod qilinishi lozim bo'lgan mahkumlarning ro'yxatini jazo muddati tugashidan **bir oy** oldin O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining Bosh shtabiga taqdim etadi. Shartli ravishda muddatidan ilgari jazoni o'tashdan ozod qilinganlarni xizmatni davom ettirishi uchun yuborish to'g'risidagi masala sud ajrim chiqarilganidan keyin uzog'i bilan **uch kun** ichida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Bosh shtabi tomonidan hal etiladi.

Harbiy-tibbiy komissiya tomonidan hisobdan chiqarilib, kasalligi tufayli harbiy xizmatga yaroqsiz yoki tinchlik davrida harbiy xizmatga yaroqsiz, deb topilgan mahkumlar intizomiy qism komandiri tomonidan muddatidan ilgari jazodan ozod qilishga taqdim etiladilar. Taqdimnoma bilan bir vaqtda sudga harbiy-tibbiy komissiyaning xulosasi va mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildi yuboriladi. Jazodan ozod qilish to'g'risida sud ajrim chiqarganidan keyin bu shaxslar intizomiy qism komandiri tomonidan muddatli harbiy xizmatdan muddatidan ilgari bo'shatiladilar.

Intizomiy qismdan ozod qilinganlar harbiy qismlarga yoki istiqomat joylariga soqchilarsiz jo'natiladilar. Ular boradigan yo'lga transportda yurish hujjatlari va oziq-ovqat, yo'l kira yoki umumqo'shin payogi, shuningdek yuvinishi uchun sovun bilan belgilangan normalarga ko'ra ta'minlanadilar.

Ozod qilinganning harbiy qismga yetib kelgani haqida shu qismning komandiri darhol intizomiy qism komandiriga ma'lum qiladi.

Mahkumlarning intizomiy qismda jazoni o'tagan vaqti harbiy xizmat muddatiga qo'shilmaydi. Biroq jazo muddati tugagach, qo'mondonlikning iltimosiga binoan garnizon sudining sudyasi jazo o'talgan vaqtni harbiy xizmat muddatiga kiritish masalasini JPK 546-moddasga muvofiq ko'rib chiqishi mumkin.

Intizomiy qismga jo'natish jazosini o'tab chiqqan shaxsning sudlanganlik holati O'zR JK 78-moddasi 1-qismi "b" bandiga asosan jazo o'talgan paytdan boshlab tugallangan, deb topiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Xizmat bo'yicha cheklash jazosining o'ziga xos xususiyatlari va uning axloq tuzatish ishlaridan farqlar mavjud.

Mazkur xususiyatlar, farqlarni aniqlang va muhokama qiling.

2. Intizomiy qismdagi mahkumlarga rag'batlantirish choralari va ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash mumkin.

Mazkur holat uchun asoslar va uning tartibini muhokama qiling.

3. Xizmat bo'yicha cheklash to'g'risidagi hukmning ijro etilganligi to'g'risida harbiy qism komandiri hukm chiqargan sudga 10 kun ichida xabar berdi. Sud unga muddatni buzganligi uchun e'tiroz bildirdi. Komandir esa, harbiy qismda ozroq notinchlik bo'lganligini vaj qilib ko'rsatdi.

Sudning bildirgan e'tirozi o'rinli bo'lsa, uni asoslab bering.

4. Intizomiy qismda jazoni o'tayotgan, axloqi tuzalayotganlar toifasiga kiritilgan S. harbiy qism komandiri tomonidan qonunda belgilangan tartibda shartli ravishda muddatidan ilgari jazodan ozod qilishga taqdim etildi. Biroq sud taqdimnomani rad etdi.

Intizomiy qism komandiri ushbu masala bo'yicha takroriy taqdimnoma berishi mumkin ekanligini asoslab bering.

QO'SHIMCHA JAZOLARNI IJRO ETISH

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish tartibi

Jinoyat qonunida jazolar asosiy va qo'shimcha jazolarga bo'linadi. Asosiy jazo – faqat o'zi qo'llaniladigan, boshqa jazolarni to'ldirish uchun yoki ular bilan birga qo'llanishi mumkin bo'lmagan, jazoning asosiy maqsadini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan jazodir. Qo'shimcha jazo – bu jazoning maqsadini amalga oshirish uchun yordamchi ahamiyatga ega bo'lgan jazodir. Qo'shimcha jazo alohida qo'llanishi mumkin emas, u faqat asosiy jazoga qo'shimcha ravishda qo'llaniladi.

Qo'shimcha jazo quyidagi belgilarga ega:

- 1) alohida jazo chorasi sifatida qo'llanilishi mumkin emasligi;
- 2) asosiy jazoga qo'shib qo'llanilishi mumkinligi;
- 3) jazoning maqsadiga erishishga ko'maklashadi.


Qo'shimcha jazoga harbiy yoki maxsus maxsus unvondan mahrum qilish jazosi kiradi. O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuniga asosan qo'shimcha jazo tariqasida nazarda tutilgan mol-mulkni musodara qilish jazosi Jinoyat kodeksi 53-moddasidan chiqarib tashlanganligi sababli bu jazo qo'llanilmaydigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 52-moddasiga asosan, harbiy yoki maxsus unvonga ega bo'lgan shaxs og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat sodir etganligi uchun hukm qilinganida sud hukmi bilan mazkur unvondan mahrum qilinishi mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksning 531-moddasi yettinchi qismiga asosan, sud mahkumni harbiy unvondan yoki maxsus unvonidan mahrum etish to'g'risida qaror chiqargan bo'lsa, sud hukmning nusxasini ijro etish uchun

ana shu unvonni bergan organga yuboradi. Sud davlat mukofotlari bilan taqdirlangan yoki oliy harbiy yoxud maxsus unvonga ega bo'lgan shaxsga nisbatan ayblov hukmini chiqarishda uni ana shu mukofotlar yoki unvonlardan mahrum etish to'g'risida tegishli organga taqdimnoma kiritishning maqsadga muvofiqligi masalasini hal qiladi.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tariqasidagi qo'shimcha jazo mazkur unvonni bergan organ tomonidan ijro etiladi.



O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 52-moddasi 2-qismiga asosan shaxsni oliy harbiy yoki maxsus unvon yoxud O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotidan mahrum qilish tartibi boshqa harbiy unvonlardan mahrum qilish tartibidan farq qiladi. Unga ko'ra oliy harbiy yoki maxsus unvondan yoxud O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotidan mahrum qilish sudning hukmi asosida kiritadigan taqdimnomasiga binoan amalga oshirilishi mumkin bo'ladi.

Demak, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan harbiy yoki maxsus unvondan sudning o'zi mahrum qilib, mahrum qilinganligini hukmda ko'rsatadi hamda mazkur harbiy yoki maxsus unvonni bergan idoraga ma'lum qiladi va ushbu idoraga hukm nusxasini ijro uchun yuboradi.

Oliy harbiy yoki maxsus unvon yoxud O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotidan sudning o'zi to'g'ridan-to'g'ri mahrum qilmay sudning hukmi asosida shunday harbiy yoki maxsus unvon yoxud davlat mukofotini bergan davlat organiga taqdimnoma kiritadi. Sudning taqdimnomasiga

binoan shunday oliy unvon yoki davlat mukofotini bergan davlat organi shaxsni oliy unvon yoki maxsus unvon yoxud davlat mukofotidan mahrum qilish xaqida qaror chiqaradi.

Harbiy unvon — O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida, ichki qo'shinlar, chegara qorovul qo'shinlari va O'zbekiston Respublikasi FVV bo'linmalarida o'rnatilgan unvonlardir.

Harbiy unvonlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunida keltirilgan.

Mazkur Qonunning 9-moddasiga muvofiq, Qurolli Kuchlarda quyidagi harbiy unvonlar joriy etiladi:

Qo'shin unvonlari	Kema tarkibidagi unvonlar
I. ODDIY ASKARLAR TARKIBI	
oddiy askar	matros
II. SERJANTLAR TARKIBI	
kichik serjant serjant katta serjant	2-darajadagi starshina 1-darajadagi starshina bosh starshina
III. OFITSERLAR TARKIBI KICHIK OFITSERLAR TARKIBI	
leytenant katta leytenant kapitan	leytenant katta leytenant kapitan-leytenant
KATTA OFITSERLAR TARKIBI	
mayor podpolkovnik polkovnik	3-darajadagi kapitan 2-darajadagi kapitan 1-darajadagi kapitan
GENERALLAR TARKIBI	
general-mayor general-leytenant general-polkovnik armiya generali	

Qurolli Kuchlardagi oliy harbiy unvon armiya generali bo'lib, bu unvon (urush davrida) O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Oliy Bosh qo'mondoniga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziriga beriladi.

Yuridik yoki tibbiy yo'nalishdagi harbiy hisobdagi ixtisoslikka ega bo'lgan harbiy xizmatchi va harbiy xizmatga majburning harbiy unvoniga tegishlicha "adliya" yoki "tibbiy xizmat" so'zlari qo'shiladi.

Rezervdagi, zaxiradagi yoki iste'fodagi fuqarolarning harbiy unvoniga tegishlicha "rezervdagi", "zaxiradagi" yoki "iste'fodagi" degan so'zlar qo'shiladi.

Oliy harbiy unvon davlat tomonidan beriladigan oliy unvon bo'lib, bunday oliy unvondan mahrum qilish haqida sud faqat taqdimnoma kiritadi.

Harbiy unvon berish va harbiy unvondan mahrum qilish, shuningdek harbiy unvonini pasaytirish hamda harbiy unvonini tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Harbiy burchni jiddiy tarzda buzganlik, hokimiyatni suiiste'mol qilganlik, zimmasiga qonunlar va harbiy ustavlar bilan yuklatilgan talablar va majburiyatlarni favqulodda vaziyatlarda bajarmaganlik uchun katta ofitserlar va generallar tarkibidagi shaxslarning harbiy unvonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti - O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh qo'mondonining qarori bilan pasaytirilishi mumkin.

Ofitserlar tarkibiga kiruvchilarni harbiy unvondan ular og'ir va o'ta og'ir jinoyat uchun hukm etilganlarida faqat sudning qarori bilan mahrum qilish mumkin [O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 2002 y., 12-son, 217-modda].

Harbiy unvondan mahrum qilish masalasi xizmatda bo'lgan shaxslarga nisbatan, shuningdek, zahiradagi shaxslarga nisbatan ham amalga oshiriladi.

Maxsus unvonlar bunday unvonlarni berish mumkinligi nazarda tutilgan davlat organlarida, xususan adliya organlari va muassasalari, sud va prokuratura xodimlariga beriladigan mansab-martaba darajalaridan iborat unvonlar hisoblanadi.

Adliya organlari va muassasalari, sud va prokuratura idoralari xodimlarining quyidagi darajali maxsus unvonlari belgilanadi:

oliy darajali maxsus unvonlar	- haqiqiy Davlat adliya maslahatchisi,
	- 1-darajali Davlat adliya maslahatchisi,
	- 2-darajali Davlat adliya maslahatchisi,

	- 3-darajali Davlat adliya maslahatchisi;
yuqori darajali maxsus unvonlar	- adliya katta maslahatchisi,
	- adliya maslahatchisi,
	- adliya kichik maslahatchisi;
quyi darajali maxsus unvonlar	- 1-darajali yurist,
	- 2-darajali yurist,
	- 3-darajali yurist,

Davlat mukofotlarini berish va u bilan bog'liq munosabatlar O'zbekiston Respublikasining 1995 yil 22 dekabrda "Davlat mukofotlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi.

Ushbu qonunga ko'ra "O'zbekiston Qahramoni" unvoni, O'zbekiston Respublikasining ordenlari, medallari, faxriy unvonlari va Faxriy yorlig'i davlat mukofotlari hisoblanadi. Davlat mukofotlari Oliy Majlis tomonidan ta'sis etiladi. Davlat mukofotlari bilan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti taqdirlaydi. O'zbekiston Respublikasining Prezidentini davlat mukofotlari bilan taqdirlash Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladi.

"O'zbekiston Qahramoni" unvoni oliy darajadagi mukofot bo'lib, O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga davlat va xalq oldidagi qahramonona jasorat ko'rsatish bilan bog'liq xizmatlari uchun faqat bir marta beriladi.

O'zbekiston Respublikasi ordenlari quyidagilardan iborat:

- "Mustaqillik" ordeni;
- "Amir Temur" ordeni;
- "Jaloliddin Manguberdi" ordeni;
- "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni;
- "El-yurt hurmati" ordeni;
- "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni;
- "Mehnat shuhrati" ordeni;
- I va II darajali "Sog'lom avlod uchun" ordeni;
- I va II darajali "Shon-sharaf" ordeni;
- "Do'stlik" ordeni;
- "Mardlik" ordeni.

O'zbekiston Respublikasining medallari quyidagilardan iborat:

- "Oltin Yulduz" medali;
- "Jasorat" medali;
- "Sodiq xizmatlari uchun" medali;
- "Shuhrat" medali.

Qonunning 18-moddasiga ko'ra, davlat mukofotlaridan:

— shaxs og'ir jinoyat sodir etgani uchun hukm qilinganida - sudning qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibdagi taqdimnomasiga binoan;

— shaxs o'z sha'nini badnom etuvchi xatti-harakatlar sodir etganida - taqdirlash to'g'risida taqdimnoma kiritish huquqiga ega bo'lgan organning taqdimnomasiga binoan mahrum etiladi.

Davlat mukofotlaridan mahrum bo'lganlik, belgilangan imtiyozlardan ham mahrum qilinishiga sabab bo'ladi. Davlat mukofotlaridan mahrum etilgan shaxsga qarashli davlat mukofoti va mukofotga doir hujjat mukofotni bergan organga qaytarilishi lozim.

Ilmiy unvonlar fanning muayyan sohasida chuqur ixtisoslashgan bilimga hamda ilmiy va pedagogik sohada ma'lum yutuqlarga erishgan oliy ma'lumotga yoki ilmiy darajaga ega bo'lgan shaxslarga beriladi. Professor, dotsent va katta ilmiy xodim ilmiy maqomi ilmiy unvon hisoblanadi. Sud mahkumni ilmiy unvondan mahrum qilishi mumkin emas.

Faxriy unvonlar fuqarolarni mehnatdagi xizmatlari, samarali davlat, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlari uchun rag'batlantirish maqsadida ta'sis etilgan unvon bo'lib, unga "O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi", "O'zbekiston Respublikasi fan arbobi", "O'zbekiston iftixori", "O'zbekiston Respublikasi xalq artisti", "O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi", "O'zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi", "O'zbekiston Respublikasi xalq rassomi", "O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi", "O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri", "O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi", "O'zbekiston Respublikasi xalq hofizi", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist", "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi" va boshqalar kiradi. Bunday faxriy unvonlardan mahrum qilish masalasini qonunga binoan, uni bergan davlat organi hal qiladi.

Mahkumni harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish to'g'risida sud hukmi qonuniy kuchga kirgandan so'ng uning tasdiqlangan nusxasi shu unvonni bergan organga yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlari va faxriy unvonlaridan mahrum qilishda sud hukmining nusxasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining devonxonasiga yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlari va faxriy unvonlari davlat boshqaruvi yoki davlat hokimiyati organlari tomonidan berilganda ham shu qoidaga amal qilinadi.

Zaxiradagi harbiy xizmatchiga nisbatan shunday qo'shimcha jazo tayinlangan bo'lsa, hukmning nusxasi uning yashash joyidagi mudofaa ishlari bo'limiga yuboradi.

Mahkumning yashash joyi bo'yicha ichki ishlar organlariga sud tomonidan hukmni ijroga qaratish to'g'risidagi ko'rsatma yuboriladi. Unga ko'ra mazkur organlar mahkum yoki uning oila a'zolaridan orden, medal, harbiy yoki maxsus unvon, davlat mukofotlari to'g'risidagi guvohnomalarni olib qo'yishlari shart bo'ladi. Barcha olib qo'yilgan narsa va hujjatlar hukm chiqargan sudga yuboriladi.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazosi ijro etilganda mahkumni bu unvon bilan bog'liq huquq va imtiyozlardan mahrum qilish uchun tegishli organlar va ularning mansabdor shaxlari bunday huquq va imtiyozlarni qo'llaydigan tashkilot va muassasalar (sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, uy-joy kommunal xo'jaliklari va shu kabi muassasalar)ga yuborilishi shart bo'ladi. Harbiy unvondan mahrum qilish sudning vakolatiga tegishli bo'lganligi sababli hukm qonuniy kuchga kirganidan so'ng tegishli hujjatlar sud tomonidan yuborilishi mumkin.

Unvon bergan organning mansabdor shaxsi mahkumni unvondan mahrum qilish to'g'risidagi yozuvni belgilangan tartibda tegishli hujjatlarga kiritadi, bu unvon bilan bog'liq bo'lgan huquq va imtiyozlarni tugatish choralarini ko'radi hamda hukm chiqargan sudga hukmning nusxasini olgan kundan boshlab bir oylik muddat ichida uning ijro etilganligi haqida xabar qiladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish tartibi oliy harbiy yoki oliy maxsus unvondan mahrum qilish tartibidan farqlanadi.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu tartibni muhokama eting va o'zaro farqli jihatlarini ochib bering.

2. Amaldagi qonunchilikda davlat mukofotlaridan mahrum qilish tartibi belgilangan.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ushbu tartibni muhokama eting.

3. Sud JK 301-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etgan harbiy qo'mondonga uning sodir etgan jinoyatiga jazo tayinlash paytida qo'shimcha jazo tariqasida uni general-mayor harbiy unvonidan mahrum qildi.

Mazkur holatda sudning harakatiga baho bering. General-mayor harbiy unvonidan mahrum qilish tartibini tushuntiring.

4. Sud pora olish jinoyatini sodir etgan institut rektoriga uning sodir etgan jinoyatiga jazo tayinlash paytida qo'shimcha jazo tariqasida uni professor unvonidan mahrum qildi.

Ushbu holat yuzasidan o'z fikringizgi tegishli qonun normasiga tayangan holda asoslab bering.

JAZONI O'TASHDAN OZOD QILISH

Jazoni o'tashdan ozod qilish tushunchasi va turlari. Mahkumni muddatidan ilgari shartli ozod qilishga taqdim etish tartibi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga taqdim etish tartibi. Kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilish tushunchasi, asoslari va tartibi. Jazodan amnistiya yoki afv etish asosida ozod qilish tartibi va shartlari. Jazo ijrosini tugatish asoslari va vaqti. Hisob-kitob tartibi, hujjatlarni va shaxsiy buyumlarni berish. Mahkum vafot etganligi munosabati bilan jazo ijrosini tugatish tartibi. Jazoni o'tab bo'lishi munosabati bilan ozod qilish tartibi. Mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga moddiy yordam ko'rsatish.

Jazoni o'tashdan ozod qilish tushunchasi va turlari

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazodan ozod qilish va jazoni o'tashdan ozod qilish – jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya huquqini o'z ichiga oluvchi keng qamrovli murakkab jarayon bo'lib, bu holat shaxsni javobgarlikdan yoki jazodan yoxud jazo o'tashdan ozod qiladi va shaxsning huquqiy maqomiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Javobgarlikdan ozod qilingan shaxslar sudlanmagan hisoblanadi, jazoni o'tashdan ozod qilingan shaxslarda esa sudlanganlik holati saqlanib qoladi.

Jazodan ozod qilish – sud tomonidan jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxsni:

- sodir etgan jinoyat uchun tayinlangan jazodan;
- ushbu jazo turini haqiqatda o'tashdan;
- jazoni o'tashni davom ettirishdan ozod qilishga aytiladi.

Jazodan ozod qilish turlari – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida jazodan ozod qilishning turlari berilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 69-modda);

- shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish (JK 70-modda);
- aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-modda);
- shartli hukm qilish (JK 72-modda);
- jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish (JKning 73-va 89-moddalari);
- jazoni yengilrog'i bilan almashtirish (JKning 74-va 90-moddalari);
- kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotishi oqibatida jazodan ozod qilish (JK 75-modda);
- amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish (JK 76-modda);
- majburlov choralarini qo'llagan holda javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilish (JK 87-modda).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi XIII bobida ko'rsatilgan jazodan ozod qilishning turlaridan jazoni ijro etish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 69-modda), shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan uni jazodan ozod qilish (JK 70-modda), aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish (JK 71-modda) va shartli hukm qilish (JK 72-modda) asoslari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkum sud tomonidan tayinlangan jazo muddati tugagunga qadar jazoni o'tashdan ozod qilinishi mumkin bo'lgan hollar ro'yxatiga kiritilmagan.

Sababi, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 69-moddasi mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, sud hukmi bilan muayyan jazoga hukm qilingan mahkum jazoni umuman ijro etmaydi. Ya'ni, hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 69-moddasida ko'rsatilgan muddatlar ichida jazo ijro etilmagan bo'lsa, mahkum asosiy va qo'shimcha jazolardan ozod qilinadi. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 70-moddasi mazmuniga e'tibor qaratadigan bo'lsak, jinoyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko'rilyotgan vaqtgacha sharoit o'zgardi yoki shaxs namunali hulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati bilan o'zini ko'rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo'qotdi deb e'tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin. Ya'ni, jinoyat sodir etgan shaxs ish sudda ko'rilyotgan vaqtda tegishli asoslar mavjud bo'lgan holda jazodan ozod qilinishi mumkin. Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishda ham ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u jinoyat sodir etganidan keyin yetkazilgan

zararni bartaraf etib, o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan bo'lsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin. Ya'ni mazkur modda mazmunidan ko'rinib turibdiki, ushbu asosda ham jinoyat sodir etgan shaxs ish sudda ko'rilyotgan vaqtda tegishli asoslar mavjud bo'lgan holda jazodan ozod qilinishi mumkin. Agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan turib ham uning hulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, shartli hukm qo'llashi mumkin. Bunday holda sud, basharti, belgilangan sinov muddati davomida jazoning shartlilikini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqaradi. Bundan kelib chiqadiki, shartli hukm qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan tayinlangan jazo ijro etilmaydi. Lekin, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 72-moddasi 6-qismiga va O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 535-moddasiga muvofiq, agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud unga yuklangan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilgan bo'lsa sud uning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan jazoning shartlilikini bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin. Bunday holda mahkumning jazoni o'tashdan ozod qilinishi masalasi umumiy asoslarda hal qilinadi.


Umumiy asosda, sud tomonidan belgilangan jazo muddatini to'liq o'tab bo'lganlik jazoni o'tashdan ozod qilishning mazmun-mohiyatini qamrab oladi. Jazo muddatini to'liq o'tab bo'lganlikni yoki umuman, tegishlicha sud tayinlangan jazo muddatlarini aniq hisoblash uchun mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalariga qabul qilishni belgilangan tartibda tashkil etish lozim.

Jinoyat uchun sud tomonidan tayinlangan jazo muddati qat'iydir. Ammo axloqan tuzalgan mahkumlarga nisbatan rag'batlantirish va ajrim mahkumlarning hol-ahvolini hisobga olib, chunonchi kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi tufayli jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish mumkin.

O'zining mohiyatiga ko'ra jazoni o'tashdan ozod qilish, jazoni keyingi qismini o'tashdan ozod qilishda ifodalanadi va shu bilan birga mahkumga sud tomonidan tayinlangan jazoning o'talmagan qismida yangi jinoyat sodir qilmasligiga ma'lum bir ma'noda ishonch bildiriladi.

Sud tomonidan tayinlangan jazo muddati tugagunga qadar mahkum quyidagi hollarda jazoni o'tashdan ozod qilinishi mumkin:

- muddatidan ilgari shartli ozod qilinganda;
- jazo yengilrog'i bilan almashtirilganda;
- kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi tufayli;
- amnistiya yoki afv etilganligi tufayli.



2 §. Mahkumni muddatidan ilgari shartli ozod qilishga, shuningdek jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga taqdim etish tartibi

Jazodan muddatidan ilgari ozod qilish tarzidagi imtiyoz Jinoyat kodeksi 73-moddasida ko'rsatilganidek, ozodlikdan mahrum etish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoxud axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Mahkumni muddatidan ilgari shartli ozod qilish – ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanilishi mumkin. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni keyingi qismini o'tashdan ozod qilishda ifodalanadi.

Jazodan muddatidan ilgari ozod qilish uchun mahkum jazoni o'tash davrida o'rnatilgan tartib talablarini bajargan va mehnatga halol munosabat ko'rsatgan bo'lishi shart.

Ushbu huquqdan foydalanish uchun mahkum umuman jazoni ijro qilish davrida tegishli tartib qoidalarni buzmagani yoxud ilgari bunday qilmishi uchun berilgan intizomiy chorani o'tagan yoki undan ozod qilingan, yaxshi xulqi va tarbiyaviy tadbirlarni o'tashda faolligi uchun rag'batlantirilgan bo'lishi talab qilinadi.

Jazodan muddatidan ilgari ozod qilinadigan mahkum:

- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazoning kamida uchdan birini;

- og'ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazoning kamida yarmini;

- o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan yoki jazosi yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxs, jazoning o'talmagan qismi mobaynida yana qasddan yangi jinoyat sodir etgani uchun hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini o'tagan bo'lishi shart.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish Jinoyat kodeksining 74-moddasiga muvofiq, ozodlikdan mahrum etilgan yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanishi mumkin. Mahkum ana shu jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoidalariga rioya qilgan va mehnatga halol munosabat ko'rsatgan bo'lishi shart.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish – ozodlikdan mahrum etilgan yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan, ushbu jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan sud jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish mahkum:

- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismini;

- og'ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

- o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish

qo'llanilgan va jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning o'talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmagan qismi muddatiga tayinlanadi.

Jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxslar yengilroq jazoning tegishli qismini o'tab bo'lganlaridan keyin Jinoyat kodeksining 73-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi JKning 73-moddasi to'rtinchi qismida jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish hamda jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni qo'llanishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi berilgan. Unga ko'ra jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish hamda hamda jazoni yengilrog'i bilan almashtirish:

a) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga;

b) o'ta xavfli retsidivistga;

v) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga;

g) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, O'zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg'in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va uskunalarni kontrabanda qilish uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun juda keng doiradagi mahkumlarga qo'llanadi va qo'llash mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi juda cheklangan.

Mahkumni muddatidan ilgari shartli ozod qilishga, shuningdek jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga taqdim etish tartibi – jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, shuningdek jazoni yengilrog'i bilan almashtirish sud tomonidan Jinoyat-protsessual kodeksining 536-moddasida belgilangan tartibda qo'llaniladi.

Mahkum jazo muddatining Jinoyat kodeksi 73-, 74-, 89- va 90-moddalarida belgilangan qismini o'tab bo'lganidan so'ng bir oylik muddat ichida jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati uni jazoni

o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishga taqdim etish masalasini agar mahkum yoki uning advokati tegishli iltimosnoma bilan sudga bevosita murojaat etmagan bo'lsa, ko'rib chiqishi hamda taqdim qilish yoki rad etish haqida qaror chiqarishi shart.

Ma'muriyat mahkumni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga taqdim etishni rad etgan taqdirda mahkum yoki uning advokati sudga tegishli iltimosnoma bilan murojaat etishga haqli.

Muayyan huquqdan mahrum etish tariqasidagi jazodan ozod qilish jamoat birlashmasi, jamoa, mahkumning o'zi yoki uning himoyachisi iltimosnomasiga binoan sud tomonidan amalga oshiriladi.

Sud jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni rad etgan taqdirda, bu haqda ajrim chiqqan kundan boshlab, kamida olti oy o'tganidan keyin taqdimnoma takroran kiritilishi yoki iltimosnoma takroran berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi JKning 73-moddasida belgilanishicha ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash va axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo'llanishi mumkin. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs ijro etilmagan qo'shimcha jazodan ozod qilinishi ham mumkin.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishni jinoyat qonunida nazarda tutilganligi jinoyat qonunining muhim insonparvarlik printsiplining amalda qo'llanishidir.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkumlarni tezroq halol turmush tarziga o'tib olishi uchun rag'bantlantiruvchi institut bo'lib, jazoni o'tash vaqtida jazoni o'tash tartib qoida va talablarini bajarish, ish va o'qishga halol munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

JK 73-moddasining 1-qismi mazmuniga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish jazosiga hukm qilinib bu jazoni qonunda ko'rsatilgan qismini o'tab bo'linganidan keyingina qo'llanishi mumkin. Boshqa turdagi jazolarni o'tayotganlarga nisbatan muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish qo'llanilmaydi va qo'llanishi maqsadga muvofiq ham emas.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish jinoyat huquqidagi samarali institutlardan biri sifatida tan olingan. O'zbekiston Respublikasining 1926 va 1959 yillarda qabul qilingan Jinoyat kodekslarida ham jazodan ozod qilishning bu turi nazarda tutilgan edi va bu institut

doimiy ravishda rivojlantirib kelindi. 1959 yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida (50-modda) mahkumni muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun mahkum namunaviy xulqi va mehnatga halol munosabati bilan o'zining tuzalganligini isbot qilgan bo'lishi talab qilinar edi. 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan amaldagi Jinoyat kodeksining 73-moddasida esa mahkum o'zining tuzalganligini isbot qilganligi talabi qo'yilmay, qonunda muayyan shartlar nazarda tutilganki, bu shartlarning mavjudligining o'zi shaxsning jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish uchun asos bo'ladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish uchun JK 73-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan jazo turlarini o'tashning o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lganligi yetarlidir.

O'zbekiston Respublikasi JK 73-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida belgilanganiga ko'ra, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

1) 73-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoidalar talablarini bajarganligi;

2) shu jazolarni o'tash vaqtida mehnatga halol munosabatda bo'lganligi;

3) jazoning qonunda ko'rsatilgan qismini o'tab bo'lganligi.

Ushbu shartlarning barchasi bir vaqtda mavjud bo'lishigina shaxsni jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish uchun asos bo'ladi.

Ushbu shartlarning birortasining bo'lmasligi jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni istisno qiladi.

Jinoyat sodir qilish paytida o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish uchun faqat ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlarini o'tayotganlarga nisbatan qo'llanib, ularni ozod qilishning asoslari sifatida yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari yana o'qishga bo'lgan munosabati ham nazarda tutilgan.

Jinoyat sodir qilish paytida o'n sakkiz yoshga to'lmaganlarga nisbatan esa jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun asos bo'ladigan jazoning o'talgan qismi jiddiy qisqartirilgan va quyidagi muddatlari belgilangan.

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismi;

b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismi;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek, qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyati uchun ozodlikdan

mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llaniladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs biron-bir shart qo'yilmasdan jazoning qolgan qismini o'tashdan to'la ozod qilinadi. Bundan tashqari, shaxsga nisbatan sud tomonidan tayinlangan qo'shimcha jazodan ham butunlay ozod qilinishi mumkin.

Sud shaxsni muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilishda, shaxsning jazodan ozod etilganidan keyingi yashash sharoiti, oilaviy ahvoli, yaqin qarindosh-urug'larining yordami va munosabati, ishga joylashish imkoniyatlarini ham hisobga olishi kerak.

Jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati mahkumni jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga taqdim etishni rad etgan taqdirda mahkum yoki uning advokati sudga tegishli iltimosnoma bilan murojaat etishi mumkin. Agarda bu masalani sud rad etsa, rad etilganligi haqida ajrim chiqqan kundan boshlab kamida olti oy o'tganidan keyin taqdimnoma takroran kiritilishi yoki iltimosnoma takroran berilishi mumkin.

Mahkumga jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod etish haqida taqdimnoma kiritilishida rad qilish asoslari takroran ozod qilish uchun taqdim etish tartibi – quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- mahkumning mehnatga noinsoflik bilan munosabatda bo'lishi yoki ijtimoiy foydali mehnatdan voz kechishi;
- jazoni o'tash tartibini qo'pol ravishda buzilishi;
- muntazam ravishda intizom buzilishi.

Sud jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni rad etgan taqdirda, bu haqda ajrim chiqqan kundan boshlab, kamida olti oy o'tganidan keyin taqdimnoma takroran kiritilishi yoki iltimosnoma takroran berilishi mumkin.

Kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilish tushunchasi, asoslari va tartibi

Kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi sababli jazodan ozod qilish hukm chiqarilgandan so'ng, mahkumga qanday jazo tayinlangani va jazoning qancha qismini o'taganidan qat'i nazar, qo'llaniladi.

Kasallik oqibatida shaxs o'z harakatlarining mohiyatini anglay olmaydigan va o'zini-o'zi boshqarish layoqatini yo'qotgan darajada ruhiy xasta ekanligi, uni jazo o'tashdan butunlay ozod qilish uchun asos bo'ladi. Bunday shaxslarga nisbatan sud Jinoyat kodeksining 93-moddasida ko'rsatilgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashi mumkin.

Mahkum jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan ruhiy tusda bo'lmagan boshqa og'ir kasallikka duchor bo'lganda ham jazoni o'tashdan ozod qilinishi mumkin. Bu holda sud jazoning og'irlik darajasi, jazoning turi, mahkumning shaxsiyati va ishning boshqa holatlarini e'tiborga oladi.

Ular Jinoyat kodeksining 64-moddasidagi jazoni ijro etish muddatlari o'tmasdan tuzalgan bo'lsa, jazoni ijro etish sudning qarori bilan davom ettiriladi.

Intizomiy qismga jo'natish yoxud xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar, ularning sog'lig'i harbiy xizmat uchun yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar. Xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchi ayollar ularga homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham jazoni o'tashdan ozod qilinadilar.

Axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxslar jazoni o'tash vaqtida mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsalar yoxud pensiya yoshiga yetgan bo'lsalar, shuningdek ayollar bu turdagi jazoni o'tayotgan vaqtda homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqsalar, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar.

Jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati Jinoyat kodeksining 75-moddasida nazarda tutilgan hollarda mahkumni jazoni o'tashni davom ettirishdan ozod qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritadi. Ayni bir vaqtda sudga tibbiy komissiya xulosasi va mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildi yuboriladi.

Mahkumni ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq tariqasidagi jazodan kasalligi tufayli ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining maxsus tibbiy komissiyasi xulosasi asosida kiritiladi. Bunday kasalliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Mahkumni axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazodan mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma ijtimoiy ta'minot organlarining tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi xulosasi asosida kiritiladi.

Jazoni o'tash davrida homiladorlik va tug'ish ta'tili berilgan ayollarni jazodan ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma bunday ta'til huquqini beruvchi tibbiy hujjat asosida kiritiladi.

Harbiy xizmatchilarni intizomiy qismga jo'natish yoki xizmat bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma tegishli harbiy-tibbiy komissiyaning ularni harbiy xizmatga yaroqsiz deb topish haqidagi xulosasi asosida kiritiladi. Ayol harbiy xizmatchilar xizmat

bo'yicha cheklash tariqasidagi jazoni o'tashdan homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham ozod qilinadilar.

Jinoyat protsessual kodeksining 534-moddasiga binoan, mahkum jazoni o'tayotgan vaqtida jazoni o'tashga monelik qiladigan surunkali ruhiy kasallikka yoki boshqa og'ir kasallikka duchor bo'lgan taqdirda sudya jazoning ijro qilinishiga mutassaddi organning taqdimnomasiga binoan, maxsus tibbiy komissiyaning xulosasiga asosan mahkumni o'talmay qolgan jazoni o'tashdan ozod qilish to'g'risida ajrim chiqarishga haqlidir.

Surunkali ruhiy kasallikka duchor bo'lgan mahkumni o'talmay qolgan jazodan ozod qilishda sudya unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llashga yoki uni sog'liqni saqlash organlari yoxud qarindoshlari vasiyligiga berishga haqlidir.

Bunday shaxslar sog'aygan taqdirda, basharti bu hol jazoning ijro etish muddati tugashiga qadar sodir bo'lsa, sud tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqaradi.

Ruhiy kasallikdan boshqa og'ir kasallikka duchor bo'lgan shaxslarni o'talmay qolgan jazodan ozod qilish masalasini hal qilishda sudya sodir etilgan jinoyatning og'irligini, mahkumning shaxsini va boshqa ish holatlarini hisobga oladi. Bunday mahkumni o'talmay qolgan jazodan kasalligi tufayli ozod qilganda sudya uni faqat asosiy jazodan emas, balki qo'shimcha jazo chorasidan ham ozod qilishga haqli, bu haqda ajrimda ko'rsatilishi lozim.

Mahkumni birinchi va ikkinchi guruh nogironi deb topilishi uning mehnatga layoqatsizligini bildiradi. Uning ana shu holatga uchrashining sababi jazoni almashtirish yoki o'tashdan ozod qilish masalasini hal etishda ahamiyatga ega emas. Bu haqda tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasining xulosasi yetarlidir.

Kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilish deb – shaxs hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan surunkali ruhiy kasallikka yoki boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o'tashdan ozod qilishga aytiladi.

Kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilish asosi – kasallik oqibatida shaxs o'z harakatlarining mohiyatini anglay olmaydigan va o'zini-o'zi boshqarish layoqatini yo'qotgan darajada ruhiy xasta ekanligi, uni jazo o'tashdan butunlay ozod qilish uchun asos bo'ladi. Bunday shaxslarga nisbatan sud Jinoyat

kodeksining 93-moddasida ko'rsatilgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashi mumkin.

Kasallik tufayli yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida jazodan ozod qilish tartibi – jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati Jinoyat kodeksining 75-moddasida nazarda tutilgan hollarda mahkumni jazoni o'tashni davom ettirishdan ozod qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritadi. Ayni bir vaqtda sudga tibbiy komissiya xulosasi va mahkumning shaxsiy hujjatlar yig'majildi yuboriladi.

Mahkumni ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq tariqasidagi jazodan kasalligi tufayli ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining maxsus tibbiy komissiyasi xulosasi asosida kiritiladi. Bunday kasalliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Mahkumni axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazodan mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida ozod qilish to'g'risidagi taqdimnoma tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi xulosasi asosida kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 75-moddasida shaxs hukm chiqarilgandan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek, jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolsa, jazoni o'tashdan ozod qilinishi mumkinligi nazarda tutilgan.

O'zbekistrn Respublikasi JKning 67-moddasida faqat ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish nazarda tutilgan bo'lsa, JKning 75-moddasida esa to'rtta holatda jazodan ozod qilish nazarda tutilgan, bular:

a) hukm chiqarilgandan keyin o'z harakatlari ahamiyatini anglay olmaydigan va o'z harakatlarini boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka chalingan;

b) jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalingan;

v) axloq tuzatish ishlariga hukm qilinib, jazoni o'tash vaqtida mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsalar yoxud pensiya yoshiga yetib qolsalar, bu turdagi jazoni o'tash vaqtida homiladorlik holatida bo'lsalar;

g) intizomiy qismga jo'natish yoxud xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar, ularning sog'ligi harbiy xizmat uchun yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar. Xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchi ayollar ularga homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ham jazoni o'tashdan ozod qilinadilar.

Jazodan ozod qilishning ushbu turlari hukm chiqarilgan paytdan boshlab to jazo muddati tugaguncha qo'llanishi mumkin.

Hukm chiqarilganidan oldin shaxs ruhiy kasallikka chalinib qolsa jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi. Boshqacha og'ir kasallikka chalinganlar davolanishga yuboriladi va tuzalishi bilan jinoiy javobgarlikka tortish masalasi hal qilinadi.

Ushbu aytilganlardan ko'rinib turibdiki, JK 75-moddasida nazarda tutilgan kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish hukm chiqarilgan paytdan to hukm qonuniy kuchga kirguncha va jazoni o'tash vaqtida qo'llanishi mumkin.

Hukm chiqarilganidan keyin ruhiy kasallikka chalingan shaxslarni jazodan ozod qilish sudning huquqi bo'lmay, balki majburiyati hisoblanadi. Ruhiy kasallikka chalingan shaxs o'z harakatlarini idora qila olmasligi va harakati tufayli kelib chiqqan oqibatning ijtimoiy mohiyatini anglamasligi ushbu darslikning IX bobida batafsil berilgan.

Boshqacha og'ir kasallik tufayli jazoni o'tashdan ozod qilish sudning vakolati bo'lib, sud jazodan ozod qilish yoki ozod qilmaslik masalasini hal qiladi. Boshqacha og'ir kasallikning turi yoki qanday kasallarni jazodan ozod qilish mumkin bo'lgan kasalliklar ro'yxati qonunda nazarda tutilmagan. Boshqacha og'ir kasallik har qanday og'ir kasallik bo'lishi mumkin va bunday kasallik albatta, jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan og'ir kasallik (masalan, har ikkala qo'lning ishlamay qolishi, inson ichki a'zolaridan biri faoliyatining ishdan chiqishi va hokazolar) bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi JKning 46-moddasiga ko'ra, axloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga yetganlarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, homilador ayollarga, yosh bolasini boqish uchun ta'tilda bo'lgan ayollarga nisbatan tayinlanmaydi. Shunga ko'ra, axloq tuzatish jazosiga hukm qilingan yuqorida aytilgan shaxslar hukm qilinganidan keyin yoki jazoni o'tash vaqtida mehnatga yaroqsiz bo'lib qolsalar jazodan ozod qilinadilar. Bunday shaxslarda jazoni ijro etish muddati yoki jazoni o'tash muddati tugamasdan mehnat qobiliyati tiklansa (homilasi tushishi, yosh bolaning o'lib qolishi yoki yosh bolasining qonunda belgilangan yoshga yetishi munosabati bilan yoxud mehnat qobiliyatini yo'qotganlarida) mehnat qobiliyati tiklangani munosabati bilan jazoni o'tash to'g'risida ajrim chiqarish mumkinmi, degan savol tug'iladi. Qonunda bu haqda hech narsa deyilmagan. Shunga ko'ra, ularga hech qanday shart qo'yilmay jazodan butunlay ozod qilinadi. Ammo ruhiy kasallikka chalinib sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasi qo'llanilgan shaxs O'zbekiston Respublikasi JKning 69-moddasida (jazoni ijro etish muddatlari) nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan yoki jazo muddati tugamasdan tuzalsalar jazo ijro etiladi. Bunday holda tibbiy

yo'sindagi majburlov chorasi muddati jazo muddatiga qo'shib hisoblanishi kerak.

Intizomiy qismga jo'natish yoxud xizmat bo'yicha cheklash jazosiga hukm qilingan harbiy xizmatchilar ularning sog'ligi harbiy xizmat uchun yaroqsiz deb topilgan bo'lsa, jazoni o'tashdan ozod qilinadilar. Bunda ozod qilinayotgan harbiy xizmatchining huquqini cheklovchi yoki majburiyat yuklovchi cheklashlarsiz jazodan to'la ozod qilinadi.

JKning 75-moddasiga binoan jazodan ozod qilishda sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi, sodir etilgan jinoyatning turi, mahkum shaxsining ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olish yoki olmaslik nazarda tutilmagan.

Ammo O'zbekiston Respublikasi JPK 534-moddasining to'rtinchi qismida ruhiy kasallikka duchor bo'lgan shaxslardan tashqari, og'ir kasallikka duchor bo'lgan shaxslarni o'talmay qolgan jazodan ozod qilish masalasini hal qilishda sudya sodir etilgan jinoyatning og'irligi, mahkumning shaxsini va boshqa holatlarni hisobga oladi, deyilgan.

Mahkumni o'talmay qolgan jazodan kasalligi tufayli ozod qilganda sudya uni faqat asosiy jazodan emas, balki qo'shimcha jazo chorasidan ham ozod qilishga haqli va bu haqda ajrimda ko'rsatadi.

Shaxsning I yoki II guruh nogironligining o'zi uni ozodlikdan mahrum qilish jazosidan ozod qilish uchun asos bo'la olmaydi. Mahkumning og'ir kasalligi jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan darajada bo'lishi kerak. Bu masala tibbiy komissiyaning xulosasiga asoslanib hal qilinadi.

Jazodan amnistiya yoki afv etish asosida ozod qilish tartibi va shartlari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan buyon insonparvarlik ruhida qabul qilinayotgan amnistiya e'lon qilish to'g'risida yigirmadan ziyod hujjatlar huquqiy demokratik davlat tizimining kuchli fuqaroviy jamiyat sari muntazam rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Har bir amnistiya hujjati insonparvarlik tamoyiliga izchillik bilan amal qilishning yuksak namunasidir.

Vatanimizda iqtisodiy, siyosiy va huquqiy islohotlarning tub mazmuni xalqpavarlik, insonni e'zozlash va qadriga yetishga qaratilgan. Inson manfaatlarini chinakam himoya qilish, ularga qarshi qaratilgan har qanday xavfli xurujlar bilan ayovsiz kurashish, ayni vaqtda murakkab turmush chorrhalarida halol yo'ldan toygan, ozmi-ko'pmi xudbinlikka ruju qilgan, jinoyat sodir etganlarga nisbatan me'yori jazo va ta'sir choralari ko'rish xalqimizning azaliy taomilidir. Hatto ashaddiy jinoyatchiga ham o'lim

jazosini tayinlamaslik va undan voz kechish, jazolarni yengillashtirish, ayniqsa iqtisodiy, xo'jalik jinoyatlari sodir etganlarning aksariyatini jamiyatdan yakkalab qo'ymay, haq yo'lga yetaklash, imkoni boricha ularga rahmdillik ko'rsatish, jaholat bilan o'ch olish emas, kechiruvchan bo'lish g'oyalari qadim-qadimdan xalqimizga xos.

Konstitutsiyamizning 93-moddasidagi 23-bandga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati amnistiya to'g'risida qaror qabul qiladi. Har bir amnistiya akti to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Prezidenti farmoyish berib, unda bir qator amaliy vazifalarni bajarish tartibi, shartlari, vositalari, muhlatlari kabilarni belgilaydi. An'anaga ko'ra, farmoyish bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Bosh prokurori, Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligining bu haqda Nizomi ham tasdiqlanadi. Nizom shu zaylda qonuniy kuchga kiradi. Lekin u rasmiy manbalarda e'lon qilinmaydi va Konstitutsiyaning 84-moddasiga binoan qonun maqomini olmaydi. Shu sababli amnistiyaning qo'llash asoslari va shartlari amnistiya aktida ko'rsatilgan bo'lishi shart. Amnistiyaning qo'llash asoslari unda bevosita bayon qilinadi. Amnistiya hujjatining ijrosi idoralararo alohida komissiya qarori asosida har bir mahkumga nisbatan alohida-alohida, zarur hollarda mahkumning fikrini ham inobatga olib amalga oshiriladi. Mahkumga nisbatan amnistiya akti, u qabul qilingan yoki e'lon qilingan kundan emas, ana shu komissiya qaror chiqargan kundan boshlab ko'llangan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumi "Sudlar tomonidan amnistiya aktlarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" 2006 yil 22 dekabrda qaror qabul qildi va unga 2007 yil 3 aprelida bir qancha o'zgartish va qo'shimchalar kiritdi. Amnistiya aktini qo'llash amaliyotiga oid amaliyotning turli jabhalari – qonun hujjatlari qo'llashning umumiy masalalari, sudlanganlikka oid, jinoyat ishini tugatish, hukm chiqarish chog'ida hal e'tilishi lozim bo'lgan holatlar va bir qancha boshqa masalalar batafsil aks ettirilgan.

Har bir amnistiya akti mazmunan keng qamrovli, bag'rikenglik tamoyillariga xos, u mahkumlarga nisbatan keng ravishda xatosiz tatbiq etilishi jiddiy ahamiyatga ega. Amnistiya imtiyozlaridan foydalanib mahkumlarning talaygina qismi halol turmush sharoitlariga qaytariladi, kasb-hunariga mos ishlarga jalb qilinadi.

Amnistiya akti asosida, shaxs jinoyat sodir etgan bo'lsa, - jinoiy javobgarlikdan, jinoyati uchun mahkum etilgan bo'lsa, - asosiy yoki qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi, jazo muddati qisqartirilishi yoxud boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin (JK 68-, 76- va 79-moddalari).

Amnistiya (yunoncha – “amnestia”) kechirish, xotiradan chiqarishni bildiruvchi xalqaro atamaga aylangan. Odatda ko’p mamlakatlarda umumiy va xususiy amnistiya iboralari qo’llanadi.

Umumiy amnistiya (ba’zan “avfi umumiy” deb nomlanadi) huquqbuzarlik sodir etgan muayyan toifadagi shaxslarga nisbatan qo’llanadi.

Xususiy amnistiya (xususiy afv) bevosita muayyan shaxsni kechirish, uning qismatini yengillashtirishdan iborat. Afv ham, gunohni kechirish ham shaxsni reabilitatsiya qilishni anglatmaydi. Ayni vaqtda shaxs o’z aybiga iqrор bo’lishi shart emas. Uni jinoyat protsessining barcha bosqichlarida afv etilishi, hatto unga nisbatan jinoyat ishi qo’zg’atilishi afv akti asosida rad qilinmog’i mumkin.

Amnistiya aktida u qanday jinoyatlar bo’yicha va qanday toifadagi gumon ostidagi shaxsga, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkumga nisbatan ko’llanishi aniq ko’rsatiladi. Amnistiya akti qo’llanadigan jinoyat turi va ayblanayotganlar yoki mahkum etilganlar toifasini faqat qonun chiqaruvchi hokimiyat belgilaydi.

Amnistiya aktini qo’llab jazodan ozod qilish, jazoni yengirog’i bilan almashtirish yoki muddatini kamaytirish chog’ida sudanuvchi (mahkum)ning roziligi, aybiga iqrор bo’lgani-bo’lmagani, jabrlanuvchining fikri inobatga olinmaydi, jinoyat oqibatida yetkazilgan moddiy ziyonni undirish masalasi fuqarolik sudida ish yuritish tartibida ko’rilishiga monelik qilmaydi. Amnistiya akti huquqbuzarlikda ayblanayotgan har bir protsess ishtirokchisining huquqlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olib amalga oshirilishi shart.

Gumon ostiga olingan, ayblanuvchi, sudlanuvchi va mahkum unga e’lon qilingan aybga iqrор bo’lmay, uni amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilishga norozi bo’lishga haqli. Bu haqda shaxsning jinoyat sodir etishda aybli ekani va javobgarligi tergov ishini tugatish yoxud sudda oqlor hukmi chiqarish tarzida hal etilishi lozim.

Amnistiya e’lon qilish to’g’risida qonun hujjatlarining deyarli barchasida jazoni o’tash tartibini buzgan mahkumlarga amnistiya qo’llanmasligi haqida talab bor. Amnistiya qo’llanmasligiga mahkumning jazoni o’tash chog’ida sodir etgan tartibbuzarligi sabab bo’lishi mumkin.

Ko’pincha amnistiya hujjatlarida tartibni buzish muttasil bo’lishi ko’zda tutiladi. Muttasillik yoki muntazamlik iborasi doimiy, ketma-ket, uzluksiz singari ma’noni bildiradi. Ayni vaqtda, bir marta bo’lsa-da, jiddiy va qasddan sodir etilgan qoidabuzarlik amnistiyani tatbiq etmaslikka asos bo’lishi mumkin. Amnistiyani amalga oshiruvchi komissiya ushbu asos bo’yicha masalani muhokama qilganda har bir mahkum bilan alohida, xolisona suhbatlashish, qoidabuzarlikning qay darajada jiddiyligi va

mahkumning tushuntirilishi, ayniqsa, o'ta qo'polligi yoki pushaymonligini inobatga olish lozim. Agar mahkum unga intizomiy chora asossiz berilgan deb hisoblasa, bu masala Jinoyat-ijroiya kodeksining 107-moddasi tartibida ko'rib hal qilinishi shart.

Qoidabuzarlik sodir etilgan vaqt bilan amnistiya to'g'risida qonun hujjati e'lon qilingan va kuchga kirgan vaqt mobaynidagi davr ham inobatga olinishi lozim. Jumladan, mahkum amnistiya to'g'risida qonun hujjati e'lon qilinganidan bir yil oldin yo'l qo'ygan qoidabuzarligi uchun amnistiyani tatbiq etilishidan mahrum etilmasligi lozim.

Amnistiya to'g'risida qonun hujjati uni qo'llash uchun mahkum jinoyat oqibatida yetkazilgan ziyonni qoplashi zarurligi ko'rsatilgan bo'lsa, ziyon amnistiya e'lon qilingandan so'ng qoplangani ham inobatga olinishi maqsadga muvofiq.

Amnistiya to'g'risida qonun hujjatida uni qo'llash uchun mahkum 1 va 2 guruh nogironi ekanligi inobatga olinadigan bo'lsa, bunday nogironlik amnistiya amalga oshiriladigan uch-to'rt oy mobaynida yuz bergan holda ham amnistiyani tatbiq etish masalasi ijobiy hal qilinmog'i lozim.

Amnistiya to'g'risida qonun hujjatida e'lon qilingan kungacha 60 yoshga to'lgan mahkumlarga qo'llanishi ko'rsatilgan holda, amnistiyani amalga oshirishning uch-to'rt oyi mobaynida 60 yoshga to'lganlarga ham qo'llanmog'i lozim.

Amnistiya to'g'risidagi qonun hujjati unda ko'rsatilgan muhlat mobaynida mahkumga qo'llanmagan hollarda mahkum bu haqda sudga shikoyat qilishga yo'l qo'yilishi maqsadga muvofiq.

Afv etish — jazodan ozod qilishning bir turi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasi 23-bandiga binoan, afv etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga berilgan. Afv etish jinoyat qonunchiligi bo'yicha jazodan ozod qilishning bir turi sifatida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 76-moddasida belgilab qo'yilgan. Shunga ko'ra ma'lum bir shaxsga sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan jazoni qisman o'zgartirish, boshqa jazo bilan almashtirish yoki unga tayinlangan jazoning o'talмай qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Afv etish Prezident tomonidan imzolangan hujjat (farmon) asosida amalga oshiriladi.


Afv etish tartibi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 17 iyuldagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi Nizom bilan belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 13 mardagi Farmoni bilan “O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish tartibi to'g'risida”gi yangi tahrirdagi Nizom tasdiqlangan. Unga ko'ra, O'zbekiston

Respublikasida afv etish, qoida tariqasida, respublika hududida joylashgan sudlar va harbiy sudlar tomonidan hukm qilingan shaxslarga nisbatan ularning afv etishni so'rab yozgan iltimosnomasiga asosan amalga oshiriladi.

Komissiya tarkibiga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining deputatlari, mehnat jamoalari va jamoat tashkilotlarining vakillari, respublika Adliya vaziri, Milliy xavfsizlik xizmati Raisining o'rinbosari, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Raisining o'rinbosari, ma'muriy-huquqiy masalalar hamda fuqarolik va afv etish masalalari bo'yicha bosh maslahatchilar kiradi.

Sud hukmi bilan jinoiy jazoga hukm qilingan shaxsni afv etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Shuningdek, afv etish asosida asosiy jazodan ozod qilish bilan birga qo'shimcha jazodan ham ozod qilinishi, sudlanganligi olib tashlanishi mumkin. Amnistiya akti chiqquncha sodir etilgan, surishtiruv, tergov va ishni sudda ko'rish hukmi qonuniy kuchga kirguncha hibsdan saqlangan hamda jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan qo'llansa (amnistiya aktida ko'rsatilgan shaxslar doirasiga), afv etish esa faqat hukm qonuniy kuchga kirganidan keyingina qo'llanilishi mumkin.

Jazo ijrosini tugatish asoslari va vaqti



Jazo ijrosini tugatish – jazoni ijro etishdan ozod qilish jarayonining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va uning asoslari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 167-moddasida ko'rsatilgan.

Jazo ijrosini tugatish – sud tomonidan tayinlangan jazoning JIK 167-moddasiga ko'ra tamomlanishi.

Quyidagilar jazo ijrosini tugatish uchun asos bo'ladi:

- mahkumning sud tayinlagan jazo muddatini o'tab bo'lishi;
- mahkumning jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilinishi;
- sud hukmining bekor bo'lishi va ish yuritishning tugatilishi;
- hukmning nazorat tartibida o'zgartirilishi va jazoning shartli hukm bilan almashtirilishi;
- mahkumning vafoti.

Moddada jazo choralari tugatish uchun qonun nazarda tutgan barcha asoslari ko'rsatilgan. Ulardan boshqa holatlar tufayli jazo ijrosini tugatishga yo'l qo'yilmaydi.

Jazo muddatining oxirgi kunida ozodlikdan mahrum qilish, qamoq, axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish, xizmat bo'yicha cheklash va intizomiy qismga jo'natish jazolari batamom ijro etilgan hisoblanadi. Jazo muddati oylar bilan hisoblansa, u tugaydigan oyning tegishli kunida nihoyasiga yetadi. Mabodo bu oyda shunday kun (29, 30, 31-kunlar) bo'lmasa, uning oxirgi kuni (jumladan, 28, 29 yoki 30-kunda) tugaydi.

Mahkum qaysi kundan jazoni o'tayotganligi sud hukmi yoki uni qamoqqa olinganligiga oid hujjat asosida aniqlanadi. Agar bu haqda hujjatlardagi ma'lumotlarda farq bo'lsa, jazoni ijro qilish muassasasi yoki organi ularni aniqlash uchun sudga murojaat qilishi lozim.

Agar mahkumga jazo muddatini belgilagan sud hukmi kelgusida yuqori sud ajrimi (qarori) asosida o'zgartirilgan bo'lsa, bu holat jazo muddatini tugash vaqtini aniqlashda e'tiborga olinadi.

Mahkum sodir etgan jinoyat uchun Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazo yangi qabul qilingan qonunga ko'ra ko'paytirilgan bo'lsa, hukmni qayta qo'rib chiqish va mahkumga sud belgilagan jazoni ko'paytirish mumkin emas.

Aksincha, yangi qabul qilingan qonunga ko'ra, Jinoyat kodeksidagi jazo liberallashtirilgan bo'lsa, jazoni ijro qiluvchi muassasa yoki organ ma'muriyati shu modda bo'yicha jazo o'tayotgan mahkum to'g'risidagi masalani qayta ko'rib chiqish haqida sudga murojaat etishi lozim. Sud jazoning miqdorini kamaytirishi, ba'zi hollarda tugatilishi to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Jazodan muddatidan ilgari ozod qilish yoki yengilrog'i bilan almashtirish to'g'risida Jinoyat kodeksidagi shartlar yengillashtirilgan hollarda ham mahkumga nisbatan yangi shartlarni qo'llash masalasini sud hal qiladi.

Orqaga qaytish kuchiga ega bo'lgan har qanday qonun uning mahkumga nisbatan qo'llanishini sud tomonidan muhokama etilishi taqazo qiladi.

Jazo ijrosini tugatish tartibi haqida Jinoyat-ijroiya kodeksning 168-173 moddalarida batafsil ko'rsatilgan.

Ozodlikdan mahrum etish yoki qamoq jazosini o'tagan shaxs kelgusida sud hukmi bo'yicha muayyan huquqdan mahrum etilishi lozim bo'lsa, jazoni ijro etish muassasasi bu haqda tegishli davlat organi muassasasi, korxona, tashkilotga xabar beradi.

Jazodan ozod etilayotgan shaxsga bu haqda barvaqt e'lon qilish, uning mulkiy, mehnat, oilaviy, uy-joyga oid huquqlari va ulardan foydalanish imkoniyatlari tushintirilishi lozim.

Reabilitatsiya qilingan shaxsga davlat nomidan uzr bildirish jazoni ijro qiluvchi muassasa ma'muriyati yoki organ rahbari tomonidan oshkora, imkon boricha ko'pchilik huzurida amalga oshiriladi va uning barcha huquqlari tiklanishi batafsil tushintiriladi.

Muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, qamoq, intizomiy qismga jo'natish, ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning ijrosi mazkur jazo muddatiga qonun hujjatlariga muvofiq kiritilishi mumkin bo'lgan o'zgartirishlarni hisobga olgan holda bu muddatning oxirgi kuni tugatiladi.

Agar jazo muddati dam olish yoki bayram kuni tugaydigan bo'lsa, mahkum ushbu dam olish yoki bayram kunidan bir kun oldin ozod qilinadi. Muddat oylar bilan hisoblangan taqdirda bu muddat keyingi oyning tegishli kuni, agar mazkur oyda shunday kun bo'lmasa - shu oyning oxirgi kuni tugaydi.

Jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati mahkumni muddatidan ilgari ozod qilish to'g'risidagi hujjatlarni ish kuni tugaguniga qadar olgan bo'lsa, shu zahoti, ish kuni tugaganidan keyin olgan bo'lsa, ertasi kuni ertalab ijro etadi.

Jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma'muriyati mahkumni ozodlikdan mahrum qilish jazosini tugashidan ancha oldin boshlab, uni ozodlikka chiqarish uchun tayyorgarlik ko'radi, kelgusida uning mehnat va yashash joyi hamda sharoitlarini aniqlaydi.

Olingan ma'lumotlar bilan mahkum xabardor qilinadi hamda uning jazoni o'taganidan so'ng qayerda yashashi, nima bilan mashg'ul bo'lishi haqidagi istaklari inobatga olinadi va imkon boricha qanoatlantiriladi.

Jazo muddati o'taganidan so'ng mahkumni ozod qilmay, har xil sabab bilan ushlab turish qonunga zid qilmish sifatida javobgarlikka sabab bo'ladi. Chunonchi, bir yil muddatga ozodlikdan mahrum etilgan shaxs 2006 yil may oyining 25-kunida qamoqqa olingan bo'lsa, 2007 yil 24- may kuni ertalab ozod qilinishi shart.

Axloq tuzatish ishlari muddati tugayotgan kuni jazolarni ijro etish inspeksiyasi jazoni o'tagan shaxsni va u ishlayotgan korxona, muassasa yoki tashkilot ma'muriyatini ish haqidan chegirib qolishni tugatish va boshqa cheklashlarni olib tashlash to'g'risida xabardor qiladi.

Jazoni ijro etish muassasasi qamoqqa va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar ozod etilayotganda ular bilan to'la hisob-kitob qiladi, ularning shaxsiy hujjatlari, buyumlari va boshqa qimmatli narsalarini, shuningdek shaxsiy hisobvaraqlarida turgan pullarini qaytarib beradi hamda jazoni o'tab bo'lganlik yoki jazodan ozod qilinganlik to'g'risida belgilangan namunada ma'lumotnoma beradi.

Jazoni ijro etish muassasasi qamoq yoki ozodlikdan mahrum etish jazosidan ozod qilingan shaxsga tegishli barcha narsalarni va hujjatlarni qaytarib berishi, ayrim hollarda unga vaqtincha foydalanish uchun berilgan buyumlarni qabul qilib olishi, bu haqda zarur hujjat tuzib rasmiylashtirishi shart.

Mahkumning hisobvarag'ida ko'rsatilgan mablag'lari naqd pulda yoxud tegishli bank hujjatlari tarzida qaytarilishi lozim.

Sil kasalligiga duchor bo'lgan shaxslarning ozod qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotnomalarga belgilangan namunadagi shtamp qo'yiladi.

Sil kasaliga duchor bo'lgan shaxs jazodan ozod qilinishida unga berilgan ma'lumotnomadagi shtampni o'zi istiqomat qiladigan joydagi sog'liqni saqlash idoralariga ko'rsatishi, zarur dori-darmon va muolaja olishda imtiyozlardan foydalanishga imkon beradi.

Mahkum bilan to'liq hisob-kitob – jazoni o'tash muddati oxirgi kunining birinchi yarmida amalga oshiriladi, bunda unga o'zi tanlagan yashash joyiga yetib olishi uchun yo'l hujjatlari, belgilangan norma bo'yicha borar manzilga yetib olishiga mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari, belgilangan namunadagi ozod etilganligi to'g'risida ma'lumotnoma beriladi, shaxsiy yig'majildidagi hujjatlari (pasport, kasaba uyushmasi bileti, mehnat daftarchasi, tug'ilganlik va nikoh to'g'risidagi guvohnomalar, o'quv yurtini tugatganlik to'g'risidagi attestat va hokazo), shuningdek, muassasa omboridagi shaxsiy buyumlari qaytarib beriladi.

Ozod etilayotgan shaxsning arizasiga ko'ra, yashashni mo'ljallayotgan joyga yetib olishi uchun belgilangan norma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari o'rniga unga pul kompensatsiyasi berilishi mumkin.

Axloq tuzatish ishlarida mahkumlar bilan hisob-kitob tartibi, hujjatlarni va shaxsiy buyumlarni berish – axloq tuzatish ishlari muddati tugayotgan kuni jazolarni ijro etish inspeksiyasi jazoni o'tagan shaxsni va u ishlayotgan korxona, muassasa yoki tashkilot ma'muriyatini ish haqidan chegirib qolishni tugatish va boshqa cheklashlarni olib tashlash to'g'risida xabardor qiladi.

Mahkum vafot etganligi munosabati bilan jazo ijrosini tugatish tartibi

Mahkum vafot etganligi munosabati bilan jazo ijrosini tugatish tartibi – mahkum vafot etgan taqdirda jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati bu haqda zudlik bilan marhumning yaqin qarindoshlaridan biriga telegraf orqali xabar qiladi.

Marhumning jasadi qarindoshlariga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda beriladi.

Mahkumning qarindoshlaridan jasadni berish to'g'risida ariza tushmagan taqdirda, muassasa ma'muriyati marhumni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilab qo'yilgan tartibda dafn etadi.

Muassasa ma'muriyati o'lgan mahkum to'g'risida muassasa joylashgan hududdagi fuqarolik holatlarini qayd etish organlariga belgilangan shaklda xabarnoma yuboradi, ushbu xabarnoma asosida uning vafot etganligi to'g'risida guvohnoma beriladi.

Ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tayotgan chet ellik fuqarolarning o'limi haqida xalqaro huquq normalaridan kelib chiqib tegishli organ va muassasaga xabar qilinadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 4-moddasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaning qoidalari ustunligi tan olinishi va qo'llanilishi e'tirof etilgan.

Agar mahkumning vafoti haqida yaqin qarindoshlariga xabar yuborilganidan so'ng marhumning jasadini olib ketish uchun uning qarindoshlari yetib kelishi to'g'risida muassasa ma'muriyati 48 soat mobaynida tasdiqlovchi xabar olmasa, muassasa ma'muriyati marhumni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan belgilab qo'yilgan tartibda dafn etadi.

Muassasa ma'muriyati o'lgan mahkum to'g'risida muassasa joylashgan hududdagi fuqarolik holatlarini fayd etish organlariga belgilangan shaklda xabarnoma yuboradi, ushbu xabarnoma asosida uning vafot etganligi to'g'risida guvohnoma beriladi.

Jazoni o'tab bo'lishi munosabati bilan ozod qilish tartibi

Jazoni o'tab bo'lishi munosabati bilan ozod qilish tartibi – sud tomonidan tayinlangan jazo muddatini o'tab bo'lganidan so'ng mahkumlarni ozod etish tartibi ustidan nazorat qilish uchun, nazorat-muddat kartotekasi ma'lumotlari asosida, muassasaning maxsus bo'limi ozod etilishi lozim bo'lgan shaxslarning oylik ro'yxatlarini tayyorlaydi. Bu ro'yxatlarning bir nusxasi buxgalteriyaga beriladi, ikkinchi nusxasi mahkumlarni tanishtirish uchun turkum boshliqlariga yetkaziladi. Ozod etilayotgan mahkum jazoni o'tash muddati tugashiga ikki kun qolganida muassasa buxgalteriyasiga chaqirtirilib, unga qarzi yo'qlik varaqasi topshiriladi. Mahkum bu varaqani olgach, o'zining hisobida bo'lgan barcha mol-mulk, inventar va boshqa moddiy qimmatliklarni taalluqliligi bo'yicha topshiradi. Varaqa koloniya boshlig'ining tezkor va tartibot ishlari bo'yicha o'rinbosari tomonidan imzolangach, u mahkum bilan to'liq hisob-kitob qilishi uchun buxgalteriyaga beriladi

Mahkumlarni jazoni ijro etuvchi muassasalardan ozod qilish tartibi Jinoyat-ijroiya kodeksining 171—173-moddalari bilan tartibga solinadi.

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning jazoni o'tash muddati tugashiga uzog'i bilan uch oy qolganda uni ozodlikka chiqarishga tayyorlash, mehnat va turmushda o'rnashishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, uning muassasadan ozod bo'lgandan keyingi huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish maqsadida mahkum bilan tarbiyaviy ish olib boradi.

Ma'lumki, respublikamizda turli sohalarda olib borilayotgan islohotlar birinchi galda, inson manfaatlariga qaratilayotganligi e'tiborga molik jihatdir. Xuddi shu nuqtai nazardan jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning ishda va turmushda o'rnashishga muhtojligi aniqlanadi. Muassasa ma'muriyati oldindan mahkum yashashni mo'ljallayotgan joydagi ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi markazini uning ozod qilinishi, turar joyi bor-yo'qligi, mehnat qobiliyati va ixtisosi to'g'risida xabardor etadi.

Muassasa ma'muriyati ayni bir vaqtda 1992 yil 9 dekabrda O'zbekiston Respublikasining “Ozodlikdan mahrum etish joylaridan

bo'shatilgan shaxslar ustidan ichki ishlar idoralarining ma'muriy nazorati to'g'risida"gi qonunining 8-moddasiga muvofiq, ustidan ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorati o'rnatilishi zarur bo'lgan shaxslarni aniqlaydi va jazoga hukm qilingan shaxs tuzalish va halol mehnat qilib kun kechirish yo'liga o'tishni aslo istamaganligidan dalolat beruvchi materiallar asosida ozod etilishidan kamida bir oy oldin jazoni ijro etish muassasasi joylashgan hududdagi jinoyat ishlari bo'yicha sudiga tegishli taqdimnoma kiritadi.

**Mahkumlarni ozod qilishga tayyorlash,
jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarga
moddiy yordam ko'rsatish**

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning jazoni o'tash muddati tugashiga uzog'i bilan uch oy qolganda uni ozodlikka chiqarishga tayyorlash, mehnat va turmushda o'rnatishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, uning muassasadan ozod bo'lgandan keyingi huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish maqsadida mahkum bilan tarbiyaviy ish olib boradi.

Ishda va turmushda o'rnatishga muhtoj shaxslar aniqlangan taqdirda muassasa ma'muriyati oldindan mahkum yashashni mo'ljallayotgan joydagi ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod bo'lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi markazini uning ozod qilinishi, turar joyi bor-yo'qligi, mehnat qobiliyati va ixtisosi to'g'risida xabardor etadi.

Muassasa ma'muriyati ayni bir vaqtda ustidan ichki ishlar organlarining ma'muriy nazorati o'rnatilishi zarur bo'lgan shaxslarni aniqlaydi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga tegishli taqdimnoma kiritadi.

Odatda uzoq vaqt ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tagan shaxs oilasi, qavm-qarindoshlari, tanish-bilishlari, ilgari istiqomat qilgan va ishlagan joyidagi jamoa bilan munosabatlari mushkullashadi. U qamoqdan qaytib kelgach, yangi sharoitlarga ko'nikishi, moslashuvi qiyin kechadi. Shu sababli u muruvvatga muhtoj bo'ladi.

Har bir mahkumni ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tagandan so'ng qaerda, kimlar bilan yashashi, nima bilan shug'ullanishi haqida g'amxo'rlik qilishi u bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishning muhim tarkibiy qismidir. Bunday g'amxo'rlik mahkum ozod etilishiga uch oy qolganda ayniqsa kuchaytirilishi, mahkumning ehtiyojlarini aniqlash va qanoatlantirishga qaratilgan muayyan sharoitlarni vujudga keltirishni nazarda tutishi lozim.

Mahkumni halol turmush va mehnat sharoitlariga o'rgatish uning oilasi, qarindoshlari, tanish-bilishlari va jamiyat oldida, kamsitilmasligi uchun kerakli axloq-odob qoidalarini, huquq va majburiyatlarini tushuntirishdan boshlanishi, hayot chorrahalarida yomon yo'lga kirish, xudbinlikka ruju qilish qanchalik og'ir oqibatlariga olib kelishi haqida suhbatlar o'tkazish vositasida, turli ma'naviy, tarbiyaviy ta'sir etish tarzida jonlashtirish lozim.

Agar mahkum muhtoj bo'lsa, muassasa ma'muriyati oldindan uning yashaydigan joyidagi mahalla oqsoqollarini unga muruvvat ko'rsatishi haqida xabardor qilishi, o'sha yerdagi hokimiyat qoshidagi ijtimoiy moslashuv markazi, maxsus komissiyalar va mehnat jamoalari bilan tadbirlarni rejalashtirish kerak. Bu haqda Vazirlar mahkamasining 1999 yildagi 113-sonli qaroriga binoan ozod etilayotgan shaxsning ustidan ma'muriy nazorat o'rnatilishi lozim bo'lsa, jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati bu haqda sudga taqdimnoma kiritib, sudda bu masala barvaqtroq ko'rilishiga erishishi lozim.

Jazodan ozod qilinayotgan shaxs tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Unga tegishli barcha hujjatlar, shu jumladan pasport, mehnat daftarchasi, pensionerlik yoki nogironlik guvohnomasi, ta'lim va hunar o'rganganligi haqida hujjatlar, kasallik daftarchasi, xat yozishmalari, kitob-daftarlari qaytarib beriladi. Agar uning shaxsiy hisob jildida faxriy, maxsus va harbiy unvonlar to'g'risida guvohnomalar, ko'krakka taqiladigan nishonlar, medal va ordenlar bo'lsa, ular ham qaytarib beriladi. Bu ishlarga barvaqt xozirlik ko'rilishi kerak.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilinayotgan shaxslar yashashni mo'ljallayotgan joyga yetib olishi uchun yo'l hujjatlari, belgilangan norma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari yoki pul kompensatsiyasi bilan ta'minlanadilar.

Ozod qilinayotgan shaxslarda mavsumiy kiyim va poyabzal, shuningdek, ularni sotib olishga pul bo'lmasa, ular kiyim va poyabzal bilan bepul ta'minlanadilar. Shu maqsadlar uchun ozod qilinayotgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan pul nafaqasi berilishi mumkin.

Jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilinayotgan shaxsga qilingan sarflar davlat hisobidan qoplanadi.

Mahkumlarning ozod qilinishi to'g'risida xabar berish va ozod bo'lgan shaxslarni kuzatib borish

Jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati mahkumlarning ozod etilganligi to'g'risida quyidagilar xabardor etiladi:

birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga, homilador ayollar va yosh bolasi (bolalari) bor ayollarga, shuningdek voyaga yetmaganlarga nisbatan

ularning qarindoshlari yoki qarindoshlarining o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarni;

ishga kirish va turmushini yo'lga qo'yishga muhtoj bo'lgan shaxslarga nisbatan

viloyatlar (tumanlar, shaharlar) hokimliklari huzuridagi ijtimoiy moslashuv markazlarini;

sil yoki tanosil kasalliklariga duchor bo'lgan, shuningdek alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolash kursini tugallamagan shaxslarga nisbatan

viloyat, shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari (bo'limlari) yoki sog'liqni saqlash organlarining davolash muassasalarini;

ma'muriy nazorat ostiga olinishi lozim bo'lgan shaxslarga nisbatan

ichki ishlar hududiy organlarini oldindan xabardor etadi.

Mahkumlarning ozod qilinishi to'g'risida xabar berish va ozod bo'lgan shaxslarni kuzatib borish – jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati mahkumlarning ozod etilganligi to'g'risida:

– birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga, homilador ayollar va yosh bolasi (bolalari) bor ayollarga, shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan – ularning qarindoshlari yoki qarindoshlarining o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarni;

– ishga kirish va turmushini yo'lga qo'yishga muhtoj bo'lgan shaxslarga nisbatan – viloyatlar (tumanlar, shaharlar) hokimliklari huzuridagi ijtimoiy moslashuv markazlarini;

– sil yoki tanosil kasalliklariga duchor bo'lgan, shuningdek, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolash kursini tugallamagan shaxslarga nisbatan – viloyat, shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari (bo'limlari) yoki sog'liqni saqlash organlarining davolash muassasalarini;

– ma'muriy nazorat ostiga olinishi lozim bo'lgan shaxslarga nisbatan – ichki ishlar hududiy organlarini oldindan xabardor etadi.

Hukm qilingan chet el fuqarolar – hukm qilingan chet el fuqarolarining ozod etilganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi hududidagi ularning manfaatlarini himoya qiluvchi davlatlarning diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qilinadi. O'zbekiston Respublikasi hududida biror-bir davlatning diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi mavjud bo'lmagan taqdirda, bunday davlatning vakolatli organini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga ozod etilganlik to'g'risidagi bildirish qog'ozi jo'natiladi.

O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi bo'yicha yashagan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs – O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi bo'yicha yashagan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs ozod qilinayotganda jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati mahkum qamoqqa olinguniga qadar ro'yxatga olingan joydagi ichki ishlar hududiy organining mamlakatga kirish, undan chiqish va ro'yxatga olish bilan shug'ullanuvchi tegishli xizmatini xabardor qiladi.

Nogironlar va qariyalar o'z iltimosiga ko'ra, nogironlar va qariyalar uyiga jo'natiladi.

Sog'lig'i holatiga ko'ra, doimiy parvarishga muhtoj shaxslar – sog'lig'i holatiga ko'ra, doimiy parvarishga muhtoj shaxslar, shuningdek, o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar qarindoshlari yoki boshqa shaxslar yoxud muassasa ma'muriyati vakilining kuzatuvida yashash joyiga jo'natiladi.

Voyaga yetmagan mahkumlar ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga jo'natiladi. Ota-onasi yo'q voyaga yetmagan shaxslar, zarur hollarda, internatlarga jo'natiladi yoki homiylar qaramog'iga beriladi.

Jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati mahkumlarning ozod etilganligi to'g'risida:

birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga, homilador ayollar va yosh bolasi (bolalari) bor ayollarga, shuningdek, voyaga yetmaganlarga nisbatan – ularning qarindoshlari yoki qarindoshlarining o'rnini bosuvchi boshqa shaxslarni;

ishga kirish va turmushini yo'lga qo'yishga muhtoj bo'lgan shaxslarga nisbatan – viloyatlar (tumanlar, shaharlar) hokimliklari huzuridagi ijtimoiy moslashuv markazlarini;

sil yoki tanosil kasalliklariga duchor bo'lgan, shuningdek, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikdan majburiy davolash kursini tugallamagan shaxslarga nisbatan – viloyat, shahar sog'liqni saqlash boshqarmalari (bo'limlari) yoki sog'liqni saqlash organlarining davolash muassasalarini;

ma'muriy nazorat ostiga olinishi lozim bo'lgan shaxslarga nisbatan - ichki ishlar hududiy organlarini oldindan xabardor etadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan mahkumlar kasalligi yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganligi oqibatida, amnistiya akti yoki afv asosida ozod etilgan hollarda, shuningdek, mahkumlar jazodan shartli ravishda muddatidan ilgari ozod etilgan taqdirda, bildirish qog'ozi ular ozod etilgan kuni jo'natiladi.

Hukm qilingan chet el fuqarolarining ozod etilganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi hududidagi ularning manfaatlarini himoya qiluvchi davlatlarning diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qilinadi. O'zbekiston Respublikasi hududida biror bir davlatning diplomatik vakolatxonasi yoki konsullik muassasasi mavjud bo'lmagan taqdirda, bunday davlatning vakolatli organini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xabardor qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga ozod etilganlik to'g'risidagi bildirish qog'ozi jo'natiladi.

O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi bo'yicha yashagan chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs ozod qilinayotganda jazoni ijro etish muassasasining ma'muriyati mahkum qamoqqa olinguniga qadar ro'yxatga olingan joydagi ichki ishlar hududiy organining mamlakatga kirish, undan chiqish va ro'yxatga olish bilan shug'ullanuvchi tegishli xizmatini xabardor qiladi.

Sog'lig'i holatiga ko'ra doimiy parvarishga muhtoj shaxslar, shuningdek, o'n olti yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar qarindoshlari yoki boshqa shaxslar yoxud muassasa ma'muriyati vakilining kuzatuvida yashash joyiga jo'natiladi.

Nogironlar va qariyalar, o'z iltimosiga ko'ra, nogironlar va qariyalar uyiga jo'natiladi.

Voyaga yetmagan mahkumlar ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga jo'natiladi. Ota-onasi yo'q voyaga yetmagan shaxslar, zarur hollarda, internatlarga jo'natiladi yoki homiylar qaramog'iga beriladi.

Mahkum ozod qilinayotgani to'g'risida uning qarindoshlariga, ijtimoiy moslashuv markazlariga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot organlariga xabar barvaqt yuborilishi va ularning bu haqdagi xabarni olganligi yozma tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Lekin ular amnistiya akti yoki afv qilinganligi munosabati bilan yoxud sud tomonidan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod etilgan bo'lsa, tegishli shaxslarga va muassasalarga xabar mahkum ozod qilingan kuni yuboriladi. Chunki mahkumni amnistiya akti, afv qilinishi haqida hujjatlar imzolanmay turib yoxud jazodan shartli ravishda, shuningdek, kasalligi sababli ozod qilish haqida sud qarori chiqmasdan oldin xabar berishning iloji yo'q.

Ozod etilayotgan mahkum chet el fuqarosi bo'lsa, bu haqda xabar tegishli chet el diplomatik vakolatxonasiga yoki konsulligiga yuboriladi. Agar mahkum fuqarosi bo'lgan davlatning O'zbekiston Respublikasida diplomatik vakolatxonasi yoki konsulligi bo'lmasa, xabar Respublika Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi.

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasida vaqtincha yashash guvohnomasi bo'yicha yashagan bo'lsa, u qamaliganigacha qaysi hududda ro'yxatga olingan bo'lsa, o'sha hududdagi ichki ishlar organiga xabar yuboriladi.

Bemorligi, salomatligiga ko'ra, birovning doimiy parvarishiga muhtoj shaxs va o'n oltiga yetmagan shaxs ozod qilinganda, ularni o'z manzillariga qarindoshlari yoki boshqa shaxslar kuzatib borishlari ta'minlanishi lozim. Aks holda ularni jazoni ijro etish muassasasining vakili kuzatib qo'yishi shart.

Ozod qilingan nogironlari va qariyalar faqat ularning iltimosiga ko'ra, nogironlar va qariyalar uyiga joylashtirilishi mumkin. Voyaga yetmagan mahkumlar ozod etilganda, agar ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslari bo'lmasa, internatlarga joylashtirilishi yoki homiylarning qaramog'iga berilishi mumkin.

Sog'lig'i va yoshi jihatdan muhtoj shaxslarni yashash joylariga, albatta, ularning qarindoshlari yoki vasiy, homiylari, shuningdek jazoni ijro qiluvchi muassasa ma'muriyatining vakili kuzatuvida yuborilishi shart.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H.Rustamboev, B.J.Axrarov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H.Rustamboev. – T.: TDYI, 2007.

2. Ismailov I., Yuldashev M., Mirzaraimov I. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik. / yu.f.d., prof. A.S.Yakubovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010.

3. Jinoyat-ijroiya huquqi. Ma'ruzalar kursi. / Z.S.Zaripov, Ch.A.Sattarov, Yu.S.Pulatov va boshq. – Toshkent: Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti, 2013.

Nazorat uchun savollar:

1. Qonunda shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish hamda kasalligi yoki mehnatga qobiliyatsizligi tufayli jinoiy jazodan ozod etishning aniq tartibi belgilangan.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda ularni har birining tartibini muhokama eting.

2. Jinoyat-ijroiya kodeksida jazo ijrosini tugatish asoslari ko'rsatilgan.

Mazkur qonunga asoslangan holda o'z fikringizni bildiring. Vafot etgan marhumning qarindoshlariga jasadni berish tartibini bayon eting.

3. Muayyan huquqdan mahrum qilish tarzidagi jazodan ozod qilish to'g'risida mahkumning o'zi iltimosnoma bilan sudga murojaat etdi. Iltimosnoma rad etilgach, 3 oydan so'ng jamoat birlashmasi shunday iltimosnoma bilan chiqdi. Sudya birinchi iltimosnomani rad etish to'g'risidagi qaror chiqargandan keyin hamda olti oy o'tgach, bunday iltimosnomalar ko'rib chiqilishi mumkinligini ma'lum qildi.

Ushbu vaziyatni tahlil eting va mazkur holat yuzasidan o'z fikringizni bildiring.


4. Qamoq jazosiga hukm qilingan R. ismli shaxs mehnatga qobiliyatini yo'qotganligi sababli jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilindi.

Ushbu holatni o'rganing va unda yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlang.

BOSHQA JINOYAT-HUQUQIY TA'SIR CHORALARINI IJRO ETISH

Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari tushunchasi, turlari va ijro etish asoslari. Shartli hukm qilishni ijro qilish tushunchasi va ijro etish tartibi. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ijro etish tushunchasi va turlari. Ruhiy kasallarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash. Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash tushunchasi va tartibi. Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburlov choralari qo'llash tartibi va turlari

Boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari tushunchasi, turlari va ijro etish asoslari



Amaldagi Jinoyat-ijroiya kodeksining 174-moddasiga ko'ra boshqa jinoyat huquqiy ta'sir choralari: shartli hukm qilish, tibbiy yo'sindagi majburlov choralari hamda voyaga yetmaganlarga nisbatan majburlov choralari kiradi.

Jinoyat kodeksining 72-moddasiga ko'ra agar sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning

xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan jazoni o'tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelsa, shartli hukm qo'llashi mumkin.

Bunday holda sud, basharti, belgilangan sinov muddati davomida jazoning shartlilikini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqaradi. Sinov muddati bir yildan uch yilgacha belgilanib, hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi. Basharti, shartli hukm qilish to'g'risidagi qaror yuqori sud tomonidan chiqarilgan taqdirda ham, sinov muddatini hisoblash shu kundan boshlanadi.

Shartli hukm qilinganlar O'zbekiston Respublikasi qonunlarida va sud hukmida ko'zda tutilgan cheklash va majburiyatlardan tashqari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun qonunlarda belgilangan barcha huquqlardan foydalanadilar.

Shartli hukm qilinganda, basharti, bunga asoslar mavjud bo'lsa, sud mahkumga muayyan vaqt mobaynida yetkazilgan zararni bartaraf qilish, ishga yoki o'qishga kirish, yashash joyi, ish yoki o'qish joyi o'zgarib qolsa, bu holda shartli hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organlarga xabar berib turish, vaqti-vaqti bilan kelib, bu organlardan ro'yxatdan o'tib turish, muayyan joylarda bo'lmaslik, muayyan vaqtda yashash joyida bo'lishi, alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish kabi majburiyatlarni yuklashi mumkin.

Shartli jazo belgilash tartibi o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilinganlarga, shuningdek ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi, o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar, birinchi va ikkinchi guruh nogironlari, ayollar, shuningdek oltmish yoshdan oshgan shaxslar bundan mustasno. Shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida yangi jinoyat sodir etsa, sud unga nisbatan Jinoyat kodeksining 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha jazo tayinlaydi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari jinoiy jazo hisoblanmaydi. Majburiy davolanish sud ajrimi bilan belgilanadi va tugatiladi, ammo sud davolanish muddatini belgilamaydi. Shaxsning sog'ayganligi yoki ruhiy holatida yaxshilashish sezilganda yoki u tomondan ijtimoiy xavf yo'qolganda majburiy davolanish davolash muassasi ma'muriyatining taqdimnomasiga binoan qisqa muddat ichida bo'lsa ham bekor qilinishi mumkin.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralariga quyidagilar kiradi:

- a) majburiy ambulatoriya kuzatuvida bo'lish va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish;
- b) umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish;
- v) umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog'liqni tiklash maxsus bo'limida majburiy davolanish;
- g) kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'linmasida majburiy davolanish.

Majburiy ambulatoriya kuzatuv va ruhiy kasallik mutaxassisida davolanish ruhiy kasalligi zo'rayib ketayotganligini ko'rsatuvchi alomatlar bo'lmagan, shuningdek ruhiy holati vaqtincha buzilgan ruhiy kasallarga nisbatan, bunday kasallikning qaytarilmasligi va yangi ijtimoiy xavfli qilmish sodir etilmasligi uchun tayinlanishi mumkin.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanish ijtimoiy xavfliligi ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan, umumiy asoslarda davolash talab etiladigan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanishi mumkin.

Ijtimoiy xavfliligi ko'proq salomatlikni tiklovchi choralarni ko'rishni talab qiladigan, ularni esa ixtiyoriy tartibda o'tkazish mumkin bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog'liqni tiklash maxsus bo'limida majburiy davolash tayinlanishi mumkin.

Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'limda majburiy davolash o'ta ijtimoiy xavfli bo'lgan yoki o'z xulqiga ko'ra umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasi sharoitida davolanishining imkoni bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan tayinlanishi mumkin. Kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasida yoki bo'limda ruhiy kasallar batamom ajratilgan holda saqlanadi va qo'riqlanadi.

Jinoyat kodeksiga ko'ra tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ruhiy kasallik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxslarga nisbatan ularni davolash va ularning yangi ijtimoiy xavfli harakatlar sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi. Sud jazolash bilan bir qatorda alkogolizm, giyovandlik yoki zaharvandlik kasalligiga yo'liqqan shaxslarga nisbatan davolash uchun va jazolash maqsadiga erishishga ko'maklashuvchi sharoit yaratish uchun tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlashi mumkin. Ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida yoki hukm chiqarilgunga qadar yoxud jazoni o'tash vaqtida ruhiy kasallikka chalinganligi oqibatida o'z harakatlarining ahamiyatini anglamaslik va o'z harakatlarini boshqara olmaslik holatida sodir etgan shaxsga nisbatan, agar u ruhiy holati va sodir etgan qilmishining xususiyatiga ko'ra jamiyat uchun xavfli deb topilsa, sud tibbiy yo'sindagi majburlov choralari tayinlashi mumkin.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari muddatini uzaytirish, o'zgartirish va bekor qilish masalasini ruhiy kasalliklar shifokorlari komissiyasining xulosasiga asoslangan holda sud hal qiladi.

Agar ruhiy kasalga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburiy davolash choralari qo'llash zarurati bo'lmasa, shuningdek bu choralar bekor qilingan bo'lsa, sud uni umumiy asoslarda davolash yoki ijtimoiy ta'minot muassasalariga yuborish masalasini hal etish uchun sog'liqni saqlash organlariga topshirishi mumkin.

Alkogolizm, giyovandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgani taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo'lsa, sud jazo tayinlash bilan birga ularga tibbiy yo'sindagi choralarni ham tayinlashi mumkin.

Alkogolizm, giyovandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslar, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazoga hukm qilingan bo'lsa, tibbiy muassasalarda majburiy davolanishi lozim.

Alkogolizm, giyovandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslar ozodlikdan mahrum qilish yoki qamoq jazosiga hukm qilingan bo'lsa, ularni davolash jazoni o'tayotgan joyda amalga oshiriladi, jazoni o'tab bo'lganidan keyin agarda davolashni davom ettirishga zarurat bo'lsa, umumiy asosda tibbiy muassasalarda davolanadi.

O'zbekiston Respublikasi JKning 88-moddasida belgilanishicha voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi majburlov choralari qo'llanadi:


a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so'rash. Sud uzr so'rashning shaklini voyaga yetmaganni jazodan ozod qilish bilan birga ko'rsatadi. Uzr so'rash O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksining 195-moddasida belgilanganiga ko'ra, og'zaki yoki yozma ravishda ko'pchilikning oldida yoki yakka tartibda bo'lishi mumkin.

Uzr so'rash joy, vaqtini va tartibini sud belgilaydi. Uzr so'rash majburiyatini yuklash tariqasidagi majburlov chorasi ijro etilganligi to'g'risida tegishli hujjat tuziladi;

b) o'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki bartaraf qilish majburiyatini yuklash mumkin. Ushbu chora agar yetkazilgan zarar belgilangan eng kam oylik ish haqining o'n baravaridan oshib ketmagan bo'lsa, qo'llaniladi. Agar yetkazilgan zarar ushbu miqdordan oshib ketsa, yetkazilgan zarar fuqaroviy huquqiy tartibda undiriladi. Yetkazilgan zararni qoplash yoki bartaraf etish tartibi va muddati sud tomonidan belgilanadi;

v) voyaga yetmaganni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish tayinlanishi mumkin.

Shartli hukm qilishni ijro qilish tushunchasi va ijro etish tartibi



Shartli hukmni amalga oshirishning yakuniy bosqichi uning ijrosidir. Jinoyat-irjoiya kodeksida shartli hukm qilishning ijrosi to'g'risida emas, balki, shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish haqida yozilgan. Ammo shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida ijro etuvchi organ Jinoyat kodeksi va qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan belgilangan shartlar, talablar amalga oshiriladi.

Demak, **shartli hukmni ijro qilish deganda**, mahkumni tarbiyalash bo'yicha tarbiyaviy-profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi vakolatli davlat organlarining faoliyatini tushunishimiz lozim.

Jinoyat-ijroiya kodeksining 7-modda 2-qismiga muvofiq mahkumga nisbatan axloqan tuzatish vositalari qo'llaniladi. Jazoni ijro etish o'zida mahkumga ta'sir qilishning ko'plab vosita va usullarini ifodalovchi mahkumlarni axloqan tuzatishga qaratilgan tarbiyaviy ta'sir choralari

qo'llanishini nazarda tutadi. Shuni nazarda tutish lozimki, mazkur choralar jazoning mazmuniga kirmaydi, balki mahkumni axloqan tarbiyalashda ishlatiladigan pedagogik metod va printsiplarni nazarda tutadi.

Shartli hukm qilishni amalga oshirish jarayonida mahkumni tuzatishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Shartli hukmni ijro qilish jarayonida amalga oshiriladigan barcha tarbiyaviy choralarni shartli hukm qilishda belgilanadigan shartlar va axloqan tuzatish vositalarini umumlashtiruvchi axloqan tuzatish-tarbiyalash jarayoni deyish mumkin. Bu o'rinda tarbiyalash jarayoni vakolatli davlat organlari tomonidan shartli hukm qilingan shaxsning xulqini nazorat qilish va unga nisbatan tarbiyalash ishlarini amalga oshirishda yuz beradi.

Huquq normasini amal qilish natijasi huquqiy munosabatlarga tadbiriq etilishida namoyon bo'lib, shartli hukmning amalga oshirilishi ham huquqiy munosabatlar doirasida yuz beradi. Shartli hukmning ijrosi birinchi navbatda, jinoyat-huquqiy munosabatlar doirasida amalga oshadi. Jinoyat-huquqiy munosabatlar jinoyat sodir etilgan vaqtdan boshlab yuzaga kelib, jinoiy javobgarlikka jalb qilish, jinoiy javobgarlikni amalga oshirish jarayonida amalda bo'lib, sudlanganlik muddati qonunda belgilangan tartibda tugagunga yoki olib tashlangunga qadar davom etadi. Shartli hukm qilish shaklida jinoiy javobgarlikni amalga oshirishda jinoyat-huquqiy munosabatlar bilan birga, uni ijrosi bilan bog'liq boshqa huquqiy munosabatlar ham yuzaga keladi. Bu jinoyat-ijroiaviy huquqiy munosabatlardir.

Buni shartli hukm qilishni ijro qilishdagi huquqiy munosabatlarni tahlil qilish orqali aniqlanadi. Shu sababli ushbu holatda yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlarning asoslarini, shuningdek uning tuzilishini: ob'ekti, sub'ekti (ishtirokchilari) va huquqiy munosabatlar mazmunini ko'rib chiqish lozim.

Jinoyat-ijroiaviy huquqiy munosabatlarni yuzaga kelishiga sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi asos bo'ladi. Jinoyat-ijroiya kodeksining 5-moddasiga ko'ra sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi jazoni ijro etish uchun asosdir.

Shartli hukm qilish va uni irjo etish bilan bog'liq holda yuzaga keluvchi ijtimoiy munosabatlar tahlil qilayotgan huquqiy munosabatlarimizning ob'ektini tashkil etadi. Bir tarafdin davlat organlarining shartli hukmni ijro qilish va tarbiyaviy ta'sir choralarini qo'llash bilan bog'liq faoliyati, boshqa tomondan shartli hukm qilingan shaxsning sinov muddati davomida jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlari doirasidagi xulq-avtori tashkil etadi.

Aniq huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchilar huquqiy munosabatlarning sub'ekti sanaladi. Shartli hukmni amalga oshirishda jinoyat-ijroiaviy munosabatlarning sub'ekti sifatida bir tarafdin shartli

hukm qilinganlar xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organlar, boshqa tarafdin – shartli hukm qilinib, unga nisbatan sud hukmi qonuniy kuchga kirgan shaxslar.

Shartli hukm qilinganlarning xulqi ustidan nazorat olib borish ichki ishlar idoralari, harbiy xizmatchilar xulqi ustidan esa harbiy qism yoki muassasaning qo'mondonligiga yuklatiladi.

Shartli hukm qilingan shaxslarning hisobini olib borish, ularning xulq-atvori ustidan nazorat olib borishni ichki ishlar idoralarining jazoni ijro etish inspektsiyalari tashkil etadi.

Shartli hukm qilingan shaxslarni turar joylari bo'yicha xulq-atvori ustidan nazoratni profilaktika xodimlari bilan hamkorlikda amalga oshiradilar.

Jinoyat-ijroiaviy munosabatlarning mazmuni sub'ektlarning harakatlari va ularning huquq hamda majburiyatlaridan iborat. Shartli hukmni ijrosini amalga oshiruvchi sub'ektlar uchun – bu mahkumning xulqi ustidan nazoratni amalga oshirish va ularni tarbiyalash maqsadida amalga oshiriladigan ta'sir choralari bo'lsa, mahkum uchun – bu sud hukmida ko'rsatilgan shartlarni bajarishga qaratilgan xulq-atvoridir.

Shartli hukm qilingan shaxsning xuquqqa xilof xulq-atvorda bo'lishi yoki jinoyat sodir etishi mazkur jinoyat-huquqiy choraning ijro etilishiga to'siq bo'lib, jinoyat-huquqiy munosabatlarning mazmunini tashkil etishi mumkin emas.

Shartli hukmni ijro qilishdagi jinoyat-ijroiaviy munosabatlar hukmning qonuniy kuchga kirishi bilan faqatgina moddiy jinoyat-huquqiy munosabatlar doirasida yuzaga keladi va sud hukmida belgilangan jinoyat-huquqiy xususiyatdagi choralarning ijro etilishi bilan tugaydi.

Shartli hukm qilishni ijro qilishda yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, uning yuzaga kelish asosi, ob'ekti, sub'ekti va mazmuni jihatidan jinoiy jazolarni ijro qilishda yuzaga keluvchi huquqiy munosabatlarga o'xshaydi. Jinoiy jazolarni ham, shartli hukmni ham ijro qilish jinoyat qonunida belgilangan qoidalarining ijrosini amalda ta'minlaydi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shartli hukm qilishni ijro qilish – jinoyat, jinoyat-ijroiya qonunchiligi doirasida vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladigan mahkumni axloqan tuzatish jarayonidir.

Shartli hukm qilinganlar ustidan nazorat qilish tartibi. Jinoyat-ijroiya kodeksining 15-moddasida shartli hukm qilingan shaxslarning xulq-atvori ustidan nazorat ichki ishlar organlari, harbiy xizmatchilarga nisbatan

esa - ular xizmatni o'tayotgan joydagi harbiy qismlar (muassasalar) qo'mondonligi tomonidan amalga oshiriladi, deyilgan.

Shartli hukm qilinganlar xulqi ustidan nazorat qilish JIKning 176-180-moddalari va Ichki ishlar vazirligining 2001 yil 17 noyabrda 298-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid Yo'riqnoma" asosida amalga oshiriladi. Yo'riqnomaga ko'ra jazoni ijro etish inspeksiyasi:

- a) mahkumlarning hisobini olib boradi;
- b) zarur hollarda ularga ishga joylashishda yordam beradi;
- v) mahkumlarning hulq-atvori ustidan nazorat olib borishni tashkil etadi;
- g) sinov muddati davomida mahkumlar tomonidan sud hukmi bo'yicha yuklatilgan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash choralari ko'radi;

- d) sinov muddati davomida mahkumlar o'zlariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmasalar yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun ularga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir choralari qo'llanilgan bo'lsa, jazoning shartlilikini bekor qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritadi;

- e) sinov muddati davomida jazoning shartlilikini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, sinov muddati tugashi bilan uning hulqi ustidan nazoratni to'xtatish to'g'risida IIB boshlig'iga bildirgi orqali ma'lum qiladi;

- j) mahkumlarning hisobini olib borish, hulq-atvori ustidan nazorat qilish, ularga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishini tahlil qiladi.

Sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi (ajrimi) mahkumni hisobga olishga asos bo'lib hisoblanadi va mahkumlarning hisobini olib borish jurnalida qayd etiladi.

Suddan kelib tushgan hukm nusxasi ichki ishlar bo'limi ro'yxatiga olinib, rahbariyat tomonidan ko'rib chiqilib, jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimiga topshiriladi.

Shu kunning o'zida mahkum belgilangan namunadagi hisobga olish jurnalida qayd qilinib, unga nisbatan nazorat yig'ma jildi ochiladi. Nazorat yig'ma jildining tartib raqami hisobga olish jurnalida qayd qilingan tartib raqamiga mos bo'lishi kerak.

Nazorat yig'ma jildi ochilganidan keyin ma'lumot varaqasi va qo'riqchi varaqasi to'ldiriladi.

Ma'lumot varaqasi ichki ishlar bo'limining huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni hisobga oladigan ma'lumot kartotekasiga kiritiladi.

Qo'riqchi varaqa ichki ishlar bo'limining pasport bo'limiga mahkumning uy daftaridan o'chib ketib qolishining oldini olishni nazorat qilish uchun topshiriladi.

Mahkumlarning hisobga olinganligi to'g'risida sudga, ishlash joyi yoki o'qish joyi ma'muriyatiga, harbiy xizmatga majbur bo'lgan sudlanganlar to'g'risida tegishli mudofaa ishlari bo'limiga xabarnomalar jo'natadilar.

Nazorat yig'ma jildi jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimi tomonidan olib boriladi, shu nazorat yig'ma jildida mahkumni hisobga olish uchun asos bo'lgan hujjatlar uning axloqi ustidan nazorat hamda sud orqali qo'yilgan majburiyatlarning bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan materiallar mujassamlashtiriladi.

Hisobga olinganidan keyin mahkum ichki ishlar bo'limi boshlig'i yoki uning o'rinbosarlarini oldiga taklif qilinib, u bilan suhbat o'tkaziladi. Suhbat davomida mahkumga sud orqali qo'yilgan majburiyat va bu majburiyatlar bajarilmagan taqdirda unga qanday qonuniy choralar qo'llanilishi mumkinligi tushuntiriladi.

Zarur hollarda mahkumning ro'yxatdan o'tib turish kunlari belgilanadi va mahkumga tilxat orqali e'lon qilinadi. Bu haqda ma'lumotnoma tuzilib, nazorat yig'ma jildga qo'yiladi.

Jazoni ijro etish inspeksiyalari mahkumni suhbatga chaqirish, undan xulq-atvori to'g'risida hisobot talab qilish, uzrli sabablarsiz xozir bo'lmagan taqdirda uni majburan keltirish huquqiga egalar.

Agar shartli hukm qilingan shaxs harbiy xizmatga chaqirilsa, u jazolarni ijro etish inspeksiyasining ro'yxatidan o'chiriladi, mahkumning xizmatni o'tash joyi bo'yicha harbiy qism qo'mondonligiga esa sud hukmi va inspeksiyada ro'yxatda bo'lgan vaqtda mahkumning xulq-atvori to'g'risidagi ma'lumotlar yuboriladi. Harbiy qism qo'mondonligi tomonidan mahkumni ro'yxatga olish uchun 10 kunlik muddat belgilangan. Bu haqda qo'mondonlikdan xabar kelmasa, inspeksiya harbiy qismga tegishli so'rovnoma yuborishi shart.

Mazkur shaxs tomonidan harbiy xizmat o'tab bo'linganidan so'ng harbiy qism qo'mondonligi shu vaqtning o'zida shartli hukm qilingan shaxsning yashash joyi bo'yicha inspeksiyaga mahkumning harbiy qismdan jo'nab ketganligi to'g'risida xabar berishi lozim. Agar sinov muddati tugamagan bo'lsa, jazolarni ijro etish inspeksiyasi mahkumni ro'yxatga oladi va nazoratni amalga oshirish bo'yicha boshqa tadbirlarni o'tkazadi.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi tomonidan mahkumlar axloqi ustidan nazorat qilish maqsadida:

a) mahkumlar bilan suhbat o'tkazilib, jazo o'tash shart-sharoitlari tushuntiriladi;

b) ishlash va o'qish joylari ma'muriyatlaridan mahkumlarga nisbatan tavsiyanomalar so'raladi, kerak bo'lgan paytda ma'muriyat a'zolari bilan uchrashuv o'tkaziladi;

v) mahkumlar tomonidan jamoat tartibini buzish hollari sodir etilganligini aniqlash maqsadida har oyda ichki ishlar bo'limining ma'lumot kartotekasi bilan tanishiladi;

g) sud tomonidan belgilangan majburiyatlarning bajarilishi (har chorakda kamida bir marotaba) tekshiriladi, ularni bajarmay yurgan shaxslarga nisbatan tegishli choralar ko'riladi. Natijasi haqida ma'lumotnoma tuzilib, nazorat yig'ma jildiga qo'shib boriladi;

d) sud tomonidan ro'yxatdan o'tib turish majburiyati yuklatilgan mahkumlarni ro'yxatdan o'tkazish amalga oshiriladi.

Shartli hukm qilingan shaxslarning majburiyatlari. Shartli hukm qilinganda, basharti, bunga asoslar mavjud bo'lsa, sud mahkumga quyidagi majburiyatlarni yuklashi mumkin:

muayyan vaqt mobaynida yetkazilgan zararni bartaraf qilish,
ishga yoki o'qishga kirish,

yashash joyi, ish yoki o'qish joyi o'zgarib qolsa, bu holda shartli hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organlarga xabar berib turish,

vaqti-vaqti bilan kelib, bu organlardan ro'yxatdan o'tib turish,
muayyan joylarda bo'lmaslik,
muayyan vaqtda yashash joyida bo'lishi,

alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik yoki tanosil kasalligidan davolanish.

Hukm qilingan shaxsning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organning taqdimi bilan sud sinov muddati davomida unga yuklatilgan majburiyatlarning hammasini yoki bir qismini olib tashlashi yoki uning zimmasiga yangi majburiyatlar yuklashi ham mumkin.

Sudga taqdimnoma kiritish. Agar shartli hukm qilingan shaxs sinov muddati davomida sud unga yuklagan majburiyatlarni bajarmasa yoxud jamoat tartibi yoki mehnat intizomini buzganligi uchun unga ma'muriy yoki intizomiy ta'sir chorasi qo'llanilgan bo'lsa, sud uning xulqi ustidan nazorat olib boruvchi organ taqdimnomasiga binoan jazoning shartlilikini bekor qilib, hukmda tayinlangan jazoni ijro etish to'g'risida ajrim chiqarishi mumkin.

Jazoni ijro etish inspeksiyasi mahkum tomonidan quyidagi huquqbuzarliklar sodir etilganda, sudga taqdimnoma kiritadi:

a) sinov muddati davomida jamoat tartibini yoki mehnat intizomini buzganligi uchun ma'muriy yoki intizomiy jazo qo'llangan bo'lsa;

b) shartli hukm qilingan muayyan muddat mobaynida ishga yoki o'qishga kirmagan, yetkazilgan zararni bartaraf etmagan, ichki ishlar organining ruhsatisiz turar joyini o'zgartirgan, ro'yxatdan o'tish uchun kelmayotgan, hamda hukmda ko'rsatilgan boshqa majburiyatlarni bajarmayotgan bo'lsa;

v) shartli hukm qilingan shaxsning nazoratdan bo'yin tovlash maqsadida yashiringaniga yetarli asos bo'lsa.

Shartli hukmni bekor qilish to'g'risidagi taqdimnomani yetkazilgan zararni bartaraf qilish uchun sud tomonidan belgilangan muddat tamom bo'lishi bilan 10 kun ichida yoki yuqorida ko'rsatilgan buzilish hollari sodir etilsa yuboriladi.

Shartli hukmni bekor qilish to'g'risidagi taqdimnoma sud tomonidan qanoatlantirilmay qaytarilganda mahkum tomonidan yuqorida ko'rsatilgan buzilish hollari qayta sodir etilgan taqdirda taqdimnoma yangidan yuboriladi.

Mahkumlar yashash joyini tashlab ketsa jazoni ijro etish inspeksiyasi xodimlari tomonidan uning qaerdaligini aniqlash choralari ko'riladi va bu maqsadda:

a) mahkumning qarindosh va tanishlari uning qaerda bo'lishi mumkinligini aniqlash maqsadida surishtiriladi;

b) manzillar ma'lumotxonasidan va boshqa tegishli davlat organlaridan hamda uy daftaridan mahkumning turar joyidagi ro'yxatdan chiqmagani aniqlanadi;

v) o'qish yoki ish joyidagi kadrlar bo'limidan mahkumning qaerda bo'lishi mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslar orqali aniqlash choralari ko'riladi;

g) yashiringan shaxsni aniqlash maqsadida uning qarindoshlari turar joylarida joylashgan hududdagi ichki ishlar bo'limiga so'rovlar yuboriladi;

d) tibbiy muassasalarda mahkumlar to'g'risida biror ma'lumot bor-yo'qligi tekshiriladi;

e) ichki ishlar bo'limlarida ushlangan, hibsga olinganlar, sudlanganlar hamda qidiruvda bo'lganlar ro'yxati ko'rib chiqiladi;

m) mahkumlarni aniqlash maqsadida ko'zda tutilgan boshqa choralar ham qo'llaniladi;

z) to'plangan hujjatlar alohida yig'ma jildda taxlanib, nazorat yig'ma jildiga qo'shiladi;

i) agarda bir oy muddatda qidirilayotgan shaxsni aniqlashni iloji bo'lmasa, jazoni ijro etish inspeksiyasida to'plangan hujjatlar bilan xulosani va sud hukmining nusxasini unga nisbatan qidiruv e'lon qilishni so'rab mahkumning turar joyi bo'yicha ichki ishlar bo'limi boshlig'iga topshiradi. Mahkumning nazoratdan bo'yin tovlash maqsadida yashiringani uchun

yetarli asos bo'lsa, shartli hukmni bekor qilish to'g'risida sudga taqdimnoma kiritiladi.

Sinov muddatini hisoblash. Shaxs shartli hukm qilinganda, sud sinov muddatini o'rnatadi va bu sinov muddati davomida mahkum o'z xulq-atvori orqali o'zining o'zgarganligini ko'rsatishi kerak bo'ladi.

Sinov muddati hukm chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi, mahkum tomonidan uning zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish esa - jazolarni ijro etish inspeksiyasi tomonidan sud hukmining nusxasi olingan kundan boshlab hisoblanadi, shu kunning o'zidayoq mahkum jazolarni ijro etish inspeksiyasida ro'yxatga olinadi.

Hukm chiqargan sud va mahkumning ish joyi bo'yicha ma'muriyat mahkum ro'yxatga olinganligi to'g'risida darhol xabardor qilinadi. Agar mahkum harbiy chaqiruv yoshiga yetgan bo'lsa, harbiy qo'mita ham bu haqda xabardor qilinadi.

Mahkum ro'yxatga olingandan so'ng, u jazolarni ijro etish inspeksiyasi boshlig'ining huzuriga suhbatga chaqiriladi. Suhbat davomida mahkumga uning sinov muddati davomidagi huquqiy maqomi, uning inspeksiyaga nisbatan majburiyatlari, sud hukmidagi cheklovlarining ro'yxati haqida tushuntiriladi. Voyaga yetmagan shaxs ro'yxatga olinganda, suhbatda uning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

Ro'yxatdan chiqarilgach, sud tomonidan mahkum zimmasiga yuklatilgan barcha majburiyat va cheklovlar, shuningdek, uning jazolarni ijro etish inspeksiyasi oldidagi majburiyatlari bekor bo'ladi. Mahkumni ro'yxatdan chiqarishning birgina asosi ko'rsatilgan sinov muddatining tugashidir. Lekin ro'yxatdan chiqarishning boshqa asoslari ham mavjud: yangi sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilinganda; shartli hukm muddatidan avval-shartli bekor qilinganda; shartli hukm shaxsning ozodlikdan mahrum qilish joylariga jo'natilishi munosabati bilan bekor qilinganda; mahkum yashash joyini o'zgartirganda; mahkum vafot etganda yoki u sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda. Mahkum yashash joyini o'zgartirganda uning ustidan o'rnatilgan nazorat tugatilmaydi. Mahkumning hujjatlari uning yashash joyi bo'yicha jazolarni ijro etish inspeksiyasiga yuboriladi.

Shartli hukm qilingan shaxs xulq-atvori ustidan nazoratni tugatish. Barcha shartli hukm qilingan shaxslar ustidan nazoratni faqatgina yagona organ - jazolarni ijro etish inspeksiyasi amalga oshiradi. Lekin shartli hukm qilingan voyaga yetmaganlar ustidan nazoratni amalga oshirishda nafaqat jazoni ijro etish inspeksiyalari, balki voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar ham ishtirok etishlari zarur.

Shartli hukm qilingan harbiy xizmatchilar ustidan nazoratni, ushbu normaning qoidalariga asosan, ularning harbiy qism qo'mondonligi amalga oshiradi. Shu bilan birga, bu qo'mondonlik O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining qonunosti normativ-huquqiy aktlariga asosan harakat qiladi.

Nazorat jarayonida jazoni ijro etish inspeksiylari yechishga qodir bo'lmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda ichki ishlar organlarining boshqa xizmatlari yordamidan foydalaniladi. Shuning uchun qonun shartli hukm qilinganlar ustidan nazoratni amalga oshirishga ichki ishlar uchastka nozirlarini jalb qilishga ruxsat beradi. Lekin ularning ishtiroki epizodik harakterga ega bo'ladi va jinoyat-ijroiya inspekslarini shartli hukm qilinganlarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish javobgarligidan ozod qilmaydi.

Quyidagi hollarda mahkum ustidan nazorat to'xtatilib, hisobdan chiqariladi:

a) shartli hukm qilinganlarning sinov muddati tugaganidan so'ng, sinov muddati tugagan kuni xodim bu haqda ichki ishlar bo'limi boshlig'i nomiga bildirgi orqali ma'lum qilib, uning yozma ko'rsatmasiga asosan;

b) shartli hukm bekor qilinib, hukm bo'yicha jazo o'tash uchun yuborilganda;

v) amnistiya to'g'risidagi akti qo'llanilishi bilan;

g) afv etilish munosabati bilan;


d) yangi jinoyat sodir qilgani uchun hukm qilinganda;

e) mahkum vafot etganda.

Yuqoridagi asoslardan tashqari turar joyini o'zgartirgan mahkumlar ham hisobdan chiqariladi. Bu holda mahkumlarni yangi turar joyi bo'yicha ichki ishlar bo'limiga so'rov yuboriladi. Nazorat yig'ma jildi hamda mahkum hisobga olinganligi to'g'risida nazorat yig'ma jildini yuborgan ichki ishlar bo'limiga darhol yozma ravishda xabar qilinishi lozim. Mahkumni hisobdan chiqarish vaqti hamda asosi to'g'risida mahkumlarni hisobga olish jurnalida va nazorat yig'ma jildida tegishli belgi qo'yiladi.

Mahkum hisobdan chiqarilgandan so'ng 3 kun ichida tegishli mudofaa ishlari bo'limiga bu to'g'rida xabar qilinadi. Mahkumlarni hisobga olish jurnali hamda nazorat yig'ma jildi axloq tuzatish ishlariga hukm qilinganlarga belgilangan muddatlar bo'yicha saqlanadi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini ijro etish tushunchasi va turlari. Ruhiy kasallarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash



Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ijro etish tushunchasi va turlari haqida yuqoridagi birinchi paragrafda to'xtalib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2014 yil 3 maydagi 65-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan **“Qamoq jazosiga va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash tartibi to'g'risida”**gi Nizomning 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 96-moddasiga asosan, alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda, agar tibbiy xulosa mavjud bo'lsa, sud jazo tayinlash bilan birga ularga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarni ham tayinlashi mumkin [www.lex.uz.].

Ruhiy kasallarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash jarayoni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan ruhiy kasallikka chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash haqida”gi Yo'riqnoma bilan tartibga solinadi. “Ichki ishlar organlari yordami bilan sog'liqni saqlash muassasalari kasal shaxsni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi sud ajrimi ijrosini ta'minlaydilar” [Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik / B.Axrorov, M.X.Rustamboev va boshqalar. - Toshkent: O'qituvchi, 2002. – B. 190.].

Ruhiy kasallarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash tartibi.

Ruhiy kasallarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari sog'liqni saqlash organlari tomonidan sud-psixiatriya ekspertizasi xulosasiga muvofiq quyidagi tartibda qo'llaniladi:

majburiy ambulatoriya kuzatuv va psixiatrda davolash — bemorning yashash joyidagi psixonevrologiya muassasalari tomonidan amalga oshiriladi;

bemorni jamiyatdan batamom ajratgan holda majburiy davolash — uning ruhiy holatiga qarab, umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonalarida yoki umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonalarining sog'liqni tiklash bo'linmalarida yoxud kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonalari yoki bo'linmalarida o'tkaziladi.

“Kasalning ijtimoiy xavflilik darajasini aniqlashda bir qator klinik-ruhiyopatologik va ijtimoiy ruhiy holatlarni inobatga olishi kerak. Ruhiy patologiyaning quyidagi shakllari ijtimoiy xavfli xatti-harakatning klinik-ruhiyopatologik omillariga kiritish mumkin: a) xulq-atvor yuqori faollashgan ruhiy tanqislik; b) keskin harakat bilan izohlanadigan va aniq bir shaxsga yoki korxonaga qaratilgan, ma'lum ma'noga ega bo'lgan alahsirash g'oyalar; v) tez-tez qo'zg'alib turuvga ega bo'lgan va tajovuz bilan izohlanadigan holat; g) o'zini ayblash vasvasasi bilan ruhiy azoblanish holati va boshqalar” [Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik / B.Axrоров, M.X.Rustamboev va boshqalar. - Toshkent: O'qituvchi, 2002. – B. 190-191.].

Ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan ruhiy kasal shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari ijro etish jarayoni O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 30 avgustdagi “Psixiatriya yordami to'g'risida”gi Qonuni va Sog'liqni saqlash vazirligining yo'riqnomasi hamda, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2014 yil 3 maydagi 65-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan “Qamoq jazosiga va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llash tartibi to'g'risida”gi Nizom bilan tartibga solinadi.

Bemorni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi sud ajrimi sog'liqni saqlash organlari va muassasalari tomonidan, zarur bo'lgan hollarda ichki ishlar organlari yordamida ijro etiladi [Jinoyat-ijroiya huquqi. Ma'ruzalar kursi. / Z.S.Zaripov, Ch.A.Sattarov, Yu.S.Pulatov va boshq. – Toshkent: Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti, 2013. – B. 383.]. Tibbiyot xodimlariga yordam ko'rsatishlari va kasalxonaga yotqizilayotgan shaxs bilan muloqotda bo'lish va uni ko'zdan kechirish uchun xavfsiz sharoit yaratiladi. Yotqizilayotgan shaxsning atrofida hayoti va sog'lig'iga xavf

soluvchi harakatlarini bartaraf etish zarur bo'lgan hollarda, shuningdek yotqizilishi kerak bo'lgan shaxsni qidirish va ushlash zarurati bo'lganda ichki ishlar organlarining xodimlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda harakat qiladilar. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari sog'liqni saqlash organlari tasarrufidagi bemorning yashash joyiga yaqin joylashgan psixiatriya muassasalarida amalga oshiriladi. Bu qarindoshlariga doimiy ravishda undan xabar olib turish imkoniyatini beradi. Barcha ruhiy kasallar, jumladan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar ham, ularning ruhiy holatiga qarab davolash muolajalarni oladilar. Ular psixiatriya shifoxonalarining ixtisosligi bemorning ruhiy holatiga mos keladigan bo'limlariga joylashtiriladilar. Ijtimoiy xavfliligi ruhiy holati bilan bog'liq bo'lgan umumiy asoslarda davolash talab etiladigan ruhiy kasallar umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasida majburiy davolanadilar. Ruhiy holati buzilgan shaxsga ambulatoriya psixiatriya yordami tibbiy ko'rsatuvlarga qarab, maslahat berish-davolash muolajasi yoki dispanser kuzatuv tarzida bo'ladi.

Ijtimoiy xavfliligi salomatligi bilan bog'liq bo'lganlarni majburiy davolash umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasining sog'liqni tiklash maxsus bo'limida amalga oshiriladi. Ijtimoiy xavfliligi yuqori bo'lgan yoki o'z xulqiga ko'ra umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonasi sharoitida davolanishning imkoni bo'lmagan ruhiy kasallarga nisbatan bemorni jamiyatdan batamom ajratib, kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasi yoki bo'limida majburiy davolash amalga oshiriladi.

Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan hukm qilingan shaxslar jazoni ijro etish muassasalarining qabul bo'limida shifokor-narkolog yoki shifokor-psixiatr tomonidan ro'yxatga olinadi va 3 kun ichida tibbiy tekshiruvdan o'tkaziladi.

Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash tushunchasi va tartibi

Surunkali alkogolizm yoki giyohvandlikka chalinganlarni majburiy davolashga ixtisoslashgan davolash-profilaktika muassasalariga sog'liqni saqlash muassasalarining narkologiya muassasalarida davolanishdan bo'yin tovlagan, jamoat tartibini, boshqa shaxslarning huquqini buzgan yoxud aholi salomatligiga xavf tug'diradigan va axloq-odob normalariga rioya qilinmaydigan surunkali alkogolizm yoki giyohvandlik bilan kasallangan bemorlar yuboriladilar.

“Alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlik bilan kasallangan shaxslarga nisbatan qo'llanadigan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining maqsadlari

sifatida qonun mazkur bemorlarni davolashni qayd etadi. Jinoyat sodir etgan mazkur toifadagi shaxslarni davolashni amalga oshirish ayni vaqtda belgilangan maqsadlarga erishishning zaruriy sharti hisoblanadi. Davolashni amalga oshirish mahkumlarning ahloqiy, irodaviy faoliyatiga ta'sir qiluvchi spirtli ichimliklar, psixotrop moddalari va giyohvandlik vositalariga qaramligini bartaraf etishdan iboratdir" [Saxaddinov S.S. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralari: ilmiy-nazariy, jinoyat-huquqiy va protsessual asoslari. Monografiya / Mas'ul muharrirlar: Akademik N.Y. To'raev, yu.f.d., professor Z.F.Inog'omjonova. – Toshkent: 2013. – B. 98.].

Zikr etilgan toifadagi shaxslarni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi hujjatlar, tibbiy xulosa mavjud bo'lganida ichki ishlar organlari tomonidan, ularning shaxsiy tashabbusi bilan yoki bemorning oila a'zolari yoki qarindoshlari, jamoalar, sog'liqni saqlash muassasalari, ichkilikbozlik va giyohvandlikka qarshi kurashish komissiyalari iltimosnomalariga asosan tayyorlanadi va rasmiylashtiriladi. Majburiy davolashga yuborish to'g'risida masala bemorning yashash joyidagi sudda, uning ishtirokida, 20 kunlik muddatda hal qilinadi. Bemorlar uzrli sabablarsiz kelmagan hollarda u ichki ishlar organlari tomonidan majburiy keltirishi lozim bo'ladi. Majburiy davolash to'g'risidagi sud ajrim ustidan bemor, uning himoyachisi yoki prokuror tomonidan yuqori turuvchi sudga kassatsiya tartibida yetti kunlik muddatda shikoyat keltirilishi mumkin.

**Alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka
yo'liqqan mahkumlarga nisbatan tibbiy yo'sindagi
majburlov choralarini qo'llash tartibi:**

Alkogolizm, giyohvandlik yoki
zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarga
nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov
choralari quyidagi tartibda qo'llaniladi:

*jamiyatdan batamom ajratib qo'yish
bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm
qilingan shaxslarga - sog'liqni saqlash
organlarining tibbiy muassasalari
tomonidan umumiy asoslarda;*

*qamoq yoki ozodlikdan mahrum
etish tariqasidagi jazoga hukm
qilingan shaxslarga - jazoni o'tash
joyida, ozod etilganlaridan so'ng
davolashni davom ettirish zarurati
bo'lganda esa - sog'liqni saqlash
organlarining tibbiy muassasalari
tomonidan umumiy asoslarda.*

Qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka yo'liqqan mahkumlarni majburiy davolash sud hukmiga asosan tartibot turiga ko'ra, ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyalarida yoki O'zbekiston Respublikasi IIV JIEBB respublika kasalxonasida amalga oshiriladi. Maxsus tartibli koloniya yoki turmada saqlanayotgan mahkumlarni davolash, ular saqlanayotgan joyda amalga oshiriladi. Jazoni ijro etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyalari ma'muriyati ularning davolanishi uchun sharoit yaratadi.

Qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlarga nisbatan tibbiy yo'sundagi majburlov choralari qo'llash tartibi jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlarni giyohvandlikka qarshi majburiy davolashni tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma;

ichki ishlar va sog'liqni saqlash idoralarining spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik vasitalarini suiiste'mol qiladigan shaxslar bilan profilaktika ishlarini tashkil qilish va surunkali alkogolizm yoki giyohvandlik bilan kasallangan bemorlarni majburiy davolashga yuborish to'g'risidagi yo'riqnomalari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi IIVning idoraviy hujjatlari sog'liqni saqlash va ichki ishlar organlari surunkali alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikka yo'liqqan bemorlarga majburiy davolashga ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika, narkologik muassasalarining bemorni davolash bo'yicha hamkorligining uzluksizligi ta'minlanishini belgilaydi. Ixtisoslashgan davolash-profilaktika muassasalari O'zbekiston Respublikasi viloyatlari bo'yicha taqsimlangan. Ichki ishlar organlari o'rnatilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ixtisoslashgan davolash-profilaktika muassasalari va og'ir kasallikka chalingan bemorlarni majburiy davolash uchun maxsus mo'ljallangan narkologik bo'limlar sharoitida majburiy davolanishga muhtoj bo'lgan alkogolizm, giyohvandlik, zaharvandlikka yo'liqqan bemorlar hisoboti yuritilishini, shuningdek, maxsus davolash-profilaktika muassasalariga yuborish uchun hujjatlar tayyorlanishini hamda ushbu muassasalaridan ozod qilingan shaxslar hayot tarzini nazorat qilishni tashkillashtirilishini ta'minlaydi.

Kasallarni ruhiy kasalliklar shifoxonasiga o'tkazish yoki bir kasalxonadan ikkinchisiga ko'chirish. Kasallarni ruhiy kasalliklar shifoxonasiga ko'chirish, shuningdek ularni bir kasalxonadan ikkinchisiga o'tkazish qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda davlat hisobidan amalga oshiriladi.

Bemorlarning boshqa muassasaga ko'chirilishi haqida tegishli qaror yoki ajrim chiqargan organlar xabardor qilinadilar. Mazkur organlar bemorlarni ko'chirish uchun transport va qo'riqchilarni ajratadilar.

Majburiy davolanishda bo'lgan ruhiy kasallarni bir shifoxona (bo'lim) shu tipdagi boshqasiga o'tkazishga to'xtatilgan jinoyat ishi yurituvda bo'lgan tergov organi yoki sudni xabardor qilgandan so'ng

- shahar, viloyat, Qoraqalpog'iston Respublikasi doirasida – sog'liqni saqlashni tegishli organining bosh ruhshunosi tomonidan;

- mamlakatimiz doirasida bir viloyatdan boshqasiga – O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining bosh ruhshunosi tomonidan ruxsat berilishi mumkin.

Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlarning huquq va majburiyatlari. Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlarning huquq va majburiyatlari belgilab qo'yilgan bo'lib, JIK 185-moddasiga ko'ra, ruhiy kasalliklar shifoxonalarida majburiy davolanayotgan bemorlar:

- har kuni sayr qilish;
- xatlar, posilka, yo'qlov va banderollar, shuningdek pul jo'natmalari olish va yuborish;
- qarindoshlari va boshqa shaxslar bilan uchrashish;
- diniy rasm-rusumlarni ado etish;
- oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olish hamda ularni o'z yonida saqlash;
- kasalxona kutubxonasidan foydalanish huquqiga egadirlar.

Bemorlar advokat xizmatidan foydalanishlari mumkin.

Davolash samaradorligini va kasallar yoki boshqa shaxslarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda bemorlarning huquqlari cheklanishi mumkin.

Bemorlarning tayinlangan muolajani qabul qilishi va ichki tartib qoidalariga rioya etishi shart.

Majburiy davolanishda bo'lgan bemorlar har kuni sayr qilish, xat-yozishmasi, posilkalar, jo'natmalar, banderollar va pul jo'natmalari olish, qarindosh va yaqinlari bilan uchrashish, boshqa mahkumlarga halal bermagan holda ibodat qilishi va h.k. huquqlarga egalar. Xat-yozishmasi, posilkalar, jo'natmalar, banderollar va pul jo'natmalari olish, qarindosh va yaqinlari bilan uchrashish vaqti va tartibi shifoxonaning ichki tartib qoidalari bilan tartibga solinadi.

Bemorning ahvoli va uni davolash manfaatlaridan kelib chiqib, bo'lim mudirini xabardor qilgan holda davolovchi vrach tomonidan bemorlarning uchrashuvlari vaqtincha taqiqlanishi mumkin (karantin bilan o'rnatiladiganlari bundan mustasno),

Bemorlarning qarindosh va yaqinlari bilan uchrashuvlari shu maqsadda maxsus ajratilgan, qochish imkoniyati bo'lmagan xonada tibbiyot xodimi va shifoxonani qo'riqlash bo'yicha ichki ishlar organlari bo'linmasining nazoratchisi huzurida amalga oshiriladi.

Shifoxona ma'muriyatining bemorning ruhiy holati va ijtimoiy maishiy masalalar to'g'risida muassasalar, uning qarindoshlari bilan xat yozishmalari bemorning kasallik tarixi jildida saqlanadi.

Bemorlarning ruhiy kasalliklar shifoxonasi xodimlari tomonidan ularga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lganligi to'g'risidagi shikoyatlari bosh shifokor tomonidan tayinlangan shaxslar tomonidan zudlik bilan tekshiriladi. Bemorlar, ularning qarindoshlari va qonuniy vakillarining og'zaki va yozma arizalari o'rnatilgan tartib bo'yicha ro'yxatga olinadi va ko'rib chiqiladi.

Bemorlarning mehnat jarayoni, sport tadbirlarida ishtirok etishi, madaniy terapiyaga (kinofilmlar, televizion ko'rsatuvlar, havaskorlik kechalari va h.k.) jalb qilinishi tibbiyot xodimlari tomonidan tashkil qilinadi. Mehnat terapiyasi, madaniyat terapiyasi, sayr qilish, urashuvlar vaqtida ruhiy kasallar xulq-atvorini kuzatish va nazorat qilish tibbiyot xodimlari va shifoxonani qo'riqlash bo'yicha ichki ishlar organlari bo'linmasining nazoratchisiga yuklatiladi.

Bemorlarning shifoxona hududidan chetga chiqishi taqiqlanadi. Bemorlar davolanishdan bosh tortganida, ular majburiy ravishda davolanadi.

Ruhiy kasalliklar, shifoxonalarida bemorlarni davolashni tashkil etish va ularni saqlash sharoitlari. Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlar kasallik turi, xulq-atvorining xususiyati, ruhiy va jismoniy holatini inobatga olib, ularni jamiyatdan batamom ajratib qo'yishni ta'minlovchi hamda ular tomonidan yangi ijtimoiy-xavfli qilmish sodir etish, qochish, saqlash rejimini buzish ehtimolining oldini olishni ta'minlaydigan sharoiti bor palatalarga joylashtiriladi.

Erkaklar va ayollar, kattalar va voyaga yetmagan shaxslar alohida-alohida saqlanadi.

Bir bemorga to'g'ri keladigan foydali maydon normasi besh kvadrat metrdan kam bo'lishi mumkin emas.

Bemorlarga ovqat va kasalxona kiyimi bepul beriladi.

Bemorlarni ovqat va ust-bosh bilan ta'minlash normalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Posilka, yo'qlov, banderol va pul jo'natmalari olish hamda yuborish, uchrashuvlar o'tkazish, oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni sotib olish, saqlash, shuningdek bemorlarga har kuni beriladigan sayr tartibi ichki tartib qoidalari bilan belgilanadi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida bemorlarga uzoq muddatli uchrashuv berilmaydi.

Bemor nomiga kelib tushgan pullar uning shaxsiy hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va eng zarur narsalarni bemorlar pul o'tkazish yo'li bilan sotib oladilar.

Ruhiy kasalliklar shifoxonasiga qabul qilingan bemorlar bo'lim va palatalarga, ularning ruhiy holati inobatga olingan holda, ayollar va erkaklar, kattalar va voyaga yetmaganlar alohida joylashtiriladilar. Intensiv nazoratli ruhiy kasalliklar shifoxonasida bemorlarni saqlash, rejim va ularni ustidan nazorat qilish ularning davolanishi va ijtimoiy mehnat jihatidan reabilitatsiya qilinishi qulay sharoitni ta'minlashi, bemorlarning qadr-qimmatini kamsitmasligi va ularning mustaqilligi hamda foydali tashabbusiga to'sqinlik qilmasligi kerak.

Bosh shifokor tomonidan tasdiqlanadigan shifoxonaning Ichki tartib-qoidalarida kun tartibi, ovqatlanish va dam olish vaqti belgilanadi.

Bemorlar har haftada gigienik vanna oladilar (yoki dushda cho'miladilar), choyshab va ich kiyimlari almashtiriladi. Surunkali xolsiz bo'lgan kir va pala-partish bemorlarning choyshab va ich kiyimlari zaruratga qarab almashtiriladi.

Shifoxonaning davolash bo'limlari hududiga kirishga guvohnoma va ruxsatnomalar bo'lganida ruxsat beriladi. Ruxsatnomasi bo'lgan begona shaxslar nazoratchi tomonidan majburiy ravishda kuzatib qo'yilishi shart. Shifoxona hududiga kiruvchi va undan chiqayotgan shaxslarning narsalari va kiyimlari ko'zdan kechiriladi.

Bemor shifoxonadan qochgan taqdirda qo'riqlov bo'limi zudlik bilan qidiruv ishlarini tashkil qiladi va qochish tafsilotlarini aniqlaydi. O'zboshimchalik bilan shifoxonani tashlab ketgan bemorni chiqarish hujjati rasmiylashtirilmaydi. Shifoxonani qo'riqlash bo'limi har bir qochish fakti to'g'risida shifoxona joylashgan hududdagi va bemorning yashash joyidagi ichki ishlar organlari va psixonevrologik dispanserni, shuningdek majburlov chorasini tayinlagan sudni xabardor qiladi.

Shuningdek, intensiv kuzatuv o'rnatilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasining ma'muriyati prokuratura, tergov organlari va sudning talabi yoki sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot muassasalarining suroviga ko'ra bemor to'g'risida ma'lumotnoma va kasallik tarixidan ko'chirma beradi. Bemorlarga, ularning qarindoshlari yoki vasiylariga, shifoxonada bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnomadan boshqa hujjatlar berilmaydi.

Intensiv kuzatuv o'rnatilgan ruhiy kasalliklar shifoxonasi ma'muriyati, shifoxonaning ayrim xodimlari, shifoxonada majburiy davolanishda bo'lgan

ruhiy kasallarning vakili sifatida sudda qatnashishiga vakolat berishga xaqlidir.

Bemor qochib ketgan yoki vafot etgan taqdirda shifoxona ma'muriyatining harakati. Ruhiy kasallarni majburiy davolash O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tashhis qo'yish, davolash va sog'liqni tiklash usullarini qo'llangan holda o'tkaziladi.

Shifoxonadagi har bir bemorning to'liq ruhiy, nevrologik va somatik [Grekcha.- soma-tana. Shaxsning ruxiyati bilan bog'liq bo'lmagan jismoniy yoki organizimidagi qismlardagi o'zgarishi holatlarini anglatadi. //Zdorove.Ensiklopediya.ID "Ves". Sankt-Peterburg. 2003.S-716.] ko'rikdan o'tishi ta'minlanadi. Kasallikning xususiyatiga qarab unga barcha zamonaviy davolash va ijtimoiy-mehnat jihatidan reabilitatsiya qilish usulari qo'llanadi.

Tibbiy tekshirish natijalari, bemorning ruhiy, nevrologik va somatik holatining o'zgarishi, anamnestik ma'lumotlar (hayoti davomida qanday kasalliklarga chalingan va qaerda davolanganligi xususidagi ma'lumotlar), dastlabki tashhis, yangi diagnostik va davolash usullarining belgilanishi hamda tekshirishlar, kuzatuv ma'lumotlariga ular o'tkazilgan kun qo'yilib, kasallik tarixiga yoziladi. Davolovchi vrach tomonidan anamnez ma'lumotlarini olish uchun barcha zaruriy tekshirishlar o'tkazilganidan so'ng, kasallik tarixida ular klinik tashxis sifatida yoziladi. Tashhisning ta'rifi kasalliklar, shikastlanish va o'lim sabablarining amaldagi statistik klassifikatsiyasiga muvofiq keltiriladi. Klinik tashhisni aniqlash bemor psixiatrik statsionarga keltirilgan paytdan boshlab 10 kundan oshmasligi kerak.

Ruhiy kasalliklar shifoxonasida bemorlarni nazorat qilish. Majburiy davolanayotgan bemor qochib ketgan taqdirda ruhiy kasalliklar shifoxonasi ma'muriyati zudlik bilan uni qidirib topish choralarini ko'rishi hamda bu haqida shifoxona joylashgan yerdagi va bemor, uning qarindoshlari yoki vasiylari yashaydigan joydagi prokurorni, ichki ishlar organlarini, psixonevrologiya dispanserini, shuningdek majburiy davolash chorasini tayinlagan sudni xabardor qilishi shart.

Majburiy davolanishda bo'lgan bemorning vafot etganligi to'g'risida ruhiy kasalliklar shifoxonasi ma'muriyati uning qarindoshlari yoki vasiylarini, prokuror va sudni, shuningdek bemor yashagan joydagi psixonevrologiya dispanserini xabardor qiladi.

Vafot etgan bemorning jasadini berish shartlari va tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi

Majburiy davolashda bo'lgan bemor qochib ketgan hollarda davolash muassasasining ma'muriyati uni qidirish choralarini zudlik bilan ko'rishi va

davolash muassasasi joylashgan hududdagi prokuror, ichki ishlar organlari hamda bemorning yashash joyidagi psixonevrologik dispanserga, uning qarindoshlari yoki vasiylari, shuningdek majburiy davolashni tayinlagan sudga xabar berishi lozim.

Bemor ushlanib, mazkur davolash muassasasiga qaytirilganida, uning takroran qochishga yo'l qo'ymaslik uchun barcha xavfsizlik choralari ko'riladi.

Davolash muassasasining ma'muriyati majburiy davolanishda bo'lgan bemorning o'limi to'g'risida uning qarindoshlari yoki qonuniy vakillari, prokuror, majburiy davolanishni tayinlagan sud, jinoyat ish yurituvchi bo'yicha tergov tugamagan yoki to'xtatilgan bemorning yashash joyidagi psixonevrologik dispanserga (dispanser bo'limiga, kabinetga) xabar beradi.

Bemor qochib ketganda yoki u o'lganida davolash muassasasining ma'muriyati to'xtatilgan jinoyat ishi yurituvchi bo'lgan tergov organi yoki sudga ham xabar berishi lozim.

Tergov organi, prokuror yoki sudning talabi bilan majburiy davolanishda bo'lgan bemor vafot etgan davolash muassasasining ma'muriyati uning vafoti to'g'risidagi barcha zaruriy hujjatlar va tushuntirishlarni taqdim qiladi.

Vafot etganlarning murdalari majburiy ravishda patologo-anatomik ekspertizadan o'tkazish to'g'risida batafsil bayonnoma tuziladi.

Basharti vafot etgan bemorning qarindoshlari yoki qonuniy vakillari murdani ko'mish uchun olish istagini bildirgan bo'lsalar, ular bu to'g'rida shifoxona ma'muriyatiga o'lim to'g'risidagi xabarnoma olganlaridan so'ng 24 soat ichida ma'lum qilishlari shart. Agarda ko'rsatilgan shaxslar murdani olib ketish to'g'risida shifoxonaga xabar bermagan bo'lsalar, shifoxona o'lim to'g'risida xabarnoma berganidan so'ng 48 soat o'tgach vafot etganni ko'mishga xaqlidir.

Shuningdek, o'lim o'ta xavfli yuqumli kasalliklar oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, vafot etganining murdasi qarindosh yoki qonuniy vakillariga berilmaydi.

Bemorning o'limi zo'rlik natijasida kelib chiqqan hollarda ruhiy kasalliklar shifoxonasi ma'muriyati zudlik bilan bu to'g'rida shifoxona joylashgan joydagi prokuratura va Sog'liqni saqlash vazirligining bosh ruhshunosiga tegishli choralar ko'rish uchun, shuningdek boshqa manfaatdor shaxslarga xabar beradi. Bunday hollarda murdani berish to'g'risidagi masalani hududiy prokuratura hal etadi.

Bemorni ruhiy kasallar shifoxonasidan chiqarish to'g'risida xabar berish tartibi va bemorlarni yashash joyiga yuborish. Bemorni shifoxonadan chiqarishdan o'n kun oldin ruhiy kasalliklar shifoxonasi

ma'muriyati bu haqida uning yashash joyidagi ichki ishlar organlariga, shuningdek uning qarindoshlari yoki vasiylariga xabar qiladi.

Majburiy davolanish sud tomonidan bekor qilinganidan keyin o'n sutka ichida davolash muassasasi ma'muriyati bemorning yashash joyidagi psixonevrologiya dispanseriga ambulatoriya kartasidan ko'chirma yuboradi hamda uning qarindoshlari yoki vasiylarini, shuningdek bemorning yashash joyidagi ichki ishlar organlarini voqeadan xabardor qiladi.

Majburiy davolanishda bo'lgan barcha bemorlar 3-6 oyda bir martadan kam bo'lmagan holda ularning ruhiy holatini aniqlash va sud oldiga majburiy davolashni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi masalasini qo'yish imkoniyatini yaratish uchun, shifoxonaning bosh vrachi taqdimnomasiga ko'ra tuzilib, shifoxona bo'ysinadigan organ tomonidan tasdiqlanadigan shifokorlar komissiyasi tomonidan tekshirishdan o'tkaziladi. Agarda bemorning holati o'zgarsa, tekshirish olti oy o'tgunga qadar har qanday vaqtda o'tkazilishi mumkin.

Bemorning sog'ayib ketishi yoki uni jamiyat uchun xavfsiz bo'lishiga olib kelgan hamda shifoxonada saqlash va majburiy davolash zaruratini istisno qiluvchi ruhiy holatining o'zgarishi hollarida, davolash muassasasiga bo'ysunuvchi sog'liqni saqlash organi bosh psixiatrining, shifokorlar komissiyasi xulosasiga asoslangan taqdimnomasiga binoan sud tomonidan majburiy davolash bekor qilinadi. Shifokorlar komissiyasi tomonidan tegishli xulosa chiqarilgandan so'ng o'n kunlik muddatdan kechiktirmagan holda bosh psixiatr tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini bekor qilish yoki uning turini o'zgartirish haqida sudga taqdimnoma bilan murojaat qilishi zarur.

Tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini o'zgartirish, bemorni umumiy tipdagi ruhiy kasalliklar shifoxonasidan (bo'limidan) yoki ixtisoslashtirilgan reabilitatsion bo'limdan kuchaytirilgan kuzatuvli ruhiy kasalliklar shifoxonasiga o'tkazish to'g'risidagi sud ajrimini ijro etish O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Sud tomonidan majburiy davolash bekor qilinganidan so'ng, bemor shifoxonadan chiqarilgunga qadar o'n kunlik muddatdan kechiktirmasdan ruhiy kasalliklar shifoxonasi bemorning yashash joyidagi psixonevrologik dispanserga (dispanser bo'limi, kabinetiga) statsionarda davolangan bemorning ambulator kartasidan ko'chirma yuboradi. Bir vaqtning o'zida, ruhiy kasalliklar shifoxonasining ma'muriyati majburiy davolash bekor qilinganligi va bemor shifoxonadan chiqarilganligi haqida bemorning qarindoshlari yoki qonuniy vakillariga, shuningdek bemor yashash joyidagi militsiya bo'linmasiga xabar beradi.

Bemorlarni ruhiy kasalliklar shifoxonasidan chiqarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonasidan chiqarilgan shaxslarga davolanishda bo'lgan vaqti to'g'risida ma'lumotnoma beriladi.

Shuningdek, bemorlarni ruhiy kasalliklar shifoxonasidan chiqarish tartibi mazkur shifoxonaning tipiga bog'liq bo'ladi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga oid hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonasidan chiqarilgan shaxslarga shifoxonada bo'lgan muddat to'g'risida ma'lumotnoma beriladi. Odatda, bunday ma'lumotnoma bemorni kuzatuvchi shaxslarga beriladi.

Bemor chiqarilganidan so'ng kasallik tarixi shifoxonada qoladi, devonxonada ro'yxatga olinadi va arxivga topshiriladi. Zarurat tug'ilganda u keyinchalik talab qilib olinishi mumkin, bunday holarda undan tegishli nusxa olinadi.

Bemorlar va ruhiy kasalliklar shifoxonasi hodimlarining xavfsizligini ta'minlash. Bemorlar va xodimlar xavfsizligini ta'minlash, bemorlarning ruhiy kasalliklar shifoxonasi (bo'linmasi) doirasidan tashqariga o'zboshimchalik bilan chiqib ketishining oldini olish maqsadida ruhiy kasalliklar shifoxonasida nazorat-ruxsatnoma tizimi joriy etiladi.

Umumiy tartibli ruhiy kasalliklar shifoxonalarini qo'riqlash tibbiy xodimlar tomonidan, sud-psixiatriya ekspertizasi bo'linmalari va kuzatuv kuchaytirilgan ruhiy kasalliklar shifoxonalarida - ichki ishlar organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bemor jazavaga tushgan, shuningdek tibbiy xodimlarga itoat etmagan va ularga jismoniy qarshilik ko'rsatgan taqdirda unga nisbatan qo'lkishan, bog'lash vositalari va boshqa maxsus vositalar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qo'llanilishi mumkin.

Majburiy davolashda bo'lgan bemorlarga beriladigan har kunlik sayir qilish faqat shifoxona hududida ruxsat beriladi. Majburiy davolanishda bo'lgan bemorlarni shifoxona hududidan chiqarish qat'iy man qilinadi.

Bemorlarni shifoxona hududidan chetga chiqishi, shifoxona hududiga begonalarning kirishini oldini olish uchun nazorat-propusk tizimi va qo'riqlov o'rnatiladi. Kuchaytirilgan nazoratli ruhiy kasalliklar shifoxonasidagi propusk rejimi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining tegishli nizomi bilan tartibga solinadi.

Shuningdek, ko'rsatilgan shifoxonaning hududi va davolash korpuslariga kirish faqat qo'riqlash bo'limi xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va shifoxona joylashgan joydagi sog'liqni saqlash organining bosh psixiatrlari, nazorat qiluvchi prokurorga

nazoratchilarning hamrohligida yo'l qo'yiladi. Bemorlar yopiq rejimidagi palata va korpuslarda saqlanadi.

Qarindoshlar bilan uchrashuvlar qochib ketishni istisno qiluvchi maxsus jixozlangan xonalarda, tibbiy personal huzurida amalga oshiriladi. Janjal-to'polon qilingan, shuningdek bo'ysunmaslik va tibbiy personalga jismoniy qarshilik ko'rsatilgan hollarda bemorga kishan, tinchlantirish ko'ylagi va jazavani bostirishning boshqa vositalari shifokor nazorati ostida qisqa muddatga qo'llanadi. Bemorning sog'lig'iga zarar yetkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida majburiy davolash o'tkazilishi ustidan nazorat qilish. Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida (bo'linmalarida) majburiy davolash o'tkazilishi ustidan nazorat sog'liqni saqlash organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi

Sud tomonidan tayinlangan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llashda qonunlarga rioya qilish ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga buyso'nuvchi prokurorlar tomonidan "Prokuratura to'g'risida"gi qonunga muvofiq amalga oshiriladi. Ruhiy kasalliklar shifoxonalarida (bo'limlarida) majburiy davolashni o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilishini nazorat qilish sog'liqni saqlash organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining ruxsati bilan xalqaro tibbiyot tashkilotlari psixiatrik muassasalarga yo'l qo'yilishi mumkin. Ularning muassasada bo'lishida zikr etilgan vazirlikning mas'ul xodimlari hamrohlik qiladi.

Qamoq jazosiga va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash tartibi. Qamoq jazosiga va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash tartibi JIK 194-moddasida belgilab qo'yilgan bo'lib, qamoq jazosiga va ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan, alkogolizm, giyohvandlik va zaharvandlikka yo'liqqan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash tartibi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslarga tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash tartibi qo'yidagilarda namoyon bo'ladi: qamoq uylari yoki jazoni ijro etishning muayyan koloniyasiga keltirilgandan so'ng mahkumlar tibbiyot bo'lim karantin-diagnostika statsionar palatalariga yuboriladilar. U yerda 10 kunlik muddat

ichida ularning somatik (yuqorida tushuncha berilgan) va ruhiy holati tibbiy tekshiruvdan o'tkazilib, kasallikning diagnozi va bosqichi aniqlanishi lozim. Bemorlar karantin-dagnostika palatalaridan statsionar davolash kursini o'tkazish uchun palatalarga o'tkaziladilar. Bemorlarni statsionar tekshirish va davolash muddati tibbiyot komissiyasi tomonidan belgilanadi.

Statsionar tekshirish kursi o'tkazilganidan so'ng mahkumlar otryadlarga o'tkaziladilar va ularni ambulator davolash davom etadi. Davolashning muayyan usullari shifokorlar tomonidan, bemorlarning individual xususiyatlarini, kasallikning turi va bosqichi, shuningdek yo'ldosh kasalliklarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash va Ichki ishlar vazirliklarining nizom va uslubiy hujjatlari asosida tanlanadi.

Majburiy davolanish o'tkazilayotgan bemorlarda uning yoqmasligini ko'rsatuvchi belgilar nomoyon bo'lsa, tibbiy komissiya tomonidan davolashni tugatish zarurligi to'g'risida qaror qabul qilinadi. Qaror, bemorlar statsionar sharoitida sinchkovlik bilan tekshiruvdan o'tkazilganidan keyin qabul qilinadi. Hujjatlar qamoq uyi yoki jazoni ijro etish koloniyasi ma'muriyatiga sudga yuborish uchun beriladi.

Bemor davolanishdan bo'yin tovlasa, qamoq uyi yoki jazoni ijro etish koloniyasi ma'muriyati tibbiy xulosaga tayangan holda, mahkumga, u ozod qilinganidan so'ng, majburiy davolash muddatini maxsus davolash-mehnat rejimli muassasa sharoitida uzaytirish haqida sudga iltimosnoma kiritishi mumkin. Mahkumlarni jazoni ijro etishning ixtisoslashtirilgan muassasalaridan umumiylariga o'tkazish to'g'risidagi masala sud tomonidan majburiy davolash bekor qilinganidan so'ng hal qilinishi mumkin.

Voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan majburlov choralarini qo'llash tartibi va turlari

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 87-moddasida voyaga yetmagan shaxsga nisbatan majburlov choralarini qo'llagan holda javobgarlik va jazodan ozod qilish tartibi nazarda tutilgan.

Unga ko'ra ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan voyaga yetmagan shaxs, agar sodir etgan qilmishining xususiyatlari, aybdorning shaxsi va ishning boshqa holatlarini e'tiborga olib, uni jazo qo'llamasdan turib ham tuzatish mumkin degan xulosaga kelinsa, javobgarlikdan ozod qilinib, ish voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyada ko'rishga topshirilishi mumkin.

Besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlash nazarda tutilgan uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan yoki ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatni takroran sodir etgan voyaga yetmagan shaxsni, mazkur moddaning birinchi qismida nazarda

tutilgan asoslar mavjud bo'lsa, sud jazodan ozod qilish va unga nisbatan majburlov choralari qo'llash to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart.

Amaldagi jinoyat qonunida voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan quyidagi majburlov choralari qo'llaniladi:

- sud beliglangan shaklda aybdorga jabrlanuvchidan uzr so'rash majburiyatini yuklash;

- o'n olti yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki bataraf qilish majburiyatini yuklash;

- voyaga yetmagan shaxsni maxsus o'quv tarbiya muassasasiga joylashtirish.

Jabrlanuvchidan uzr so'rash. Uzr so'rash shakli, uning vaqti va joyi sud ajrimida ko'rsatiladi. Sud majburlov chorasining tarbiyaviy xususiyatini oshirish maqsadida uzr so'rash, qilmishidan pushaymon bo'lashi yuzaki emas, balki chin ko'ngildan bo'lishiga erishishga harakat qilishi kerak.

Agarda uzr ko'pchilikning oldida so'ralsa, bunda mahalla komitetining raisi, profilaktika bo'yicha uchastka inspektori qatnashishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda uzr qaerda, qanchon va qanday shaklda so'ralganligi, kimlar ishtirok etganligi, jabrlanuvchi qoniqqan-qoniqmaganligi ko'rsatilgan holda bayonnoma tuziladi. Uzr alohida so'ralgan hollarda jabrlanuvchining o'zi uzr so'ralganligi haqida sudga xabar berishi lozim. Mazkur xabar og'zaki yoki yozma bo'lishi mumkin.

Etkazilgan zararni to'lash yoki bartaraf etish. Yetkazilgan zararni qoplash yoki bartaraf qilish majburiyati voyaga yetmaganning bunday zararni qoplash imkoniyatini beruvchi mustaqil daromadi bilan bog'liqdir. Agarda voyaga yetmaganning daromadi yetkazilgan zararni qoplashga yetmasa, voyaga yetmagan uni o'z mehnati bilan (mehnat to'g'risidagi qonunchilik doirasida) bartaraf qilishi lozim bo'ladi. Agarda buning ham imkoniyati bo'lmasa mazkur chora qo'llanilmasligi kerak.

Agarda voyaga yetmagan shaxsga nisbatan qo'zg'atilgan jinoyat ishi bo'yicha fuqaroviy da'vo qondirilib, yetkazilgan zararni qoplash esa faqat ayblanuvchiga yuklatilgan bo'lsa, uning ota-onalari, vasiylari yoki boshqa qonuniy vakilari da'vogar, sud yoki prokurorning tashabbusi bilan fuqaroviy javobgar sifatida jalb qilinmagan bo'lsalar, mustaqil da'vo bilan qo'shimcha moddiy javobgarlikka jalb qilinishlari mumkin. Jinoyat ishidagi fuqaroviy da'voni fuqaroviy sudda ko'rib chiqish uchun yuborib, voyaga yetmaganlarning qonuniy vakillarini birgalikda javobgar shaxs sifatida jalb qilgan holda mulkiy talablarni qondirish ham istisno qilinmaydi. Biroq, har qanday holda yetkazilgan zararni o'z mablag'lari yoki mehnati bilan qoplanganligi haqida sudga xabar berilishi lozim.

Maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish. Voyaga yetmagan shaxslarni maxsus o'quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish O'zbekiston Respublikasining 2010 yil 29 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi O'RQ-263-sonli qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 26 noyabrdagi qaror "Ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalari to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 268-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomlarga muvofiq amalga oshiriladi. Xalq ta'limi organlarining maxsus o'quv-tarbiya muassasalariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda joylashtiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 26 noyabrdagi 268-son qarori bilan tasdiqlangan "Alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab to'g'risida"gi Nizomga va "Alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj voyaga yetmaganlar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji to'g'risida"gi Nizomga (2-ilova) muvofiq tarbiya muassasasiga joylashtiriladilar [Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2010 yil, 48-son, 445-modda].

Ixtisoslashtirilgan maktabga o'n bir yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan, ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish uchun alohida sharoitlarga muhtoj voyaga yetmaganlar quyidagi hollarda joylashtirilishi mumkin, agar ular:

- ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining mohiyatini to'liq anglab yetishga qodir bo'lmagan bo'lsa;

- yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotganligiga qaramay huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir qilishni davom ettirayotgan bo'lsa.

Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejiga o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan, ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish uchun alohida sharoitlarga muhtoj voyaga yetmaganlar quyidagi hollarda joylashtirilishi mumkin, agar ular:

- ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan, lekin jinoiy javobgarlikka tortish mumkin bo'lgan yoshga to'lmagan yoxud ruhiy kasallik bilan bog'liq bo'lmagan holda rivojlanishda o'z yoshiga nisbatan ancha orqada qolishi oqibatida sodir etgan qilmishining mohiyatini to'liq anglab yetishga qodir bo'lmagan bo'lsa;

-ko'rib chiqish uchun materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga bergan holda ularning aybdorligi masalasini hal qilmasdan jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan bo'lsa;

-ularni ixtisoslashgan o'quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish tarzidagi majburiy choralar qo'llangan holda jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan bo'lsa;

-yakka tartibdagi profilaktika ishi olib borilayotganligiga qaramay huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir qilishni davom ettirayotgan bo'lsa.

Sud ajrimi voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejiga joylashtirish uchun asos hisoblanadi.

Voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejiga qabul qilish sud ajrimi asosida, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan taqdim etiladigan yo'llanmalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejiga yo'llanadigan har bir voyaga yetmagan bola uchun ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektori tomonidan ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi xodimi ko'magida shaxsiy hujjatlar yig'majildi rasmiylashtiriladi.

Voyaga yetmaganning shaxsiy hujjatlar yig'majildida quyidagi hujjatlar mavjud bo'ladi:

jinoiy ishlar bo'yicha tuman (shahar) sudining voyaga yetmaganni ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejiga joylashtirish haqidagi ajrimi;

tug'ilganligi haqidagi guvohnoma, pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjat;

ma'lumoti to'g'risidagi hujjatlar (mavjud bo'lsa);

o'qish joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma;

yashash joyidan ma'lumotnoma va tavsifnoma;

voyaga yetmaganning yashash va tarbiyalanish sharoitlarini tekshirish dalolatnomasi;

tegishli ma'lumotnomalar bilan birga tibbiy karta;

sog'liqni saqlash muassasasining voyaga yetmagan shaxsning sog'lig'i va uni ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejiga joylashtirish mumkinligi to'g'risidagi xulosasi.

Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejiga yo'llanayotgan yetim bolalar va ota-ona qarovsiz qolgan bolalar uchun shaxsiy hujjatlar yig'majildlarida yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari quyidagi hujjatlar ham bo'lishi lozim:

etim bolalar hamda ota-ona qarovsiz qolgan bolalarga nisbatan vasiylik belgilash yoki ta'lim muassasasiga joylashtirish haqidagi tuman (shahar) hokimi qarorining nusxasi;

ota-onasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar (pasportlar yoki ota-onasi o'lganligi haqidagi guvohnoma nusxasi, sud hukmlari yoki qarorlari, ota-onaning uzoq vaqtdan buyon kasalligi to'g'risidagi ma'lumotnoma va ota-onasi yo'qligini yoki ularning o'z bolalarini tarbiyalashga imkoni yo'qligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar);

yaqin qarindoshlarining borligi va ularning yashash joylari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

voyaga yetmaganning ota-onasidan qolgan mol-mulki (agar mol-mulk mavjud bo'lsa) ro'yxati, mol-mulkning joylashgan joyi, uning saqlanishini ta'minlash uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilgani, uning saqlanishi uchun javobgar shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar;

turar joyning voyaga yetmaganga birkirib qo'yilganligi to'g'risidagi hujjatlar (order, uy daftari, turar joy tarxi, tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo'limidan turar joyning egasi va turar joyni xususiyashtirish fakti to'g'risidagi ma'lumotnoma);

pensiya olayotgan voyaga yetmaganning pensiya daftarchasi, sudning bola foydasiga aliment undirish to'g'risidagi qarori nusxasi, jamg'arma daftarchasi.

Tarbiyalanuvchilar ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejida o'n sakkiz yoshga to'lgunlariga qadar bo'lishlari mumkin.

Voyaga yetmaganlar ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejida to'rt yildan o'tirib bo'ladilar, lekin bu muddat uch yildan o'tirib bo'lmagligi kerak.

Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji joylashgan joydagi tuman (shahar) komissiyasi tarbiyalanuvchiga ko'rsatib o'tilgan muassasada uch yillik muddat o'tgach joriy o'quv yilida tegishli darajasini tugallagunigacha qolishga ham ruxsat berishi mumkin.

Tarbiyalanuvchilarning ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejida bundan keyin bo'lishlarining maqsadga muvofiq-nomuvofiqligi masalasi vaqti-vaqti bilan, lekin yiliga kamida bir marta ushbu muassasalar joylashgan joydagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tuman (shahar) komissiyalari tomonidan mazkur komissiyalarning o'z tashabbusi bilan, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji ma'muriyatining taqdimnomasi yoki voyaga yetmaganlarning ota-onalari yoki ular o'rnini bosuvchi shaxslar iltimosiga binoan ko'rib chiqiladi.

Tarbiyalanuvchining ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejida bo'lishi pedagoglar kengashining ushbu muassasa rahbari tomonidan tasdiqlangan qarori asosida mazkur muassasa joylashgan joydagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha tuman (shahar) komissiyasining qarori bilan to'xtatiladi, bu haqda tarbiyalanuvchi shu muassasadan chiqqunga qadar kamida bir oy oldin uning yashash joyidagi voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyaga xabar beriladi, komissiya voyaga yetmagan shaxsni ishga joylashtirish yoki ta'lim muassasasiga yuborish va unga zarur moddiy-maishiy sharoitlar yaratish chora-tadbirlarini ko'rishi shart.

Tarbiyalanuvchi ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejidan chiqarilgan taqdirda u tarbiyalanishi va ta'lim olishi davrida foydalangan kiyim-bosh va poyabzal komplekti unga bepul beriladi.

Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejini tugatayotganda, yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tgan tarbiyalanuvchilarga belgilangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatlar beriladi.

Ta'limni yakunlamagan tarbiyalanuvchilarga belgilangan namunadagi ma'lumotnoma beriladi.

O'n olti yoshgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilar, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejini tugatayotgan vaqtda doimiy yashash joylariga ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji xodimlari, ota-onasi yoki ota-onasi o'rnini bosuvchi shaxslar kuzatuvida yuboriladilar.

Nazorat uchun savollar:

1. Jazodan shartli ozod qilishning bir necha turi mavjud bo'lib, ular o'zaro farqlanadi.

Tegishli normativ hujjatlarga asoslangan holda jazodan shartli ozod qilish turlarini ijro etish tartibini muhokama qiling.

2. Qonunda tibbiy yo'sindagi majburlov choralarining bir necha turlari nazarda tutilgan va ularni ijro etish tartibi ham belgilangan.

Jinoyat-ijroiya kodeksiga asoslangan holda mazkur majburlov choralarini ijro etish tartibini muhokama eting.

3. A. ismli shaxs shartli hukm qilish asosida jazodan ozod qilindi. A. jinoyat natijasida jabrlanuvchiga ancha miqdorda zarar yetkazgan. Lekin jabrlanuvchi shartli hukm qilishni ijro etish jarayonida zarar qoplangunga qadar vafot etdi.

Ichki ishlar bo'limi inspektori sifatida A.ga nisbatan shartli hukm qilish ijro etish tartibini ketma-ketlikda bayon qiling va jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash masalasini hal eting.

4. Ruhiy kasalliklar shifoxonasida davolanib bo'lgan I. to'liq davolandi va unda kasallik asoratlari qolmaganligi haqida ma'lumotnoma berildi. I.ning yaqin qarindoshlari va vasiysi bo'lmaganligi sababli yashash joyiga o'zini jo'natib yuborildi.

Ruhiy kasalliklar shifoxonasi ma'muriyatining harakatlariga baho bering.

Foydalanilgan va o'rganish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rustamboev M.H., Axrorov B.J. va boshqalar. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. –T.: O'qituvchi, 2002. -208 b.
2. Кадыров Р. Sovershenstvovanie pravovogo regulirovaniya i primeneniya distsiplinarnyx mer k osujdenным. –T.: Shark, 2002. – 187 s.
3. Abduxalikov M.A., Payzullaev Q., Abduqodirov Sh.Yo. Jinoyat-ijroiya huquqi (albom sxemalar). –T.TDYI, 2005. -142 b.
4. Jinoyat ijroiya kodeksiga sharhlar. Mas'ul muharrir: yu.f.d.,prof. M.H.Rustamboev. –T.: TDYI, 2007. –574 bet.
5. Salaev N.S., Rasulev A.K. Jinoyat-ijroiya huquqi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot o'tkazish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. Q.R.Abdurasulova. –T.: TDYI, 2013. - 320 b.
6. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: yu.f.n., dots. B.J.Axrorov. –T.: O'qituvchi, 2002. – 208 b.
7. Payzullaev Q., Abduqodirov Sh.Yo. Jinoyat-ijroiya huquqi (albom sxemalar). –T.: TDYI, 2010. – 147 b.
8. Payzullaev K.P., Maxkamov O.M., Salaev N.S. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo (albom-sxema). Uchebnoe posobie. – T.: TGYuI, 2011. – 144 s.
9. Mahkumlar huquqlari: halqaro va milliy standartlar. / F.X.Bakaeva, Ye.V.Lankevich, S.O.Toshboev va boshq. / Mas'ul muharrir: A.X.Saidov. – Toshkent: Tafakkur, 2011. – 220 b.
10. Yuldashev M.Sh. Mahkumlar huquqlari to'g'risidagi halqaro standartlarning milliy qonunchilikka implementatsiya qilinishi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2010. – 32 b.
11. Turg'unov I.T., Yuldashev M.Sh. Mahkumlarning huquqiy holati. O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. -118 b.
12. Shamansurov A.A. Проблемы совершенствования законотелства системы исполнениа наказаний: теория i практика. –T.: 2011. – 296 s.
13. Mahkumlar huquqlari: xalqaro va milliy standartlar //F.X.Bakaeva va boshqalar. Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: 2011. -220 b.
14. Ismailov I., Yuldashev M., Mirzaraimov I. Jinoyat-ijroiya huquqi: Darslik. – Toshkent, 2010. – 148 b.
15. Zubarev, S. M. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo: kratkiy kurs lektsiy / S. M. Zubarev. — 7-e izd., pererab. i dop. — M. : Izdatelstvo Yurayt, 2013. — 186 s. — Seriya : Xochu vse sdat!

16. Malinin V.B., Smirnov L.B. Ugolovno-ispolnitelnoe pravo. Uchebnik dlya yuridicheskix vuzov i fakultetov. — M.: Mejdunarodnyy institut ekonomiki i prava, Yuridicheskaya firma «KONTRAKT», OOO «VOLTERS KLUVER», 2009. — 234 s.

17. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002y., 12-son.

18. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2010 yil 1 noyabrgacha bo'lgan o'zgartish va qo'shimchalar bilan). — T.: Adolat, 2010. — 396 b.

19. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. — T.: Adolat, 2006. — 183 b.

20. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir: yu.f.n., dots. B.J. Axrorov. — T.: O'qituvchi, 2002. — 208 b.

21. Jinoyat-ijroiya kodeksiga sharhlar. / M.H. Rustamboev, B.J. Axrorov va boshqalar. / Mas'ul muharrir: yu.f.d., prof. M.H. Rustamboev. — T.: TDYI, 2007. — 574 b.

22. G'.O. Ermatov. Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlari. — T.: TDYI nashriyoti, 2012. — 131 bet.

23. Axrorov B.J., Salayev N.S. Jinoyat-ijroiya huquqi. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: Niso Poligraf; Voris-nashriyot, 2012. — 240 b.

24. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 1 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida"gi 3641-sonli Farmoni

25. 2007 yil 11 iyulda qabul qilingan "O'lim jazosi bekor qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni

26. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2007 yil 14 noyabrdagi "Umrbod ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi 15-sonli Qarori (2008 yil 1 yanvardan boshlab qo'llaniladi).

27. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 13 martdagi PF-4094-sonli «O'zbekiston Respublikasida afv etishni amalga oshirish Nizomini qo'llash tartibi to'g'risida»gi Farmoni

28. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi Buyrug'i

- 29.2010 yil 27 dekabrda "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi Qonuni.
30. Bottoms, Anthony. 2001. *Compliance and community penalties*. In *Community Penalties. Change and Challenges*, edited by Anthony Bottoms, Loraine Gelsthorpe and Sue Rex. Willan Publishing. p. 87116.
31. Falck, Sturla, von Hofer, Hanns and Storgaard; Annette. 2003. *Nordic Criminal Statistics 1950–2000*. Department of Criminology. Stockholm University. Report 2003:3.
32. Garland, David. 2001. *The Culture of Control. Crime and Social Order in Contemporary Society*. The University of Chicago Press.
33. Greve, Vagn. 1995. *European Criminal Policy: Towards Universal Laws?*, in Jareborg, Nils (ed.) *Towards Universal Laws: Trends in National, European and International Lawmaking*, Uppsala, Sweden: Iustus, 1995.
34. Greve, Vagn. 2007. *Trends in Prison Law*. In *Festschrift in Honour of Raimo Lahti*, edited by Kimmo Nuotio. Publications of the Faculty of Law. University of Helsinki. 2007.
35. Hofer, Hanns von. 2003. *Prison populations as Political Constructs: The Case of Finland, Holland and Sweden*. *Journal of Scandinavian Studies in Criminology and Crime Prevention*, vol. 4:2138.
36. Lahti, Raimo. 2000 *Towards a Rational and Humane Criminal Policy – Trends in Scandinavian Penal Thinking*. *Journal of Scandinavian Studies in Criminology and Crime Prevention*. Vol 1 No 2/2000, p.141-155.
37. Lappi-Seppälä, Tapio. 2001. *Sentencing and Punishment in Finland: The Decline of the Repressive Ideal*. In *Punishment and Penal Systems in Western Countries*, edited by M. Tonry and R. Frase. New York: Oxford University Press.
38. Lappi-Seppälä, Tapio. 2008b. *Politics or Policy – Fluctuations in the Finnish Penal Policy*. In *Ikke kun straf... Festschrift til Vagn Greve*. Juris- og Økonomiforbundets Forlag. København 2008: 333-357.
39. Nuotio, Kimmo. 2003. *Reason for Maintaining the Diversity*, in Delmas-Marty, M., Giucidelli-Delage, G. & Lambert-Abdelgavad É. (eds.), *L'Harmonisation des Sanctions Pénales en Europe*, Société de Legislation Compare, Paris 2003.
40. Roberts, Julian V., Stalans, Loretta J., Indermaur, David and Hough Mike. 2003. *Penal Populism and Public Opinion. Lessons from five countries*. Oxford: Oxford University Press.
41. Tham, Henrik. 2001. *Law and order as a leftist project?* *Punishment & Society. The International Journal of Penology*, vol. 3. No. 3. Sage Publications, p. 409426.

